

2025-yil 2-son



# TURON SCIENCES

ILMIY JURNAL

TURON  
UNIVERSITY PRESS

**Bosh muharrir:**

Yoziyev Lutfullo Habibullayevich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Xalilova Dilbar Jalilovna

**Mas'ul kotib:**

Toshtemirov Farhod Shodiyevich

**Muharrirlar:**

Tilovova Muyassar Yo'ldosh qizi  
Nurmurotov Ilhom Bekmurod o'g'li

**Texnik muharrir:**

Qodirov Mirjalol Tolmasovich  
Abdusalomov Behruz O'ktam o'g'li

**Manzilimiz:**

Qarshi shahri, Nasaf ko'chasi, 1/4-uy

e-mail: [turon.science@gmail.com](mailto:turon.science@gmail.com)

Tel: +998(75) 220-00-25

**Jurnal 2024-yil 7-martda O'zbekiston  
Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
236670-sonli raqami bilan ro'yxatdan  
o'tgan**

**Tahrir hay'ati:**

Baxriddinova Bashorat  
Bobonazarov G'affor  
Boysunov Bobir  
Eshqorayeva Norxol  
Hamrayeva Yorqinoy  
Ismoilova Gulhayo  
Jumayev Tursunali  
Juraqobilova Hamida  
Kamolov Luqmon  
Mo'minova Saodat  
Nuriddinov Shahobiddin  
Nurillayeva Shahlo  
Oripova Nodima  
Ostonov Akmal  
Pardayev Asror  
Qayumova Nasiba  
Qo'yliyev Bahrom  
Qurbonov Pahlavon  
Qurbonov Parada  
Rahmatullayev Yorqin  
Rajabov Qahramon  
Raxmonov Faxriddin  
Ro'ziyev Baxtiyor  
Samatova Shohista  
Soatov Asadulloh  
To'xtayeva Ra'no  
Tojiyeva Gulbahor  
Xaitova Yulduz  
Yaxshiyeva Zebo  
Yoziyev G'olibjon  
Yoziyeva Umida  
Shaymanova Adiba  
Shodmonov Nafas  
Shoimqulov Bahodir  
Choriyev Sanjar

## MUNDARIJA

<b>Yoziyev L.X.</b> Fidoyi ustoz.....	<b>3</b>
<b>BIOLOGIYA</b>	
<b>Buriyeva X., Arabova N.</b> Haqiqiy arilari (vespidae): taksonomiyasi, bioekologik xususiyatlari va tarqalishi bo'yicha adabiyotlar tahlili.....	<b>5</b>
<b>Jumaqulova G., Husanova E.</b> Biostimulyatorlarning organizmdagi ahamiyati.....	<b>13</b>
<b>Jalilova H., Ibodullayeva S.</b> Ayrim manzarali kserofitlarning qarshi vohasi sharoitida bioekologik xususiyatlari .....	<b>17</b>
<b>Olimova Sh., Ibodullayeva S.</b> Qarshi vohasiga introduksiya qilingan <i>Pyracantha M.Roem.</i> turkumi vakillarining fenologiyasi .....	<b>22</b>
<b>Rabbimova Z., Choriyeva K.</b> <i>Nerium oleander L.</i> ning ahamiyati va navlarining Qarshi vohasiga introduksiyasi istiqbollari.....	<b>26</b>
<b>Xujaqulova F.</b> Qarshi vohasi sharoitida gemerokallis navlarini introduksiyasi natijalari.....	<b>31</b>
<b>FALSAFA</b>	
<b>Djurayev L.</b> Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida yoshlar iqtisodiy tafakkur madaniyatining transformatsiyalashuvi .....	<b>38</b>
<b>FILOLOGIYA</b>	
<b>Bahronova D., Virna Velazquez Vilchis</b> Zoomorf metaforalarning konseptual-semantik xususiyatlari .....	<b>44</b>
<b>Kenjayeva Z.</b> Alisher Navoiyning "Xamsa" asarida vaqt-zamon semasini ifodalovchi leksik birliklar.....	<b>51</b>
<b>Raxmatova Sh.</b> Nuriddin Egamov she'riyatida frazeologizmlarning qo'llanilishi.....	<b>57</b>
<b>Xamrayeva M., Avazov J.</b> Ingliz, nemis va o'zbek tillarida evidensiallik kategoriyasining semantik tahlili.....	<b>60</b>
<b>Amirkulov E.</b> The translation of neologisms, its problems and relevance in Simultaneous interpretation.....	<b>64</b>
<b>Po'latov A.</b> Ingliz va o'zbek tillarida sezgi fe'llarining aspektual tahlili.....	<b>69</b>
<b>Григорева М.</b> Концепт "дом" в художественном тексте: лингвокультурологический анализ произведений русских и узбекских писателей.....	<b>76</b>
<b>Дилмуродова М.</b> Понятие экзотизмов в сопоставительной лингвистике.....	<b>82</b>
<b>IQTISODIYOT</b>	
<b>Ostanov A. Ergashev K.</b> Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlashning strategik omili .....	<b>87</b>
<b>Yuldoshev O.</b> "Yagona raqamli valyuta" konsepsiyasi.....	<b>92</b>
<b>PEDAGOGIKA</b>	
<b>Xaitova Y.</b> "Soft skills" ko'nikmalarining zamonaviy ta'limdagi ahamiyati va uni talabalarda shakllantirish yo'llari.....	<b>102</b>
<b>Qodirov M.</b> Talabalarni gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari.....	<b>107</b>

<b>Ruziyeva G.</b> O'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish texnologiyalari.....	<b>113</b>
<b>PSIXOLOGIYA</b>	
<b>Jumayeva G.</b> Zamonaviy jamiyatda stress: sabablari, turlari va samarali yechimlar .....	<b>119</b>
<b>TARIX</b>	
<b>Rajabov Q.</b> Turon atamasi hamda turonchilik tushunchasining zamonaviy talqini.....	<b>124</b>
<b>Jamolova D.</b> Buxoroda gidlik va turizm: shaharning tarixiy merosiga nazar (somoniyalar maqbarasi misolida).....	<b>137</b>
<b>TRANSPORT VA KOMMUNIKATSIYA</b>	
<b>Azimov H.</b> O'zbekistonning transport koridorlarini rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlari, Markaziy Osiyoda transport koridorlarini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar	<b>141</b>

**FIDOYI USTOZ*****Yoziyev Lutfulla Xabibullayevich****Turon universiteti rektori*

XXI asr – yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar asri. Bunday avlodni tarbiyalashda ustoz-murabbiylarning xizmati beqiyos.

Sharqda “muallimi soniy” nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Nasr Forobiy ijtimoiy pedagogik faoliyatda o‘qituvchi yetakchi o‘rin egallashini ta’kidlab, uning faoliyatini – jamiyatning kelajagi unga bog‘liq bo‘lgan hukmdor faoliyatiga qiyoslagan. Mutafakkir o‘zining “Aql to‘g‘risida” nomli risolasida axloqli odam egallashi lozim bo‘lgan o‘n ikki xislatni sanab o‘tadi. Inson barcha a‘zolarining mukammalligi, bilim olishga muhabbatli bo‘lishi, xotirasi baquvvat, zehni o‘tkir, so‘zlari aniq, fikri ravonligi, g‘ururli, vijdonli, adolatli, moddiy boylikka berilmasligi kabilar shular jumlasidandir. Shuningdek, Forobiy ustozlar haqida fikr bildirib, “ta’lim-tarbiya ahllari ham o‘z bilimlarining darajasiga qarab bir-birlaridan farq qiladilar, ortiq-kam bo‘ladilar. Ularning ba’zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo‘lmaydi, ba’zilarida esa bu quvvat kamroq bo‘ladi” deya ta’kidlaydi.

Sharq olimlaridan yana biri Abu Ali ibn Sino: “O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim” deya fikr bildirgan.

Alisher Navoiyning ta’kidlashicha, mudarris o‘ta bilimli, oqil, o‘zaro muloqot jarayonida xushmuomala, fikrlari dono va mantiqli, og‘ir, bosiq, axloqiy jihatdan hammaga namuna bo‘lishi muhimdir. Bu o‘sha jamiyatda ham hozirgi jamiyatimizda ham o‘qituvchiga qo‘yilgan yuksak talabdir.

Shu ma’noda, Turon universiteti G‘arb tillari kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Qurbonov Parda Axmedovich yuqorida ta’kidlangan talablarga to‘la javob bera oladigan fidoyi ustozdir.

Parda Ahmedovich hayot sahifalari yildan-yilga boyib, mukammallashib borgan insoniylik, vatanparvarlik singari g‘oyalarini yangi avlodga singdirishga, o‘tmish avlodlar yaratgan moddiy va ma’naviy merosini kelgusi avlod uchun avaylab asrashga undaydigan ibratli umrdir. “Qadr-qimmatini bilgan odam boshqalarning o‘zidan ko‘ra aqlliroq, ilmliroq va go‘zalroq bo‘lishidan cho‘chimaydi. U aslida boshqalardan ustunroq bo‘lsa ham hech qachon o‘zini yuqori tutmaydi” – degan edi buyuk riyozatchi tibbiyotshunos olim Rene Dekart.

Turon universiteti G‘arb tillari kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Qurbonov Parda Axmedovich 1965-yil 25-mayda Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida ziyoli oilasida tug‘ilgan. 1972-1982-yillari Kitob tumanidagi 42-sonli umumta’lim maktabni namunali xulq bilan tamomlab, 1985 –1990-yillar Toshkent davlat chet tillari pedagogika instituti “Ingliz tili” fakultetining kunduzgi bo‘limini tamomlagan.

Parda Qurbonov mehnat faoliyatini 1990-1997-yillarda Kitob tumanidagi Abdulla Qodiriy nomli umumiy o‘rta ta’lim maktabida ingliz tili fani o‘qituvchisi lavozomidan boshlagan. 1997-yildan 2015-yilgacha Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakultetining “Ingliz tili”, “Lingvistika”

kafedralarida o'qituvchi, katta o'qituvchi lavozimlarida, 2015–2022 yillarda “Fakultetlararo xorijiy tillar kafedrası” hamda “Ingliz tili va adabiyoti kafedrası” mudiri lavozimlarida ishlagan.

Qurbonov Parda Ahmedovich 2020-yil 7-yanvarda ilmiy rahbari – filologiya fanlari doktori, professor Xolbekov Muhammadjon Nurqosimovich rahbarligida Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi PhD.29.06.2019.4.Fil/Ped.83.01 raqamli ixtisoslashgan kengashda 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha “Bayron ijodida Sharq va sharqona motivlar tavsifi (qiyos va tarjima)” mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Tadqiqot natijalari 85 ta ilmiy amaliy anjumanda, jumladan 48 ta respublika, 15 ta xalqaro anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

2025-yilda Qurbonov Parda Axmedovich 10.00.06. – “Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik” ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvonini olgan. Shuningdek, Parda Qurbonov talabalarga dars berish bilan birgalikda 2001-yilda “Ingliz tili va informatsiya texnologiyalari” (English and information technology) bo'yicha Koreyada, 2008-yilda “Oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish” bo'yicha Angliyaning “East Angliya” universitetida, 2011-2012-yillarda ERASMUS MUNDUS va ERASMUS+ grantlari g'olibi bo'lib Slovakiyaning Konstantin falsafa universitetlarida stajirovkada bo'lgan.

Parda Ahmedovich G'arb tillari kafedrası mudirlik faoliyati jarayonida kafedraning zaruriy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanishiga ham o'z hissasini qo'shmoqda. Jumladan, “Bayron ijodida sharqona motivlar” nomli monografiya, “Ingliz va Amerika she'riyati”, “Jorj Gordon Bayron asarlari: “Kain”, “Manfred”, “Shilyon tutquni” poemalarining ingliz - rus - o'zbek tillaridagi qiyosiy - tipologik tahlili” mavzusidagi uslubiy qo'llanmalarini nashr ettirgan.

Ana shunday sharaflı, ezgu vazifalarni uddalay olgan, kuchli, o'z bilimi va iste'dodiga suyangan, kashf, ixtiro quvvati yuksak, jamiyat hayotiga dadil kirib borgan fidoyi ustozning sharaflı, zahmatli mehnati har qancha tahsinga, e'tirofga loyiq.

Parda Qurbonov 2023-yil 21-avgustdan Turon universiteti G'arb tillari kafedrası mudiri lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Mana, bir zumda dotsent Parda Axmedovich 60 yoshga to'libdi. Bu yosh, ayniqsa, olimlar uchun zabardast, kuchga to'lgan bir davr hisoblanadi. Muhtaram ustozning yetuk barkamol insonni tarbiyalash, komil axloqli qilish, uning ongi-shuurini o'zgartirish, ta'limda erkinlik, noan'anaviy texnologiyalarni joriy qilish, innovatsiyalar, mantiqiy fikrlash, nazariyani amaliyot bilan uyg'unlashtirish orqali komil insonlarni tarbiyalashdek sharaflı mehnatiga rivoj tilaymiz hamda Parda Axmedovichga buyuk Esxildek shijoatli umr (Esxil o'zining mashhur “Shoh Edip” asarini 90 yoshida yozgan) tilayman. Umringiz uzoq va sermazmun bo'lsin, yoshlarga bilim berishdek savobli ishda sirayam tolmang!

## HAQIQIY ARILARI (VESPIDAE): TAKSONOMIYASI, BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TARQALISHI BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

**Buriyeva X.P.**

*Qarshi davlat universiteti*

**Arabova N.Z.**

*Alfraganus Universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada haqiqiy arilar – Vespidae oilasi arilarining tarqalishi, bioekologik xususiyatlari, taksonomiyasi, ekosistemalardagi roli, ularning xo'jalikdagi ahamiyati kabi dunyo miqyosidagi ma'lumotlar xorijiy olimlar ishlari keltirilgan. Nearktikaning janubiy-g'arbiy qismida Euparagiinae kenja oilasining uncha katta bo'lmagan relik turlari uchraydigan 10 ortiq tur haqida ma'lumot berilgan. Vespinae kenja oilasining Palearktikada 3 avlodga mansub 30 turi, Mongoliyada esa 3 avlodga mansub 11 turi mavjud. Eumeninae kenja oilasining Palearktikada 71 avlodga mansub 887 turi, Mongoliyada esa 20 avlodga mansub 79 turi mavjud turlari haqida ma'lumotlar to'liq o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** haqiqiy arilar, vespidae oilasi, ekotizim barqarorligi, biologik xilma-xillik, fauna resurslari, biogeotsenoz, populyatsion dinamika, zararkunanda hasharotlar, oziqlanish strategiyalari, ekologik muvozanat, hasarotlar bioxilma-xilligi, geografik tarqalish, hasharotlar ekologiyasi, iqlim o'zgarishlari.

**Annotation.** This article presents the world-wide data on the distribution, bioecological characteristics, taxonomy, role in ecosystems, and economic importance of true wasps - the Vespidae family - as well as the works of foreign scientists. Information is provided on more than 10 species of a small relict group of the subfamily Euparagiinae, which occurs in the southwestern part of the Nearctic. The subfamily Vespinae has 30 species belonging to 3 genera in the Palearctic, and 11 species belonging to 3 genera in Mongolia. Information on the species of the subfamily Eumeninae, which has 887 species belonging to 71 genera in the Palearctic, and 79 species belonging to 20 genera in Mongolia, has been fully studied.

**Keywords:** true wasps, family Vespidae, ecosystem stability, biodiversity, faunal resources, biogeocenosis, population dynamics, insect pests, feeding strategies, ecological balance, pest biodiversity, geographical distribution, insect ecology, climate change.

**KIRISH.** Bugungi kunda global miqyosda atrof-muhitda yuz berayotgan keskin o'zgarishlar bir qator ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Insoniyat tomonidan tabiatning shiddat bilan o'zlashtirilishi natijasida evolyutsiya davomida shakllangan tabiiy biogeotsenozlar va ularning asosiy tarkibiy qismlari – o'simlik hamda hayvonot dunyosi vakillari inqirozga yuz tutmoqda. Bu holat biologik xilma-xillikning sezilarli darajada qisqarishiga va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Aholi sonining ortishi bilan birga antropogen omillar ta'siri kuchayib, atrof-muhitda jadal o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, biologik xilma-xillik va tabiiy resurslarning kamayishiga olib kelmoqda, xususan hayvonot dunyosiga oid resurslarning turlari va sonida ham o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Dunyo miqyosida ekotizimdagi muhim faunaviy guruhlardan biri bo'lgan sariq arilarning hozirgi holatini baholash, ularning turlar tarkibini o'rganish, tarqalish xususiyatlarini tahlil qilish, xo'jalikdagi foydasi yoki zararini aniqlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Haqiqiy arilar (Vespidae)

oilasi boshqa ko'plab hasharot oilalari kabi turlar xilma-xilligi va ekologik ahamiyati bilan pardaqanotlilar orasida muhim o'rin egallaydi. Turli geografik zonalarda bu oilaga mansub turlarning tarqalish hududlari, bioekologik xususiyatlari, sistematik o'rni va biogeotsenozlardagi funksional roli o'rganilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlariga va asalarichilik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xavfli zararkunandalar sifatida tanilgan vespida hasharotlarning (Vespidae oilasi) turlar tarkibini aniqlash, ularning tarqalish omillarini baholash, populyatsion dinamikasini o'rganish, ayniqsa o'simlik asosidagi oziqlanishga qanchalik darajada ixtisoslashganligini aniqlash, zararli va nisbatan zararsiz turlarni ajratib ko'rsatish maqsadida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilishi zarur bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Haqiqiy arilar (Vespidae) oilasi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar keng qamrovli bo'lib, ularning taksonomik tarkibi, ekologik funksiyasi, geografik tarqalishi va ijtimoiy xulq-atvori kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Ular orasida klassik zoologik asarlar, zamonaviy molekulyar fylogeniya yondashuvlariga asoslangan tadqiqotlar hamda mintaqaviy entomofauna bo'yicha kataloglar mavjud.

Dastlab, Berney va Pavlov (2001) tomonidan tayyorlangan "Животные. Иллюстрированная энциклопедия животных всего мира" asari haqiqiy arilarning umumiy zoologik tavsifini, ularning turli qit'alardagi turlari haqida vizual va faktografik ma'lumotlar taqdim etgan bo'lib, u Vespidae oilasi turlarining makrotarqalishini umumlashtirishga xizmat qilgan [1].

O'zbekiston entomofaunasini o'rganishga bag'ishlangan Azimov va muallifdoshlari (1993) asari respublikadagi Vespidae vakillarining morfologiyasi va yashash muhitlariga oid birlamchi dalillarni taqdim etadi [2]. Gilyarov (1984) esa umumiy entomologik tavsiflar doirasida Vespidae oilasining sinf ichidagi o'rni va morfologik belgilari haqida mukammal ilmiy tahlil bergan [3].

Vespidae oilasining biologik xilma-xilligi va ularning ekotizimdagi roli borasidagi amaliy tadqiqotlar ham muhim manba sifatida xizmat qilgan. Xususan, Santos va mualliflar (2007) tomonidan Braziliyada o'tkazilgan tadqiqot uch xil ekotizimdagi ijtimoiy arilar populyatsiyalarining tuzilishi va turlar sonini o'rganadi [4], Silveira va boshqalar (2012) esa Amazon o'rmonlarida lokal miqyosdagi xilma-xillikni tahlil qiladi [5]. Ushbu tadqiqotlar orqali ijtimoiy arilarning ekotizimdagi funksional ahamiyati va mikroekologik omillarga sezgirligi aniqlanadi.

Vespidae va unga yaqin oilalarning umumiy entomologik kataloglari, masalan, Lelej va Loktionov (2012) tomonidan Rossiya Uzoq Sharqidagi Pompilidae oilasiga oid katalog, shuningdek Aguiar va mualliflar (2013) tomonidan e'lon qilingan Hymenoptera tartibining yuqori darajadagi taksonomik ko'rinishini bergan nufuzli kataloglar orqali mukammal tahlil ta'minlandi [6][7].

Vespinae kenja oilasining ichki tuzilishi, ayniqsa *Paravespula* jinsining tarqalishi, uy qurish biologiyasi va sistematik holati bo'yicha Archer (2008) tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etadi [8]. Bu ish, Carpenter (1996) tomonidan *Polistes* jinsiga oid turlar ro'yxatini tuzish bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, haqiqiy arilarni aniqlash va ularning areallarini haritalashda asosiy metodologik manbaga aylangan [14].

Rossiyaning Uzoq Sharq mintaqasidagi Vespidae turlarini chuqur o'rganish maqsadida Kurzenko (2012) tomonidan tayyorlangan katalog mazkur hududning Vespidae faunasi haqida boy empirik ma'lumotlarni jamlaydi [9][13]. Bu kataloglar nafaqat sistematik, balki ekologik va biogeografik tafsilotlarni ham o'z ichiga oladi.

Prezoto va boshqalar (2007) tomonidan yozilgan “Entre mandíbulas e ferrões” nomli asar ijtimoiy arilarning xatti-harakatlari, ayniqsa tajovuzkorlik, ierarxik tuzilma va himoya xulq-atvori borasida nazariy asoslarni taqdim etgan bo‘lib, bu jihatlar ularning ekologik roli va odamlar bilan munosabatini tahlil qilishga yordam beradi [10].

Vespidae oilasining fylogenezini o‘rganishga bag‘ishlangan Carpenter (1991) ishi ularning evolyutsion tarixini, ijtimoiy xulq-atvor shakllanishining genetik va ekologik asoslarini ochib beradi [11]. Bu ish ijtimoiy arilarning zamonaviy sistematikasini to‘g‘ri tashkil etish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi zamonaviy va klassik manbalar bilan bir qatorda, tarixiy nuqtayi nazardan Kostylev (1935) tomonidan O‘rta Osiyo Vespidae vakillarining yangi va kam ma‘lum bo‘lgan turlari bo‘yicha olib borilgan ishlari hozirgi taksonomik tizimlarni qayta ko‘rib chiqishda ilmiy qimmatga ega [12].

Nihoyat, Richards (1978) tomonidan Amerikadagi ijtimoiy arilar (Vespinae dan tashqari) bo‘yicha tayyorlangan fundamental asar butun Yangi Dunyo arilarining xilma-xilligi, ekologik roli va tipik xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilgan [15].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Vespidae oilasi bo‘yicha mavjud bilimlar nafaqat zoologik va taksonomik jihatdan, balki ekologik, biogeografik va etologik yondashuvlar orqali boyitilgan. Har bir manba ushbu oilaning muayyan kenja oilasi yoki jinsiga oid chuqur ma‘lumotlar taqdim etgan bo‘lib, ular bugungi tadqiqotning nazariy va empirik asoslarini tashkil etadi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI** Mazkur tadqiqotda haqiqiy arilar – Vespidae oilasi vakillarining taksonomik tarkibi, tarqalish xususiyatlari va bioekologik ahamiyati bo‘yicha xorijiy olimlarning ishlariga asoslangan tahliliy va qiyosiy ilmiy yondashuv asosida izlanishlar olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

#### 1. Ma‘lumotlar to‘plash va tanlash mezonlari

Tadqiqot uchun xorijiy ilmiy maqolalar, zoologik monografiyalar, entomologik kataloglar va global hayvonot geografiyasi bo‘yicha nufuzli ilmiy nashrlardan foydalanildi. Xususan, Nearktika va Palearktika mintaqalari, shuningdek, Mongoliya geografiyasida uchraydigan Euparagiinae, Vespinae va Eumeninae kenja oilalariga mansub arilar turlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asos qilib olindi. Manbalar tanlashda ularning:

- ilmiy ishonchliligi;
- tur taksonomiyasi bo‘yicha aniqligi;
- bioekologik tavsiflari va geografik tarqalish doirasi asosiy mezon bo‘lib xizmat qildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Insoniyatning barqaror rivojlanishining asosiy shartlaridan biri – sayyoramizdagi tabiiy ekotizimlarning barcha komponentlarini saqlash va barqaror rivojlanishidir. Quruqlikdagi ekotizimlarning muhim qismlaridan biri Insecta sinfiga mansub hasharotlardir. Hasharotlar Yer yuzida eng keng tarqalgan va eng katta organizmlar guruhini tashkil etadi. Hozirgi kunda hasharotlar dunyo faunasining bir milliondan ortiq turini o‘z ichiga oladi. Ushbu turlar 949 oila va 29 turkumdan iborat [1; 524-624-6.]. Braziliyada hasharotlar bioxilma-xilligi dunyoda eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ma‘lum bo‘lgan barcha hasharotlarning 10%i ushbu davlatning oltita asosiy biomlarida uchraydi [4; 180-185-6.]. MDD mamlakatlaridagi hasharotlar turlarining tarkibi 670 mingdan ortiq bo‘lib, O‘zbekiston bioqenoziida esa ushbu hasharotlarning 15 mingga yaqin turi aniqlangan. [2; 340-6.].

Pardaqaotlilar (Hymenoptera) turkumi vakillari ham Yer yuzida keng tarqalgan bo'lib, dunyo faunasining 94 oila, 8423 avlodga mansub 155,5 ming turini o'z ichiga oladi [7; 51-62-6.]. Ehtimol, bu ko'rsatkich 250-300 ming turga yetishi mumkin [8; 5-29-6.]. Lelyejning fikriga ko'ra, Hymenoptera turkumiga mansub Palearktika turlari 50-60 mingni tashkil etadi. Rossiyada bu turkumning 78 oila, 1500 avlodga mansub 15 000 turi qayd etilgan [6; 407-414-6.].

O'z navbatida, hasharotlar sinfiga kiruvchi Vespidae vakillari tur soni jihatidan pardaqaotli hasharotlar turkumidagi eng katta oila hisoblanadi. Bu oila vakillari xulq-atvori bilan ajralib turuvchi yakka turlaridan tortib, jamoa bo'lib yashovchi turlarga ajratiladi [186; 43-45-6.]. Ular haqiqiy arilar (Vespidae) oilasiga mansub bo'lib, dunyo faunasida 6 kenja oila, 256 avlodga mansub 5274 turi ma'lum [9; 423-6.]. Ilgari ular 3 ta, jamoa yoki qovoqarilar (Vespidae), gul arilar (Masaridae) va eumini (Eumenidae) kenja oilalarga birlashtirilgan. Bugungi kunda barcha haqiqiy arilar Vespidae oilasiga mansub Euparagiinae, Masarinae, Eumeninae, Stenogastrinae, Vespinae va Polistinae kenja oilalariga birlashtirilgan [9; 423-6.]. Ushbu kenja oilaning dastlabki uchta guruhi faqat yakka tartibda yashovchi hasharotlar, keyingi uchtasi esa jamoa bo'lib yashovchi arilar hisoblanadi. Rossiya hayvonot dunyosining bu oilasiga mansub Eumeninae, Masarinae, Polistinae va Vespinae kenja oilalari tashkil etadi.

Nearktikaning janubiy-g'arbiy qismida Euparagiinae kenja oilasining uncha katta bo'lmagan relik guruh uchraydi. Bu relik guruh Shimoliy Amerikaning janubiy-sharqiy qismida uchraydigan yagona zamonaviy Euparagia (Cresson, 1879) avlodiga mansub bo'lib, 10 turini o'z ichiga oladi. Euparagia (Cresson, 1879) avlodi *Odynerus* avlodiga yaqin turadi [10; 43-45-6.]. Shuningdek, Nearktikaning janubiy-g'arbiy qismi, Sharqiy Osiyo va Avstraliya viloyatlarida Vespidae oilasining Stenogastrinae kenja oilasiga mansub taxminan 50 turi tarqalgan. Palearktikada 81 avlodga mansub 1046 tur, Rossiyada esa bugungi kunda 31 avlodga mansub 147 turi uchraydi.

Masarinae kenja oilasining dunyo bo'ylab 16 avlodga mansub 297 turi mavjud. Palearktikada 5 avlod, 104 tur, Mongoliyada esa 2 turi – *Celonites kozlovi* Kostylev, 1935 va *Quartinia mongolica* Morawitz, 1889 uchraydi [12; 117-146-6.]. Ushbu kenja oila 2 ta tribaga bo'linadi: Gayellini neotropikda yashovchi 2 avlodga mansub 10 turini o'z ichiga oladi. Ular issiq quruq Palearktika, Afrotropikada keng tarqalgan. Rossiyada gul arilari janubiy Evropa qismida, Kavkaz va O'rta Osiyoda uchraydi.

Vespinae kenja oilasining Palearktikada 3 avlodga mansub 30 turi, Mongoliyada esa 3 avlodga mansub 11 turi mavjud. Eumeninae kenja oilasining Palearktikada 71 avlodga mansub 887 turi, Mongoliyada esa 20 avlodga mansub 79 turi mavjud. Polistinae kenja oilasining Palearktikada 2 avlodga mansub 25 turi, Mongoliyada esa *Polistes* avlodiga mansub 8 turi uchraydi. Polistinae lar ijtimoiy arilar orasida eng ko'p tarqalgan hisoblanadi. Polistinae kenja oila 26 avlodga mansub 985 turdan iborat bo'lib, neotropik viloyatlarda keng tarqalgan. *Polistes* (Vespidae: Polistinae) avlodiga mansub hasharotlar haqiqiy arilar orasida eng ko'p tarqalgan turlardir. Bular Antarktidadan tashqari barcha biogeografik hududlarda tarqalgan 222 turi bilan kosmopolit avlodlar hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi tropik mamlakatlarda uchraydi [14; 1-39-6.]. Ushbu hasharotlar barcha joyda tarqalganligi va bioxilma-xilligi hamda boshqa organizmlar bilan o'zaro aloqalari tufayli neotropik ekotizimning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Shu sababli, Neotropik haqiqiy arilar faunasi va bioxilma-xillikka boy hudud hisoblanadi. O'zbekistonda haqiqiy arilar (Vespidae) bilan bog'liq faunistik tadqiqotlar 1984–2015 yillarda amalga oshirilgan. Jumladan, o'tgan asrning 70–90 yillarida N.V. Kurzenko (1977) Eumenidae

(Hymenoptera: Vespoidae:), A.G. Davletshina (1979), Kulumbetova (1999) tomonidan *Vespula germanica*, *Vespa orientalis*, *Eumenes laeri* turlar uchrashi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Romankov, L. Kastro, L. Dvoraklar tomonidan *Polistes dominula* (Christ, 1791) turi Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir hududlarida, Toshkent viloyatining Yangiobod hududida qayd qilingan. O'zbekistonda ilk bor *Antepipona barrei* (Radoszkowski, 1893), Surxondaryo viloyatining Bobotog', *Antepipona deflenda* (Gusenleitner, 1972) 1994 yilda Qashqadaryo viloyatining Hozor tumani, Kaltako'l hududlari, *Antepipona specifica* (Morawitz, 1895) 2003 yilda Toshkent viloyatining Chinoz tumanida uchrashi qayd qilingan. Van der Wecht va Fisher (1972) hamda Gusenleitner (1986) tomonidan *Antepipona tekensis* (Kostylev, 1935) O'zbekiston hududida kamdan kam holatda uchrashi o'rganilgan. huningdek, *Katamenes sichelii tauriae* (Giordani Soika, 1960) Buxoro viloyati Kasokar hududida, *Paragymnomerus spiricornis turanicus* (Kostylev, 1940) Samarqand viloyatining Urgut tumanida, *Stenodynerus chitgarensis* (Giordani Soika, 1970) Qashqadaryo viloyatining Hisor tumani va Kaltako'l hududlarida kamdan kam hollarda qayd etilgan. 2014 yilda Rossiya-O'zbekiston hamkorlik ekspeditsiyasida Rossiyaning Nijniy Novgorod davlat universiteti olimlari M.V. Mokrousov, V.A. Zryanin va Qarshi davlat universiteti T.U. Raximovlar tomonidan yig'ilgan namunalari asosida amalga oshirilgan. Bunda *Vespa orientalis* (Linnaeus, 1771) namunalari Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri, Nishon, G'uzor tumanlari; Surxondaryo viloyatining Surxondaryo tumanidan, *Vespula germanica* (Fabricius, 1793) Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri, Koson tumani, *Polistes (Gyrostoma) wattii* (Cameron, 1900) Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri, Surxondaryo viloyatining Surxondaryo tumani, *Polistes (s.str.) gallicus* (Linnaeus, 1767) Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri, Surxondaryo viloyatining Termiz tumani va *Eumenes mediterraneus* (Kriechbaumer, 1879) Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridan yig'ilgan. D.B. Daminova, A.Sh. Xamraevlarning Nurota qo'riqxonasi va qo'riqxonaga yon atrofi hududlarida olib borilgan ekspeditsiyalari asosida *Vespa crabro* L., *Vespa orientalis* L., *Paravespula germanica* L., *Paravespula vulgaris* L., *Paravespula rufa* L., *Paravespula gallicus* L., *Eumenes mediterraneus* Krb., *Eumenes pomiformis* L., *Odinerus melanocephalus* Blüthgen, *Delta unguiculata* Will, *Pterocheilus crabroniformis* F. Mor. turlar uchrashi qayd etilgan. Haqiqiy arilar (Vespidae) Hymenoptera turkumiga kiruvchi xilma-xil turlarga mansub oila vakillari hisoblanadi. *Vespidae* oilasi bu o'rtacha kattalikdagi hasharotlar bo'lib, kamdan-kam hollarda kichik (2,5 mm) yoki katta (50 mm) ko'rinishda uchraydi. Hayot tarziga ko'ra yuqorida qayd etilganidek oilada haqiqiy arilar (*Vespinae*, *Polistinae*), yakka arilar (*Eumeninae*, *Masarinae*) va ijtimoiy yakka (*Stenogastrinae*) guruhlar bilan bir qatorda dastlabki *Euparagiinae* oilasi uchraydi.

Haqiqiy arilar hasharotlarning xulq-atvorini o'rganishda muhim obyekt ham hisoblanadi. Yakka arilarni kuzatish murakkab, lekin stereotipik xulq-atvor modellarini namoyish etadi, ularni tasvirlash va tahlil qilish oson, ijtimoiy arilar esa boshqa har qanday hasharotlar guruhiga qaraganda ijtimoiy evolyutsiyasini ko'rsatib bera oladi.

Arilar yakka yashovchanlikdan tortib jamoa bo'lib yashaydigan, turli xulq-atvoriga ega pardaqanotlilar hisoblanadi. Arilarda moslanuvchanlik xususiyatlari bo'lib, ular joylariga katta zahira manbai bilan qaytadilar yoki oziqlanishda oziq mahsulotini optimallashtirish va uni qidiruv ishlarini qisqartiradilar. Arilar sayyoramiz bioxilma-xilligini asosiy tarkibiy qismlaridan bo'lib, inson ekologiyasida muhim hayotiy o'rin egallaydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, dunyodagi jami oziq-ovqatning uchdan bir qismi arilarning changlantirishiga bog'liq.

Bir necha mualliflar *Polistes*ning ahamiyatini ta'kidlab, qishloq xo'jaligi ekinlarining vabo tarqatuvchi hasharotlar sonini, iqtisodiy ahamiyatini va ularning koloniyalarini manipulyatsiya qilish va sun'iy uyalariga ko'chirish imkoniyatlarini tartibga solishini ko'rsatganlar. Umuman olganda, ari bir nechta ekologik funksiyalarni bajaradi. Ekologik vazifalar orasida tabiiy kushanda, ya'ni yirtqich sifatida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan hasharotlar populyatsiyasini tartibga solishda, insektitsidlardan foydalanishni kamaytirib, tabiiy biologik nazoratdagi jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ular atrof-muhitda mavjud bo'lgan suv (koloniyani sovutish uchun ishlatiladi), o'simlik tolalari (koloniyani saqlash va qurilish ishlarida), nektar va gul changlari (boy energiya manbai), o'lja (voyaga yetmaganlarni boqishda) kabi manbalardan foydalanadilar. Bundan tashqari gullarni changlatib, qishloq xo'jaligi hosildorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Haqiqiy arilarni o'rganish, asosan koloniya ichidagi urg'ochilar, malikalar va ishchi qatlamlarni ko'paytirish hamda saqlash jarayonlariga asoslanadi. Erkak arilar, odatda, uya ichida qoladigan bo'lsa-da, ular muhim biologik ahamiyat kasb etadi. Urg'ochilar ko'pincha erkak arilarga tajovuzkorlik bilan munosabatda bo'lishadi, va ayrim hollarda uyalardan quvib chiqariladi. Koloniyada oziq-ovqat sarfini kamaytirish maqsadida erkaklar soni kamaytiriladi va oziqlanish balansi o'zgartiriladi. Neotropik hududlarda yashovchi Epiponini qabilasiga mansub arilar koloniya tark etishini bir nechta malikalar mavjud bo'lganda amalga oshiradi. Pardaqaotli hasharotlarda turli xil ko'payish strategiyalari kuzatiladi. Vespinae va Polistinae kenja oilalari vakillari mustaqil koloniya asoschilar sifatida harakat qiladilar; bu urg'ochilar tomonidan chiqarilgan jinsiy feromonlar erkaklarni jalb qiladi va ma'lum hududlarda ko'payish sodir bo'ladi. Ko'plab turlarda erkaklar o'z hududini belgilaydi yoki uchayotgan urg'ochilarni jalb qilish uchun qorin qismini ma'lum substratga ishqalab, tashqi bezlaridan feromonlar chiqaradi. Haqiqiy arilar oilasiga mansub erkak individlar, urg'ochilariga nisbatan, uya hududini erta tark etib, tashqi muhitga tezroq chiqadi. *A. nigricornis* turining Yevropa va Qrimdagi kuzatuvlari yil davomida bir necha avlod hosil qilishi mumkinligini ko'rsatgan. Biroq, boshqa ko'plab turlar esa uya ichida g'umbak oldi bosqichida diapauzaga kiradi. Shu sababli, Eumeninae kenja oilasiga mansub yakka arilar mavsum davomida bir yoki ikki avlod yetishtiradi. Vespidae oilasiga kiruvchi yakka arilarning uchish fenologiyasiga oid tadqiqotlar hali yetarli darajada o'rganilmagan. Shunga qaramay, turli tuman turlarga oid uyalar qurilishi, biologik xususiyatlar va son jihatidan fauna tadqiqotlari mualliflar tomonidan keltirilgan. Haqiqiy arilar uchish davrining mavsumiy dinamikasini o'rganish, ayniqsa hududlararo solishtirishlarda katta ahamiyatga ega. Bir xil turga mansub arilar har xil ekologik sharoitda farqli avlodlar sonini berishi mumkin. Masalan, *Ancistrocerus antilope* (Panzer) Shimoliy Amerikada ikki avlod yetishtiradi, Yevropada esa faqat bitta avlod qayd etilgan. *Discoelius dufourii* Lepeletier turining hayot aylanishi Fransiyada va Litvada bitta avlod bilan cheklanadi, biroq Qrim sharoitida ikki avlod yetishtirishi aniqlangan. Hududga xos iqlimiy farqlar ushbu tur vakillarining generatsiya soniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Misol tariqasida, *Vespula germanica* (Fabricius, 1793) – nemis arisi o'z tabiiy yashash arealida, ya'ni mo'tadil iqlim zonalarida, qishki diapauzaga kiradi. Biroq, iliq va tropik mintaqalarda bu turning yil davomida uzluksiz rivojlanishi mumkinligi kuzatilgan.



1-rasm. Vespidae vakillari

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бёрни Д., Павлов Д.С. Животные Иллюстрированная энциклопедия животных всего мира. Лондон, 2001, – С. 524 – 624.
2. Азимов Д.А., Бекузин А.А., Давлетшина А.Г., Кадырова М.К. Насекомые Узбекистана – Тошкент.: Фан АН РУз, 1993. –340 с.
3. Гиляров М.С. Класс Открыточелюстные, или Настоящие насекомые (Insecta – Ectognatha) Жизнь животных. – Москва: Просвещение, 1984. Том 3. – С. 126–171.
4. Santos, G.M.M., Bichara, F.C.C., Resende, J.J., Cruz, J.D. & Marques, O.M. (2007). Diversity and community structure of social wasps (Hymenoptera: Vespidae) in three ecosystems in Itaparica Island, Bahia State, Brazil // Neotropical Entomology, 36: – P. 180–185
5. Silveira, O.T., Silva, S.S., Pereira, J.L.G. & Tavares, I.S. (2012). Local-scale spatial variation in diversity of social wasps in an Amazonian rain forest in Caxiuanã, Pará, Brazil (Hymenoptera, Vespidae, Polistinae) // Revista Brasileira de Entomologia 56: – P. 329–346.
6. Lelej A.S. and Loktionov V.M. (2012). Family Pompilidae (Psammocharide) – Spider wasps // Annotated Catalogue of the Insects of Russian Far East.Vol. I. Hymenoptera. Dalnauka, Vladivostok: – P. 407–414.
7. Aguiar A.P., Deans A.R., Engel M.S., Forshage M., Huber J.T., Jennings J.T., Johnson N.F., Lelej A.S., Longino J.T., Lohrmann V., Mikó I., Ohl M., Rasmussen C., Taeger A. and Yu D.S.K. (2013). Order Hymenoptera. // Animal Biodiversity: An Outline of Higher-level Classification and Survey of Taxonomic Richness. Zootaxa, 3703: –P. 51–62.
8. Archer M.E. (2008a). Taxonomy, distribution and nesting biology of the species of the genus *Paravespula* or the *Vespula vulgaris* species group (Hymenoptera: Vespidae) // Entomologist's monthly magazine. -- V. 144. – P. 5–29.
9. Курзенко Н.В., Семейство Vespidae – складчатокрылые осы. Аннотированный каталог насекомых Дальнего Востока России. – Перепончатокрылые Т.1. – Владивосток : Дальнаука, 2012. – 423 с.
10. Prezoto F., Sabino J. Giannotti E. & Nascimento F.S. (2007). Entre mandíbulas e ferrões: O estudo do comportamento de vespas. // As distintas faces do comportamento animal Campo Grande: UNIDERP. – P. 43–45.

11. Carpenter J.M. (1991). Phylogenetic relationships and the origin of social behavior in the Vespidae // *The Social Biology of Wasps* Ithaca, New York: Cornell University Press, – P. 7–32.
12. Костылев Ю.А. Новые и малоизвестные среднеазиатские виды сем.Vespidae (Hym.) // Сб. тр. гос. Зоомузея МГУ. – 1935а. – № 1. – С. 117–146.
13. Курзенко Н.В., Семейство Vespidae – складчатокрылые осы. Аннотированный каталог насекомых Дальнего Востока России. – Перепончатокрылые Т.І. – Владивосток : Дальнаука, 2012. – 423 с.
14. Carpenter J.M. (1996). Distributional checklist of species of the genus *Polistes* Hymenoptera: Vespidae; Polistinae, Polistini) // *Am. Mus. Novitat.* – V. 3188. – P. 1–39.-100
15. Richards, O.W. (1978). *The social wasps of the Americas, excluding the Vespinae.* London: British Museum (Natural History). –580 p.-56

## BIOSTIMULYATORLARNING ORGANIZMDAGI AHAMIYATI

**Jumaqulova Go'zal Sayfiddin qizi**

*Turon universiteti o'qituvchisi*

**Husanova Ezoza Hamza qizi,**

*Turon universiteti magistri*

**Annotatsiya.** *Immunostimulyatorlar tanaga umumiy mustahkamlovchi ta'sir ko'rsatadigan, hayvonning immune sistemasining hujayrali, gumoral reaksiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan veterinariya preparatlarining maxsus guruhidir. Bunday holda, ma'lum bir immunitet stimulyatori immunitetning u yoki bu sohasiga tanlab ta'sir qiladi. Ushbu dorilar yordamida turli virusli va yuqumli kasalliklarning oldini olish, to'qimalarning yangilanishini rag'batlantirish, zaiflashgan hayvonlarni emlash samaradorligini oshirish mumkin. Immunostimulyatorlar yoki biogen stimulyatorlar, biologik kelib chiqadigan stimulyatorlar (tibbiyot), hayvonlar va o'simliklar to'qimalarida ma'lum sharoitlarda hosil bo'lgan va biologik faollikka ega bo'lgan moddalar. Biostimulyatorlar inson tanasining funktsiyalariga nonspesifik ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** *immunostimulyator, biogen stimulyator, virus, immunitet, aloe ekstrakti, azot.*

**Annotation.** *Immunostimulants are a special group of veterinary drugs that have a general strengthening effect on the body and have a direct effect on the cellular and humoral reactions of the animal's immune system. In this case, a certain immune stimulant selectively affects one or another area of the immune system. With the help of these drugs, it is possible to prevent various viral and infectious diseases, stimulate tissue regeneration, and increase the effectiveness of vaccination of weakened animals. Immunostimulants or biogenic stimulants, stimulants of biological origin (medicine), substances that are formed under certain conditions in the tissues of animals and plants and have biological activity. Biostimulants have a nonspecific stimulating effect on the functions of the human body.*

**Key words:** *immunostimulant, biogenic stimulant, virus, immunity, aloe extract, nitrogen.*

**KIRISH.** Biogen stimulyatorlar (yunoncha – “Bios” – hayot, “gennao” - tug'aman, yarataman, qilaman; sinonimlari: biostimulyatorlar, biologik kelib chiqish stimulyatorlari, to'qimalarni saqlovchi mahsulotlar) – o'simlik va hayvonlarning alohida to'qimalarida hosil bo'ladigan biologik faol moddalar. Ularning noqulay muhit sharoitlariga moslashishi. Ular tanaga kiritilganda ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga va regeneratsiya jarayonlarini tezlashtirishga qodir. Biogen stimulyatorlar tirik organizmda noqulay sharoitlarga moslashish jarayonida ham hosil bo'ladi: yallig'lanish jarayonlari, jarohatlar, nurlanish va boshqalar [3].

Tananing regenerativ va himoya funktsiyalarini faollashtiruvchi sifatida biogen stimulyatorlar ta'limotining asoschisi akademik V.P. Filatov. Kislota fraktsiyasida trikarboksilik va dikarboksilik kislotalar, shuningdek, gidroksi kislotalar, polifenol guruhlari bo'lgan humik kislotalar, to'yinmagan aromatik va fenolik kislotalar aniqlandi. Yetakchi rol, ehtimol, dikarboksilik kislotalarga tegishli, chunki limon, molik, tartarik va suksin kislotalari ustun bo'lgan ekstraktlar eng samarali hisoblanadi. Azot o'z ichiga olgan moddalardan ammiak va arginin biogen stimulyator sifatida faol bo'lib, fosforning adenil tizimiga o'tishiga yordam beradi. To'qimalar ekstraktining samaradorligi ular tarkibidagi mikroelementlar bilan ham belgilanadi. Biogen

stimulyatorlarni o'z ichiga olgan preparatlarga aloe ekstrakti, sharbat va liniment, peloidin, FIBS, torf, polibiolin, shishasimon, plasenta ekstrakti va boshqalar kiradi [7].

Chorvachilik qishloq xo'jaligining strategik muhim tarmoqlaridan biridir. Sigir beradigan sut, sut mahsulotlariga qayta ishlanadi, masalan, sariyog'- energiya manbai va yog'da eriydigan vitaminlar, kefir - foydali laktobakteriyalar va oson hazm bo'ladigan sut oqsili, pishloq - oqsil, kalsiy va boshqalar manbai. Aholining sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish va importga qaram bo'lmaslik uchun sigirlarning sut mahsuldorligini oshirish zarur. Bu masalada asosiy rol ovqatlanishga beriladi [9]. Mahalliy ozuqa ta'minoti sut chorvachiligi ehtiyojlari uchun yetarli miqdordagi ozuqaga ega, ammo hayvonlarga zamonaviy yuqori talablar va ularning organizmiga stress omillarining ta'sirining yuqori darajasi bilan ozuqa qo'shimchalarisiz buni amalga oshirish mumkin emas. Ozuqa qo'shimchalarining ijobiy xususiyatlari ko'pchilikka ma'lum. Chorvachilikda ko'p yillardan buyon turli mineral, vitamin, oqsil qo'shimchalari, biostimulyatorlar va boshqalar qo'llanilmoqda [10]. Bu borada biologik faol xususiyatlarga ega bo'lgan ozuqa qo'shimchalari (vitaminlar, minerallar, tabiiy birikmalar, masalan, gumin kislotalari va boshqalar) ayniqsa qimmatlidir, ular nafaqat hayvonlarning ovqatlanishini etishmayotgan ozuqa moddalari bilan to'ldiradi, balki metabolik jarayonlarning faollashtiruvchisi sifatida ham xizmat qiladi. butun tanaga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi [8].

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Biogen stimulyatorlar – bu makroorganizmning turli tizimlari va organlariga ko'p qirrali ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadigan hayvonlar va o'simliklarning biologik faol moddalari. Biogen stimulyatorlar fito va zooorganizmlarda bir qancha noqulay tashqi ta'sirlarga (harorat, yorug'lik va rentgen nurlanishi, zaharli moddalar ta'siri va boshqalar) javob sifatida hosil bo'ladi [5,4]. Biogen stimulyatorlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan ekologik omillar har xil bo'lishi mumkin. Organizmdan ajratilgan hayvon to'qimalarida biogen stimulyatorlarning paydo bo'lishiga hissa qo'shadigan omillardan eng ko'p o'rganilgani ularning nisbatan past haroratda (noldan 2-4 ° C yuqori) saqlanishi, o'simlik barglariga nisbatan esa - ularning saqlanishi. Boshqa omillarni (kimyoviy moddalar, ko'tarilgan harorat, nurlanish energiyasi va boshqalar) o'rganish davom etmoqda. Butun hayvon organizmida biogen stimulyatorlarning paydo bo'lishiga yordam beruvchi omillar orasida travmatik shikastlanishlar, rentgen va ultrabinafsha nurlar ta'siri, ayrim moddalarning toksik dozalari ta'siri o'rganilgan. Rentgen nurlari bilan nurlantirilganda butun o'simlik organizmlarida biogen stimulyatorlarning paydo bo'lishi aniqlangan. Bundan tashqari, biogen stimulyatorlarning paydo bo'lishi ham ma'lum fiziologik sharoitlarda, masalan, mushak ishi paytida mumkin. Biogen stimulyatorlar xom ashyoni sovuq yoki issiq suv bilan quyish yoki bug' distillash orqali olinadi (biogen stimulyatorlar suvda yaxshi eriydi va issiqqa chidamli) [1].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Biogen stimulyatorlarning kimyoviy tabiati yetarlicha o'rganilmagan. Qoida tariqasida, ular murakkab moddalar majmuasini ifodalaydi. To'qima preparatlaridagi biogen stimulyatorlarning sifat va miqdoriy tarkibi o'zgaruvchan va qisman to'qimalarning o'ziga xos metabolizmiga bog'liq. Eng biologik faollari - alifatik qatordagi dikarboksilik gidroksi kislotalar, katta molekulyar og'irlikdagi aromatik kislotalar, aminokislotalar, xumik birikmalar, fosfolipidlar, vitaminlar va mikroelementlar [6].

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Biogen stimulyatorlarning biologik faolligi ularning organizmdagi metabolik jarayonlarni faollashtirish qobiliyati bilan baholanadi. O'simlik va hayvon to'qimalaridan olingan biogen stimulyatorlar va dorivor loy (peloidlar) va torfdan ajratilgan biogen stimulyatorlar mavjud. Biogen stimulyatorlarning farmakodinamikasi metabolik

bo'lganlarning intensivligining oshishi bilan belgilanadi, shu jumladan. bioenergetik jarayonlar, bir qator fermentlarning faolligiga ta'sir qilish natijasida. Ko'pgina biogen stimulyatorlarning ta'siri o'ziga xos emas. Ular metabolik va regenerativ jarayonlarni rag'batlantirish, shuningdek, tananing qarshiligini oshirish uchun buyuriladi. Biogen stimulyatorlar - bu organizmning atrof-muhitning salbiy ta'siriga qarshi himoya va chidamli xususiyatlarini oshiradigan moddalar [2].

Ular bir qator fermentlarning faolligini o'zgartiradi, metabolizmning asosiy turlariga (uglevod, oqsil, yog') ta'sir qiladi va organizm hujayralarining oziqlanishini oshiradi, shu jumladan, to'qimalarga kislorod yetkazib berishni oshiradi. Preparatlar murakkab tarkibga ega va ularning ta'sir qilish mexanizmi to'liq tushunilmagan. Tibbiyotda biogen stimulyatorlar ko'zning to'r pardasi, shox pardaning shikastlanishi, ko'rish nervining atrofiyasi va shishasimon xiralashishi uchun oftalmologik amaliyotda qo'llanilishini topdi. Jarrohlik amaliyotida u suyak sinishi, uzoq muddatli davolanmaydigan yaralar va yaralarda regeneratsiyani kuchaytirish, to'qimalarning chandiqlari va operatsiyadan keyingi yopishqoqliklarning rezorbsiyasini tezlashtirish uchun ishlatiladi. Ular surunkali yallig'lanish kasalliklari uchun qo'llaniladi: artrit, radikulit, miyazit, miyalji, shuningdek, ginekologik amaliyotida va boshqalar.

**XULOSA.** Shuning uchun chorvachilikni rivojlantirishning zaruriy sharti hayvon tanasining barcha ozuqaviy elementlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan barqaror ozuqa ta'minoti bo'lishi kerak. Buning uchun hayvonlar immun tizimiga bevosita ta'sir qiluvchi biostimulyatorlar ishlab chiqarish zarur.

Binobarin, semirtirilgan yosh qoramollar ratsionining bir qismi sifatida biostimulyatorni birgalikda oziqlantirish qorinining hazm qilish mexanizmini optimallashtirish orqali oraliq metabolizmni yaxshilashga yordam berdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Becht E, Giraldo NA, Germain C, de Reyniès A, Laurent-Puig P, Zucman-Rossi J, et al.. Immune contexture, immunoscore, and malignant cell molecular subgroups for prognostic and theranostic classifications of cancers. *Adv Immunol* (2016) 130:95–190. doi: 10.1016/bs.ai.2015.12.002 [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]
2. Bindea G, Mlecnik B, Tosolini M, Kirilovsky A, Waldner M, Obenaus AC, et al.. Spatiotemporal dynamics of intratumoral immune cells reveal the immune landscape in human cancer. *Immunity* (2013) 39:782–95. doi: 10.1016/j.immuni.2013.10.003 [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]
3. Galon J, Costes A, Sanchez-Cabo F, Kirilovsky A, Mlecnik B, Lagorce-Pagès C, et al.. Type, density, and location of immune cells within human colorectal tumors predict clinical outcome. *Science* (2006) 313:1960–4. doi: 10.1126/science.1129139 [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]
4. Fridman WH, Zitvogel L, Sautès-Fridman C, Kroemer G. The immune contexture in cancer prognosis and treatment. *Nat Rev Clin Oncol* (2017) 14:717–34. doi: 10.1038/nrclinonc.2017.101 [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]
5. Cassetta L, Fragkogianni S, Sims AH, Swierczak A, Forrester LM, Zhang H, et al.. Human tumor-associated macrophage and monocyte transcriptional landscapes reveal cancer-specific reprogramming, biomarkers, and therapeutic targets. *Cancer Cell* (2019) 35:588–602.e10. doi: 10.1016/j.ccell.2019.02.009 [PMC free article] [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]

6. Mantovani A, Marchesi F, Jaillon S, Garlanda C, Allavena P. Tumor-associated myeloid cells: Diversity and therapeutic targeting. *Cell Mol Immunol* (2021) 18:566–78. doi: 10.1038/s41423-020-00613-4 [PMC free article] [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar].

7. Иммунология. Ярилин А.А. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010. — 748 с.

8. Наглядная иммунология / Г.-Р. Бурместер, А. Пецуто; Пер. с англ. – 2-е изд., испр. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2009. – 320 с

9. Торжков Н.И., Благов, Д.А. Влияние на молочную продуктивность и гематологические показатели у высокопродуктивных коров кормовой добавки Витасоль в различных дозировках // Вестник РГАТУ. – № 3. –2013. – С. 50–53.

10. Торжков Н.И., Благов Д.А. Влияние кормовой добавки Витасоль на молочную продуктивность и физиологическое состояние высокопродуктивных коров //Актуальные проблемы ветеринарии и интенсивного животноводства: материалы Международной конференции. Рязань, 2013. – С. 79-85.

## AYRIM MANZARALI KSEROFITLARNING QARSHI VOHASI SHAROITIDA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Jalilova Hafiza Erkinovna**

*Turon universiteti magistranti*

**Ibodullayeva Sevara Ramazonovna**

*Qarshi davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** *Maqolada Qarshi vohasiga introduksiya qilingan manzarali kserofit o'simliklar: Agava americana L., Yucca filamentosa L., Jacobaea maritima L., Genista tinctoria L.larning ko'kalamzorlashtirishda foydalanish darajasini, fenologiyasini o'rganish natijalari keltirilgan. O'rganilgan turlar introduksiya sharoitida barcha fenofazalarni o'tashi, mo'l gullashi, uzoq vaqt vegetatsiya qilishi, Qarshi vohasini ko'kalamzorlashtirishda foydalanilayotgan assortiment tarkibida manzarali kserofitlar ulushi yetarli darajada emasligi, o'rganilgan turlardan ham keng foydalanilmayotganligi aniqlangan.*

**Kalit so'zlar:** *introduksiya, kserofit, gullash, vegetatsiya, fenologiya, manzarali o'simliklar*

**Annotation.** *The article presents the results of studying the level of use in landscaping and phenology of ornamental xerophytic plants introduced into the Karshi oasis: Agava americana L., Yucca filamentosa L., Jacobaea maritima L., Genista tinctoria L.. It was found that the studied species under the conditions of introduction pass all phenophases, bloom abundantly, and have a long vegetation period. It was revealed that in the assortment used in landscaping the Karshi oasis, the proportion of ornamental xerophytes is insufficient, and the studied species have not found wide application.*

**Keywords:** *introduction, xerophyte, flowering, vegetation, phenology, ornamental plants.*

**KIRISH.** Qarshi shahri keskin kontinental iqlim sharoitiga ega. O'rtacha yillik harorat +17°C. Yozda havo harorati +51°C gacha ko'tarilgani holda, qishda u -30°C gacha tushib ketishi qayd qilingan, ya'ni musbat va manfiy haroratning tebranishi juda katta. Yillik yog'ingarchilik miqdori 130-250 mm ni tashkil qiladi. Yozda hudud bir necha marotaba qum va chang bo'ronlari ostida qoladi (1). Shu tufayli Qarshi vohasining iqlim sharoiti o'simliklar introduksiyasi uchun qator qiyinchiliklar tug'diradi (2, 3). Bu muammoni bartaraf etishning eng oson yo'li uzoq va qisqa qurg'oqchilik davriga bardoshli o'simliklar vositasida ko'kalamzorlar tashkil etish hisoblanadi. Shu sababli, vohani ko'kalamzorlashtirishda istiqbolli assortimentni tanlash dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Kserofitlar uzoq davom etadigan qurg'oqchilik va havoning yuqori haroratiga anchagina bardoshli bo'lgan o'simliklar hisoblanadi. Bunday o'simliklar cho'l va chala cho'l tipik florasini tashkil etadi. Shuningdek, ular qoyalarda, sho'r yerlarda, dengiz qirg'oqlarida va shamol uchirib yuradigan qumtepalarda o'sadi. Kserofitlar orasida ko'kalamzorlashtirishda qo'llash mumkin bo'lgan manzarali turlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ko'pchilik uzoq vaqt davomida gullaydigan (ba'zilar deyarli butun yoz) va uzoq muddatli qurg'oqchilik va sho'rlanishga chidamli kserofitlar yetarlicha manzaralilik xususiyatiga ega bo'ladi (4). Ularning yorqin rangli gullari o'tloq va daraxtzorlarda chiroyli qoplama hosil qiladi (5.). Kserofitlar vegetatsiyasining uzoq davom etishi esa ular vositasida sovuq tushgunga qadar chiroyli kompozitsiyalar yaratishga imkon beradi (6). Shunga ko'ra, Qarshi vohasini ko'kalamzorlashtirish uchun tavsiya qilinadigan assortiment tarkibida kserofit turlarning ko'p bo'lishi

maqsadga muvofiqdir. Qarshi vohasini ko'kalamzorlashtirishda manzarali kserofitlarning bioekologik xususiyatlarini, ulardan foydalanish holatini o'rganish amaliy ahamiyat kasb etadi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Tadqiqot obyekti bo'lib Qarshi shahriga introduksiya qilingan kserofit turlar: *Agava americana* L., *Yucca filamentosa* L., *Jacobaea maritima* L., *Genista tinctoria* L. kabilar hisoblanadi. Materiallar to'plash ishlari 2024-yilda marshrut usulida olib borildi. Turlarning tabiiy va madaniy holda tarqalishi adabiyot manbalari asosida o'rganildi. Turlarning so'nggi zamonaviy nomlari The Plant List (7) va POWO (8) bo'yicha keltirildi. Har bir tur tarqalgan joylar, tuplar soni, yoshi, holati, hayotiy shakli va ularning fenofaza muddatlari aniqlandi. Ularni botanik tavsiflashda mahalliy materiallardan foydalanildi. Fenologik kuzatuvlar Botanika bog'larida qabul qilingan metodlar asosida o'tkazildi. Introdusentlarni ekologik xususiyatlari, ya'ni issiqliqqa, sovuqqa, yorug'lik va namlikka munosabati ularni turli ekologik sharoitlarda o'sib turgan tuplarida o'rganildi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA. Amerika agavasi** (*Agava americana* L., *A. altissima* Zumagl.) – ko'p yillik qisqargan poyali butasimon o'simlik. Yovvoyi holda Meksikaning tog'li cho'llarida o'sadi. Quruq va issiq iqlim sharoitiga yaxshi moslashganligi sababli Amerika agavasi Yevropaga keltirib iqlimlashtirilgan. Natijada O'rtayerdengizi va Afrikaning shimoliy mamlakatlarida tarqalib ketgan. Hindiston, Shri Lanka, Markaziy Amerika va Qoradengiz subtropiklarida keng tarqalgan (9).

Bo'yi 1,5-2 m gacha bo'lib, 20-30 ta yirik va seret barglar ҳосил қилади. Barglari sukkulent, yashil yoki sariq-yashil yo'lli, tupining diametri 3 metrgacha bo'ladi. Barglari salkam 2 m uzunlikkacha o'sadi. Barglarining eni 25-30 sm gacha. Barglari dastlab vertikal o'sadi, keyinchalik bukiladi. Barglarining shakli uzaygan-lansetsimon. Ustidan mumsimon qavat bilan qoplanganligi uchun ko'kish bo'lib ko'rinadi. Bargining uchi yirik va baquvvat tikan bilan tugallanadi. Barglarining cheti esa tishsimon, tishlari qayrilgan, uzunligi 8 sm gacha bo'lishi mumkin. Qarshi vohasi sharoitida gullamaydi. Ammo to'pbarglari orqali tabiiy holda ko'payadi. Mahalliy aholi xonadonlarda o'stiradi.

Amerika agavasining bog' formasi (*A. americana* var. *marginata* Trel.) – asosiy turga nisbatan kichikroq bo'lib, barglari nisbatan ingichkaroq, barg chetlarida sariq yo'li bor. Qarshi vohasi sharoitida gullamaydi (1-jadval). To'pbarglar hosil qiladi. Qish iliq kelgan yillari ochiq joyda qishlaydi.

**Tolali yukka** – (*Yucca filamentosa* L.) Shimoliy Amerikaning janubiy quruq chalacho'llari, Markaziy Amerikada tabiiy holda o'sadi (10). Deyarli poyasiz o'simlik. Barglari och-yashil, uzunligi 70, eni 4 sm. Barglarining chetlaridan ko'psonli oq va ingichka tolalar osilib turadi. Shingil to'pgulining uzunligi 2 m keladi. Gullari sarg'ish-oq rangda, osilib turadi, 8 sm uzunlikda. Qarshi vohasi sharoitida bitta guli 4 kun mobayonida ochilib turadi. Mevasi diametri 5 sm keladigan dumaloq ko'sakcha.

Qarshi vohasi sharoitida tolali yukkaning gullari sun'iy changlantirilganda urug'lar hosil qiladi. Adabiyotlarda yukkalarni changlatish va ular ustida seleksiya ishlarini olib borish metodikasi F.N.Rusanov ishlarida keltirilgan. Unga ko'ra chang donachalari changdondan urug'chi tumshuqchasiga o'tkir qilib yo'nilgan grafit qalamning uchi bilan tongda ko'chirib o'tkaziladi. Chunki tushga borib chang donachalari hayotchanligini yo'qotadi. Shuningdek, ular namgarchilik kunlarida ham hayotchan bo'lmaydi (11).

1-jadval

**Qarshi vohasiga introduksiya qilingan kserofit manzarali o'simliklarning fenologiyasi  
(2024 y.)**

Fenofazalar	<i>Agava americana</i>	<i>Yucca filamentosa</i>	<i>Jacobaea maritima</i>	<i>Genista tinctoria</i>
Vegetatsiyaning boshlanishi	10.03	20.02	18.03	10.04
G'unchalashning boshlanishi	-	24.04	4.09	20.04
Gullashning boshlanishi	-	10.05	14.09	28.04
Gullashning tugashi	-	28.05	20.10	28.05
Gullash davri, kun	-	18	36	30
Vegetatsiyaning tugashi	19.11	10.12	18.11	10.11
Vegetatsiya davri, kun	249	290	240	240

**Bo'yoqbop drok (*Genista tinctoria* L.)** – Boltiqbo'yi mamlakatlari, Dneprning yuqori havzasi, G'arbiy Sibirdagi quruq yerlarda o'sadi (Жохова). O'rmonning chetida, qoyalar yonbag'rida, qarag'ay va aralash o'rmonlarning qirg'ilgan yerlarida, butalar orasida, asosan, ishqorli yoki qumloq tuproqlarda o'sadi. Bo'yi 50-170 sm keladigan buta. Novdalari silliq va yashil bo'lib, yuqoriga yo'nalgan. Novdalarning rangi yam-yashil bo'lib, fotosintezda faol ishtirok etadi. Barglari lansetsimon, uchi o'tkir, asosi biroz kengaygan, reduksiyalangan, uzunligi 1,5-2 sm. Barg bandi qisqa. Novdalarning uchki qismidagi barglari kichikroq. Barglarining yuzasi sillik, ostki tomonidagi tomirlar cheti va barg chetida tukchalari bor. Sariq rangdagi gullari kalta gulbandi bilan novdalar oxiriga o'rnashgan. Gullari zich shingilga to'plangan. Shingilning uzunligi 5-6 sm. Tojbargining uzunligi 10-14 mm, kosachasiniki 5 mm. Mevasi dukkak meva bo'lib uzunligi 2-2,5, eni 0,4-0,5 sm keladi, yalong'och, biroz qayrilgan. Urug'lari qoramtir-qizil, elliptik, biroz yaltiroq tusda, zaharli. Har bir dukkagi 6 tadan 10 tagacha urug' saqlaydi.

Moskva sharoitida iyun-iyulda gullaydi (12). Qarshida esa aprelning oxirgi o'n kunligidan boshlab gullashi kuzatildi. Gullash hali tugamasdan dastlab ochilgan gullari mevalay boshlaydi. Mevalash Moskva sharoitida avgust boshida boshlansa, Qarshi sharoitida may oyining oxiridan boshlanadi. Moskva sharoitida gullash fazasi Qarshidagiga nisbatan biroz uzoqroq - 60-65 kun davom etadi. Qarshi sharoitida 1 oy mobaynida gullab turadi.

**Dengizbo'yi sinerariyasi (*Jacobaea maritima* L.)** dan bir yilliklar sifatida foydalaniladi. Yovvoyi holda o'simlik O'rtayerdengizi mamlakatlaridagi dengiz bo'yi qoyalarida o'sadi. Tabiiy holda doimiyashil chala buta. Barglari oddiy, chuqur qirg'ilgan, yuzasi kumushsimon-kulrang tusda. Savatchasining o'rama barglari kumushrang-kulrang tusda. Tilsimon, naysimon gullari va urug'chilari sariq rangda. Gullarining diametri 15 mm. Mevasi silindrsimon pistacha. Ko'kalamzorlashtirishda uning gullaridan emas barglaridan foydalaniladi. Shu sababli bir yilliklar sifatida ekiladi. Bunda o'simlik gullamaydi. Urug'laridan chiqqan maysalar dastlab yashil rangda bo'ladi, keyinchalik och tusga kiradi. O'simlik o'sgani sari barglarining rangi oqarib boradi. Adabiyotlarda urug'laridan ko'paytirilgan o'simliklar kuzgacha 15-25 sm gacha o'sadi degan ma'lumot berilgan. Qarshi vohasi sharoitida esa kuzgacha ularning bo'yi 45-55 sm gacha o'sadi.

Qarshi vohasining madaniy kserofil florasini o'rganish maqsadida ko'kalamzor hududlar va aholi turar joylarda tarqalganlik darajasi, qaysi ekologik guruhga mansubligi, tabiiy arealiga doir ma'lumotlar tahlil qilindi. Tahlillar o'rganilgan to'rtta turdan bittasining sukkulent, qolganlarining

sklerofit guruhga mansubligini, ikkita turning ko'p yillik o't, bittasining buta va yana bittasining chala buta hayotiy shakliga egaligini, *Jacobaea maritima* dan boshqa turlardan ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanilmayotganligini ko'rsatdi (2-jadval). O'rganilgan turlarning ikkitasi tabiiy holda Shimoliy Amerikaning, ikkitasi esa O'rta Yer dengizi va Yevropaning qurg'oqchil hududlarida o'sishi aniqlandi.

2-jadval

### Qarshi vohasida mavjud ayrim kserofit manzarali o'simliklar

Turning lotincha nomi	Vatani	Hayotiy shakli	Ko'kalamzorlashtirishda qo'llanilishi	Kserofitlik tipi
<i>Agava americana</i>	Meksikaning tog'li rayonlari	Ko'p yillik o't	Ko'p yilliklar sifatida kam qo'llaniladi	Sukkulent
<i>Yucca filamentosa</i>	Shimoliy Amerikaning janubiy quruq chalacho'llari, Markaziy Amerika	Ko'p yillik o't	Ko'p yilliklar sifatida kam o'stiriladi	Sklerofit
<i>Jacobaea maritima</i>	O'rta Yer dengizi mamlakatlarining g'arbiy qismlari	Chala buta	Bir yilliklar sifatida keng qo'llaniladi	Sklerofit
<i>Genista tinctoria</i>	Kichik va Markaziy Osiyo, Kavkaz va Yevropaning mo'tadil iqlimli hududlari	Buta	Ko'p yilliklar sifatida kam qo'llaniladi	Sklerofit

**XULOSA.** Shunday qilib, Qarshi vohasi madaniy florasida mavjud 4 turdagi manzarali kserofitlar uzoq vegetatsiya davriga egaligi (240-290), noqulay sharoitga bardoshli ekanligi, davomli manzarali gullashi qator olimlar tomonidan bergan ma'lumotlarni tasdiqladi (4, 5, 6). Qarshi vohasini ko'kalamzorlashtirishda foydalanilayotgan assortiment tarkibida manzarali kserofitlar ulushi yetarli darajada emasligi, o'rganilgan turlardan ham keng foydalanilmayotganligi aniqlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бабушкин Л.Н. Особенности климата Кашкадарьинской области // Труды САГУ. – Ташкент: САГУ, 1956. – № 50. – С. 27-47.
2. Ёзиев Л.Х. 2001. Опыт интродукции древесных растений в южном Узбекистане.– Ташкент: Фан. – 211 с.
3. Саматова Ш.А. Морфобиологические особенности канн в условиях Каршинского оазиса. Полевой журнал биолога. НИУ «БелГУ». Издательский дом «Белгород». 2019. Том 1. № 4. – С.202-208.
4. Гусев Н.А. Некоторые закономерности водного режима растений. М.: Изд-во АН СССР, 1959.-158 с.
5. Дакиева М.К. Систематическая и географическая структуры ранневесенней флоры класса Liliopsida горной и предгорной части Республики Ингушетия // Биологическое разнообразие Кавказа и Юга России: материалы XVI Международной научной конференции, посвященной 75-летию Точиева Т.Ю. – Назрань, 2014. – С. 286-289.

6. Встовская Т.Н. Декоративные формы местных и экзотических видов клёна, перспективных для первичного испытания в Сибири // Растительный мир Азиатской России. - 2010. - № 1(5). - С. 101–111.

7. The Plant List [Электронный ресурс]. – URL:[www.theplantlist.org](http://www.theplantlist.org)

8. <https://POWO>

9. Максимов А. П., Плугатарь Ю. В., Коба В. П., Гончарова О. И. Новые высокогорные виды агавы (*Agave L.*) для Южного берега Крыма // Научные записки природного заповедника «Мыс Мартьян». 2016. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/novye-vysokogornye-vidy-agavy-agave-l-dlya-yuzhnogo-berega-kruma> (дата обращения: 25.02.2025).

10. Максимов А. П., Трикоз Н. Н. Реальная и потенциальная продуктивность плодов при искусственном опылении *Yucca filamentosa L.* и её устойчивость в условиях Южного берега Крыма // Биология растений и садоводство: теория, инновации. 2018. №147.

11. Русанов Ф.Н. Теория и опыт переселения растений в условия Узбекистана. Т., «Фан», 1974. -110 с.

12. Жохова Е.В., Протасова Я.А., Яковлев Г.П. Растения рода дроков (*Genista L.*) - перспективные источники лекарственного растительного сырья для создания новых лекарственных средств. Разработка и регистрация лекарственных средств. 2018;(4):11-16.

## QARSHI VOHASIGA INTRODUKSIYA QILINGAN *PYRACANTHA M.ROEM.* TURKUMI VAKILLARINING FENOLOGIYASI

**Olimova Shaxnoza Abdukadirovna**

*Turon universiteti magistri*

**Ibodullayeva Sevara Ramazonovna**

*Qarshi davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada *Pyracantha turkumiga* mansub 2 ta manzarali tur: *P. coccinea* va *P. augustifoliana*ning Qarshi vohasi iqlim sharoitida fenologiyasini o'rganish natijalari keltirilgan. Qarshi vohasi sharoitida *Pyracantha turkumining* ikkala turi ham har yili gullab meva berishi, aprel oyida gullashi, mevalarining avgust oxiridan yetila boshlashi, sentabr, oktabr oylarida to'liq yetilishi aniqlangan. Shunga ko'ra, bu turlarni bahorgi-yozgi-kuzgi fenoritmotipga kirishi va fenologik fazalarni barchasini o'taganligi tufayli voha uchun istiqbolli turlardan deb hisoblash mumkinligi to'g'risida xulosa qilingan.

**Kalit so'zlar:** *introduksiya, fenoritmotip, fenologiya, gullash, mevalarning yetilishi, vegetatsiya.*

**Annotation.** The article presents the results of the study of the phenology of two ornamental species of the genus *Pyracantha*: *P. coccinea* and *P. augustifolia* in the climatic conditions of the Karshi oasis. It was found that in the conditions of the Karshi oasis, both species of the genus *Pyracantha* bloom and bear fruit annually, bloom in April, the fruits begin to ripen in late August, and fully ripen in September-October. Accordingly, it was concluded that these species can be considered promising for the oasis, since they fall into the spring-summer-autumn phenological rhythm and have all phenological phases.

**Key words:** *introduction, phenorhythm type, phenology, flowering, fruit ripening, vegetation.*

**KIRISH.** O'zbekistonning iqlim sharoiti, qolaversa, olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari o'rmon xo'jaligiga doir faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yishni taqozo qiladi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-maydagi "O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5041 son (1), 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'ri-sida"gi PF-46-son (2) Farmonlari bilan butun mamlakat miqyosida "Yashil makon" umummilliy loyihasi tatbiq etilgan. Ushbu loyiha doirasida yiliga 200 mln. tup daraxt va buta o'simliklar ko'chatlarini ekish hamda yashil maydonlarni 8% dan 30% gacha oshirish rejalashtirilgan. Ushbu vazifalar samarali bajarilishida hududlar uchun istiqbolli turlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston janubida joylashgan Qarshi shahri shu nomdagi cho'lning markazida joylashgan. Iqlimi keskin kontinental, yozi issiq va quruq, qishi sovuq. Yozgi harorat +50 °C gacha, qishki harorat -25...-28 °C gacha yetadi. Bu sharoit ko'pchilik introdutsentlar uchun noqulay hisoblanadi. Dastlabki introduksion sinovlar *Pyracantha M.Roem.* turkumiga mansub 2 ta manzarali tur: *P. coccinea* va *P. augustifoliana*ning ushbu iqlim sharoitida istiqbolli ekanligini ko'rsatdi. Ularning fenologiyasini o'rganish kelgusida bu turlardan ko'kalamzorlashtirishda samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi.

**ADABIYOTLAR SHARHI.** 1990-yilgacha A.U. Usmanov, T.I. Slavkina, V.P. Pechenisin, Y.M. Murdaxaev singari biologiya fanlari doktorlari, A.A. Abduraxmanov, Y.S. Borodin, A.A. Mavjudov, A.X. Sharipov, N.I. Shtonda, N.F. Rusanov, G.S. Kostelova, Y.M. Zalevskaya, A.M. Korchagina, A.D. Barilnikova, G.V. Maksimova kabi biologiya fanlari nomzodlari tomonidan O'zbekistonga daraxt va butalar introduksiyasi va ularning bioekologik xususiyatlarini o'rganish borasida izlanishlar olib borilgan va olingan natijalar "Интродукция и акклиматизация растений" nomli to'plamlarda (3), shuningdek, 14 tomli "Дендрология Узбекистана" kitobida aks ettirilgan (4).

O'zbekistonga manzarali daraxt va butalarning introduksiyasi, introduksiya sharoitida ularning bioekologik xususiyatlariga doir ma'lumotlar L. Yoziyev (2001) (5), L. Yoziyev va B. Boysunov (2009) (6), L. Yoziyev, I. Xayitov (2013) (7), A. Raximov va boshqalarning (2022) (8) tadqiqot natijalarida keltirilgan.

Pirakanta (*Pyracantha*) *Rosaceae* oilasi, *Maleae* kenja oilasiga mansub ko'p yillik buta o'simlik bo'lib, tabiatda 7 ta turi uchraydi. Asosan 2 ta turi: *Pyracantha coccinea* va *P. augustifolia* ko'pchilik mamlakatlarda ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** *P. crenulata* - bo'yi 3 metrgacha yetadigan doimo yashil buta o'simlik. Shox-shabbasi 3 metrgacha yoyiladi. Barglarining uzunligi 5 sm gacha bo'lib, yaltiroq, yorqin yashil rangda, bandi qisqa. Bu turning barglarining kseromorflik xususiyatlari *P. coccineanikiga* nisbatan yuqoriroq.

*P. crenulata* tabiiy holda Xitoy, Nepal va Himolayda o'sadi. Dengiz sathidan 2000 m balandlikdagi tog' yonbag'irlarida, tog' daryolarining sohillarida va vodiylarda uchraydi. Allyuvial va qizil tuproqlarda yaxshi o'sadi. Ishqoriy, kislotali, neytral tuproqlarda o'sishga moslashgan. Tog'ning gil tuproqli yonbag'irlarda nisbatan sekin o'sadi. Qurg'oqchilikka ancha chidamli o'simlik. Ilmiy manbalarda haroratning -15°C gacha pasayishiga bardosh berganligi aniqlangan (9).

*P. coccinea* - bo'yi 2 metrgacha bo'ladigan doim yashil buta o'simlik. Vatani Janubiy Yevropa va Kichik Osiyo bo'lib, tog'ning quruq qiyaliklari va butazorlarda, o'rmon yoqalarida toshli, shag'alli, karbonatli va allyuvial tuproqlarda, nam sharoitda tez, quruq qiyaliklarda sekin o'sadi (9).

Tadqiqot obyektlarining qayerlarda o'sishini aniqlash uchun shaharning asosiy ko'chalari marshrut metodidan foydalanilib o'rganib chiqildi. O'simlik turlari nomlarining ishonchligi RFA Davlat Botanika bog'i manzarali o'simliklar bo'limi katalogi (10 dan foydalanilib tekshirildi. O'simlikning mavsumiy rivojlanish maromini o'rganishda Botanika bog'larida umumqabul qilingan metodlardan foydalanildi (11). Unga ko'ra o'simlikning morfologik strukturasi tashqi o'zgarishlar: kurtakning bo'rtishi, barglarning yozilishi, gullashning boshlanishi, yoppasiga gullash, gullashning tugashi, urug'larning yetilishi va vegetatsiyaning tugashi fazalari hisobga olindi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** *P. crenulata* Qarshi vohasi sharoitida aprel oyida gullaydi. Oq rangdagi diametri 8 mm bo'lgan mayda gullari qalqonsimon to'pgulga yig'ilgan. Mevasi dumaloq, sariq-qizil yoki och-sariq rangli. Juda ko'p hosil beradi. Mevasi sentabr -oktabr oylarida pishadi.

Bu o'simlik 1629-yilda madaniylashtirilgan bo'lib, uning ekologik xususiyatlari haqida dastlabki ma'lumot F. Fisherga (1852) tegishli. Unda Sankt-Peterburg shahri sharoitida ochiq yerda o'stirish mumkinligi, ammo qishda ustini yopish kerakligi aytib o'tilgan. Sankt-Peterburg

botanika bog'ining 1861-1862 yillarga tegishli bo'lgan katalogida bu o'simlik qayd etilgan bo'lib, shundan so'ngi yillar kataloglari ro'yxatida u uchramaydi. Aftidan bog'dagi ekzemplarlar sovuq ta'sirida yo'qolib ketgan. O'tgan asrda bu o'simlik oranjereyalarda va yopiq joylarda o'stirilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. 1947-yildan boshlab bu o'simlik qaytadan Sankt-Peterburg botanika bog'ining kataloglarida qayd etila boshlangan. Bog'da Yalta, Tbilisi, Avstriya va Fransiya sharoitlarida hosil bo'lgan urug'lardan ekilganda Yaltadan keltirilgan urug'lardan o'sgan ekzemplarlargina yashab qolganligi kuzatilgan (9). Toshkentga 1-marta 1957 yilda introduksiya qilingan. 13 yoshli o'simlikning uzunligi 3 m ga yetgan (12).

L.Yoziyev (2001) tomonidan Janubiy O'zbekiston uchun istiqbolli deb topilgan 134 ta tur ichida *P. crenulata* ham bor (5). Muallif tomonidan mukammallashtirilgan shkala asosida u Janubiy O'zbekiston sharoitida qurg'oqchilikka va issiqqa yetarlicha bardoshli (20 ball), o'rtacha sifatli urug' hosil qiladi (20), tabiiy holdagiga nisbatan 25% ga ko'proq o'sadi (15), qish juda sovuq kelganda bir yillik novdalarining bir qismigina zararlanadi (15), shox-shabbalarining ko'rinishi o'zgarmagan holda o'sadi (5) va 20-30 yoshida ham qarilik alomatlari sezilmaydi (5) deb baholangan (jami 85 ball). Shunga qaramay bu o'simlikdan hanuzgacha Qarshi vohasini ko'kalamzorlashtirishda yetarlicha foydalanilmaydi.

*P. crenulata* vegetatsiyasining boshlanishi 2024 yilda 2.03. ga to'g'ri keldi. Barglarning to'liq shaklanishiga 20-22 kun zarur bo'lib, 25.03. gacha barglari yozilib bo'ladi (jadval). Bu turning barglari qishda tusini o'zgartirmaydi, ya'ni qizarmaydi. Barglar yil mobaynida yam-yashilligicha turadi. Ular keyingi yilning bahorida to'kila boshlaydi. Barglarning to'kilishi yangi barglar hosil bo'lgandan so'ng sodir bo'ladi. *P. crenulata*ning mevalari kechroq, ya'ni iyul oyining oxiridan zarg'aldoq tusga kira boshlaydi.

Jadval

Qarshi vohasi sharoitida *Pyracantha* turkumi vakillarining fenologiyasi (2024-y.)

Tur	Kurtakning bo'rtishi	Barg yozilishi	Gullash		Mevaning yetilishi	Urug'ning yetilishi	Vegetatsiya oxiri
			boshlanishi	tugashi			
<i>P. crenulata</i>	02.03.	12.03.	05.04.	28.04.	20.08.	01.02.	05.11.
<i>P. coccinea</i>	25.02.	4.03.	13.04.	3.05.	07.09.	02.02.	11.10.

*P. coccinea* – shox-shabbalari 5 metrgacha tarqalib o'sadi. Uzaygan-ellipssimon yoki lansetsimon shakldagi barglari seret, yaltiroq bo'lib, uzunligi 4 sm gacha. Barglarining rangi to'q yashil bo'lib, kuzda qizg'ish tusga kiradi. Bahorda qalqonsimon to'pgulda yig'ilgan oqish, ayrim paytda pushti-sarg'ish biruyli gullari, kuz va qish oylarida qip-qizil to'pmevalari yuqori manzara kasb etib turadi. Tikanlari oddiy bo'lib, novdaning shakl o'zgarishidan hosil bo'lgan. Poyasi kulrang tusda. Barglari uzaygan oval shakldayu Barg yaprog'ining ustki tomoni yaltiroq, etdor, uzunligi 2-3 sm, eni 1-2 sm ga teng. Barg bandi qisqa. To'pguli qalqonsimon. To'pgulida gullar zich va ko'p joylashgan. Gultojbarglari oq yoki pushti-sarg'ish rangda bo'lib, uzunligi 3 mm. Mevasi yorqin qizil, sharsimon, diametri 5-8 mm, ichida beshtagacha urug'i bo'ladi.

Qarshi sharoitida *P. coccinea* kurtaklarining bo'rtishi 2020-yili 25.02. da boshlandi. Kurtaklar bo'rtgandan 4 kun o'tib barg yozila boshladi. Mart oyining 15 chisiga qadar barglar batamom yozilib bo'ldi. Barglarning yozilishi uchun 20-22 kun vaqt kerak bo'ladi. Dekabr oyining boshidan o'simlikning eskirgan barglari sarg'ayib, birin-ketin to'kila boshladi. Ammo sarg'aygan barglar soni juda kam edi. Barglarning to'kilishi o'simlikning tashqi ko'rinishiga u qadar salbiy

ta'sir ko'rsatmadi. O'simlikdagi barglarning asosiy qismi yashil tusda bo'lib, keyinchalik ularning tusi sekin-astalik bilan qizara boshladi. 2024-yili bahorda barglarning yana bir qismi to'kila boshladi. Ammo yozning issiq va quruq davrida uning barglarining to'kilishi kuzatilmadi. Mevalarning rang olishi iyul oyining birinchi o'n kunligidan boshlandi. O'simlikning o'sishi oktabr oyining oxirlarigacha davom etdi.

**XULOSA.** Shunday qilib, Qarshi vohasi sharoitida *Pyracantha* turkumining ikkala turi ham har yili gullab meva beradi. Mevalari avgust oxiridan yetila boshlaydi va sentyabr, oktyabr oylarida to'liq yetiladi. *P. coccinea* ning vegetatsiyasi *P. crenulataga* nisbatan bir hafta ilgari boshlanishi, ammo uning gullashi bir hafta ilgari boshlanishi, har ikkala turning aprel oyida, deyarli bir xil davomiylikda gullashi, *P. crenulataning* vegetatsiyasi *P. coccinea* nikiga nisbatan bir oy ko'proq davom etishi aniqlandi. Shunga ko'ra, bu turlarni bahorgi-yozgi-kuzgi fenoritmotipga kiritish va fenologik fazalarni barchasini o'taganligi tufayli voha uchun istiqbolli turlardan deb hisoblash mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi 11.05.2017 y. PF-5041 sonli Farmoni.
  2. "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46- sonli Farmoni.
  3. Ёзиев Л.Х. Ўзбекистон жанубига экзотик дарахт ва буталарни интродукция қилиш тарихи ва истиқболлари // Ўзбекистон ўсимликлар оламида биохилмахиллик. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Қарши, 2018. – Б. 136-139.
  4. Дендрология Узбекистана. Т. 1-14. – Тошкент: Фан, 1966-1993 гг.
  5. Ёзиев Л.Х. Опыт интродукции древесных растений в Южный Узбекистан. – Ташкент: Фан, 2001.– 210с.
  6. Ёзиев Л.Х., Бойсунов Б.Х. Жанубий Ўзбекистонда мелия дарахтини интродукция қилиш натижалари ва истиқболлари. – Тошкент: Фан, 2009. –125 б.
  7. Ёзиев Л.Х., Хайитов И.Ю. Итоги интродукции некоторых древесных представителей сем. *Fabaceae* Lindl. В условиях Каршинского оазиса. – Карши, 2013. –168 с.
  8. Рахимов А. Л., Ёзиев Л. Х., Норхаджаева А. М. Результаты изучения сорта *Hybiscus syriacus* L. в условиях Узбекистане // *Innovations in life sciences*. – 2022. – С. 130-131.
  9. Пилипенко Ф.С. Пираканта - *Pyracantha* Roem. // Деревья и кустарники. Дикорастущие, культивируемые и перспективные для интродукции. Т. III. Покрытосеменные семейства Триходендровые - Розоцветные.– М., Л.: Изд-во АН СССР, 1954.– С. 508.
  10. Каталог коллекций отдела декоративных растений ГБС РАН. М., 2000. – Вып. 1. - 168 с.
  11. Булыгин Н.Е. Фенологические наблюдения над древесными растениями. – Ленинград: Наука, 1979. - 97 с.
- Рахматова Н.Р. Виды рода *Pyracantha* –перспективная новинка для зеленого строительства Республики // *Интродукция растений: достижения и перспективы*. – Тошкент:, 2013. – С. 116-118.

## NERIUM OLEANDER L. NING AHAMIYATI VA NAVLARINING QARSHI VOHASIGA INTRODUKSIYASI ISTIQBOLLARI

**Rabimova Zilola Shuhrat qizi**

*Turon universiteti assistent-o'qituvchisi*

**Choriyeva Kumush Faxriddin qizi**

*Turon universiteti magistri*

**Annotatsiya.** Maqolada Qarshi vohasiga introduksiya qilingan *Nerium oleander L.* ning shifobaxsh xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilish natijalari keltirilgan. Xalq tabobatida undan asosan shish, bo'g'im og'riqlari, teri, nerv, gepatit, o't pufagi, hazm organlari kasalliklarida, shuningdek, antigelmintik, diuretik va koronar tomirlarni kengaytiruvchi vosita sifatida ishlatilsa, ilmiy farmakologiyada kardioprotektiv, yallig'lanishga qarshi, og'riq qoldiruvchi, antioksidant, gepatoprotektiv, immunomodulyator, sedativ, diabetga, bakteriyalar va zamburug'larga, immunitet tanqisligi virusiga, leykemiyaqa qarshi faollikka egaligi aniqlangan. O'simlikdan ko'kalamzorlashtirishda va mahalliy farmokopeyada foydalanish uchun introduksiya sharoitida uning o'sishi va rivojlanishini tadqiq qilish, bu orqali uni ko'paytirishning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish, natijada katta maydonlarda plantatsiyalar yaratilib, farmokopeya va ko'kalamzorlashtirish uchun ko'p miqdorda xomashyo va ko'chatlar tayyorlash imkoniyati tug'ilishi haqida xulosa qilingan.

**Kalit so'zlar:** *Nerium oleander*, xalq tabobati, tibbiyot, farmakologiya, dorivor, toksik, glikozid, efir moyi.

**Annotation.** The article presents the results of the analysis of the studies of the medicinal properties of *Nerium oleander L.*, introduced into the Karshi oasis. In folk medicine, it is mainly used for edema, joint pain, skin, nervous, hepatitis, gallstone, digestive diseases, as well as an anthelmintic, diuretic and coronary vasodilator, and in scientific pharmacology, its cardioprotective, anti-inflammatory, analgesic, antioxidant, hepatoprotective, immunomodulatory, sedative, antidiabetic, antibacterial, antifungal, antiviral and antileukemic action has been established.

It is concluded that the study of the growth and development of the plant under the conditions of introduction, the development of scientifically based reproduction technology will allow creating plantations on large areas, preparing large volumes of raw materials and seedlings for the pharmacopoeia and landscaping.

**Key words:** *Nerium oleander*, folk medicine, medicine, pharmacology, medicinal, toxic, glycoside, essential oil

**KIRISH.** O'zbekistonning janubiy shaharlariga introduksiya qilingan ekzotik doim yashil o'simliklar orasida manzaralilik xususiyatlari yuqori bo'lgan oleanderlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. *Nerium L.* turkumining vakillari bo'yi 4-6 m gacha yetadigan, shakl berish orqali manzaraliligini yanada oshirish mumkin bo'lgan, mo'l va davomli gullaydigan doimiy yashil butalar sifatida Qarshi vohasi sharoitida muvaffaqiyatli o'smoqda. Ushbu o'simlikning manzaralilik jihatlaridan tashqari katta dorivorlik ahamiyatiga ham egaligi ko'pchilik olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida *N. oleander* manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Barglari tol barglariga o'xshaydi. Gullari pushti va juda chiroyli. Odamlar o'simlikning zaharli xususiyatlari

haqida bilishadi. Hatto gullarning hidi ham bosh og'rig'iga sabab bo'ladi, shuning uchun gullaydigan o'simliklarni qattiq, yopiq joylarda saqlash tavsiya etilmaydi [1].

O'simlik ustida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra sobiq MDH davlatlarida uning asosian bioekologik xususiyatlariga doir ilmiy izlanishlar olib borilganligi, xorijda esa asosan ularning bioximiyasi va farmakologiyasi o'rganilganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu maqolada uning shifobaxsh xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilish natijalarini keltiramiz.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** *Nerium* L. turkumi ikki tur bilan ifodalanadi: O'rta yer dengizining butun qirg'oqlari bo'ylab Fors ko'rfazigacha o'sadigan *Nerium oleander* L., (sin. – *N. laurifolium* Lam.) va shimoli-g'arbiy Hindistondan Xitoygacha tarqalgan *N. Indicum* (Hind oleandrasini yoki xushbo'y oleandr) [2]. APG 3 taksonomik tizimiga ko'ra, *Nerium* L. turkumi faqat bitta turni o'z ichiga oladi - *Nerium oleander* L. (sin. – *N. indicum* L.). O'zbekistonning janubiy shaharlarri, jumladan Qarshi shahriga introduksiya qilingan navlarning aksariyati kelib chiqishi noma'lum duragaylar hisoblanadi [3].


Qo'yilgan maqsadga erishish uchun dastlab hujjatli metoddan foydalanilib, tadqiqot obyektiga tegishli ilmiy nashrlarning yirik retsenzialangan ma'lumotlar bazalari (Scopus, Web of Science va PubMed) da mavjud bo'lgan yuzdan ortiq manbalari o'rganildi. Ular orasidan o'simlikning dorivorlik xususiyatlarini, tarkibidagi birikmalarning biologik va farmakologik faolligini, shuningdek, o'simlikdan tibbiyotda va an'anaviy tabobatda qo'llanilishini o'rganishga bag'ishlangan oxirgi 25 yil ichida chop etilgan tadqiqotlar ajratib olindi. Ushbu tadqiqot natijalari tizimli, tizimli-mantiqiy metodlardan foydalanilib monitoring qilindi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** O'simlikning kimyoviy tarkibi: o'simlikning barcha qismlarida, ayniqsa, gullarda ko'plab yurak glikozidlari, jumladan, oleandrin, diatsetilopandriin, adinerin, neriin, nerisozid, neritalosid va odorozid-H aniqlangan, bu o'simlikning toksikligidan dalolat beradi [4], [5]. O'simlik barglarida pentatsiklik triterpenlar, oleandrositik kislota, flavonoid glikozidlar, quercetin, kempferol, kardenolid oleandigozid, saponinlar, flavonoidlar va ursolik kislotalar [6], [7]. Gullar tarkibida 2,3% gacha polisakkaridlar mavjud bo'lib, ular orasida galakturon kislotasi, ramnoz, arabinoza va galaktoza bor [8]. Oleander gullarining efir moyi tarkibida nerilin (22,56%), digitoksigenin (11,25%), amorfan (8,11%), 1,8-sineol (6,58%), a-pinen (5,54%), kalaren (5,12%), limonen (5,01%), teren (8,8%) l (%), sabinen (3,22%), izoleden (2,94%), 3-karen (2,56%), humulen (2,29%), b-pinen (2,01%), simen-8-ol (1,67%) kabilar ustunlik qiladi [9].

Oleander qadim zamonlardan beri dorivor vosita sifatida tanilgan. Qadimgi tabiblar o'simlikning tabiatini III-daraja issiq va II-daraja quruq deb bilganlar. Galen, Ibn Sino va boshqalar oleanderda zahar borligi va uni faqat tashqaridan ishlatish mumkinligi qayd etishgan [10]. Qaynatilgan oleander barglarini maydalab, surtilsa, ular shishni ketkazishi, tizza va beldagi surunkali og'riqlarni, teri kasalliklari: qichish, temiratki, sepkil va boshqa dog'larni yo'q qilishi to'g'risida ma'lumotlar mavjud [11] (rasm). Oleander barglari sharbati, tashqi tomondan qo'llanilganda, temiratkini, terini qichishishni davolaydi va qichishishni yumshatadi. Oleander quruq barglari kukuni yaralarga sepiladi. Kukun qinga kiritilganda, bachadon og'rig'ini davolaydi. O'simlikning har qanday qismining qaynatmasi burgalar va chumolilarni haydaydi [10].

Oleanderdan moy ham tayyorlanadi: Birinchidan, oleander barglari va gullaridan qaynatma tayyorlanib (1:10), keyin, uning 1 qismiga 0,5 qism zaytun moyi qo'shiladi va past olovda suvni bug'latiladi. Bu moy teridagi temiratki, vitiligo, zaiflashgan nervlar va tizza og'rig'i uchun ishlatiladi [11]. Oleander barglaridan malham tayyorlash uchun teng miqdorda barg,

nordon sut va sariq oltingugurt olinib, ularni yaxshilab maydalanadi va keyin bir xil miqdorda kunjut yog'i qo'shiladi. Bu malhamdan 7 marta surtilsa, teri kasalliklarini ketkizadi [11]. Markaziy Osiyo mamlakatlarining zamonaviy xalq tabobatida oleander yog'idan bit, vitiligo va terining qichishini davolashda foydalaniladi [1]. Bolgar xalq tabobatida oleander ildizi gepatit, xoletsistit, o't pufagida toshlar, gemorroy, gastrit, kolit, meteorizm, ich qotishi va antigelmintik vosita sifatida ishlatiladi. Qaynatma uchun 2 choy qoshiq oleander ildizi 1 stakan suvda qaynatiladi va kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichiladi [12].



### Rasm. *Nerium oleander*ning shifobaxshlik xususiyatlari va ularni ilmiy maqolalarda e'tirof etilish holati

Ilmiy tibbiyotda oleander glikozidlariga asoslangan "Nerolin" preparati ishlab chiqarilgan. Bu preparatning kuchi strofantindan keyin, digoksindan oldin turadi [13]. Eksperimental tadqiqotlar acosida oleander gullari ekstraktining kardioprotektiv xususiyatlarini aniqlangan [14].

Ba'zi o'simlikshunoslar o'simlik barglaridan tayyorlangan damlamani diuretik va koronar tomirlarni kengaytiruvchi vosita sifatida ishlatishadi. Buning uchun 1 choy qoshiq bargi 0,5 litr sovuq suvga 1 soat davomida damlanadi va kuniga 3 marta 50,0 grammdan ichiladi. Ushbu damlama sitotoksik ta'sirga egaligi aniqlangan. Oleander preparatlari bilan toshbaqa kasalligini davolashda yaxshi natijalarga erishilgan [12].

Oleander yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi xususiyatlarga ega. Gullarining spirtli ekstrakti antioksidant va gepatoprotektiv xususiyatlarga, barglari ekstrakti immunomodulyator, kuchli diabetga qarshi faollikka egaligi aniqlangan [1].

Eksperimental tadqiqotlar natijasida, oleander barglari ekstraktlarini qabul qilish diabet kasalliklarida siydik va boshqa tizimlarda sodir bo'ladigan asoratlarni rivojlanishiga to'sqinlik qilishi aniqlangan. Oleander gullari ekstrakti bakteriyalar va zamburug'larga qarshi faollikka ega. O'simlikdan tayyorlangan Anvirzel preparati inson immunitet tanqisligi virusiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Gullarining spirtli ekstraktini leykemiyaqa qarshi faollikka egaligi aniqlangan. Oleander glikozidlari sedativ ta'sirga ega. Eksperimental tadqiqotlar natijasida, o'simlik barglari ekstraktlari tayanch-harakat faollikni, og'riq sezuvchanligini pasaytiradi va eksperimental hayvonlarga depressiv ta'sir ko'rsatadi [1].

O'simlik juda zaharli bo'lib, undan zaharlanganda diareya, nevrologik kasalliklar, buyrak yetishmovchiligi, yurak faoliyatining buzilishi kuzatiladi [15]. O'limga olib keladigan zaharlanish holatlari kam uchraydi [16]. Oleander gullari bilan aloqa qilganda teri dermatitining rivojlanishi holatlari kuzatiladi [17]. Oleander gulining efir moylarida zaharli xususiyatlar aniqlanmagan [18].

**XULOSA.** Shunday qilib, *Nerium oleander* dan xalq tabobatida, asosan, shish, bo'g'im og'riqlari, teri, nerv, gepatit, o't pufagi, hazm organlari kasalliklarida, shuningdek, antigelmintik, diuretik va koronar tomirlarni kengaytiruvchi vosita sifatida ishlatilsa, ilmiy farmakologiyada kardioprotektiv, yallig'lanishga qarshi, og'riq qoldiruvchi, antioksidant, gepatoprotektiv, immunomodulyator, sedativ, diabetga, bakteriyalar va zamburug'larga, immunitet tanqisligi virusi (VICH)ga, leykemiyaqa qarshi faollikka egaligi aniqlangan. *Nerium oleander* o'simligidan ko'kalamzorlashtirishda va mahalliy farmokopeyada foydalanish uchun introduksiya sharoitida o'simlikning o'sishi va rivojlanishini tadqiq qilish lozim. O'simlikni o'sishi va rivojlanishini tadqiq qilish orqali uni ko'paytirishning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Bu orqali katta maydonlarda plantatsiyalar yaratilib, farmokopeya va ko'kalamzorlashtirish uchun ko'p miqdorda xomashyo va ko'chatlar tayyorlash imkoniyati tug'iladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кароматов И.Дж, Аминова Л. Олеандр как лекарственное средство // Биология и интегративная медицина. 2017. №3.
2. Krüssmann G. Cultivated broad-leaved trees & shrubs. Vol. II, E-PRO. – Tumber Press: Portland, Oregon., 1977. – P. 321.
3. Карпун Ю.Н. Субтропическая декоративная дендрология. – СПб: изд-во «ВВМ», 2010. - 580 с. 142.
4. Begum S., Siddiqui B.S., Sultana R., Zia A., Suria A. Bio-active cardenolides from the leaves of *Nerium oleander* – *Phytochemistry* - 1999, 50, 3, 435-438.
5. Bandara V., Weinstein S.A., White J., Eddleston M. A review of the natural history, toxinology, diagnosis and clinical management of *Nerium oleander* (common oleander) and *Thevetia peruviana* (yellow oleander) poisoning – *Toxicon* 2010, 56(3), 273-281.
6. Шретер А.И., Муравьева Д.А., Пакалн Д.А., Ефимов Ф.В. Лекарственная флора Кавказа М., «Медицина» 1979.
7. Чмелева С.И., Бугара А.М., Омельченко А.В., Якимова О.В. Получение каллусных культур олеандра обыкновенного (*Nerium Oleander* L.) и их анализ на содержание сердечных гликозидов – Ученые Записки Крымского Федерального Университета им. В.И.Вернадского. Биология. Химия 2009, 22(2), 145-151.
8. Müller B.M., Roskopf F., Kraus J., Franz G. Polysaccharides from *Nerium oleander*: structure and biological activity – *Die Pharmazie* 1991, 46(9), 657-663.

9. Derwich E., Benziane Z., Boukir A. Antibacterial activity and chemical composition of the essential oil from flowers of *Nerium oleander* - *Electronic journal of environmental, Agricultural and food chemistry* 2010, 9(6), 1074-1084.
  10. Абу Али ибн Сино. Канон врачебной науки II том Ташкент,1996. -190 б.
  11. Зоҳидов Х. Канзи шифо (Сокровищница здоровья) – Душанбе: Ирфон 1991. – 278 б.
  12. Кароматов И.Дж. Простые лекарственные средства. – Бухара: Дурдона, 2012.
  13. Adome R.O., Gachihi J.W., Onegi B., Tamale J., Apio S.O. The cardiotoxic effect of the crude ethanolic extract of *Nerium oleander* in the isolated guinea pig hearts - *African health sciences* 2003, 3(2), 77-82.
  14. Gayathri V., Ananthi S., Chandronitha C., Ramakrishnan G., Lakshmisundaram R., Vasanthi H.R. Cardioprotective effect of *Nerium oleander* flower against isoproterenol-induced myocardial oxidative stress in experimental rats - *J. Cardiovasc. Pharmacol. Ther.* 2011, Mar., 16(1), 96-104.
  15. Langford S.D., Boor P.J. Oleander toxicity: an examination of human and animal toxic exposures – *Toxicology* - 1996, 109, 1, 1-13.
  16. Haynes B.E., Bessen H.A., Wightman W.D. Oleander tea: herbal draught of death - *Ann. Emerg. Med.* 1985, Apr.,14(4), 350-353.
  17. Pellet G., Masson-Regnault M., Beylot-Barry M., Labadie M. [Irritant contact dermatitis caused by direct contact with oleander (*Nerium oleander*)] - *Ann. Dermatol. Venereol.* 2015, Jun-Jul., 142(6-7), 434-437.
- Ali H.F.M., El-Ella F.M.A., Nasr N.F. Screening of chemical analysis, antioxidant antimicrobial and antitumor activities of essential oil of oleander (*Nerium oleander*) flower - *International journal of biological chemistry* 2010, 4(4), 190-202.

## QARSHI VOHASI SHAROITIDA GEMEROKALLIS NAVLARINI INTRODUKSIYASI NATIJALARI

*Xujaqulova Fotima Akram qizi*  
*Turon universiteti magistri*

**Annotatsiya.** Maqolada gemerokallis 10 ta navini Qarshi vohasi sharoitida introduksion baholash natijalari keltirilgan. Unga ko'ra o'rganilgan navlar quyidagi guruhlariga ajratilgan: o'ta istiqbolli navlar – bu guruhga 120 dan yuqori bal to'plagan *Red Velour* navi kiritilgan; istiqbolli navlar – bu guruhga 100 dan 120 gacha bal to'plagan *Black Emanuelle, Banbury Contrast, Alise in Wonderland, Orchid Candy, Cadillac, Derby Bound* navlari kiritilgan; kam istiqbolli navlar – bu guruhga 100 dan past ball to'plagan *Weniberri Cendi, Crista Step* va *Forward* navlari kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** baholash, gullash, gulpoya, ildizpoya, introduksiya, to'pgul, to'pbarg.

**Annotation.** The article presents the results of the introduction assessment of 10 daylily varieties in the conditions of the Karshi oasis. The studied varieties were divided into the following groups: highly promising varieties - this group includes the *Red Velour* variety, which scored more than 120 points; promising varieties - this group includes *Black Emanuelle, Banbury Contrast, Alice in Wonderland, Orchid Candy, Cadillac, Derby Bound*, which scored from 100 to 120 points; unpromising varieties - this group includes the *Weniberri Cendi, Crista Step* and *Forward* varieties, which scored less than 100 points.

**Key words:** introduction assessment, flowering, peduncle, rhizome, introduction, inflorescence, rosette leaf

**KIRISH.** Qarshi vohasining issiq va quruq, keskin kontinental iqlim sharoitiga bardosh beradigan gullar assortimenti juda kam bo'lib, mavjudlarining ham bioekologik xususiyatlari, ko'paytirish va parvarishlashning samarali usullari kam o'rganilgan. Qarshi vohasining iqlim sharoitiga bardoshli o'ta manzarali o't o'simliklar qatoriga gemerokallislar kiradi. Ular arid mintaqalar uchun istiqbolli hisoblanib, ularni Qarshi vohasi sharoitiga introduksiya qilish, bioekologik xususiyatlarini o'rganish, ko'paytirish usullari va agrotexnikasini ishlab chiqish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega.

**ADABIYOTLAR SHARHI.** *Hemerocallis* L. turkumi turli manbalarga ko'ra 15 tadan 38 tagacha turni o'z ichiga oladigan ko'p yillik o't o'simliklar. Vatani Sharqiy Osiyo bo'lib, Yevropa va Amerikada o'zining ikkinchi vatanini topgan. Dunyo seleksionerlari tomonidan 65000 ga yaqin navlari yaratilgan [1:20].

Gemerokallis turkumi turlari Sharqiy Osiyoning mo'tadil iqlimli zonalarida tarqalgan. Bu turlar asosan Xitoy, Koreya va Yaponiya yarim orollarida, Uzoq Sharqda va Sharqiy Sibirda o'sadi. Tabiatda gemerokallislar o'rmonning o'simliklar siyrak o'sadigan joylarida, butazorlarda, o'rmon o'tloqlarida o'sadi [2:16]. O'z vatani Sharqiy Osiyo va Uzoq Sharqda gemerokallislar yarim soya va soya joylarda o'sadi. Shu sababli adabiyotlarda ularni yarimsoyada va soyada o'stirish tavsiya etiladi [3:10]). Ildizining ayrim joylari yo'g'onlashgan, seret. O'rmalovchi yerosti poyalari bo'lib, bu poyalar ayrim tur va navlarda uzun bo'lsa, ayrimlarida kalta. Barglari ildiz bo'g'zida to'pbarg hosil qilib o'sadi. Barglarining uchi o'tkirlashgan bo'lib, ikki halqada navbatma-navbat joylashadi [4:46-47].

**TADVIQOT METODOLOGIYASI.** Qarshi vohasi sharoitiga introduksiya qilingan gemerokallisning 10 ta navini Qarshi vohasi sharoitida bioekologik xususiyatlari, ko'paytirish va parvarishlashning samarali usullarini o'rganish maqsadida 2024-yilda tadqiqot olib borildi.

O'rganilgan gemerokallis navlarini baholash maqsadida biz V.N. Bilov tomonidan ishlab chiqilgan metodikaga ayrim o'zgartirishlarni kiritgan holda murojaat qildik [5:69-77]. Unga ko'ra navlarning manzaralilik belgilari va xo'jalik-biologik xususiyatlari hisobga olindi. Manzaralilik belgilarini baholashda 100 balli shkala tanlandi. Bunda quyidagi belgilar hisobga olindi: gul rangi; gul shakli; gul o'lchami; gulpoya uzunligi; bir vaqtda ochilib turgan gullar soni; o'simlik gabitusi; xidi; gullash tipi

(1-jadval)

**Qarshi vohasi sharoitida gemerokallis navlari manzaralilik va xo'jalik-biologik sifatlarini baholash shkalasi**

Belgilar	Ballar					Koeffi-siyenti	Maksimal baho, ballar
	1	2	3	4	5		
<b>Manzaralilik sifatleri</b>							
Gul rangi	xira tusdagi	zarg'aldoq	jigarrang, sariq aralash jigarrang	targ'il tusdagi, malina rang	yorqin qizil va tillarang -sariq	5	25
Gul shakli	o'rgimchaks imon	uchburchak	yulduzsimon	aylana	orxideya simon	5	25
Gul o'lchami, sm	7,5	7,5-11,5	11,5-17,5	17,5 dan ortiq		3	12
Gulpoya uzunligi	gulpoyasi barglar sathidan past	gulpoyasi barglar sathi bilan teng	gulpoyasi barglardan baland			3	9
Bir vaqtda ochilib turgan gullar soni	1	2	3			3	9
O'simlik gabitusi	tupi rivojlanmagan	tupi rivojlangan				4	8
Xidi	sezilarsiz	sezilarli				3	6
Gullash tipi	kechki	kunduzgi				3	6
<b>Jami</b>							<b>100</b>
<b>Xo'jalik-biologik sifatleri</b>							
Tupining yon tomonga o'sishga moyilligi	ildizpoya va o'rmalovchi poyalar kalta	ildizpoyalar ham o'rmalovchi poyalar ham uzun				5	10
Kasalliklar va zararkunan dalardan zararlanish	o'simlik nobud bo'ladi	o'simlik zararlanadi, ammo nobud bo'lmaydi				2	4

darajasi							
Sovuqqa chidamliligi	chidamsiz	chidamli, barglar sovuqda turgorligini yo'qotadi, yana tiklanadi	o'ta chidamli, barglari qishda yashil			2	6
Gullash mahsuldorligi	10 tadan kam	10-15 ta	15-20 ta	20-25 ta	25 tadan ko'p	3	15
Gullash davomiyligi	10 kun	10-15 kun	15-20 kun	20-25 kun	25 kundan ko'p	3	15
<b>Jami</b>							<b>50</b>
<b>Umumiy ball</b>							<b>150</b>

**NATIJA VA TAHLILLAR.** O'rganilgan navlar gullash davrining boshlanishiga ko'ra ertachi, o'rta va kech gullaydigan guruhlarga bo'lindi.

Ertachi gullaydigan navlarda gullash may oyining birinchi dekadasi boshlanib, shu oyning ikkinchi-uchinchi dekadasi davom etadi. Bu guruhga *Red Velou*, *Black Emanuelle*, *Banbury Contrast* navlari kiritildi.

O'rta muddatda gullaydigan navlarda gullash may oyining ikkinchi dekadasi shu oyning oxirgi kunlarigacha davom etadi. Bu guruhga *Alise in Wonderland*, *Orchid Candy* va *Cadillac* navlari kiritildi.

Kechki navlarning gullashi may oyining oxirida boshlanadi va iyun oyining ikkinchi dekadasi davom etadi. Bu guruhga *Derby Bound*, *Weniberri Cendi*, *Crista*, *Step Forward* navlari kiritildi.

Kuzatishlarimiz asosida yarimsoyada o'sgan gemerokallis turlarining yaxshi o'sib rivojlanganligiga guvoh bo'ldik. Soya joyda ekilgan gemerokallisning gullari kichikroq bo'lishi, ranglari ham och tusda ochilishi aniqlandi. Bunday joyda gemerokallis gullari to'liq ochilmadi. Umuman soya tushmaydigan joyga ekilgan gemerokallisning barglari issiqdan zararlanganligi kuzatildi. Ya'ni adabiyotlarda keltirilgan vatanidagi sharoitga introduksiya sharoiti umuman mos kelmadi. Bizningcha, buning asosiy sababi bu navlarning yaratilishida AQSH, Fransiya, Avstraliyada ikkinchi vatanini topgan turlardan foydalanilgan. Chunki navlarning asosiy mualliflari shu mamlakatlarning seleksioner olimlari hisoblanadilar. Bu mamlakatlardagi sharoit gemerokallislarining haqiqiy vatanidagi sharoitdan farq qiladi.

Qishda qor qalin yoqqan bo'lsa, kuzda hosil bo'lgan barglar qor ostida nobud bo'lmay bahorda o'sishda davom etadi. Qish quruq va sovuq kelgan yillarda esa gemerokallisning kuzda hosil bo'lgan barglari nobud bo'ladi va erta bahorda yangi to'pbarglar o'sa. Qarshi vohasi sharoitida yoz oylarining quruq va issiq haroratida gemerokallis barglarining biroz sarg'ayganligi, gullari maydalashganligi kuzatildi.

Gemerokallislar uchun eng qulay bo'lgan namlik sharoiti bu – tuproqning ustki qatlamida, ya'ni to'pbargning yerga tegib turgan qismida namlikning kamroq bo'lishi va 20-30 sm chuqurlikda namlikning me'yorida bo'lishi hisoblanadi. Gemerokallislar uchun mexanik tarkibi o'rta va yengil qumoq bo'lgan oddiy bog' tuprog'i eng yaxshi tuproq bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlarda gemerokallisni vegetativ usulda ko'paytirishning optimal muddati kuz va bahor oylari deb berilgan [2: 159]. O'zbekiston sharoitida gemerokallislar oktabr oyining o'rtalarigacha qisman erta bahorda – mart oyining birinchi, ikkinchi dekadasi (vegetatsiyasi boshlanganidan so'ng) tupini bo'lish orqali ko'paytiriladi. Bundan kechikkanda o'simlik shu yili gullamasligi mumkin. Ammo, Qarshi sharoitida bahor oylarida ko'paytirilgan gemerokallisning birinchi yili deyarli gullamaganligini, gullaganlarining ham gullari maydalashib ketganligining guvohi bo'ldik. Shu sababli Qarshi sharoitida gemerokallislarni faqat oktabr oyida ko'paytirish kerak.

Har bir o'rganilgan navning introduksiyasi natijalarini obyektiv baholash uchun avvalambor uning manzaralilik ko'rsatkichiga aloqador belgilariga alohida e'tibor beriladi. Manzarali o'simliklarga baholashda uning insonlarda subyektiv taassurot qoliradigan rangi, shakli kabi sifat ko'rsatkichlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xattoki gullar soni, gullar o'lchami kabi miqdoriy sifatlarga ham manzarali effekt nuqtai nazari bilan yondashiladi.

Navlarga xos belgilar ichida gullar rangi alohida o'rin tutadi. Gulning umumiy tonining va tusining o'ziga xosligi, tozaligi va barqarorligi shu navning tez ommalashishiga va tarqalishiga xizmat qiladi. Qarshi vohasiga introduksiya qilingan gemerokallis navlari orasida barcha ranglilari: sariq, zarg'aldoq, qizil, pushti rangli navlar mavjud. Sariq ranglilar guruhiga limon-sariq, to'q-sariq, och-sariq, sarg'ish ranglilar kiradi. Xuddi shunday boshqa ranglar ham bir necha tusni o'z ichiga oladi.

Bu belgi bo'yicha eng yuqori ball *Black Emanuelle*, *Alise in Wonderland*, *Red Velour* navlariga berildi. O'rtacha ball *Banbury Contrast*, *Orchid Candy*, *Weniberri Cendi*, *Crista*, *Derby Bound* kabi navlarga berildi. Eng past ballni esa *Step Forward* va *Cadillac* navlariga berildi.

Gullar shaklini hisobga olganda toj barglar eni, shakli, qayrilganligi yoki to'liqinsimonligi, gul uzunligining eniga mutanosibligiga e'tibor berildi. Shuningdek gulining shakliga ko'ra qaysi tipga kirishi nazarda tutildi. Bu belgi bo'yicha eng yuqori ballni *Derby Bound*, *Orchid Candy*, *Step Forward*, *Alise in Wonderland*, o'rtacha ballni *Black Emanuelle*, *Red Velour*, *Banbury Contrast*, *Cadillac* eng past ballni esa *Weniberri Cendi* va *Crista* navi oldi.

Gulning o'lchami navni baholash jarayoniga u qadar ta'sir ko'rsatmadi. Sababi, o'rganilgan navlar ichida mayda gulli navlar yo'q. Bu belgi bo'yicha *Banbury Contrast* va *Black Emanuelle* navlaridan boshqa barcha navlar eng katta ballni to'pladi.

Gemerokallis navlarida gulpoyaning uzunligi introduksiya sharoitining tuproq-iqlim omillari va nav xususiyatlari bilan bog'liq. Gulpoyasi barglaridan sezilarli darajada baland bo'lgan *Orchid Candy*, *Step Forward*, *Alise in Wonderland*, *Red Velour*, *Banbury Contrast*, *Cadillac* kabi navlar bu belgi bo'yicha yuqori ballarni oldi. Qolgan navlar bu belgi bo'yicha o'rtacha ballarni oldi. Gulpoya uzunligi barg uzunligidan past bo'lgan navlar bizning tadqiqotimizga kiritilmagan.

Gemerokallis navlarining gullari birin-ketin ochilish xususiyatiga ega. Ko'p xollarda bitta gul bir kun ochilib turadi. Ayrim navlarda esa 2-3 kungacha ochilib turadi. Adabiyotlarda bulutli kunlarda gul to'liq ochilmaydi, va keyingi quyoshli kunda birdaniga 2 ta gul ochiladi degan ma'lumotlar uchraydi. Ammo, Qarshi sharoitida bulutli kunda ham gulning yaxshi ochilib turganligining guvohi bo'ldik. Gullari 2-3 kun mobaynida ochilib turadigan *Alise in Wonderland*, *Black Emanuelle*, *Red Velour*, *Banbury Contrast*, *Cadillac* navlari bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori ballni oldilar. Qolgan navlarga esa past ball qo'yildi.

O'simlikning gabitusi uning tashqi ko'rinishi, barglarining rangi, tupning rivojlanganligi, umuman tupning shakliga qarab belgilanadi. Buni uzoqdan o'simlik tupiga qaraganda boshqa

navlar bilan solishtirilib aniqlash mumkin. Navlarni yaratishda seleksioner olimlar gullarning manzaralilik sifatlariga urg'u berganlar. Asosan bu navlarda o'simlikning yashil qismi turlardagi singari o'sib ketmaydi. Bu holat ko'kalamzorlashtirish talabiga javob beradi. Bu belgi bo'yicha barcha navlar yaxshi ballni oldilar.

Gemerokallis navlari xushbuy hid taratish belgisini limon rangli gemerokallis turidan meros qilib olganlar. Xushbuy xid taratish o'simlikning manzaralilik sifatlariga ta'sir qilmaydi. Ammo bog'larda, park va hiyobonlarda, odamlar dam oladigan maskanlarda bu belgining ahamiyati katta. Shularni e'tiborga olgan holda ball taqsimlaganda bu belgiga kichik koeffitsiyent ajratildi. Gemerokallislarda xid taratish kuchli bo'lishi yoki sezilsiz darajada bo'lishi mumkin. *Alise in Wonderland, Orchid Candy* navlari bu belgi bo'yicha yuqori ballarga ega bo'ldi.

Ma'lumki, gemerokallislarning gullash tipi kunduzgi yoki kechki bo'ladi. Ular ichida asosiy qismi kunduz kuni gullasa, ayrimlarining gullari kechasi ochiladi. Ayrim navlarning gullari kunduzi quyosh chiqqandan so'ng ochiladi va kun bo'yi ochilgan holatda turadi. Bunda tojbarglar cheti borgan sari orqaga qayrila boshlaydi. Quyosh botishi bilan gullar yopiladi va tushib ketadi. Kechasi ochiladigan gemerokallis navlarning gullari quyosh botishidan biroz oldinroq ochila boshlaydi va keyingi kun quyosh chiqishi bilan yopiladi. Agar kun bulutli va salqinroq bo'lsa bir necha soat gullari yopilmay turishi mumkin. Bu belgi bo'yicha barcha navlar yuqori ballarni oldilar.

Gemerokallislarning xo'jalik-biologik ahamiyatini baholash uchun quyidagi sifatlar nazarda tutildi:

- tupining yon tomonga o'sishga moyilligi;
- kasalliklar va zararkunandalardan zararlanish darajasi;
- sovuqqa chidamliligi;
- gullash mahsuldorligi;
- gullash davomiyligi.

Xo'jalik-biologik xususiyatlari 50 ballik shkala asosida tegishli koeffitsiyentlarda baholandi.

Gemerokallis tupining quyugligi uning ildizpoyasining yon tomonga o'rmalovchi poyalar va ularda kurtaklarning hosil bo'lish darajasi bilan tushuntiriladi. Bu o'simlikni vegetativ ko'payish koeffitsiyentiga ta'sir qiladi. Gemerokallis navlarining urug'laridan ko'paytirilmasligini, ularni ko'paytirishning yagona usuli vegetativ usuldan iboratligini e'tiborga oladigan bo'lsak mazkur belgi katta ahamiyatga ega ekanligini tushunish mumkin. Shu sababli tupning yon tomonga o'sishga moyilligi belgisining koeffitsiyentini kattaroq qilib belgiladik. Baholash jarayonida to'pbarglari bir-biriga zich holatda hosil bo'ladigan navlardan uch yilda kam sonli (3-5) ekish materialini olinadi. Chunki ularni bo'lish qiyinchilik tug'diradi va bo'linayotgan vaqtda ayrim kurtaklar zararlanib nobud bo'ladi. O'rmalovchi poyalari uzun bo'lgan navlardan esa 10-15 tagacha ekish materialini olish mumkin. Chunki bunday navlar ildizpoyasida hosil bo'lgan kurtaklar bir-biridan uzoqroqda joylashgan bo'ladi va ularni ajratish qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu belgi bo'yicha *Black Emanuelle, Red Velour, Banbury Contrast, Cadillac* navlari yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Qolgan navlarga esa past ballar qo'yildi.

Tadqiqot yillari mobaynida gemerokallis navlarining kasallik va zararkunandalardan nobud bo'lganligi kuzatilmadi. Ammo o'simliklarda har yili u yoki bu kasalliklarning belgilari kuzatildi. Kasallik barglarda sariq dog'larning paydo bo'lishi, va bu dog'larning biroz kattalashib, qoramtir tusga kirishi, barglar uchki qismidan boshlab sarg'ayib, qurishi kabi belgilar bilan

namoyon bo'ldi. Bu holatlar ayniqsa seryog'in kelgan bahor yillarida va o'ta issiq kelgan yoz oylarida sezilarli darajada bo'ldi. Ammo tez orada kasallangan barg ustidan yangi, yam-yashil barg o'sib chiqib, uning ustini yopadi va bu holat o'simlikning manzaralilik xususiyatining tiklanishiga olib keladi. O'simlikning gullashiga bu holatning salbiy ta'sirini sezmadik. Shuningdek, barglarida kasallik belgilari kuzatilgan o'simliklar nobud bo'lmay, keyingi yili aynan shu o'simlikda kasallik belgilari kuzatilmadi. Shu sababli bu belgi bo'yicha navlarga o'rtacha ball qo'yildi.

Kuzda havo haroratining keskin pasayib ketishi bilan gemerokallislarning barglari turgorligini yo'qotib, yerga yotib qoladi. Shu sababli kech kuzgi sovuq tushishini kutib o'tirmasdan, ularning barglarini ildiz bo'g'zidan 10-15 sm yuqoridan kesib tashlash kerak. O'rganilgan navlar Qarshi vohasi sharoitida qishdan zararlanmay o'tdi. 2012-2013 yilning qish oylarida kuzatilgan havo haroratining  $-25^{\circ}\text{C}$  ga pasayishi gemerokallislarga halokatli ta'sir ko'rsatmadi. Bu belgi bo'yicha ular o'rganilgan navlarning barchasi o'rta ballga ega bo'ldilar.

Gullash mahsuldorligi har bitta tupda hosil bo'lgan gullar soni bilan hisoblanadi. Gemerokallislarda gullar soni navlarning xususiyatidan kelib chiqadi va navlar bu xususiyatiga ko'ra bir-biridan katta farq qiladi. Ayrim navlarda gullar soni 15 ta bo'lsa, ayrimlarida 25 taga yetadi. Gullar sonining nav ichida farqi 3-4 tadan oshmaydi. O'simlikdagi gullar soni uning nav xususiyatlaridan tashqari yoshiga ham bog'liq bo'ladi. O'simlik tupining yoshi oshgani sayin undagi gulpoyalar soni ham ko'payib boradi. Ammo to'pguldagi gullar soni kamaya boradi. Bu belgi bo'yicha *Black Emanuelle*, *Red Velour* navlari yuqori ballni, *Banbury Contrast*, *Weniberri Cendi*, *Crista* navlari o'rtacha va qolgan navlar past ball oldi. Gullash davomiyligi bo'yicha qo'yilgan ballar ham gullash mahsuldorligi bo'yicha ballarga mutanosib keladi.

**XULOSA.** Shunday qilib, navlarni baholash natijalariga ko'ra o'rganilgan o'simliklar quyidagi guruhlariga ajratildi (2-jadval):

- o'ta istiqbolli navlar – bu guruhga 120 dan yuqori bal to'plagan *Red Velour* navi kiritildi;
- istiqbolli navlar – bu guruhga 100 dan 120 gacha bal to'plagan *Black Emanuelle*, *Banbury Contrast*, *Alise in Wonderland*, *Orchid Candy*, *Cadillac*, *Derby Bound* navlari kiritildi;
- kam istiqbolli navlar – bu guruhga 100 dan past ball to'plagan *Weniberri Cendi*, *Crista Step* va *Forward* navlari kiritildi.

Qarshi vohasini ko'kalamzorlashtirishda gemerokallislarning *Red Velour*, *Black Emanuelle*, *Banbury Contrast*, *Alise in Wonderland*, *Orchid Candy*, *Cadillac*, *Derby Bound* kabi navlardan foydalanish tavsiya etiladi.

2-jadval

**Qarshi vohasi sharoitida gemerokallis navlarini baholash natijalari**

Nav	Ballarda baholash													Jami ball
	Manzaralilik sifatleri							Xo'jalik-biologik sifatleri						
	<i>Gul rangi</i>	<i>Gul shakli</i>	<i>Gul o'Ichamii, sm</i>	<i>Gul-poya uzun-ligi</i>	<i>Bir vaqtda ochilib turgan gullar soni</i>	<i>O'simlik gabitusi</i>	<i>Xidi</i>	<i>Gullash tipi</i>	<i>Tupining yon tomonga o'sishga moyilligi</i>	<i>Kasalliklar va zararkunandalardan zararlanish darajasi</i>	<i>Sovuqqa chidamligi</i>	<i>Gullash mahsuldorligi</i>	<i>Gullash davomiyligi</i>	
<i>Red Velour</i>	25	15	12	9	9	8	3	6	10	4	4	12	12	129

<i>Black Emanuelle</i>	25	15	9	6	6	8	3	6	10	4	4	12	12	120
<i>Banbury Contrast</i>	20	15	9	9	9	8	3	6	10	4	4	9	9	115
<i>Alise in Wonderland</i>	25	20	12	9	9	8	6	6	5	4	4	6	6	114
<i>Orchid Candy</i>	20	25	12	9	3	8	6	6	5	4	4	6	6	114
<i>Cadillac</i>	15	20	12	9	6	8	3	6	10	4	4	6	6	109
<i>Derby Bound</i>	20	25	12	6	3	8	3	6	5	4	4	6	6	108
<i>Crista</i>	20	10	12	6	3	8	3	6	5	4	4	9	9	99
<i>Step Forward</i>	10	20	12	9	3	8	3	6	5	4	4	6	6	96
<i>Weniberri Cendi</i>	20	10	12	6	3	8	3	6	5	4	4	6	6	93

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Улановская И.В. Биоморфологические особенности *Heimerocallis hybrida* hort. коллекции Никитского ботанического сада. Автореф. дисс... канд. биол. Наук: / Никитский ботанический сад-Научный центр – Ялта, 2015.–20 с.
2. Русинова Т.С. Лилейники. – М.:Астрель, 2005. –176 с.
3. Хими́на Н.И. Лилейники. – М.: Издательский дом МПС, 2002. –208 с.
4. Голиков К. Лилейники в садовом ландшафте // Цветоводство. 2004.– № 3. С. 46-47.
5. Былов В.Н. Основы сортоизучения и сортооценки декоративных растений при интродукции // Бюл. ГБС. – 1971. – Вып. 81. – С. 69-77.

## ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY TAFAKKUR MADANIYATINING TRANSFORMASİYALASHUVI

*Djurayev Lukmon Narzullaevich*

Samarqand davlat universiteti Falsafa va milliy g'oya  
kafedrası dotsenti, f.f.d. (DSc)

*S.M. Ro'zimurodov*

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar  
kafedrası dotsenti f.f.b.f.d., (PhD)

**Annatasiya:** Ushbu maqolada iqtisodiy madaniyat barqarorlikni ta'minlash bevosita ishlab chiqarish madaniyati va xulq-atvorga bog'liqligi yaxlit tizim sifatida samarali yoritiladi. Iqtisodiy madaniyat tizimi sifatida integrativ va funksional aloqalari yoritiladi. Funksional aloqalaridan biri bo'lgan xulq-atvor masalalari yoritilib bu masalaga bir qancha mutaxassislarining qarashlari, ta'riflari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Empirik tadqiqotlar, raqobatdosh, integrativ, funksional, struktura, iqtisodiy, xulq-atvor, xulq, mehnat, odob-axloq.

**Annotation:** In this article, economic culture is effectively highlighted as an integral system in which sustainability depends directly on the culture of production and behavior. The integrative and functional connections of economic culture as a system are highlighted. The issues of behavior, which are one of the functional links, are highlighted, the views and definitions of a number of specialists on this issue are outlined.

**Keywords:** Empirical research, competitive, integrative, functional, structural, economic behavior, behavior, work, ethics.

**KIRISH.** Bugungi kungacha yoshlikni biologik jihatdan davriylashtirish masalasi hamon munozaralarga sabab bo'lmoqda. Chunki bu bir qarashda oddiy, aslida nazariy yoki ilmiy bahsli muammo emas. Har bir davlat uchun ushbu masalaning ilmiy-amaliy ahamiyati va yechimi, xususan, yoshlarga beriladigan keng imkoniyat va imtiyozlar, kreditlar boshqalar aholining aniq hisob-kitoblari zarur ekanligidan kelib chiqadi. Uning chegaralari, shuningdek, yoshlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularni har tamonlama rag'batlantirish davlat dasturlari, rejalari ko'lamini belgilaydi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish uchun davlat tamonidan moddiy va moddiy-texnik vositalari etarlicha va uzluksiz ta'minlangan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI:** Mustaqillik yillarida O'zbekiston yoshlarining iqtisodiy tafakkuri madaniyatining shakllanishi, o'zgarishi va transformasiyasi katta diqqatga sazovor bo'ldi. Bu borada **S.Otamuratov, Z. Qodirova, U.Saidov, J.To'lanov, A.Shaymanova** va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yoshlarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda ta'lim va madaniyatning rolini yoritadi. Ularning ilmiy ishlari, yoshlarni bozor iqtisodiyotiga tayyorlash, iqtisodiy bilimlarni oshirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish muhimligini ta'kidlaydi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Ushbu tadqiqotda qiyosiy tahlil, tahlil va sintez, nazariyalarni qiyoslash, dala etnografik ishi, tarixiylik, mantiqiylik, ketma-ketlik va tizimlilik usullaridan foydalanilgan.

**TAHLILLAR VA NATIJALAR.** Ijtimoiy falsafada “Yoshlik” tushunchasi, mohiyati va uning chegarasi, noyob o‘ziga xos xususiyatlari haqida turli-tuman fikrlar, qarashlar va nazariyalar mavjud.

Bu maqsad xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishiga fan, texnika va ta’limda proyektiv tafakkur tarzini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir”[1-14] – deb ta’kidlaydi. Yoshlarning o‘shish xususiyati, yoshi, jismoniy va ruhiy yetukligi turli davrlarga xos yosh avlodlarning bir-biriga o‘xshashligini aniqlaydi. Zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy transformasiyalar yoshlarni insoniyat jamiyati taraqqiyotidagi alohida status va o‘rni ijtimoiy tizimning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatdagi olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarda yoshlarning faol ishtiroki natijasida innovatsion, imkoniyatlar darajasi, integratsiya kabi vazifalarni bajarishi bilan katta ahamiyatga ega.

Bugungi O‘zbekiston jamiyatida yoshlarning o‘rni va mavqeyi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

*birinchidan*, yoshlar - ishlab chiqarishda hal qiluvchi o‘rin ahamiyatga ega bo‘lgan tizimli ravishda yangi ishlab chiqaruvchi kuchlarni shakllantiradigan ijtimoiy qatlam.

*ikkinchidan*, yoshlar – jamiyatning eng faol, tez harakatchan, aqliy va jismoniy jihatdan yetuk, jamiyat hayotining barcha sohalarida mehnat, ijodkorlik, samarali faoliyat uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan qatlam;

*uchinchidan*, yoshlar ulkan ijtimoiy va kasb-korga ega bo‘lgan yangi bilimlar, kasb-korlar va mutaxassisliklarni o‘zida mujassamlashtirgan boshqa ijtimoiy guruhlariga nisbatan eng faol qatlamdir;

*to‘rtinchidan*, yoshlar nafaqat subyekt, balki jamiyat hayotining moddiy va ma’naviy boyliklari merosxo‘ri bo‘lish bilan birga, yanada ilg‘or ijtimoiy munosabatlarning yaratuvchilaridir;

*beshinchidan*, yoshlar sodir bo‘layotgan har qanday yangiliklarni tez va tabiiy ravishda qabul qiladilar.

Shuning uchun yoshlar katta ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan o‘ziga xos qatlam bo‘lib, bir tomondan, ular tengqurlari va ijtimoiy guruhlardan ajralib tursa, boshqa tomondan esa jamiyatning barcha jabhalarida o‘ziga xos o‘rin egallashga imkoniyat mavjuddir.

Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarning roli va o‘rnini baholash quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin deb hisoblaymiz: 1) jamiyatdagi yangi o‘zgarishlarning umumiy tabiati va jamiyat qonunlari asosidagi avlodlar almashinuvi; 2) yoshlarning ijtimoiy faolligi jihatdan farqlanishi; 3) yoshlarda ijtimoiy mobillik darajasining o‘shishi tahlil qilish; 4) ijtimoiy ta’sir doirasidagi ijtimoiy faoliyat subyekti sifatida yoshlarning erishayotgan yutuqlaridan bir-birining xabardorligi.

Yoshlar davlatning muhim tarkibiy va hayotiy qismi sifatida jamiyatda mavjud bo‘lgan va turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy jarayonlarga sezilarli o‘zaro ta’sir ko‘rsatadigan hamda ochiq ijtimoiy tizim ekanligini inobatga olsak, uning rolini va ahamiyatini o‘rganishda ularning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning subyekti va obyekt sifatida namoyon bo‘lishi.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti islohotlari davrida fuqarolarning iqtisodiy dunyoqarashi va bilimlarining o‘shib borishi ma’lum ma’noda iqtisodiy nazariya fanining mazmuniga ijobiy ta’sir qiladi, ikkinchi tomondan esa fuqarolarning shaxsiy tajribalardan kelib

chiqadigan real iqtisodiy g'oyalar o'rtasida sezilarli nomuvofiqlik vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada, fuqarolarning iqtisodiy madaniyati mavhum bo'lgan nazariy iqtisodiy bilimlar va amaliy iqtisodiy hayot g'oyalarining oqilona tuzilmagani tartibsiz, muvozanatsiz holatni vujudga keltirdi.

Zamonaviy O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishdagi iqtisodiy islohotlar natijasida oldin shakllangan iqtisodiy madaniyat yo'nalishlariga sezilarli o'zgarishlar kuzatildi:

Birinchi: mulkchilikning turli shakllari paydo bo'ldi va xususiy mulk shaxs ongida qonuniylashtirildi;

Ikkinchi: samarali mehnat boylik olib kelishi, boy odam, boylik esa axloqsizlik kodeksidan farovon hayot g'oyasiga almashtirildi;

Uchunchi: barcha teng huquqli ijtimoiy adolat o'rniga ijtimoiy adolat qadriyatlariga almashtirildi;

To'rtinchi: rejali iqtisodiyotga yo'naltirilgan konyukturasidan bozor tartibotiga asoslanadigan bozor iqtisodiyotiga o'tildi.

Agar biz jamiyatda kishilarni umumiy iqtisodiy madaniyatini o'zgarishini inobatga olsak, u holda yangi bozor iqtisodiy qadriyatlari tomon bosqichma-bosqich siljib kelganligini ko'rish mumkin. Bu transformatsion sharoitda qadriyatlar borasida quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

*birinchi*, fuqarolarning kundalik ehtiyojlarini oylik maoshi orqali maksimal darajada qondirilishiga bo'lgan, iqtisodiyotni esa maksimal samaradorligiga yo'naltirish bilan almashtirildi;

*ikkinchi*, imkoniyat qobiliyat, yuqori darajadagi iqtisodiy savodxonlikdan tashqari jamiyatda ijtimoiy tenglikka yo'naltirilganlik ijtimoiy adolat mezonini ta'minlashga (*hamma o'z qobiliyati va mehnatiga yarasha haq olishi*) yo'naltirilganligi;

*uchinchi*, ishchi-xodimlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida iqtisodiy faoliyat holatini davlat boshqaruvining susaytirilishi iqtisodiyotning mo'tadil boshqaruvi bilan almashtirildi (ishlab chiqarishning davlat tasavvuridan chiqarilishi).

Zamonaviy yoshlarning iqtisodiy madaniyatini transformatsiyasi va uning tarkibiy tuzilishi va uning funksional tahlili uchta asosiy komponentni qamrab oladi: 1) iqtisodiy ta'lim orqali orttirilgan bilim, 2) eski iqtisodiy qadriyatlar o'rniga paydo bo'lgan yangi iqtisodiy qadriyatlar, 3) iqtisodiy xulq-atvor (stereotiplar va munosabat). O'zbekistonda yoshlarning iqtisodiy madaniyatining transformatsion jarayoni mustaqillikning dastlabki o'tish davri mulkiy munosabatni yangilanishidan to hozirgi yangi O'zbekiston sharoitida innovatsion iqtisodiy madaniyatiga o'tish jarayonigacha bo'lgan oraliqni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoevning 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq mamlakatimiz yoshlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, imtiyozli mikrokreditlar bilan ta'minlash, ular faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish zarur. "O'zmilliybank" va O'zbekiston yoshlar Ittifoqi Markaziy kengashi o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumini imzolangan. Unga ko'ra, yurtimiz yoshlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, ularning o'z faoliyatini yakka tartibda yo'lga qo'yishiga ko'maklashish, uy mehnati va kasanachilikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va shu orqali kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining bandligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu ishlar uchun imtiyozli kreditlar ajratish asosiy vazifalardan etib belgilangan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlagan nutqida yoshlarning jamiyatdagi oʻrni haqida shunday taʼkidlaydi: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson boʻlib kamolga yetishi bilan bogʻliq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning oʻz salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”[2]. Shu oʻrinda Oʻzbekiston yoshlar Ittifoqi Markaziy Kengashining qoʻshma qaroriga asosan tasdiqlangan Nizom ham tadbirkor yoshlarni qoʻllab-quvvatlashda muhim omil boʻlmoqda. Nizom boʻyicha bank tomonidan yosh tadbirkorlarning startup loyihalarini moliyalashtirish uchun jamgʻarib boriladigan pensiya hisob varaqlaridagi mablagʻlar hisobidan kredit ajratiladi. Unda yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan yosh tadbirkorlarga eng kam oylik ish haqining 3 ming hamda yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan yosh tadbirkorlarga eng kam oylik ish haqining 1 ming baravarigacha miqdorda olti oygacha imtiyozli davr bilan 3 yil muddatgacha kredit ajratilishi belgilab qoʻyilgan. Albatta, bu imtiyoz ham yoshlarga qulay imkoniyatdir.

Ayniqsa, bugun yosh tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlashga bagʻishlangan Prezident farmon va qarorlari, tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari toʻgʻrisida davlat qonunlari yoshlarning oʻz huquqlaridan foydalanishga shart-sharoit yaratib, oʻz bizneslarini erkin tashkil qilish imkoniyatini bermoqda. Bu xususda AQShlik faylasuf, sotsiolog, futurolog Elvin Toffler (1928-2016): “... har qanday iqtisodiyot, mahsulot ishlab chiqarish, daromad topish, umuman, hamma narsaga erishish muqarrar ravishda hokimiyatning uch manbayi boʻlgan: kuch, boylik va bilimga bogʻliq. Kuch qonunga aylanadi. Oʻz navbatida, kapital va pul endilikda bilimga aylanadi. Mehnat ham oʻzgarib, uning koʻrinishi manipulyatsiya qilishga bogʻliq boʻlib qoladi. Kapital, pul va ishchi kuchi bir xil yoʻnalishda, iqtisodiyotning poydevoridagi inqilobiy oʻzgarishlarga qarab harakat qiladi. Bilim bunday rivojlanishining asosiy manbayiga aylanadi. Natijada, u iqtisodiyotning amaldagi qonunlaridan butunlay farq qiladigan yangi qonunlarga muvofiq yashaydigan supersimvolik iqtisodiyotga aylanadi”[3-120],– deb yozgan edi. Demak, biz ilgari surayotgan qonun oʻzining hayotiyliigi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotini kelgusida ishbilarmonlikka, tadbirkorlikka asoslangan supersimvolik iqtisodiyotga aylantirishga imkon beradi. Xoʻsh, mazkur hujjatni qabul qilishga qanday zarurat bor edi, nega aynan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda? Qarorning asl maqsadi va mazmun-mohiyati nimalardan iborat oʻzi? Keyingi yillarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, biznesning ushbu shakli bilan shugʻullanayotganlarga koʻplab imtiyoz hamda imkoniyatlarni yaratib berish maqsadida barcha kuch safarbar etildi. Soliqdan ozod etish boʻladimi, energiya resurslari toʻlovidagi imtiyozlarmi, mahsulotni sotishdagi erkinlikmi, xullas, hamma sharoitlar bugun muhayyo.

Ana shu berilgan imkoniyatlar natijasida bajarilgan ishlar samarasi oʻlaroq, hozirgi kunda respublikamizda 13 ming 248 ta oilaviy korxonalar faoliyat olib boryapti. Ularda 22 ming 579 nafar odam ish bilan taʼminlangan. 2017-yilning oʻzida oilaviy korxonalar tomonidan 379 milliard 399 million soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Joriy yilning birinchi choragida oilaviy tadbirkorlar tomonidan salkam 6 milliard 579 million soʻm soliq toʻlangan[4].

Davlatimiz rahbari mazkur vazifaning yechimini aniq koʻrsatib berish bilan birga uning zarur shart-sharoitlar yaratishiga alohida toʻxtalib oʻtgan. Vaholanki, ilgʻor Yevropa mamlakatlarida oʻzini oʻzi band qilishni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha ilk dasturlar 1970-1980 yillarda paydo boʻldi va ular aholining xususiy korxonalar ochishlaridan iborat boʻldi”[5-20]. Qarorga asosan, mamlakatimizning har bir tuman va boshqa hududlarida shu nomdagi dastur amalga oshirilishiga asos boʻladi.

Asosiysi, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga amaliy ko'maklashish hamda monitoring qilish bo'yicha esa tuman (shahar) hokimlarining birinchi o'rinbosarlari rahbarligida hududiy ishchi guruhlar ham ish boshlaydi. Hududiy ishchi guruhlar har bir xonadonni o'rganib, aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratish, ya'ni biznes-rejani tuzishdan tortib, kredit olish, mahsulotni ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilishgacha bo'lgan jarayonda aniq manzilli yordam ko'rsatadi. Qarorda fermer xo'jaliklari va xususiy tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash orqali, Respublikamizda bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qoshidagi jamoat tashkilotlari eng asosiysi dasturda belgilangan vazifalarni moliyalashtirib borishi mustahkamlanganligi ko'rsatib o'tilgan. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi esa tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlarga ustuvor ravishda kafilliklar hamda foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalar ajratib boradi.

Hozirgi kunda zamonaviy o'zbek jamiyatida yoshlar iqtisodiy madaniyatini rivojlanishi va uning subyektlari soniga ko'ra bir nechaga bo'lish mumkin:

1) mamlakatimizda berilgan keng imkoniyatlar yosh tadbirkorlarni, avvalo, ish o'rnini ochish va uni kengaytirishiga qaratilishi kerak. Ish o'rnini yaratuvchilar maqsadli ishlarni amalga oshirishi, yetarli shart-sharoitlar yaratishi, foyda olishni ijtimoiy ko'mak bilan birga amalga oshirishi, ishlab chiqarish me'yorlariga, mehnat kodeksidagi moddalar asosida ish olib borish talab qilinadi;

2) Ishlab chiqarish korxonaga qabul qilingan yosh xodimlarning, davlat va nodavlat sektordagi xodimlarning iqtisodiy madaniyati yangicha tartibda amalga oshishi kerak.

3) har bir oila – tadbirkor davlat dasturi asosida kichik biznes, yakka tartibdagi tadbirkorlarning iqtisodiy madaniyatini shakllanishi. Bu yerda, avvalo, tadbirkorni ehtiyojlari va shu bilan birga davlat ehtiyojlari hisobga olinadi. Bozor qonunlari asosida mahsulot ishlab chiqarish, sifat, mijoz, narx va muomala madaniyatining uzviyligi asosida shakllanadigan iqtisodiy madaniyat yoshlar tadbirkorligining kelajagini bildiradi;

4) marginal[6] ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy madaniyati. Bu o'tish davridagi ijtimoiy guruh bo'lib, ular hozirgi paytda ko'proq migratsiyani ma'qul ko'rishadi. Migratsiyaga ketish va orttirgan kapitalini faqat qurilish va mashina sotib olish uchun ishlatuvchi ijtimoiy qatlam. Ular tashqi migratsiya orqali kapitalni to'plashi va yaxshi yashash uchun faqat o'ziga uy-joy qurish, qulayliklarni yaratish bilan mashg'ul bo'ladilar. Ular dastlabki kapitallarini ishlab chiqarishga jalb qilish, korxonaga ochish, ikkilamchi daromad topish, shaxsiy biznesni rivojlantirish kabi bilimlarga ega emaslar.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy madaniyat iqtisodiy hayot sifatining asosiy shakllari va xususiyatlarini aks ettiradi va ta'minlaydi. Masalan, har bir yoshning mamlakat iqtisodiy hayotida faollik darajasi quyidagilar bilan o'lchanadi: qonunlarga munosabat, shaffoflik va islohotlardan xabardorlik, iqtisodiy hamkorlik, barqarorlik, erkin fikrlash va raqobat muhiti, doimiy muloqot, qadr-qimmatini ifoda etish va shaxsning o'zini anglashi kabi xususiyatlarga ega bo'lishi namoyon bo'lish kerak. Yoshlarning iqtisodiy madaniyatida namoyon bo'layotgan tushkunlik kayfiyatini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Jamiyat taraqqiyotiga xalaqit bergan korrupsiogen omillarning bosqichma-bosqich bartaraf etilishi yoshlarning iqtisodiy faolligi yanada oshishiga olib keladi. Yoshlarning manfaatlari doirasida imtiyozlar kengaymoqda, iqtisodiy erkinlik va moliyaviy erkinlikka intilish kuchaymoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. – B. 14.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 3.72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 2017-yil 19-sentyabr. <https://president.uz/uz/lists/view/1063>.
3. Тоффлер Э. Метаморфозы власти = Powershift: Knowledge, Wealth and Violence at the Edge of the 21st Century, 1990. Москва.: АСТ, 2004. (Philosophy). - С.120.
4. <http://xs.uz/uzkr/post/har-bir-oila-tadbirkoruning-huquqij-asosi-mustahkam-imiyoizlar-kolami-keng>.
5. Bozor, pul va kredit. Oylik ilmiy-amaliy jurnal.– № 11. – Toshkent, 2020.–B. 20.
6. Lot. marginalis — arosatdagi madaniyat. Ushbu atama amerikalik sotsiolog R.Park tomonidan XX asrning 20 yillarining ikkinchi yarmida mulatlarga nisbatan ilk bor qo'llangan. Uning fikricha, jamiyatda egallab turgan mavqeyiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga, ya'ni bezovtalik, tajovuzkorlik, shuhratparaslik, qiziqqonlik, tortinchoqlik va egoistik jihatlarga ega bo'lgan kishilar.

**ZOOMORF METAFORALARNING KONSEPTUAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI****Dilrabo Baxronova***O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
professori, filologiya fanlari doktori***Virna Velazquez Vilchis***filologiya fanlari doktori, professor  
Meksika davlat avtonom universiteti (UAEMex), Meksika  
<https://orcid.org/0000-0002-5630-9360>*

**Annotatsiya.** Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikda "konsept"ga har bir millatning dunyoqarashi va mentaliteti orqali olam manzarasini ongda aks ettiruvchi prizma (in'ikos) sifatida qaraladi. Biz tadqiq qilayotgan o'zbek yoki ispan tilidagi biror bir konseptni mukammalroq o'rganish uchun shu konseptni bu tillarda solishtirish, uning ushbu millatlar madaniyati, kundalik hayoti va mentalitetida tutgan o'rnini aniqlash zarur. Hozirgi davrda tilshunoslarning oldida turli konseptlarning konseptosfera va olamning lisoniy manzarasida umumiylik va xususiylik jihatlarini aniqlash kabi muhim vazifa turibdi.

Konsept va konseptosfera terminlarining o'xshash tomonlari ularning inson ongida paydo bo'lib, biror bir obrazni tasvirlashida ko'rinadi. Binobarin, konseptosfera fikrlashga oid in'ikoslar, universal bir predmetning ramziy birliklarining majmuyi sifatida, insonlarning axborot doirasini tashkil qilib, ular til birliklari bo'lgan so'z, metafora, frazeologizmlar, sintaktik strukturalar orqali ifodalanadi.

**Kalit so'zlar:** olam manzarasi, konsept, konseptual metafora, arximetafora, konseptosfera, zoomorf metafora

**Annotation.** In cognitive linguistics and linguoculturology, the concept is viewed as a prism (reflection) through which the worldview and mentality of each nation are represented in the mind as a picture of the world. In order to thoroughly study a particular concept in Uzbek or Spanish, it is necessary to compare it in both languages and determine its place in the culture, everyday life, and mentality of the respective nations. Today, linguists face an important task: to identify the general and specific features of various concepts within the conceptosphere and the linguistic picture of the world.

The similarity between the terms concept and conceptosphere lies in their emergence in human consciousness and their role in describing certain images. The conceptosphere, as a reflection of thought and a collection of symbolic units representing a universal object, forms part of the human informational sphere and is expressed through linguistic units such as words, metaphors, phraseological expressions, and syntactic structures.

**Keywords:** linguistic worldview, concept, conceptual metaphor, archimetafor, conceptosphere, zoomorphic metaphor

**KIRISH.** Til inson tafakkuri, dunyoni idrok etish usuli va madaniyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalovchi muhim ijtimoiy hodisadir. Tilda voqelikni anglash va tasniflash jarayonida konseptlar markaziy rol o'ynaydi. Konseptlar – bu obyektlar va ularning xususiyatlariga oid axborotni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan tafakkur birliklari bo'lib, ular nafaqat insonni o'rab turgan tashqi olamdagi obyektiv haqiqatni, balki subyektiv tasavvurlar, ehtimoliy

holatlar va madaniy stereotiplarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun tilshunoslikda konseptual tahlil usuli semantik strukturalarnigina emas, shuningdek, inson ongi va u tegishli madaniyatdagi ma'no qatlamlarini ochib berishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu kontekstda metaforalar, ayniqsa, zoomorf metaforalar, inson tafakkurining hayvonot dunyosi orqali voqelikni qanday tushunishga urinishini tahlil etishdan iborat. Zoomorf metaforalar hayvonlar obrazlari orqali inson fe'l-atvori, xulqiy holatlari, jamiyatdagi ijtimoiy vaziyatlar yoki abstrakt tushunchalarni ifodalashda keng qo'llaniladi. Masalan, "bo'ri" qaysar, tajovuzkor hamda mard va qo'rqmas insonni, "maymun" esa taqlidgo'y yoki o'ynoqi xulq-atvorni anglatishda ishlatiladi. Bunday metaforalar ko'p hollarda xalq ongida chuqur ildiz otgan konseptual model hamda assotsiatsiyalar asosida shakllanadi va shu bois ba'zan bir konsept u yoki bu madaniyatda umuman boshqa mazmunga ega bo'lishi kuzatiladi.

Maqolada zoomorf metaforalarning konseptual-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi, ya'ni ular qanday kognitiv asosga ega ekani, qanday semantik strukturalarni tashkil etishi hamda madaniy kontekstdagi roli o'rganiladi. Ushbu tahlil metaforaning nafaqat stilistik vosita, balki inson tafakkuridagi ma'no shakllanishi jarayonining faol elementi ekanini ko'rsatishga hamda konsept sifatidagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Tilshunoslikda konsept termini ilk bor S.N. Askoldov tomonidan 1928-yilda yozilgan "Konsept va so'z" nomli maqolada qo'llanilgan [Askoldov 1997: 267]. Bugungi zamonaviy tilshunoslikda "konsept" atamasi turli ta'rif va tipologiyaga ega bo'lib, uni o'rganishga nisbatan yondashuvlar xilma-xildir. Shu bilan birga, hozirgi davr tilshunosligida konseptga insonning dunyo haqidagi bilim va tasavvurlarini ifodalovchi asosiy kognitiv tushuncha sifatida qaraladi. N.Mahmudov terminologiya masalasida to'xtalib, "ular haqida tilshunoslikda juda ko'p yozilgan bo'lishiga qaramasdan, hali-hamon ularning ayrimlari, mas.: "lisoniy shaxs", "konsept" terminlari talqinida bir xillikka erishilgan emas" [Mahmudov 2012: 3], deb yozadi. Bundan tashqari, "konsept" bilan "tushuncha"ni bir-biridan ajratish muammosi ham diqqatni jalb qilmoqda. Jumladan, o'rta asrlardayoq P. Abelyar: Tushuncha ongli (intellectus) va ratsional bilim (tushunish) bilan bog'liq, konsept (conceptus) – ma'nolarni ijodiy talqin qilishga qodir yuksak ma'naviyat, ong hosilasi [Abelyar 2010: 10], deb yozgan bo'lsa, V.N. Yarseva «tushuncha» va «konsept» terminlarini sinonim sifatida keltiradi [Yarseva 1990: 559]. Bugungi kunda «tushuncha» va «konsept» sinonim sifatida tilshunoslarni qoniqtirmay qo'ydi. Yu.S. Stepanov fikricha, «tushuncha – predmetlar va hodisalar haqidagi fikr bo'lib, u ularning umumiy va ahamiyatli belgilarini aks ettiradi, konsept esa – bu shunday bir g'oyaki, u nafaqat mavhum, balki aniq-assotsiativ va emotsional-baholovchi belgilarni ham qamrab oladi. Konseptlar nafaqat fikrlanadi, ular boshdan kechiriladi» [Stepanov 1997: 824]. Shuningdek, olim «konsept — madaniy dunyo va individual ma'nolar dunyosi o'rtasidagi kesishish nuqtasidir, bu inson shuurida to'plangan madaniyat konsentratiga (sgustok) o'xshaydi, u orqali madaniyat insonning ongiga kiradi. Konseptlar – bu «yupqa qobiqlar», lekin ular koshin bo'lib terilganda, yangi umumjahon antropologiyasi tug'iladi», deydi.

V.Z. Demyankovning fikricha, "tushunchalar – bu odamlar kelishib olgan narsalardir, odamlar ularni muammolarni muhokama qilganda «til topishish» uchun ishlab chiqadilar; konseptlar esa o'z o'zidan mavjud, ularni odamlar u yoki bu darajadagi ishonch yoki ishonchsizlik bilan qayta tiklaydilar" [Demyankov 2001: 26]. Demak, odamzot kelishilgan hamda individual holda jamiyatda umumiy va xususiy ahloqiy-milliy-madaniy qonun qoidalar, stereotiplar, etalonlar yaratadi. Ularning hammasi insonning ong-shuurida asrlar davomida yig'ilgan mental

bilim – konseptlar sifatida shakllanadi. A.P.Babushkin konseptni «kollektiv ongning istalgan diskret mazmunli birligi, qaysiki til sohiblari milliy xotirasida anglangan substrat ko‘rinishida saqlanib, real yoki ideal dunyo predmetini aks ettiradi. Konsept verballashadi, so‘z bilan belgilanadi, aks holda u mavjud bo‘la olmaydi» [Babushkin 1996], deydi. Ye.S. Kubryakova «konsept»ga – ongimizning mental va ruhiy imkoniyatlarini, hamda insonning bilim va tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimini tushuntirishga xizmat qiluvchi termin; xotira, mental so‘z boyligi, miyaning konseptual tizimi va fikr yuritish (lingua mentalis) hamda inson ruhiyatida butun dunyo voqeligini aks ettiruvchi tuzilmadir [Kubryakova 1996], deb ta‘rif beradi. Demak, “konsept” bu, inson ongu-shuurida voqelik hamda shaxsning o‘zi haqidagi axborot, bilimlar va baholarni tasavvur qilishning muayyan tuzilmalari ko‘rinishida qorishiq saqlanadi va tizimlanadi.

V.A. Maslovaning fikricha, konsept - bu «lingvomadaniy o‘ziga xoslik bilan belgilangan va muayyan etnomadaniyat sohiblarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilma. Konsept so‘z ma‘nosidan bevosita kelib chiqmaydi, balki so‘z lug‘aviy ma‘nosining inson shaxsiy tajribasi va xalq tajribasi bilan to‘qnashuvi natijasi hisoblanadi. U emotsional, ekspressiv, baholash koshini bilan o‘ralgan» [Maslova 2004]. Mas.: o‘zbek informantlar orasida “bo‘talog‘im”, deganda nimani tushunasiz? savoliga: 1) farzand (73%); 2) hayvon bolasi (27%) deb javob olingan bo‘lsa, “bo‘taloq”qa – 1) hayvon bolasi (78%); 2) bola (17%); 3) semiz kishi (5%) javoblari ko‘rsatildi. Bu yerda “bo‘talog‘im” konsepti tagma‘nosida lug‘aviy ma‘noning tajriba bilan to‘qnashuvi natijasida hosil bo‘lgan milliy semantik-pragmatik ifodani ko‘rish mumkin. Misol: *O‘g‘lining bolalik chog‘laridagina emas, Ali Qushchi kap-katta yigit bo‘lib, uloq, poyga va chovgon o‘yinlariga qatnashib yuradigan paytlarida ham Tillabibi uning orqasidan qolmas, goho: “Ehtiyot bo‘l, bo‘talog‘im!” deb qichqirgancha asov otlar orasiga kirib ketar edi* (O.Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi). Ushbu matndagi “Ehtiyot bo‘l, bo‘talog‘im!” birikmasi “Ehtiyot bo‘l, bo‘taloq!”, deb qo‘llanganda jumlaning pragmatik mohiyati butunlay o‘zgardi. Ispan tilida bo‘taloq **guelfo/a** (<http://www.significadode.org/guelfo.htm>) deb ataladi, ammo u deyarli iste‘molda emas, tuya bolasi lug‘atlarda “cría de camello” (tuya bolasi) deyilgan, odam(farzand)ga nisbatan metafora yoki FBlar tarkibida uchramaydi. Informantlar insonga nisbatan bu so‘zni birorta ko‘chma ma‘noda qo‘llamadilar (Kanar orollari ispan tilisiga mansub hisoblangan bu zooleksema lug‘atlarda o‘z o‘rnini topmagan, bu so‘zni biz 2017-yil Ispan qirollik akademiyasi huzurida doimiy ishlaydigan, ispan izohli lug‘atini boyitib boruvchi tilshunos olimlarga asosiy lug‘atga kiritishni taklif qilganimizda, ular 25- qayta nashr jarayonida bu leksemani muhokamaga qo‘yishni e‘tirof etishdi va DRAEning web-sahifasida 2021-yilda bu leksik birlikka izoh berildi. <https://www.rae.es/tdhle/guelfo>).

Konsept terminini o‘zbek tilshunoslari ham, jumladan, O‘Yusupov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Safarov, D.U.Ashurova, A.E.Mamatov, D. Xudayberganova va b. ta‘riflashgan. O‘Yusupovning fikricha: konsept bilan tushunchani aysbergga o‘xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo‘lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir [Yusupov 2011: 49]. Sh. Safarov “konsept ko‘pjihtli va ko‘po‘lchovli hodisadir. Uning shakllanishi voqelikni bevosita idrok etish jarayonida o‘zlashtirilayotgan bilimning inson xotirasidan bilim olishi va ushbu bilimning ma‘lum ma‘noda mavjud bo‘lgan madaniy, axloqiy qadriyatlar bilan moslashuvini taqozo etadi” [Safarov 2013] deb yozadi. D.U.Ashurovaning fikricha, konsept deb barcha tushunchalarni atash noto‘g‘ri, balki dunyo va milliy madaniyat muhitida muhim rol o‘ynaydigan tushunchalargina konsept bo‘la oladi [Ashurova 2006]. D. Xudayberganova ham, konseptning ko‘p qirrali va ko‘p qatlamli mental tuzilma ekanligini ta‘riflar ekan, konsept “bir vaqtning o‘zida psixologik, kognitiv-semantik va

lingvokulturologik jihatlarni namoyon etishini, chunki, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obykti sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat berib” [Xudayberganova 2025] turganligini ta’kidlaydi.

V.I.Vernadskiy “noosfera” va “biosfera” terminlaridan ilhomlanib konseptosfera terminini fanga kiritgan D.S.Lixachyovning fikricha, “konseptosfera bu – fikrlash doirasi bo’lib, mental tasvirlardan iborat konseptlarning majmuidir. Millat tilining konseptosferasi qanchalik boy bo’lsa, milliy madaniyat ham shunchalik boy bo’ladi” [Lixachyov 1993: 8].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Olamning lisoniy tasvirida konseptosfera til birliklari va ma’nolar majmui bilan ifodalanadi. Konseptosfera tildagi alohida so’zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Bunda biror konseptga xos bo’lgan barcha tushuncha va ma’nolarning maydoni yoki ularning majmui konseptosferani tashkil qiladi.

Metafora nominativ, obrazli va ekspressiv funksiyasidan tashqari, yana konseptual vazifani ham bajaradi. Ayniqsa, konseptual metaforaning roli mavhum tushunchalarni belgilashda yaqqol ko’rinadi. Metaforaning mazmuni asosiy va ko’makchi komponentlarning o’zaro ta’sirida namoyon bo’ladi [Black 1962, Oparina 1988]. Metafora borliqdagi turli sohalarida mavjud bo’lgan obyektlarni nomlab, shu bilan tilning leksik va frazeologik qatlamlarini boyituvchi bir vositadir. Bunda konseptual metafora avval lisoniy aks ettirilmagan hodisalarni verballashtiradi va unga borliqni yanada chuqurroq, konseptual sathda ifodalovchi vosita sifatida qaraladi. Quyida “odam+hayvon” konseptosfera maydonida arximetafora va metaforik hodisaning iboralar yasalishidagi ishtiroki jarayonini qisqa ifodalashga harakat qilindi. Bu konseptosferadagi “tana + harakat” maydonida joylashgan “harakat pastdan” va “harakat tepadan” arximetaforalari voqelikda kishining muayyan holatini ularga xos konseptual metaforalar qurt (g’imirlash) va chumoli (jimirlash) zoomorflari orqali yaralishiga u yoki bu jihatdan asos bo’ldi. Binobarin, bu “odam+hayvon” konseptosferasida inson fikrlashiga oid in’ikoslar, universal ramziy birliklarning majmui arximetafora va metafora sifatida aks etishi; bu metaforalar, o’z navbatida, “paytavasiga qurt tushmoq” va “(tanasida) chumoli o’rmalagandek” FBlar orqali ifodalanadi:

1) Paytava issiq tutish uchun oyoqqa o’raladigan mato bo’lib, agar oyoqqa kiyganda uning ichida qolgan qurt g’imirlasa odam tipirchilab qolish mumkin. Bu iboraning to’g’ri ma’nosi. Ammo paytava deyarli qo’llanilmaydigan bugungi kunda biror odamga nisbatan bu ibora ishlatilsa, demak, ishlar joyida emas, nimadandir o’zini qo’yarga joy topolmayotganligi tushuniladi. Bu asrlar qa’ridan tafakkurimizda yashab kelayotgan arximetafora hisoblanadi. Mas.: (*Shoira*): – *Uxlashib bo’pti. Hammasining oromi buzildi. Paytavasiga qurt tushdi, nazarimda. Ikkala opam ham tipirchilab qolishdi* (J.Jabborov. Uyqusiz kecha). O’TILda ham bu ibora *bezovta bo’lmoq, yelib-yugurib qolmoq*, ma’nosida ishlatilishi misollar bilan yoritilgan: *Hudaychi jo’nagach, qo’rg’onbegining paytavasiga qurt tushib, tipirchilab qoldi va u yoqdan bu yoqqa yugura boshladi* (A. Qodiriy. O’tgan kunlar) (T III, 204 b.). 100 yillik masofa ajratib turgan bu asarlarda ushbu ibora semantik jihatdan bir xil mazmunda jaranglab turibdi. Bunday iboralarning etimologiyasi uzoq o’tmishga borib taqaladi.

2) Chumoli o’rmalagandek iborasini qiyoslab tahlil qilganimizda, chumoli obrazi o’zbek milliy konsepti ekanligi asoslandi. Muqobil sifatida ispan tilida *carne de gallina*, rus tilida *есуциная кожа* iborasi ishlatiladi. Ispan lisoniy manzarasida **tovuq** obrazi, rus tilida **g’oz** obrazi qo’llanilganligi turli xalqlar tafakkurida “etning jimirlab ketishi” har xil hayvon konseptining muayyan xalq tomonidan qabul qilingan ikkilamchi konseptual metaforalashtirish mexanizmi asosida yuz beradi. Misol keltiramiz: isp.: *Recuerdo que se me puso la piel de gallina* (M.de

Unamuno, Abel Sanchez); o'zb.: *Sayloning vujudida chumoli o'rmalagandek bo'ldi. Bir seskanib, vujudi jimirlab ketdi* (D.Madrahimova, Gunoh.). Bu misollardan odam tanasida jimirlash oyoqdan emas, balki bu harakat tanadan, tepa qismdan boshlanishi ma'lum bo'lmoqda.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Zoomorf metaforalar har bir til va madaniyatda inson tafakkurining obrazli ifodasini tashkil etuvchi asosiy semantik-kognitiv birliklardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, bunday metaforalar muayyan millatga xos bo'lgan konseptual strukturalar asosida shakllanadi va shu orqali til egalarining olamni idrok etish xususiyatlarini ochib beradi. Misol uchun, yuqoridagi "tanamda chumoli o'rmalagandek bo'ldi" kabi ifoda o'zbek tilida kuchli hissiy tebranishni, noqulaylik yoki vahimani ifodalovchi ekspressiv metafora bo'lib xizmat qilsa, bu iboraning boshqa madaniyatlarda so'zma-so'z tarjimai kommunikatsiyaning buzilishiga olib kelishi mumkin. Xuddi shuningdek, "tanam tovuq go'shtidek bo'lib ketdi" ifodasining boshqa tillarda adekvat semantik yuki yo'q, chunki u subyektiv hissiy holatni milliy tasavvur modeli asosida ifodalaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday zoomorf metaforalar arximetafora darajasida, ya'ni kognitiv jarayonlarning ibtidoiy bosqichida shakllangan bo'lib, ular insonning hayvonot olami bilan dastlabki emotsional va vizual tajribalariga asoslanadi. Bu tajribalar tafakkurda ongli-assotsiativ obraz sifatida saqlanib qoladi va til vositasida kodlanadi. Demak, zoomorf metafora milliy tafakkur mahsuli bo'lishi bilan birga, o'sha millatga xos bo'lgan dunyoqarashni aks ettiradi.

Bundan tashqari, zoomorf metaforalarning gender sohada qo'llanilishi ham qiziqarli kuzatishlarni yuzaga chiqardi. "Ohu ko'z" iborasi ayolning go'zalligini ifodalashda ishlatilsa, boshqa ba'zi metaforalar tashqi ko'rinish yoki fe'l-atvorga nisbatan ijobiy yoki salbiy baho yukini ifodalaydi. Bu kabi metaforalar nafaqat tilning emotsional imkoniyatlarini, balki jamiyatdagi gender stereotiplarni ham o'zida mujassam etadi.

Huquq-protsessual sohada esa zoomorf metaforalarning qo'llanilishi ko'proq yashirin muloqot (kriptoleksiya) vositasi sifatida kuzatiladi. Jumladan, jinoyat olamida "bo'ri qonuni" (вольчи закон) kabi metaforalar jamoaviy tartib-intizom, xatti-harakat kodeksi yoki kuch ishlatishga asoslangan iyerarxiyani ifodalaydi. Jinoyatchilar o'zaro muloqotda hayvonlar nomi bilan ataluvchi laqablar, kinoya va jargonlar orqali axborot almashadilar. Yoki turli tillar sud-huquq (yuridik) tizimida zoomorf metaforalarning qo'llanilishi madaniy xususiyatlar va ijtimoiy-tashkiliy tuzilmalarga bog'liq bo'lib, quyidagi qiziqarli misollar orqali buni ko'rish mumkin: "Legal eagle" (huquq burguti - <https://en.wikipedia.org/wiki/LegalEagle>) yuridik bilim va izquvarlikda nihoyatda chaqqon, har bir detaldan xabardor advokat yoki yuristni ta'riflash uchun ishlatiladi. Bu metafora burgutning ko'zi o'tkirligi va o'lja ustidan nazoratni tez qo'lga olish qobiliyati bilan bog'liq. "Leyes de la jungla/selva" (jungli (to'qay) qonunlari) adolat va qonun tizimining ishonchsizligi yoki kuchli ustunlik qiladigan tizimni ifodalaydi (Shu nomda g'arbda kinofilm ham ishlangan). Bu ibora metaforik tarzda sud-huquq tizimining yovvoyilashgan ko'rinishini bildiradi. "El zorro del tribunal" (sud tulkisi) har qanday huquqiy vaziyatdan foyda chiqarishga o'ch, hiylakor yuristga nisbatan ishlatiladi. Tulkilik ispan tilida aqllilik va hiyla bilan bog'liq obraz. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, zoomorf metaforalar yuridik diskursda faqat estetik ifoda emas, balki madaniy qadriyatlar, axloqiy baholar va sotsiopsixologik nuqtayi nazarlarni bildiruvchi kognitiv birliklardir. Bu holat zoomorf metaforalarning semantik maydoni nafaqat estetik-funksional, balki pragmatik va sotsiologik ahamiyat kasb etishini isbotlaydi, ularning kognitiv funksiyasi keng qamrovli ekanini ko'rsatadi hamda zoometaforalar milliy mentalitet, kollektiv ong, emotsional reaksiya tizimining obrazli va semantik refleksiyasi sifatida e'tirof etilishini yoqrin ifodalab keladi.

**XULOSA.** Zoomorf metaforalar konseptual semantika doirasida tahlil qilinganda, ular orqali til egalari atrof-muhitni qanday idrok etishi, qaysi obyektlar va hodisalarni qanday tasniflashi hamda bu tasniflash jarayonida qanday madaniy assotsiatsiyalarga tayanuvchanligi aniq namoyon bo'ladi. Lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi asosida olib borilgan bu tadqiqotda "konseptosfera" borliqni tilda milliy bo'yoqlar bilan tasvirlaydigan ko'p qatlamli mazmun tizimi sifatida shakllanishi oydinlashdi. Bu tizimda zoomorf metaforalar asosiy kognitiv modellardan biri sifatida xizmat qilishi ularning semantik-stilistik bo'yoqdorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zoomorf metaforalar gender, emotsional, kriminal va sotsiokognitiv sohalarda faol qo'llanadi va ular orqali jamiyatda mavjud bo'lgan estetik, etnik, axloqiy va sotsiopsixologik qarashlar til vositasida ifodalanadi. Har bir zoomorf metafora insonning subyektiv emotsional holatini, milliy madaniyatda shakllangan qadriyatlarni va vizual tasavvur asosidagi semantik modellarni mujassamlashtiradi.

Qisqacha aytganda, olamning lisoniy manzarasini tadqiq qilishda zoomorf metaforalarning konseptual tahlili nafaqat lisoniy tafakkur evolyutsiyasini, balki xalqning milliy-madaniy xotirasini, estetik dunyoqarashini ham yoritadi. Bu esa har bir millat tilining noyobligini ochib beruvchi muhim ilmiy yondashuvdir. Ko'rinib turibdiki, zoometaforalar tadqiqida hali ko'plab yangiliklarga erishish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология. – Москва, 1997. – С. 267-279.
2. Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб масалалари. Маъруза тезислари. – Тошкент, 2008.
3. Бабушкин, А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – ВГУ, 1996 – 330 с.
4. Вернадский В. И. Несколько слов о ноосфере // Труды по философии естествознания. – Москва, 1991. – С. 308-315.
5. Далиева, М., & Бахронова, Д. (2025). Кросс-культурный подход и характеристика компаративных фразеологических единиц. Лингвоспектр, 3(1), 5-9. <https://lingvospekt.uz/index.php/lngsp/article/view/484>
6. Демьянков, В. З. Понятие и концепт в художественной литературе и научном языке // Вопросы филологии. – 2001. – № 1. – С. 26 -33.
7. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., и др. Краткий словарь когнитивных терминов. – Москва, 1996.
8. Лихачев Д. С. Концептосфера русского языка // Изв. АН. Серия литературы и языка. Т. 52. № 1. 1993. – С. 39.
9. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику: Уч. пособие. – Москва, 2004. – 296 с.
10. Махмудов Н. "Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб..." // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.
11. Опарина Е.О. Концептуальная метафора // Метафора в языке и тексте. – Москва: Наука, 1988. – С.65-67.
12. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
13. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент, 2013 – 344 б.

14. Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры: опыт исследования. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1997. – 824 с.
15. Худайберганава Д. С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Докторлик дисс... авторефер. – Тошкент, 2015.
16. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурега атамалари хусусида//Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конф. матер. – Тошкент, 2011. – Б. 49-55.
17. Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: 1990. – С.559-560.
18. Black M. Models and metaphors. Studies in language and philosophy. – Ithaca-London: Cornell University Press, 1962.– P.25-47.
19. Daliyeva, M., & Baxronova, D. (2025). Kross-madaniy uslub va komparativ frazeologik birliklar tavsifi. The Lingua Spectrum Volume 3.March 2025, 3(1), 5-9. <https://lingvospektr.uz/index.php/lngsp/article/view/484>
20. Velazquez V., Bakhronova D. (2025) Anthropocentric sayings in Mexican Spanish and Uzbek: a Sociocultural Approach. CIENCIAERGOSUM.
21. <https://cienciaergosum.uaemex.mx/issue/view/1195>

## ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” ASARIDA VAQT-ZAMON SEMASINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

*Kenjayeva Zahro Suyunovna*

*Qarshi davlat universiteti*

*O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada vaqt fenomenining fizik/moddiy qiymati bashariyat mumtoz olimlarning ilmiy fikrlariga tayanib talqin etilgan. Shuningdek, tilshunoslikda zamon va tilning o'zaro ta'siri: vaqt ichida til (tilga nisbatan tashqi omil sifatida vaqt) va tilda vaqt (tilga nisbatan ichki omil sifatida vaqt, immanent zamon) ikki jihati ajratilishi yoritilib berilgan. Shunga muvofiq Alisher Navoiy dostonlarida vaqt semali otlarning bisemantik imkoniyatlari shoir baytlariga tayanilib tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** vaqt, mutlaq vaqt, nisbiy vaqt, vaqtning metrik xususiyatlari, lingvistik vaqt, lahza, daqiqa, dam, zum, payt, kun, davr.

**Annotation.** The article interprets the physical and material essence of the phenomenon of time based on the scientific views of classical scholars of humanity. It also highlights the interaction between time and language in linguistics, distinguishing two aspects: time within language (as an internal factor, or immanent time) and time in relation to language (as an external factor). In accordance with this, the bisemantic potential of time-related nouns in Alisher Navoi's poems is analyzed based on examples from his verses.

**Keywords:** time, absolute time, relative time, metric properties of time, linguistic time, moment, minute, day, period.

**KIRISH.** “Vaqt (fazo bilan birga) materiyaning mavjudlik shakli bo'lib, moddiy jarayonlarning keng yoyilishi izchilligini, bu jarayonlarining turli bosqichlari, bir-biridan ajralganligi, ularning davom etishi, rivojlanishini bildiradi. Vaqt aniq o'lchamlilik, noaniq o'lchamlilik, davomiylik, ketma-ketlik, izchillik, qaytarilmaslik, uzluksizlik, cheksizlik, bo'linuvchanlik, bir turga mansublik kabi belgilarga ega. Vaqtning kategorial belgi sifatida qaralishi uni ifoda etuvchi til birliklarining lisoniy ongda tizimli ravishda mavjudligini ko'rsatadi”. [Мўминова, 2023: 49].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Yevropa falsafasi va tabiatshunosligida vaqtni anglashda Platonning substansial konsepsiyasiga va Aristotelning (miloddan oldingi 384-322-yillar) relyatsion konsepsiyasiga tayanib, uning obyektivligi va subyektivligi hamda unga munosabatini, mutlaq va nisbiyligini tasdiqlovchi ikki asosiy yo'nalish vujudga kelgan. Aflotunning substansial konsepsiyasida vaqtni mustaqil borliq (substansiya) sifatida tushunilib, abadiylikning harakatlanuvchi tasviri, to'g'ri sonli ketma-ketlikka bo'ysunuvchi va samoviy jismlarning harakatida namoyon bo'ladigan fenomen tarzida idrok etilgan.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Aristotelning vaqt haqidagi relyatsion konsepsiyasining mohiyati vaqtni harakatning soni (o'lchovi) sifatida, o'zaro ta'sir qiluvchi obyektlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi sifatida tushunishdan iborat bo'lgan. Demak, vaqt harakat emas, balki harakat raqamga ega bo'lgan tushuncha sanalgan.

U jismlar harakatidan farqli o'laroq, vaqt oqimining bir xilligi xususiyatiga, uning o'zgarishining kengligiga ishora qildi: u “katta va kichik, uzun va qisqa” bo'lishi mumkin, lekin “tez yoki sekin” bo'lishi mumkin emas, deydi [Шарыпов, 2000: 5–10].

Antik davrdan keyingi davrlar falsafasi va tabiatshunosligida vaqtni o'rganishning ikkita yo'nalishi mavjud edi: bir tomondan, vaqtning mohiyatini, uning xususiyatlarini, harakat bilan bog'liqligini, nisbiylik yoki mutlaqlikni, reallik yoki fenomenallikni aniqlash istagi hamda vaqtning diskretligi yoki uzluksizligini aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, insonning vaqtni anglash mexanizmlarini tushunishga urinishi, vaqt haqidagi g'oyalar manbasini aniqlashdan tashkil topganligi bo'lgan.

Vaqt haqidagi tabiatshunoslik tushunchalari evolyutsiyasida I.Nyutonning mutlaq vaqt va G.Leybnisning nisbiy vaqt nazariyalari muhim rol o'ynadi. I. Nyuton nazariyasida mutlaq vaqt oqim shaklida taqdim etiladi, ya'ni u o'zining sof ko'rinishidagi, o'tmishdan kelajakka bir xilda oqadigan davomiylik deb tushuniladi. Voqealar rivoji vaqt o'tishiga ta'sir qilmaydi. Vaqt bir o'lchovli, uzluksiz, cheksiz, universal, bir xildir [Ньютон, 1936: 34].

Vaqt haqidagi ilmiy g'oyalarni tubdan o'zgartirgan keyingi bosqich A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi bilan bog'liqdir. Bu nazariyaga ko'ra vaqtning metrik xususiyatlarining yopiq tizimda mavjud bo'lgan moddiy sharoitlarga bog'liqligi vaqtning o'tishi tizimni o'rab turgan massalarning taqsimlanishiga yoki tizim harakatining tabiatiga qarab sekinlashishi yoki tezlashishi mumkinligi isbotlandi. Shuningdek, bu nazariyaga ko'ra davomiylik (miqdoriy o'lchangan aniqlik), bir o'lchovlilik, bir yo'nalishlilik, bir xillik, anizotropiya maqomidagi vaqtning topologik xususiyatlari aniqlandi [Грюнбаум, 2003: 23–77].

I. Kant vaqtni transsendental ong faoliyatining bir usuli sifatida aniqlab: "Biz vaqtni faqat xilma-xillik sintezi ta'siriga e'tibor berishdan boshqa yo'l bilan tasavvur qila olmaymiz, buning yordamida biz ichki tuyg'uni izchil ravishda aniqlaymiz" tarzida u obyektga izchil ta'rifini beradi [Кант, 1964: 2006].

Tilshunoslikda zamon va tilning o'zaro ta'siri: vaqt ichida til (tilga nisbatan tashqi omil sifatida vaqt) va tilda vaqt (tilga nisbatan ichki omil sifatida vaqt, immanent zamon) ikki jihati ajratiladi. Vaqt tashqi omil sifatida dunyo tillari evolyutsiyasida va ma'lum bir etnik til tarixida o'zini namoyon qiladi. Vaqt ichki omil sifatida tilning rasmiy va mazmunli tomonlarini tavsiflaydi [Маяковский, 1976: 3-12].

Lingvistik vaqt murakkab va ko'p qirrali bo'lib, unda ilmiy tushunchalar va sodda g'oyalar amalga oshiriladi. Tilshunoslar tomonidan olib borilgan ushbu turkumning ko'p qirrali tadqiqotlari uning geterogenligini tushunishga qaratilgan. Shu munosabat bilan lingvistik vaqtni o'rganishda uning yaxlit qiyofasini qayta qurish uchun har tomonlama fanlararo va ko'p qirrali yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Inson vaqt hissi, uning vaqtinchalik tushunchalari bilan dunyoga kelmaydi, balki uning bu fenomenga munosabati qaysi madaniyatga mansubligiga bog'liq bo'ladi.

Vaqt va uning natijalari haqida jamiyatning murakkab va muayyan mentalitetda idrok etishning o'ziga xos xususiyatlariga tayanib ko'p narsalarni aytishi mumkin. Bu jabha leksik va grammatik tizimning o'ziga xos xususiyatlari zamon ma'nosini ifodalash nuqtayi nazari bilan hamda semantik yo'nalishda vaqtinchalik so'zlarning rivojlanishi, ularning funksional xususiyatlariga bog'liq holda voqelanadi.

Zamonaviy insonning ongi universal bo'lib, u yangilangan turli vaqt o'lchovlarining xususiyatlarini hamda unga tegishli belgilar rivojlanishining turli bosqichlarini qamrab oladi. Bu o'lchovlar vaqt funksional xususiyatlarini hisobga olgan holda qisqa va uzoq davrlarning nomlarini izolyatsiya qiladi.

Ular tadqiqotchi uchun alohida qiziqish uyg'otadi, chunki o'zbek nutqida mavjud, ma'no jihatdan yaqin bo'lgan (*lahza va soniya, daqiqa va dam, payt va vaqt, on va fursat, kun, yil va davr* singari) vaqtga oid so'zlardan o'z kundalik hayotida foydalanadi, shunga doir turli xil insoniy fikrlarni mushohada qiladi.

Hozirgi o'zbek tilida so'zlashuvchining lingvistik ongida ratsional (*lahza*), kundalik (*daqiqa, dam*) va botiniy (*dam, lahza, zum* (bir zumda) / siklik (*payt*) va chiziqli (*vaqt*) / individual (*kun*) va ijtimoiy (*davr*) o'lchovlari bo'lishi mumkin.

Misol uchun, har kuni qo'llanadigan vaqt semali leksik birliklar eksklyuzivlikni o'zida mujassam etadi, ya'ni tasvirlangan hodisalarda o'ziga xoslik yuzaga keladi, bunday jarayonda hissiylikning ortib borishini Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidan olingan quyidagi baytda kuzatish mumkin:

*Navoiy, telbalikni bartaraf qil,*

*Yana bir lahza so'z boshig'a kelgil. (FSh)*

Shunisi xarakterliki, Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan vaqt birliklari to'plamining nomlari, qarama-qarshi birlik shakllari (*kun, yil, vaqt*) miqdorni emas, balki sifatni ochib berish xususiyatiga ega. Masalan, *kun* oraliqlar to'plami emas, balki u mavhum zamondan farqli o'laroq, ma'lum bir vaqt davr ifodasi sanaladi. Vaqtni idrok etish usulining evolyutsiyasi dunyoning lingvistik tasviri ko'p jihatdan o'ziga xos xususiyatlarni qamrab oladi. Tilda vaqt fenomeni idrokining xususiyatlari sutka sikli modellariga ko'ra uning alohida bo'lagi darajasida ham o'zini namoyon qilishi mumkin.

*Necha kun kimsa ko'rgan birla ranji,*

*Kiyursa ilgiga ul nav' ganji. (FSh)*

*Chu tavfiq anga bo'ldi omuzgor,*

*Necha yil anga to'qtadi ro'zgor. (SI)*

*Eshit, bir necha so'z kim vaqt erur tang*

*Ki, aylarmen baqo ko'yig'a ohang. (FSh)*

Zamonaviy insonning vaqt haqidagi g'oyasi turli qatlamlarni o'z ichiga oladi. Chunonchi, arxaik o'lchamlarni olaylik. Bu o'lchamlarda vaqt tushunchaning barchasi bir-biriga bog'langan bo'ladi. Ular orasidagi o'zgarishlar esa tildan tashqari vaziyatga qarab yangilanadi.

Bu jabhadagi o'zgarishlar ekstralingvistik omillar tufayli muayyan tilda so'zlashuvchilarning ongida yuzaga kelishi mumkin, o'z navbatida, ba'zi vaqtga oid leksemalarning idrok etilishi semantik o'zgarishlarga ham sabab bo'lishi mumkin.

Siklik vaqtni o'lchash indikator tabiiylik bilan bog'liq hodisalarning rivojlanishini belgilaydi. Inson ongi tomonidan vaqt sikl modelini idrok etishda har birida astronomik, kundalik va uning qismlariga oid o'lchovlar mavjud bo'lib, ularning bo'linishi turli yo'llar, aniqrog'i turli ekstralingvistik omillar bilan sodir bo'ladi.

Aniqroq qilib aytganda, tun "qorong'ilik" sememasi bilan ongda aks etish barobarida "sutkaning bir qismi", "uyqu vaqti" semalarini o'zida mujassam etadi hamda uning aniq o'lchovlari soat 22–23 dan ertalab soat 5–6 gacha degan tushunchani anglatadi.

Ushbu mezon astronomik o'lchamlarning eng arxaiki sanaladi, u vaqt tushunchasiga tegishli leksemalarning transformatsiyasi natijasida jamiyat a'zolarining ongida o'z aksini topadi.

Shunga muvofiq o'zbek tilidagi vaqt suratining o'ziga xos xususiyati vaqt sifat spetsifikatsiyasining nisbiy rivojlanishi bilan hamohanglikka ega bo'ladi. Shunga qaramay, u

lug'aviy strukturada obyektiv jihatdan o'xshashlikka ega bo'lsa-da, sifat jihatidan tafovutlar ham kasb etadi. Ba'zan esa voqelanadigan turli xil vaqtga xos haqiqatlar vaqt doirasidagi leksemalarning semantik o'zgarishlari transformatsion temporalining o'ziga xos xususiyatlarini ham idrok etishni belgilashi mumkin [Чунымей, 2009: 15].

Alisher Navoiyning "Xamsa"sidagi dostonlar tilida keltirilgan otlarning semantik strukturasi "vaqt" semasining potentsiallashtiruvini (kuchsizlanishini) ta'kidlagan holda bu guruhga kiruvchi temporal otlarni quyidagi mavzuviy guruhga ajratish mumkin:

A) sof vaqtni mavhum predmet sifatida ifodalovchi otlar sifatida quyidagi avqot, mahal, davr so'zlarini olish mumkin:

*Manga zohid etti base zarzanish,  
May ichmakka o'zlg'on **avqot** avqot uchun (G'.S.)  
Tilni xirad lol topar bu **mahal**,  
Yo'qki til-o'q lol ilik dog'i shal. (HA)*

*Ahli irodat dog'i bu tavr ila,  
Tegrasiga evrulubon davr ila. (HA)*

B) vaqt o'lchovi otlari sirasiga *soat, dam* so'zlarini olsa bo'ladi:

*Sen ul **soat** salobatdin sipehre,  
Qo'lungda tig'din raxshanda mehre. (FSh)*

*Zamoneki nurungg'a bo'lmay zuhur,  
Ne zulmat bo'lub zohir ul **dam**, ne nur. (SI)*

C) *kun, tong, oqshom* so'zlari sutka qismlarini anglatuvchi otlarga misol bo'ladi:

*Ul o'tni **tong** yeli birla dam aylab,  
Isitmog'liq uchun qaddin xam aylab. (FSH)*

***Oqshom** dema zulmati maxofat,  
Jon qasdig'a harsari yuz ofat. (LM)*

D) hafta kunlari otlik semasi bilan birga vaqt ma'nosini ham ifoda etish imkoniyatiga ega.

*Chun **dushanba** sipehri zangori  
Zangdin qildi ko'zgunin ori. (SS)*

*Chun **seshanba** sipehri chobukhez,  
To'kti anjum sharoridin gulrez. (SS)*

***Chorshanbaki** toqi nilufariy  
Qildi tun korvonini safariy. (SS)*

*Panjshanbaki subh charxi mahal,  
Suvadi ko'k jabinig'a sandal (SS)*

*Chunki odina bu rafe' ravoq,  
Qildi toqin sahar gachidin oq (SS)*

*Tongla shanba kuni munosibdur  
Kim, kavokib sharafig'a kosibdur (SS)*

*Chunki yakshanba urdi mehr alam,  
Kiydi zarbaft hulla ko'k toram. (SS)*

E) bahor, yoz, tobiston, kuz, qish singari fasl otlari ham bisemantik imkoniyatni o'zida mujassam etganligi sababli Hazrat Navoiy ulardan vaqt ma'nosini ifoda etish uchun foydalangan:

*Har sori zang zar etib oshkor,  
Nomiya paykig'a hamisha bahor. (HA)*

*Yoz topa olmay chu isig'din panoh  
Soya uchun ko'pruk anga xobgoh. (HA)*

*Yana qasreki tobistoniy o'lg'ay,  
Tana'umning saro bo'stoni o'lg'ay (FSH)*

*Biyik ul tog' avji, o'ylakim kuz,  
Sovug'din bog'lonur sarchashmalar muz. (FSH)*

*Bo'lub chun arrasi chekmakda mahrur,  
Yog'ib sandal nechukkim qishda kofur. (HA)*

F) "Farhod va Shirin" dostonida azal, ibtido, intiho tarzidagi vaqtning o'rnini ifodalovchi payt otlari faol qo'llangan:

*Azaldin behad oshib ibtidosi,  
Abaddin asru toshib intihosi. (FSh)*

*Ne so'z kim bilmagaylar ibtidosin,  
Xush ermas necha xo'b etsang adosin. (FSh)*

*Yetib mazharg'a bexudluq qiyosi,  
Kelib mazharg'a ishqing intihosi. (FSh)*

**XULOSA.** Ko'rinadiki, lison va nutq farqlanishining bosh mezoni "bevosita kuzatishda berilmaganlik (umumiylik, imkoniyat, mohiyat)" va "bevosita kuzatishda berilganlik (xususiylik, voqelik, hodisa)" dan iborat [Неъматов, Расулов, 1995: 10] ekanligi vaqt ma'noli leksemalarning

semantikasida o'z aksini topishi Alisher Navoiy dostonlarida yaqqol ko'rinadi. Mazkur lug'aviy birliklarda ot so'z turkumining xoslikka tegishli umumiy sememalarda dominantlik alleli ustunlik qilsa-da, ulardagi vaqtga doir ma'no tashuvchi sememalarda retsissiv allellik belgisi tajallilanishi o'zligini namoyon qiladi. Shunday qilib, vaqt so'zi semantikasida yig'iq propozitsiya, yashirin predikatsiyani yuzaga chiqaradi, aniqrog'i, ushbu jabhaga doir olamning lisoniy manzarasini botinan jamlashda namoyon bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mўминова М.А. Ўзбек тилида “time”/“вақт” семали бирликлар тадқиқи // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2023 йил 1-сон. – Б. 49.
2. Шарыпов О.В. Философские вопросы научных представлений о пространстве и времени: Введение: учеб. пособие. – Новосибирск: Новосибирский госуниверситет, 2000. – С. 5-10.
3. Ньютон И. Математические начала натуральной философии. – М.-Л.: ОГИЗ, 1936. Т. 5. – С. 134.
4. Грюнбаум А. Философские проблемы пространства и времени: пер. с англ.; Изд. 2-е, стереотип. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – 23–77.
5. Кант И. Сочинения: в 6 т. – М.: Мысль, 1964. Т. 3. – С. 206.
6. Маковский М.М. Понятие лингвистического времени // Иностранные языки в школе, 1976. – № 6. – С. 3-12.
7. Лю. Чуньмей. Восприятия концепта “время” в русском языке в точки зрения носителя ктайского языка: автореф. дисс. ...канд. филол наук. – Москва, 2009. – С. 15.
8. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 10.

**NURIDDIN EGAMOV SHE'RIYATIDA FRAZELOGIZMLARNING QO'LLANILISHI****Raxmatova Shoxida Turaqulovna***Turon universiteti magistri*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining vakillaridan biri Nuriddin Egamov she'riyatidagi frazeologik birliklarning badiiy yuklanishi, ularning poetik va stilistik vazifalari tahlil qilingan. Shoirning iboralardan foydalanishdagi mahorati, ularning semantik kengayishi va mazmuniy chuqurligi asosida ochib berilgan. Frazeologizmlarning ko'ngil holatlarini, ruhiy kechinmalarni yetkazishdagi roli, shuningdek, o'zbek tilining badiiy imkoniyatlarini namoyon etishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda misollar orqali iboralar yordamida g'oya va obrazlarni ifodalash vositasi sifatida frazeologizmlarning ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Nuriddin Egamov, frazeologizm, she'riyat, badiiy ifoda, lingvopoetik tahlil, ko'ngil obrazlari, zamonaviy o'zbek adabiyoti, ibora, lirik qahramon.

**Annotation.** This article analyzes the artistic function of phraseological units in the poetry of Nuriddin Egamov, one of the representatives of modern Uzbek literature, as well as their poetic and stylistic roles. The poet's skillful use of expressions, their semantic expansion, and depth of meaning are thoroughly explored. The study highlights the role of phraseological expressions in conveying emotional states and psychological experiences, as well as in demonstrating the artistic potential of the Uzbek language. Through various examples, the research reveals the significance of phraseological units as tools for expressing ideas and imagery.

**Key words:** Nuriddin Egamov, phraseologism, poetry, artistic expression, linguopoetic analysis, emotional imagery, modern Uzbek literature, expression, lyrical hero.

**KIRISH.** Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalar *frazeologizm (frazeologik birikma)*lardir [1]. Iboralarning tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional ekspressiv ma'noni ifodalaydi. Iboralar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida qo'llaniladi [2].

Hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida bir qator ijodkorlar, jumladan, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Iqbol Mirzolarining she'riyatida frazeologizmlarning qo'llanilishi borasida ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan [3,4,5] va bu kabi tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Jumladan, zamonaviy o'zbek she'riyati vakillaridan biri bo'lgan Nuriddin Egamov o'ziga xos ifoda uslubi, ruhiy teranligi va milliy g'oyalarni badiiy yuksaklikda ifodalashi bilan ajralib turadi. Shoirning she'riyatida xalqona obrazlar, iboralar, timsollar orqali bugungi kun kishisining ichki olami, ruhiy iztiroblari va umumbashariy kechinmalari aks ettiriladi. Nuriddin Egamov ijodining asosiy kuchi uning badiiy tafakkuri va xalq ruhiyatiga uyg'un ohang topa olganidadir.

U o'z she'rlarida oddiy so'zlar orqali teran falsafiy ma'nolarni bayon etadi. Ayniqsa, ko'ngil, sabr, vaqt, iztirob, hayot va ma'naviyat mavzulari atrofida qurilgan iboraviy ifodalar uning poetik dunyoqarashining muhim jihatidir.

**TADVIQOT METODOLOGIYASI.** Tadqiqotda Nuriddin Egamovning ayrim she'rlari asosida ishlatilgan iboralar tahlil qilinib, ularning badiiy-falsafiy yuklanishi, mazmuni va shakl jihatidan

ahamiyati o'rganiladi. Shoir ijodida bunday iboralarning ko'p o'rinlarda ishlatilganini ko'rish mumkin.

Shoirning yumorga asoslangan "Shoirning kasb bayrami" she'riga diqqat qaratamiz:

*Bori hunar sohibining kuni bordir,*

*Kasb bayrami, deya bejiz qad kermaslar.*

*Shoirlarning kuni qachon, demang, axir*

*Azal-abad bul qavmga **kun bermaslar...** [6]*

"Bori hunar sohibining kuni bordir..." satridan boshlab, sho'rli va zaharxanda ohang bilan boshlanuvchi bu she'rda shoirlik kasbining mashaqqatlari tasvirlanadi. She'rdagi "qad kerish" iborasi orqali boshqa kasb egalari faxr bilan bayram qilayotgan bir paytda, shoirlar "azal-abad"dan "kun bermaslar" qavm sifatida ko'rsatiladi. Bu yerda "kun" iborasi ruhiy osoyishtalik, e'tirof va qadrlanish timsolidir.

Bu o'rinda "kun berish" iborasi o'z ma'nosida bayram uchun kun belgilash ma'nosini ifodalasa, boshqa o'rinda esa "kun bermaslik" jumlasini yorug'lik, ro'shnolik ma'nosida qo'llaniladi.

Shoirning "To'lmadi..." nomli yana bir she'riga e'tibor qaratsak turli frazeologizmlardan unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.

*Xirmonim donga to'ldi,*

*Qumg'onim choyga to'ldi,*

*Qozonim moyga to'ldi,*

***Ko'nglim to'lmadi...***

*Qo'rg'onim nurga to'ldi,*

*Quchog'im gulga to'ldi,*

*Hamyonim pulga to'ldi,*

***Ko'nglim to'lmadi...***

*Og'ilim toyga to'ldi,*

*Osmonim oyga to'ldi,*

*Piyolam mayga to'ldi,*

***Ko'nglim to'lmadi...***

*Ko'zim yosh – jiqqa to'ldi,*

*Toshkosam liqqa to'ldi,*

*Yoshim ellikka to'ldi,*

***Ko'nglim to'lmadi...***

*Tildan tushmas shukronam,*

*Baxtga to'la koshonam,*

***To'lib borar paymonam,***

***Ko'nglim to'lmadi...***

*Sahrom irmoqqa to'ldi,*

*Bog'im yaproqqa to'ldi,*

***Ko'zim tuproqqa to'ldi,***

### ***Ko'nglim to'lmadi...*** [6]

She'r har bir bandda tashqi to'kinlik va boylik tasvirlari bilan boshlanib, "Ko'nglim to'lmadi" iborasi bilan yakunlanadi. "Qozonim moyga to'ldi", "Hamyonim pulga to'ldi", "Og'ilim toyga to'ldi" kabi iboralar orqali moddiy ne'matlar sanaladi. Ammo ko'ngil — ruhiy markaz — hali ham bo'm-bo'sh. Bu ibora har bandda takrorlanib, she'rning g'oyaviy asosiga aylanadi. Ayniqsa, "Ko'zim tuproqqa to'ldi, Ko'nglim to'lmadi" misrasi inson umrining oxirgi bosqichini ham tasvirlaydi.

Shoirning yana bir "Chinni" she'rida "Sabr kosasi" degan iborani lirik qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda qo'llagan.

*Zumda kezdin onlayn Farangu Rumu Chinni,  
Bul qaynar qozondan anglab na yolg'on, na chinni,  
Dunyo ishlaridan lim-lim sabrimning kosasi,  
Lek to'lmadi, netay, ko'ngil atalmish bul chinni...* [6]

Nuriddin Egamovning ushbu "Chinni" nomli tuyuq shaklidagi she'rida chinni – nafis, nozik, lekin mo'rt narsa sifatida ko'ngilga qiyos qilinadi. "Zumda kezdin onlayn Farangu Rumu Chinni" iborasi zamonaviy insonning virtual dunyoga sho'ng'ib ketganini bildiradi. "Qaynar qozondan anglab na yolg'on, na chinni" misrasi orqali esa haqiqat bilan yolg'onning aralashib ketgan zamoniy muammosi ochib beriladi. "Lim-lim sabrimning kosasi" iborasi toqatsizlikni, "Ko'ngil atalmish bul chinni" esa ko'ngilning sinuvchanligini bildiradi.

**XULOSA.** Nuriddin Egamov she'riyatida iboralar faqatgina badiiy bezak emas, balki chuqur ma'naviy-falsafiy yukga ega poetik birliklardir. Shoir ko'ngil, sabr, haqiqat, moddiy va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni iboralar orqali o'tkir va ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Takroriy iboralar ("Ko'nglim to'lmadi") esa nafaqat she'rning estetik tuzilmasini mustahkamlaydi, balki o'quvchida kuchli ruhiy rezonans uyg'otadi. Nuriddin Egamovning she'riyati zamonaviy o'zbek adabiyotida iboralar poetikasining yorqin namunasi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. O'zbek tili frazeologik lug'ati – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
2. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010, 88-bet.
3. L.Orifova. Abdulla Oripov ijodida xalq iboralarining qo'llanilishi "Journal of science-innovative research in Uzbekistan" jurnali Volume 2, Issue 5, 2024.may
4. M.I. Sultonova, M.H. Sharipova. Muhammad Yusuf ijodida qo'llangan iboralarda ma'no ko'chishi. –Ученый XXI века, 2022. – № 4 (85)
5. Sayfidinova G.S. Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llanilgan iboralarning semantik jihatdan tasnifi "Экономика и социум" №1(80) ч.1 2021.

Egamov N. Kitob ko'targan odam. – Toshkent: Fan, 2021.–288 b.

## INGLIZ, NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA EVIDENSIALLIK KATEGORIYASINING SEMANTIK TAHLILI

*Xamrayeva Maxzuna*

*Turon universiteti v.b. dotsenti*

*Avazov Jamshid Elbek o'g'li*

*Turon universiteti magistri*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz, nemis va o'zbek tillarida evidensiallik kategoriyasining semantik tahlili kontrastiv yondashuv asosida amalga oshiriladi. Tadqiqot davomida ushbu tillarda axborot manbasining qanday ifodalanishi, evidensial birliklarning grammatik va leksik shakllari hamda ularning kontekstdagi semantik yuklamalari aniqlangan. Inson tili orqali o'z bilimi va ishonch darajasini ifodalashga intiladi; bu esa evidensiallikning inson tafakkuri va til o'rtasidagi chuqur aloqasini ochib beradi. Tahlil natijalari evidensiallik kategoriyasining har bir tilda o'ziga xos tarzda shakllanganini va til vositalarining axborotga bo'lgan subyektiv munosabatni aks ettirishdagi o'rnini namoyon etadi.

**Kalit so'zlar:** Evidensiallik, semantik tahlil, ingliz tili, nemis tili, o'zbek tili, axborot manbasi, til va tafakkur, kontrastiv lingvistika.

**Annotation.** In this article, the semantic analysis of the category of evidentiality in English, German and Uzbek is carried out on the basis of a contrastive approach. During the study, the way in which the source of information is expressed in these languages, the grammatical and lexical forms of evidential units and their semantic loads in the context were determined. A person seeks to express his knowledge and level of confidence through language; this reveals the deep connection between evidentiality, human thinking and language. The results of the analysis demonstrate that the category of evidentiality is formed in each language in its own way and the role of language tools in reflecting the subjective attitude towards information.

**Key words:** Evidentiality, semantic analysis, English, German, Uzbek, source of information, language and thinking, contrastive linguistics.

**KIRISH.** Zamonaviy lingvistikada evidensiallik kategoriyasi – ya'ni axborotning manbasini ifodalovchi grammatik yoki leksik vositalar – tilshunoslikning kognitiv, pragmatik va semantik sohalarida tobora ko'proq e'tibor tortmoqda. Inson axborot uzatayotganda nafaqat "nima bo'ldi?" degan savolga, balki "bu ma'lumot qayerdan ma'lum bo'ldi?" degan savolga ham javob beradi. Aynan shu nuqtayi nazardan evidensiallik inson tafakkurining ajralmas bo'lagi bo'lib, til orqali fikrlash jarayonining aniq izlarini ko'rsatadi.

Evidensiallik, odatda, axborotning to'g'ridan-to'g'ri (vizual yoki eshitish asosida) yoki bilvosita (g'iybat, taxmin, xulosa) manbasi mavjudligini anglatadi. Bu holat turli tillarda har xil grammatik va semantik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilida bu kabi ma'lumot "He must have left" (Ehtimol u ketgan bo'lsa kerak) tarzida, ya'ni modal fe'llar orqali bildiriladi. Nemis tilida esa "Er soll gekommen sein" (Aytishlaricha, u kelgan) shaklida, ya'ni "sollen" kabi verba modallari orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa "U kelgan ekan" yoki "deyishlaricha, u ketibdi" kabi iboralar orqali bu kategoriya grammatik darajada ifodalanadi.

Bugungi globallashuv va ko'p tillilik sharoitida til o'rganish, tarjima, sun'iy intellekt, kompyuter lingvistikasi kabi sohalarda evidensiallikni chuqur tushunish zarur bo'lmoqda. Chunki

axborotga bo'lgan munosabat, uni ishonchli yoki gumonli tarzda yetkazish har bir til egasining dunyoni qanday qabul qilishini aks ettiradi. Bu jihat esa inson tafakkuri va tildagi subyektivlik orasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Ayniqsa, uch tilda – ingliz, nemis va o'zbek tillarida – evidensiallikning qanday ifodalanishini solishtirish, bu kategoriyaning universalligini yoki tilga xos xususiyatlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Ushbu maqolada ushbu uch tilda evidensiallik kategoriyasining semantik xususiyatlari, ularning ifoda vositalari, grammatika va leksikadagi o'rni tahlil qilinadi. Maqsad – ushbu kategoriyaning tilga xos va universal jihatlari ochib berish orqali evidensiallikni inson tafakkurining tilshunoslikdagi aks sadosi sifatida o'rganishdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Tilshunos olim A.Y. Aikhenvald evidensiallikni mustaqil grammatik kategoriya deb tan oladi va uni universal til hodisasi sifatida e'tirof etadi [1]. Shuningdek, Diewald va Smirnova g'arb tillaridagi evidensial birliklarning semantik jihatlari tadqiq etib, ularni lingvistik realizatsiya usullari bilan bog'laydi [2]. O'zbek tilshunosligida esa bu borada ancha kam tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, mavjud izlanishlar ko'proq grammatik yondashuvda cheklangan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Tadqiqotda kontrastiv (qiyosiy) semantik tahlil metodi qo'llanildi. Ingliz, nemis va o'zbek tillaridan olingan matnlar, badiiy va publitsistik manbalar asosida evidensiallik ifodasining shakllari aniqlanib, ularning kontekstdagi ma'nosi tahlil qilindi. Shuningdek, Aikhenvald, Boye va Harder, Diewald va Smirnova kabi olimlarning asarlaridan nazariy asos sifatida foydalanildi.

**NATIJALAR.** Ingliz, nemis va o'zbek tillarida evidensiallik kategoriyasi turli vositalar bilan ifodalanishi va bu vositalarning semantik yuklamalari muayyan farqlarga ega ekanligi aniqlandi. Har bir tilda evidensiallik nafaqat grammatik yoki leksik darajada, balki kontekstual va pragmatik darajada ham o'ziga xos tarzda shakllangan.

Ingliz tilida evidensiallik grammatik kategoriya darajasida mavjud emas, ammo bu funksiya turli modal fe'llar (modal verbs), hedging expressions (masalan, *apparently*, *reportedly*, *allegedly*) va adverbial birikmalar orqali amalga oshiriladi. Jumladan:

- Direct evidential: *I saw him leave the building.*
- Indirect evidential (inferential): *He must have left already.*
- Reported evidential: *They say he left early.*

Bu vositalar yordamida ingliz tilida axborotga bo'lgan ishonch darajasi va ma'lumotning manbasi aniq ko'rsatiladi. Boye va Harder ta'kidlaganidek, ingliz tilida evidensiallik grammatiklashmagan, ammo bu u mavjud emas degani emas – balki u ko'proq pragmatik kontekst orqali shakllanadi [3].

Nemis tilida evidensiallik ko'pincha modallikni bildiruvchi fe'llar (masalan, *sollen*, *dürfen*, *müssen*), pragmatik partikllar (*angeblich*, *vermutlich*) va ba'zida subyektiv modal tuzilmalar orqali ifodalanadi:

- *Er soll krank sein.* (U kasal emish.) — bilvosita manba.
- *Vermutlich ist er angekommen.* (Ehtimol, u yetib kelgan.) — taxmin asosida.

Diewald va Smirnovaning “Linguistic realization of evidentiality in European languages” asarida qayd etilishicha, nemis tili evidensiallikni ifodalashda ancha boy leksik vositalarga ega, lekin bu holat ko'proq konversatsion pragmatika doirasida namoyon bo'ladi [2]. Shuningdek, nemis tili evidensiallikda janrga xos farqlanishlarga ham ega: badiiy adabiyotda bunday vositalar ko'proq subyektivlikni oshiradi, ilmiy uslubda esa ishonchlilik darajasini bildiradi.

O'zbek tilida esa evidensiallik grammatik jihatdan ancha barqaror va tipik tarzda ifodalanadi. Ushbu kategoriya asosan:

- -kan/-kan ekan qo'shimchalari orqali: *U ketgan ekan.*
- leksik birliklar orqali: *deyishlaricha, emish, go'yoki.*
- ko'makchi fe'llar orqali: *aytishlariga qaraganda, eshitishimcha.*

Ushbu birliklar orqali o'zbek tilida axborot manbasi aniq belgilanadi: bevosita guvohlik, eshitilgan axborot, yoki shaxsiy taxmin. Bu holat grammatik jihatdan mustahkamlangan bo'lib, tildagi evidensiallik yuqori darajada grammatiklashgan ekanligini ko'rsatadi.

#### Qiyosiy umumlashtirish

Tillar	Grammatik vositalar	Leksik vositalar	Grammatiklashuv darajasi	Evidensial turlar (ko'pincha)
Ingliz	Modal fe'llar	Apparently, reportedly	Past grammatiklashgan	Taxminiy, eshitilgan, inferensial
Nemis	Sollen, dürfen	Angeblich, vermutlich	Qisman grammatiklashgan	Xabarga asoslangan, ehtimollik asosida
O'zbek	-kan, -mish, ekan	Deyishlaricha, emish	Yuqori grammatiklashgan	Eshitilgan, guvohlik, xulosa

Yuqoridagi natijalar evidensiallikning semantik tizimi har bir tilda tildan tashqari (ekstralingvistik) omillar, shu jumladan madaniy tafakkur, idrok mexanizmlari va kommunikativ ehtiyojlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

**MUNOZARA.** Evidensiallik kategoriyasi tilshunoslikda eng ko'p tadqiq etilgan, ammo hanuzgacha to'liq anglab yetilmagan murakkab semantik hodisalardan biridir. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz, nemis va o'zbek tillarida evidensiallik har xil lingvistik vositalar orqali ifodalanadi va har bir tilda bu kategoriya o'ziga xos kognitiv asosga ega. Bunday farqlanish, bir tomondan, har bir tilning tipologik tuzilmasi bilan, ikkinchi tomondan esa, madaniy va ijtimoiy tafakkur shakllari bilan chambarchas bog'liq.

A.Y. Aikhenvald tomonidan ilgari surilgan tasnifga ko'ra, tillar evidensiallikni grammatik jihatdan mustaqil kategoriya sifatida ifodalovchi va uni leksik vositalar orqali beruvchi tillarga ajratiladi [1]. O'zbek tili bu jihatdan grammatik evidensiallikka ega tillar qatoriga kiradi; bunda axborotning manbasi – bevosita guvohlik, eshitilganlik yoki taxmin – maxsus grammatik vositalar yordamida aniq ko'rsatiladi (*ketgan ekan, aytishlaricha, emish* kabi). Bu esa evidensiallikning grammatika darajasida barqaror shakllanishiga dalildir. Ingliz va nemis tillarida esa evidensiallik ko'proq leksik va kontekstual vositalar orqali yuzaga chiqadi.

Tadqiqot natijalari ingliz va nemis tillarida evidensiallikning grammatiklashtirilmagan, ammo kontekstual jihatdan sezilarli darajada faol ishlatilishini ko'rsatdi. Ingliz tilida modal fe'llar yordamida xulosa yoki taxminiy bayonlar bildiriladi (*He must have left*), lekin bu vositalar rasmiy grammatik evidensial markerlar sifatida tan olinmaydi. Bu holatni Palmer o'z tadqiqotlarida ham qayd etgan: u evidensiallik va modal ifoda o'rtasidagi semantik yaqinlikni ta'kidlab, ularni tafakkurda mavjud bo'lgan bilimga asoslangan tildagi aksi deb hisoblaydi [5].

Nemis tilida esa evidensiallik, ayniqsa, jurnalistik va rasmiy uslubda keng ishlatiladi. *Sollen, angeblich, vermutlich* kabi birliklar vositasida eshitilganlik, gumon va taxmin aniq ifodalanadi. Bu esa nemis tilida evidensiallik elementlarining kommunikativ ishonchlilikni ta'minlashda qanday muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Shuningdek, bu holat o'z-o'zini ijtimoiy cenzuralash va axborotni ehtiyotkorlik bilan yetkazish madaniyatiga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Evidensiallikning semantik mohiyati uning til va tafakkur o'rtasidagi ko'prik rolini bajarishini ko'rsatadi. Inson tafakkuri voqealarni kuzatish, eshitish yoki tahlil qilish orqali bilimga ega bo'ladi va bu bilimga bo'lgan ishonch yoki shubha tilda grammatik yoki leksik vositalar orqali namoyon bo'ladi. Shunday qilib, evidensiallik aslida subyektiv epistemik munosabatni bildiradi. Bu fikrni Chafe ham ilgari surgan – uning fikricha, har bir til egasi dunyo haqidagi bilimni doim ma'lum bir subyektiv baho bilan ifodalaydi [6].

O'zbek tilida esa evidensiallik xalq og'zaki ijodiyoti, maqollar va hikmatlarda ham keng uchraydi. Masalan, *“Aytilishicha, yel bo'lmasa, daraxt qimirlabdi degan yolg'on”* maqoli eshitilgan axborotning ishonchli yoki ishonchsiz ekani haqidagi qadimiy lingvistik sezgirlikni bildiradi. Bu holat evidensiallikning nafaqat grammatik hodisa, balki madaniy-falsafiy qatlamga ham ega ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqotdan kelib chiqqan holda, quyidagi muhim fikrlarni ta'kidlash mumkin:

- Evidensiallik har bir tilda har xil shaklda grammatiklashgan, lekin ularning semantik mohiyati – axborot manbasi va unga bo'lgan subyektiv munosabat – barcha tillarda saqlanib qoladi.
- Tilshunoslikda evidensiallikni modallik, subyektivlik va pragmatika bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zarur.
- Madaniy tafakkur evidensiallik ifodasiga bevosita ta'sir qiladi, ayniqsa, o'zbek tilida bu hodisa xalqona va ijtimoiy kontekstlarda chuqur aks etadi.

**XULOSA.** Ushbu tadqiqot evidensiallik kategoriyasining tilshunoslikda nafaqat grammatika, balki inson tafakkuri va dunyoqarashini aks ettiruvchi vosita ekanligini ko'rsatadi. Ingliz, nemis va o'zbek tillaridagi evidensiallik vositalari orasidagi farqlar tilda axborotning ishonchliligini ifodalash shakllari va darajalariga bevosita bog'liq. O'zbek tilida grammatik jihatdan ko'proq belgilangani holda, ingliz va nemis tillarida leksik va kontekstual vositalar ustunlik qiladi. Har bir tilda axborotga bo'lgan subyektiv yondashuv – ya'ni aytuvchining ma'lumotga bo'lgan ishonchi va munosabati – tilshunoslikda evidensiallikni yanada kengroq semantik hodisa sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida ushbu mavzuni psixolingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilish ham istiqbolli yo'nalish sanaladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aikhenvald, A. Y. (2004). *Evidentiality*. Oxford University Press.
  2. Diewald, G., & Smirnova, E. (2010). *Linguistic realization of evidentiality in European languages*. De Gruyter Mouton.
  3. Boye, K., & Harder, P. (2009). *Evidentiality: Linguistic categories and grammaticalization*. *Functions of Language*, 16(1), 9–43.
  4. Johanson, L. (2000). *Viewpoint operators in European languages*. In *Evidentials: Turkic, Iranian and Neighbouring Languages*.
  5. Palmer, F. (2001). *Mood and modality*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Chafe, W. (1986). *Evidentiality in English conversation and academic writing*. In W. Chafe, & J. Nichols (Eds.), *Evidentiality: The linguistic coding of epistemology* (pp. 261-272). Norwood, NJ: Ablex.

## THE TRANSLATION OF NEOLOGISMS, ITS PROBLEMS AND RELEVANCE IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION

***Amirkulov Elshod Toshtemir o'g'li***  
*assistant teacher of Turan university*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada neologizmlar tarjimasining ahamiyati, uning muammolari va sinxron tarjimada dolzarbligi masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot ishida neologizmlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari ham muhokama qilinadi.

***Kalit so'zlar:*** neologizm, ilmiy-texnik soha, tarjimon, sinxron tarjimon, so'z va morfemalar, o'zlashgan so'zlar, yarim qisqartmalar, transliteratsiya va transkripsiya, izohli tarjima va tavsifiy tarjima.

Количественный анализ фиксирует 406 единиц, маркирующих концепт «дом» в русскоязычном корпусе и 328 – в узбекоязычном. Процедура анализа включала поэтапную дистрибутивную стратификацию:

1. семантическая классификация по типу значения;
2. идентификация образных моделей репрезентации;
3. определение аксиологических доминант;
4. выделение синтаксико-стилистических функций.

На первом этапе произведена структурная декомпозиция корпуса, в которой выделены пять основных семантических блоков. В русских текстах преобладает категория пространственной локализации (27,6%) и эмоционально-мнемоническая маркировка (24,3%). Узбекский корпус характеризуется доминированием родовой и коллективной идентификации (27,4%) и пространственного обрамления (31,7%).

На втором этапе выявлены доминантные метафорические схемы. В русской литературе – «дом как центр сакрального мира», «дом как объект памяти», «дом как предел защищённого пространства». В узбекской – «уй как социально-этический центр», «уй как символ авлоди», «уй как ховли/ота уйи». Модели выявлены методом контекстуальной интерпретации с регистрацией устойчивых формул и повторяющихся ассоциаций.

На третьем этапе выполнена аксиологическая интерпретация. В русских текстах концепт коррелирует с такими ценностными переменными, как приватность, стабильность, преемственность, культурная самоидентификация. В узбекской традиции — с коллективизмом, этикой гостеприимства, межпоколенческим долгом, сакральностью родового уклада. Оценочные характеристики выявлены путём анализа эпитетных серий, нарративной позиции героя, речевых стратегий повествователя.

На финальном этапе была составлена таблица количественного распределения и образных доминант, отражающая типологические сходства и различия.

Таблица. Сопоставительное распределение компонентов концепта «дом» / «уй» в художественных текстах

Компонент	Русская литература (n=406)	Узбекская литература (n=328)	Частотные лексемы	Типы образной реализации
Пространственный	112 (27,6%)	104 (31,7%)	дом, жилище, крыша / уй, ховли	топос, центр, физическая граница
Родовой/семейный	84 (20,7%)	90 (27,4%)	родной дом, отчий дом / ота уйи, авлод	символ кровной преемственности
Эмоционально-мнемонический	99 (24,3%)	52 (15,9%)	память, тоска по дому / хотира, дил	ностальгия, рефлексия
Защитно-ритуальный	53 (13,0%)	48 (14,6%)	крепость, укрытие / мухофаза, остона	сакральная оболочка, обрядовое ядро
Социально-этический	58 (14,3%)	34 (10,4%)	порядок, покой / меҳмонхона, тартиб	нормативное поведение, устав

Числовые данные демонстрируют количественно соизмеримую насыщенность корпуса. Однако структурно выделяется разница в центрах смысловой тяжести. В русской выборке акцент направлен на интрапсихологическую функцию дома, его способность к семантизации личной памяти, сакрализации быта, противопоставлению внешнему миру. Узбекская картина репрезентирует концепт «уй» как точку стабильной социальной стратификации, нормативного взаимодействия, этической иерархии.

Сравнительный анализ лексемных групп позволяет зафиксировать различие в способах образной номинации: в русских текстах преобладают универсальные и метафизические модели (дом как остров, дом как крепость), в узбекских — социально укоренённые (уй как ҳаёт маркази, уй как рамзи урф-одат).

Контекстуальная функция концепта отличается: в русской прозе «дом» часто является маркером поворотной точки нарратива, изменяющей судьбу героя, в узбекской — структурным элементом повседневности, транслирующим неизменность родового порядка.

Полученные результаты указывают на дифференциацию когнитивной структуры концепта «дом» в русской и узбекской картинах мира по линии: личностная память ↔ коллективный порядок, сакрализация внутреннего ↔ стабилизация внешнего, интимность ↔ нормативность.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Проведённый лингвокультурологический анализ художественных текстов русских и узбекских писателей подтвердил статус концепта «дом» как ключевого элемента национальных картин мира, отражающего глубинные когнитивные, ценностные и символические структуры. В русской литературной традиции концепт фокусируется на категориях внутреннего пространства, памяти, сакрализации индивидуального опыта. Узбекская модель репрезентации концентрируется на коллективной укоренённости, родовой преемственности, стабильной социальной иерархии.

Идентифицированные метафорические модели, семантические структуры и аксиологические доминанты свидетельствуют о типологическом различии в концептуализации дома как пространства культуры. Русский «дом» функционирует в парадигме экзистенциального центра, рефлексивной опоры и личной идентичности. Узбекский «уй» — как знак общинной устойчивости, социальной регламентации и этического взаимодействия.

Результаты исследования могут быть использованы при построении лингвокультурных типологий, а также в преподавании сравнительной лингвистики, когнитивной семантики и литературоведения, включая дисциплины межкультурной коммуникации.

#### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Валеева Д.Р. Репрезентация концепта «Дом» в русской языковой картине мира: дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 2010. – 180 с.
2. Фещенко О.А. Концепт «Дом» в художественной картине мира М.И. Цветаевой: дис. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2005. – 216 с.
3. Тимощенко С.А. Лексико-семантическая экспликация концепта «Дом» в русской фразеологии и художественных текстах: дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 226 с.
4. Богатова С.М. Концепт «Дом» в художественной картине мира Вирджинии Вулф: дис. ... канд. филол. наук. – Омск, 2006. – 176 с.
5. Слепцова Е.В. Концепт «Дом» в языковой картине мира и театралогии Ф.А. Абрамова: дис. ... канд. филол. наук. – Владивосток, 2009. – 259 с.
6. Житникова М.Л. Дом как базовое понятие народного мировидения: лингвокультурологический аспект: дис. ... канд. филол. наук. – Томск, 2006. – 191 с.
7. Забродкина Е.А. Семантическое поле «дом» в русских народных говорах: дис. ... канд. филол. наук. – Арзамас, 2008. – 449 с.
8. Абдуллаева Н. Узбекская художественная проза XX века: архетипы и культурные коды. – Ташкент: Ижод, 2014. – 192 с.

9. Эргашева Г.Х. Ўзбек тилида макон маъносини ифодаловчи сўзлар лингвомаданий таҳлили: дис. ... филол. фан. бўйича PhD. – Тошкент, 2020. – 146 б.
  10. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2019. – 384 б.
  11. Қодиров П. Юлдузли тунлар. – Тошкент: Sharq, 2016. – 296 б.
  12. Ҳошимов О. Улуғбек хазинаси. – Тошкент: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2015. – 304 б.
  13. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 420 б.
  14. Норматов Н. Сўнмас чироқлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 285 б.
- Базылова Л.А. Средства репрезентации концепта «Дом» в русском и немецком языках: дис. ... канд. филол. наук. – Брянск, 2010. – 197 с.

## КОНЦЕПЦИЯ ЭКЗОТИЗМОВ В СРАВНИТЕЛЬНОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

*Дилмуродова Муштарий Шермат қизи*

*Магистр Университета Туран*

**Annotation:** *The article examines the role of exotic vocabulary in the works of the outstanding Uzbek writer Abdulla Kahhar, one of the greatest masters of realistic prose of the 20th century. Particular attention is paid to the specifics of the use of national and cultural realities that convey the traditions, customs, social relations and everyday features of the Uzbek people. The main thematic groups of exoticisms are studied, including ethnographic and everyday vocabulary, terminology associated with traditional clothing, cooking, folk crafts, social institutions and religious practices. Their functional role in the works of Kahhar is analyzed: the creation of a colorful artistic world, enhancing the realism of the narrative, revealing the national identity of the characters and conveying the emotional mood.*

**Keywords:** *Exoticisms, syntactic exoticisms, lexical exoticisms, tracing, interpretation and translation.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается роль экзотической лексики в произведениях выдающегося узбекского писателя Абдуллы Каххара, одного из крупнейших мастеров реалистической прозы XX века. Особое внимание уделяется специфике употребления национально-культурных реалий, которые передают традиции, обычаи, социальные отношения и бытовые особенности узбекского народа.*

*Исследуются основные тематические группы экзотизмов, включая этнографическую и бытовую лексику, терминологию, связанную с традиционной одеждой, кулинарией, народными ремеслами, общественными институтами и религиозными практиками. Анализируется их функциональная роль в произведениях Каххара: создание колоритного художественного мира, усиление реалистичности повествования, раскрытие национальной идентичности персонажей и передача эмоционального настроения.*

**Ключевые слова:** *Экзотизмы, синтаксические экзотизмы, лексические экзотизмы, калькирование, интерпретация и перевод.*

**ВВЕДЕНИЕ.** В современной лингвистике важное место занимает исследование языковых явлений, которые выходят за рамки общепринятых норм и представляют собой своеобразные «отклонения» или «необычные» элементы в языковой системе<sup>1</sup>. Одним из таких явлений являются экзотизмы, изучение которых позволяет проследить влияние языкового контакта, культурных изменений и процессов глобализации на развитие языка<sup>2</sup>.

Определение экзотизмов и их типология. Что такое экзотизмы?

Термин «экзотизм» в лингвистике может трактоваться по-разному, однако в сопоставительном анализе принято рассматривать экзотизмы как языковые единицы или конструкции, которые:

<sup>1</sup> См. А. А. Зализняк, Реконструкция праязыка и сравнительное языкознание.– Москва: Издательство «Наука», 1994.

<sup>2</sup> Адлер, В. Г. Язык и культура: особенности взаимодействия.– Москва: Издательство «Просвещение», 2000.

Выделяются на фоне типичного языкового фонда – они могут иметь необычное фонетическое, морфологическое или синтаксическое оформление<sup>3</sup>.

Возникают под влиянием внешних факторов – например, вследствие языкового контакта, заимствований или культурных влияний<sup>4</sup>.

Обладают специфической семантикой – зачастую они передают понятия или категории, отсутствующие или выраженные иным способом в данной языковой системе.

Классификация экзотизмов.

При сопоставительном анализе принято выделять несколько типов экзотизмов:

Лексические экзотизмы – заимствованные слова, неологизмы, кальки, терминологизмы, отражающие реалии другой культуры<sup>5</sup>.

Синтаксические экзотизмы – конструкции, отклоняющиеся от общепринятых моделей построения предложения, что может быть результатом влияния других языковых систем<sup>6</sup>.

Морфологические и фонетические экзотизмы – формы, характеризующиеся редкими или уникальными для языка чертами, например, особенностями интонации или использованием специфических аффиксов<sup>5</sup>.

Историко-методологический контекст исследования экзотизмов.

Этапы развития исследования.

История изучения экзотизмов тесно связана с развитием сопоставительной лингвистики и теориями языкового контакта. В XIX–XX веках внимание исследователей привлекали заимствования в европейских языках, что стало основой для формирования концепции «экзотичности» языковых единиц<sup>6</sup>. Современные исследования значительно расширили поле анализа, включив в него:

Анализ экзотизмов в неевропейских языках;

Сравнение экзотических элементов в рамках глобальных языковых контактов;

Применение когнитивных и функциональных подходов для объяснения феномена<sup>4</sup>.

Методологические подходы.

Подходы к изучению экзотизмов можно условно разделить на:

Формально-структурный анализ, акцентирующий внимание на морфологических, синтаксических и фонетических особенностях экзотических элементов<sup>3</sup>.

Семиотический и когнитивный анализ, позволяющий рассмотреть экзотизмы как знаковые системы, отражающие особенности ментальности и культурных представлений носителей языка.

Социолингвистический подход, исследующий роль экзотизмов в языковом контакте, процессе глобализации и формировании новых коммуникационных стратегий<sup>4</sup>.

Экзотизмы в лексике.

Заимствования и кальки.

Лексические экзотизмы наиболее заметны в виде заимствований из других языков. Заимствования часто появляются в результате культурного обмена, колониальных

<sup>3</sup> Баранов, А. И. Сопоставительное языкознание: теория и практика. – Санкт-Петербург: Издательство «Лингвистика», 2005.

<sup>4</sup> Никитина, П. С. «Языковой контакт и культурные реалии: заимствования и экзотизмы». Журнал сравнительной лингвистики. – №4, 2013, с. 45–60.

<sup>5</sup> Костылев, М. Н. Экзотизмы в современном языке: проблемы и перспективы. – Москва: Издательство «Наука», 2010.

контактов, миграционных процессов или глобализации, сохраняя свою «чуждость» как в фонетическом, так и в семантическом отношении<sup>5</sup>.

Калькирование – механизм, посредством которого экзотизмы проникают в язык через дословный перевод чужеродных конструкций, порождая новые лексические единицы с особыми стилистическими или коннотационными оттенками.

Функциональные особенности лексических экзотизмов. Экзотизмы в лексике играют несколько важных ролей:

Обогащение языка – введение новых понятий позволяет языку более гибко передавать реалии современности<sup>4</sup>.

Идентификация культурных и социальных границ – использование экзотических элементов может служить маркером принадлежности к определённой социальной или профессиональной группе.

Стилистизация речи – экзотизмы часто используются в художественной и публицистической литературе для создания специфического колорита<sup>5</sup>.

Экзотизмы в синтаксисе и морфологии.

Синтаксические экзотизмы.

Экзотизмы в синтаксисе проявляются в виде конструкций, нехарактерных для базовой грамматической системы языка. Они могут возникать под влиянием двуязычия или творческой языковой практики, что приводит к нестандартному расположению слов в предложении или новым способам выражения отношений между его частями<sup>6</sup>.

Морфологические особенности

Морфологические экзотизмы могут включать нестандартное использование словоизменительных средств, появление новых аффиксов или морфем, отражающих специфические смысловые или стилистические особенности. В отдельных случаях наблюдаются процессы упрощения или усложнения морфологической системы под влиянием внешних языковых традиций.

Методологические и теоретические проблемы сопоставленного анализа экзотизмов.

Проблемы идентификации и классификации.

Одной из основных проблем является точное определение границ между «экзотическими» и «стандартными» элементами языка, поскольку языки постоянно развиваются, и то, что ранее считалось экзотическим, может стать нормой<sup>6</sup>. Здесь важен динамический подход с учётом исторического контекста.

Проблемы интерпретации и перевода.

При анализе экзотизмов часто возникает вопрос интерпретации семантических нюансов, поскольку заимствованные слова и конструкции могут не иметь прямых эквивалентов в целевом языке. Для их изучения необходимы междисциплинарные методы, включающие когнитивную лингвистику и культурологический анализ.

Роль контекста в оценке экзотизма.

Восприятие экзотизма зависит от социокультурного контекста: то, что для одной языковой общности является необычным, для другой может оказаться нормой. Поэтому

---

<sup>6</sup> Скрыбин, Д. И. «Морфологические и синтаксические экзотизмы в языковой системе». В: Вопросы современного языкознания. – Москва, 2015. – С. 110–125.

сопоставительный анализ требует глубокого изучения историко-культурных условий функционирования языков.

Значение экзотизмов в развитии языка.

Экзотизмы играют важную роль в процессе языкового развития и эволюции:

Обогащение семантического пространства – они вводят новые понятия и категории, расширяя возможности коммуникации.

Проявление языковой креативности – экзотические элементы часто возникают в результате творческих поисков носителей языка, отражая их стремление к инновациям<sup>3</sup>.

Отражение культурных и социальных изменений – через появление и распространение экзотизмов можно проследить динамику культурных процессов, влияющих на язык.

Абдулла Каххар (1907-1968) – один из выдающихся узбекских писателей, известный своими реалистическими произведениями, в которых он мастерски передавал народный быт, колорит и специфику узбекской культуры. В его произведениях нередко встречаются экзотизмы – слова и выражения, отражающие национальную специфику, культурные реалии и быт узбекского народа.

Примеры экзотизмов в произведениях А. Каххара :

1. Бытовые и социальные термены:

«махалла» - квартал или община в узбекских городах и селах , важный элемент традиционного общественного уклада.

«туй» - свадебное торжество или большое праздничное застолье.

«чойхона» - традиционное чайное заведение , где собираются мужчины для бесед и отдыха.

2. Кулинарные термины:

«плов» - национальное узбекское блюдо из риса , мяса, моркови и специй.

«самса» - слоённый пирожок с начинкой , популярное блюдо узбекской кухни.

3. Религиозные и традиционные понятия:

«арык» - оросительный канал , характерный для сельского хозяйства Средней Азии.

«мулла» - священнослужитель в исламе , исполняющий религиозные обряды.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Понятие экзотизмов в сопоставительной лингвистике представляет собой многоаспектное явление, охватывающее лексические, синтаксические, морфологические и фонетические особенности. Исследование экзотизмов позволяет глубже понять механизмы языкового контакта, процессы заимствования и трансформации языковой системы в условиях глобализации и культурного обмена<sup>4</sup>. Несмотря на методологические трудности, анализ экзотизмов остаётся важным инструментом для выявления динамики языковой эволюции и формирования новых коммуникационных стратегий<sup>3</sup>.

Дальнейшие исследования могут быть направлены на:

Разработку универсальных критериев идентификации экзотизмов в различных языковых семьях<sup>6</sup>;

Исследование когнитивных аспектов восприятия экзотических элементов;

Сравнительный анализ процессов заимствования и адаптации экзотизмов в многоязычных сообществах.

Таким образом, изучение экзотизмов в сопоставительной лингвистике не только расширяет наше понимание языковых систем, но и позволяет глубже исследовать процессы межкультурного взаимодействия и языковой инновации<sup>5</sup>.

### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. См. А. А. Зализняк, Реконструкция праязыка и сравнительное языкознание.– Москва: Издательство «Наука», 1994.
2. Адлер, В. Г. Язык и культура: особенности взаимодействия.– Москва: Издательство «Просвещение», 2000.
3. Баранов, А. И. Сопоставительное языкознание: теория и практика. –Санкт Петербург: Издательство «Лингвистика», 2005.
4. Никитина, П. С. «Языковой контакт и культурные реалии: заимствования и экзотизмы». Журнал сравнительной лингвистики, №4, 2013, с. 45–60.
5. Костылев, М. Н. Экзотизмы в современном языке: проблемы и перспективы.– Москва: Издательство «Наука», 2010.
6. Скрябин, Д. И. «Морфологические и синтаксические экзотизмы в языковой системе». Вопросы современного языкознания.– Москва, 2015, с. 110–125.

## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING STRATEGIK OMILI

*Akmal Yoriyevich Ostanov*

*Turon universiteti, iqtisodiyot  
va xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti kafedrasini mudiri,  
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent*

*Ergashev Kamron*

*Turon universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kichik va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni va roli tahlil qilinadi. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, ushbu sohaning muammolari va istiqbollari e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** kichik tadbirkorlik, xususiy sektor, bandlik, ish o'rinlari, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik, tadbirkorlik siyosati.

**Annotation.** This article analyzes the role of small and private entrepreneurship in ensuring employment. It highlights the importance of entrepreneurial activity in economic development, job creation, and maintaining social stability. The problems and prospects of this sector are also considered.

**Key words:** small entrepreneurship, private sector, employment, job creation, economic development, social stability, entrepreneurship policy.

**KIRISH.** Bugungi globallashuv va iqtisodiy raqobat sharoitida mamlakatlarning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda kichik va xususiy tadbirkorlik muhim o'rin tutmoqda. Ayniqsa, aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda ushbu sohaning hissasi beqiyosdir. Kichik va xususiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy faollikni oshiradi, balki aholining daromad manbalarini kengaytirish, turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu boisdan, mamlakatimizda ham ushbu yo'nalishga katta e'tibor qaratilib, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, huquqiy va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish borasida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Bu esa mamlakatda bandlik darajasini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada kichik va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligiga ta'siri, mavjud imkoniyatlar, dolzarb muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Kichik va xususiy tadbirkorlik masalasi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur soha bo'yicha o'tkazilgan ilmiy izlanishlar va normativ-huquqiy hujjatlar tadqiq etilganda, bir nechta muhim jihatlar ajralib turadi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida (2023) kichik biznes va xususiy sektorni iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekiston strategiyasi"da ham tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali aholining bandligini oshirish strategik maqsad sifatida belgilangan [1].

Ilmiy adabiyotlarda ham bu borada turli yondashuvlar mavjud. Masalan, iqtisodchi olim A. Jo'rayev o'zining tadqiqotlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ishchi kuchini yutish qobiliyati yuqoriligi va ular orqali yangi ish o'rinlari yaratishning nisbatan tez amalga oshirishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlik va hududiy rivojlanishga erishishda xususiy sektorning faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan [8,45-52]. Xorijiy adabiyotlarda esa, xususan, David Birch (1979) o'zining tadqiqotlarida AQShda aynan kichik bizneslar yangi ish o'rinlarining asosiy manbayi ekanligini statistik tahlillar asosida ko'rsatib bergan. Bu yondashuv bugungi kunda ko'plab davlatlar tajribasida ham o'z tasdig'ini topmoqda [9]. Shuningdek, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari ham kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali bandlikni oshirish bo'yicha samarali strategiyalarni ilgari surmoqda. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki ijtimoiy muammolarning hal etilishida ham muhim vosita hisoblanadi.

**TADDIQOT USULLARI.** Mazkur tadqiqotda kichik va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligiga ta'sirini o'rganishda ilmiy tahlil, taqqoslash, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va sistemali yondashuv usullari qo'llanildi. Shuningdek, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika va ilg'or ilmiy adabiyotlar asosida amaliy tahlillar olib borildi. Maqolaning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari, Farmonlari, davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" [1,2] asarida bayon qilingan kontseptual g'oyalar tashkil qiladi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Xalqaro tajriba kichik va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan bandligini ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishga ta'siri juda muhimligini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ham kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholini ish bilan ta'minlashning iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati beqiyosdir. Zero, kichik va xususiy korxonalarining kelib chiqishi turli xil tarkibdagi murakkab ehtiyojlar majmuasining in'ikosidir, ular birinchi galda, mamlakat iqtisodiyotini bozor raqobatiga ta'sirchan va unga bardosh bera oladigan korxonalarni ko'paytirish zarurati bilan; ikkinchidan, kichik va xususiy biznes subyektlari aholini mehnatga jalb qilishning eng arzon, afzal va ustivor usuli ekanligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston va uning hududlari sharoitida ishlab chiqarishda foydalanilayotgan ishchi kuchining me'yordan ortiqchaligi yangi ish joylari yaratish masalasining dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

Xodimlarning, ayniqsa, qishloq xo'jaligida ortiqchaligi keskin darajada. Bunday hol mehnat bozoridagi vaziyatni bir qarashda yumshatgandek bo'lib tuyuladi. Biroq uning salbiy oqibatlari ijobiy jihatidan ko'ra ortiqroqdir. Buning asosiy sababi - me'yordan ortiqcha xodimlardan foydalanishning mavjudligi mehnat unumdorligini kamaytiradi va ish haqi darajasini yetarlicha oshirish imkonini bermaydi, xodimlarning ish mas'uliyatini va mehnatga ishtiyoqini keskin pasaytiradi. Sanatsiya va qishloq xo'jalik korxonalarini shirkatlarga aylantirish davomida ortiqcha ishchi kuchini qisqartirish, tajribasi shuni ko'rsatadiki, xodimlar soni normativ darajaga keltirilganda ish haqi 25-30 foizga oshdi.

Shu bilan birga ortiqcha ishchi kuchini qisqartirish bo'shatilgan xodimlarni ish bilan ta'minlash muammosini yuzaga chiqaradi. Ularni yuqori haq to'lanuvchi va qulay ish sharoitlariga ega bo'lgan, mahalliy xom ashyoni qayta ishlashga mo'ljallangan kichik va xususiy korxonalariga ishga joylashtirish, qishloq joylardagi xizmat ko'rsatish sohalariga, ijtimoiy va bozor infrastrukturasi tarmoqlariga jalb qilish zarur.

Ma'lumotlarga ko'ra, kichik va xususiy biznesda ish bilan bandlik o'sishining 85 foizi individual mehnat faoliyatida ish bilan ta'minlanganlik hisobiga bo'lmoqda. YA'ni bandlikning o'sishi asosan dehqon xo'jaliklari va yuridik shaxs huquqiga ega bo'lmagan tadbirkorlarga to'g'ri kelmoqda. Xususan, ish joylari barqaror bo'lgan va samarali ishlayotgan kichik va xususiy korxonalariga iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlarning faqat 5 foizga yaqini yoki kichik va xususiy biznesda ish bilan jami band bo'lganlarning bori-yo'gi 9 foizi to'g'ri kelmoqda. Fermer xo'jaliklariga esa iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlarning 4 foizi yoki kichik va xususiy biznesda band bo'lganlarning atigi 7 foizi to'g'ri keladi. Kichik va xususiy biznesda ishlayotganlarning qolgan qismi dehqon xo'jaliklarida o'z-o'zini ish bilan ta'minlash va yakkahol tadbirkorlikda ish bilan band.

Mamlakatimizda kichik va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, balki uning aholi farovonligi va daromadlari ortishida, ishsizlik muammosini yechishda, ayniqsa, kichik shaharlar va qishloq joylarida aholini ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Rivojlangan mamlakatlarda kichik va xususiy korxonalar tarmog'ini kengaytirishga alohida e'tibor beriladi. AQShda keyingi davrda vujudga kelgan barcha yangi ish joylarining 60 foizini kichik biznes korxonalarini tashkil qilib, ular hissasiga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 50 foizdan ziyodi to'g'ri keladi. [6,64]

Sanoati rivojlangan boshqa mamlakatlarda ham shunday manzarani ko'rish mumkin. Kichik va xususiy korxonalar ulushiga Germaniya, Italiya, Yaponiya tovar eksportining 50-70 foizi to'g'ri keladi.

Osiyo mamlakatlarida kichik va xususiy tadbirkorlikning salmog'i xalq xo'jaligida band bo'lgan ishchilar soni bo'yicha 60-70 foizni tashkil etadi. Ularda butun mamlakat bo'yicha mashg'ul bo'lgan barcha xodimlarning 70 foizdan ortig'i ishlaydi, sanoatda hosil qilinadigan barcha qiymatning 52 foizini kichik va o'rta xususiy korxonalar yaratmoqda. Germaniyada 2 mln.dan ortiq kichik va o'rta korxonalar mavjud bo'lib, ularda iqtisodiy faol aholining 75 foizi mashg'uldir.

Italiya iqtisodiyotida jami firmalarning 99 foizini xodimlar soni 100 kishidan kam bo'lgan firmalar tashkil qilib, ularda barcha ishlovchilarning 69 foizi banddir. Umuman, Yevropa Ittifoqida kichik va o'rta korxonalar jami korxonalarining 95 foizini tashkil etib, xodimlarning 75 foizini ish bilan ta'minlaydi.

Aholini ish bilan ta'minlashda kichik va o'rta biznesning hal qiluvchi ahamiyati dunyo tajribasidan ma'lum. Rivojlangan mamlakatlarda ishlovchilarning 50 foizdan 80 foizgacha qismi shu sohada mehnat qiladi. AQShda o'rtacha har 10 ming kishiga 742 ta kichik va o'rta biznes subyekti to'g'ri keladi. Bu mamlakatda ish bilan bandlarning 54 foizi kichik va o'rta biznesda tadbirkordir. Aynan shu ko'rsatkich Yevropa Hamjamiyatida 72 foizni, Yaponiyada - 78 foizni, yirik korxonalarini kam bo'lgan Lotin Amerikasida esa - deyarli 90 foizni tashkil qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mehnat bozoridagi haqiqiy vaziyatga baho berish, ish bilan ta'minlashga muhtoj aholining sonini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasida bir qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Bular asosida ish bilan ta'minlashga muhtoj shaxslarni aniqlash va mehnat resurslari balansini tuzish metodikasi tasdiqlandi. Bugungi kunda bu borada jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'tkazilgan o'rganishlar bugungi kunda mehnat resurslarining deyarli 25 foizi iqtisodiyotning norasmiy sohasida bandligini ko'rsatmoqda. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda har 100 kishidan 5 tasi vaqtinchalik bir martalik ishlar hisobidan daromad ko'rmoqda, har 100 tadan 24

kishi bo'lsa - patentsiz yoki bir martalik patent bilan tadbirkorlik qilishmoqda yoki ularga yordam berishmoqda, har 100 kishidan taxminan 5 kishi esa xorij mamlakatlarga daromad topish uchun borishmoqda.

Albatta, bunday jarayonlar ham joylarda ishsizlik darajasini xavfsizroq darajada vaqtincha "tutib turish" imkonini beradi. Doimiy o'rganishlar [7] hozir ishga joylashtirishga muhtoj ish bilan ta'minlashga muhtoj aholi soni mamlakatimiz bo'yicha 500 ming kishini tashkil qilishini ko'rsatmoqda. Bu iqtisodiy faol aholining 4 foizi demakdir va mehnat bozorida davlat, mahalliy hokimiyat idoralari va jamoat tashkilotlari tomonidan yana ham aktiv faoliyat yuritilishi zarurligini talab qilmoqda. Shuning uchun ham ish joylari yaratish orqali mehnat bozorida talab va taklif muvozanatini ta'minlash hozirgi davrning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Yuqori ish haqi to'lanadigan, qulay mehnat sharoitlariga ega doimiy ish joylari yaratilmasa, mahalliy xom ashyoni qayta ishlash mo'ljallangan ko'plab kichik korxonalar tashkil qilinmasa, xizmat ko'rsatish, bozor infrastrukturasi tarmoqlari rivojlantirilmasa aholining turmush darajasini o'stirib bo'lmaydi, ijtimoiy muhofaza qilish muammolarini to'la hal qilish uchun yetarli mablag' hamto'planmaydi. Mehnat bozorida vaziyatni iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan ko'rganda ham talab va taklif muvozanatisiz joylardagi moliyaviy-iqtisodiy muammolarni (mahalliy budjet daromadlari, soliq, emissiya va h.), ijtimoiy vazifalarni (kam ta'minlangan oilalarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, nafaqalar to'lash, pensiyalar va b.) hal qilish qiyinligi ko'rinadi.

Bu borada, ayniqsa, yangi ish joylarini yaratishga sarflanadigan investitsiyalarni taqsimlash katta ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar va pul oqimlari nafaqat ular yo'naltirilgan obyektlarni, balki turdosh tarmoqlarni ham rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda investitsiyalar ko'proq shaharlarga to'g'ri kelmoqda, chunki shaharlarda sarmoyalar tezroq qaytinga ega bo'ladi, bu yerlarda ularning behuda sarflanish xafvi ham kam. Endi imkoni boricha investitsiyalarning mikroreditlar tarzida mayda tovar ishlab chiqaruvchiga, oilaviy biznesga kelishini ta'minlash zarur. Oilaviy biznes ish bilan ta'minlanganlik va daromadlar muammosini birvarakayiga yechish imkoniga ega. Bugungi kunda oilaviy biznesni mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari kafolati ostida garovsiz mikroreditlash mexanizmini yaratish kuntartibiga qo'yiladigan payt keldi. Shu o'rinda bir misol: Hindiston va Misrda oilaviy tadbirkorlikda mashg'ul salmog'i kichik va xususiy biznesda ishlovchilarning 70 foizini tashkil qiladi.

Mehnat bozorida talab va taklifni muvozanatlashning yana bir muhimi muammosi - aholining mehnat bozoriga imkoni boricha talab mavjud bo'lgan malaka bilan chiqishini ta'minlashdir. Ish izlayotgan fuqaroning malaka darajasi past bo'lsa, tabiiyki, uni ishga joylashtirish imkoniyatlari ham cheklangan bo'ladi. Masalaning yana bir jihati - mehnat bozori bir turdagi kasb-kor egalari bilan to'lib ketsa ham bo'lmaydi. Chunki bu holda keraksiz malakali aholi ko'payib, ularni ish bilan ta'minlash mushkul bo'lib qoladi. Shuning uchun ham bunday hollarni tartibga solish va faqat kerakli mutaxassislarni tayyorlash kadrlar tayyorlash tizimi va mexanizmining samarali ishlashiga bog'liq bo'lib qoladi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi birinchi galda aynan shu masalani hal qilishga yo'naltirilgan.

Shu munosabat bilan joylarda har bir mutaxassislik bo'yicha kadrlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, bunda mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishini to'la hisobga olish muhim. Liberallashtirish jarayonlari amalga oshayotgan ayni kunlarda iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan yaqin, o'rta va, hatto, uzoq kelajakda qaysi kasblar bo'yicha mutaxassislar kerakligini bilishimizga

bog'liq. Bu masala, yuqorida tilga olingan sabablarga ko'ra, ayniqsa kichik va o'rta biznes sohasi uchun muhim. Buning uchun, shubhasiz, biz qaysi tarmoqlar va kasblar bo'yicha mutaxassislar yetarlicha tayyorlanmayotgani, qaysi sohalar uchun ular ortiqcha tayyorlanayotgani to'g'risidagi yetarli ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim. Keraksiz tayyorlanayotgan har bir mutaxassis iqtisodiyot uchun benihoya zararlidir. Ko'rilyotgan ushbu masalani samarali hal qilishning yana bir muhim vositasi - ishchi kuchi qiymatidir. Oddiy qilib aytganda - ish joyidagi mehnat faoliyati uchun to'lanadigan ish haqi darajasi. Agar mehnat bozorida taklif qilinayotgan ish haqi darajasi past bo'lsa, u holda ish izlab chiqqan mutaxassislarning aksariyati boshqa sohalardan ish izlay boshlaydi yoki boshqa joylarga ketadi. Hozirgi kunda ko'plab zarur ixtisosliklar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligining asosiy sababi ham shunda: yo ish haqi past yoki u ham o'z vaqtida to'lanmaydi.

**XULOSA.** Kichik va xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlashda muhim omil bo'lib, iqtisodiy faollikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur sohani qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholi daromadlari oshadi va kambag'allik darajasi kamayadi. Shu bois, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rag'batlantirish va ular uchun qulay muhit yaratish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi - Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iy davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Tom 1.– Toshkent: O'zbekiston, 2017.– 233-295 b.
3. Karimov.I.A. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish – taraqqiyot garovi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 17-iyuldagi majlisida so'zlangan nutq // Xalq so'zi, 2001, 18 iyul.– №140 (2702).
4. Abduraxmanov Q.X.va boshqalar. Personalni boshqarish (O'quv qo'llanma). -Toshkent: «Sharq», 1998.– 272 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. – Toshkent, 2019. Manba:<https://stat.uz>
6. "Iqtisod va hisobot" jurnali.–Toshkent: 1998. – №1. – 64.
7. O'zbekiston Statistika davlat komiteti hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari.
8. Jo'rayev A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – iqtisodiy o'sishning tayanchi. // "Iqtisodiy taraqqiyot" jurnali, 2023. – №2. – B. 45–52.
9. Birch, D.L. (1979). The Job Generation Process. Cambridge, MA: MIT Program on Neighborhood and Regional Change.

## “YAGONA RAQAMLI VALYUTA” KONSEPSIYASI

*Yuldoshev Obbos Amonovich*

*Turon universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahondagi erkin almashtiriladigan valyuta ayirboshlash tizimining isloh qilish zarurati hamda “yagona raqamli valyuta”ni ishga tushirish zaminida yagona valyutaga asoslangan jahon iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** erkin almashtiriladigan valyuta (EAV), xalqaro kelishuv shartnomasi, “Yagona raqamli valyuta” (YARV), YARV tizimi, Markaz, Markaziy Banklar, Valyuta birjasi, Markazga a'zo bo'lgan va a'zo bo'lmagan mamlakat.

**Annotation:** The article examines the need to reform the global system of freely convertible currency and the prospects for the development of the global economy based on a single currency in the context of the launch of a “single digital currency”.

**Key words:** freely convertible currency (FCC), international agreement, Single Digital Currency (SDC), SDC system, Centre, Central Banks, Currency Exchange, member and non-member states of the Centre.

**KIRISH.** Maqolada an'anaviy valyuta ayirboshlash tizimidagi muammolar ko'rsatilib, uni isloh qilish yuzasidan yangidan tashkil etiladigan **Markaz** shaklidagi xalqaro moliya instituti orqali “**Yagona raqamli valyuta**” (YARV)ni emissiya qilish taklif etilgan.

Erkin almashtiriladigan valyuta ayirboshlash tizimi bilan bog'liq quyidagi **ikkita muammoning** hal etilishi – dunyo iqtisodiyoti rivojlanishida yangi davrni boshlaydi:

1) Dunyoning an'anaviy savdo – iqtisodiy aloqalari asosan erkin almashtiriladigan valyutalar (EAV) vositasida amalga oshirishga asoslangan bo'lib, ko'pchilik mamlakatlar EAV zahirasi yetishmasligi sababli erkin savdo – iqtisodiy aloqalarni yurita olmaydi, garchi mamlakatning ichida o'zining milliy valyutasi faol harakatda bo'lsa ham (bu holat rivojlanmagan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarga xos). Ma'lumki, har bir mamlakat EAVga ega bo'lish uchun tovar (ish va xizmatlar) larni chetga EAVga realizatsiya qilishi lozim (chetdan har xil valyuta o'tkazmalari orqali keladigan valyutalarni hisobga olmaganda). Mamlakatning milliy valyutasini to'g'ridan - to'g'ri EAVga ayirboshlash imkoniyatining yo'qligi – erkin iqtisodiyot yuritishga to'siq vazifasini bajaradi. Bundan kelib chiqadiki, har bir mamlakatning **milliy valyutasini EAVga to'g'ridan - to'g'ri ayirboshlash imkonini beruvchi yangicha valyuta ayirboshlash tizimining** yaratilishi, bu yo'nalishda yangi imkoniyatlarni paydo qiladi!

2) Ma'lum bir mamlakat(lar)ning iqtisodiyotiga faqatgina ishonib (chunki, oshkora kafolatlangan asoslar mavjud emas) uning milliy valyutasidan EAV sifatida dunyo miqyosida keng foydalanilishi holati – hozirgi dunyo aniq iqtisodiyotga asoslangan EAV muomalasi tizimida emasligidan dalolat beradi! Ya'ni, milliy valyutasi EAV sifatida tan olingan mamlakatning asl iqtisodiy holatini faqatgina shu mamlakat(lar)ning o'zi ko'ra oladi yoki moliya-iqtisodiy siyosatini ham uning o'zi belgilaydi. Bundan tashqari, bir payt kelib milliy valyutasi EAVga aylangan mamlakatning o'zi yoki uning moliya – iqtisod tizimi qandaydir kutilmagan sabablar bilan halokatga uchraganda, ushbu EAV dan hisob – kitob tizimida foydalanayotgan dunyo mamlakatlari qanday yo'l tutishi lozimligi borasida hech qanday tushuncha yo'q yoki aniqrog'i, bu yo'nalishda boshi berk ko'cha mavjudligini xulosa qilish mumkin.

Bunday holatda milliy valyutasi EAVga tenglashtirilgan mamlakatning moliya – iqtisodiy inqirozini boshqa bir dunyo mamlakatlariga tarqalishini to‘xtatishning imkoniyati yo‘q, albatta. Bunga 2008 yilda AQShda yuzaga kelgan moliyaviy inqirozning butun dunyoga tarqalganligini misol qilib ko‘rsatish mumkin [1]. Shuningdek, oxirgi axborotlarga ko‘ra AQShning davlat qarzi oshib borayotganligi sababli tobora defolt xavf solayotganligi [2] yoki AQSH milliy valyutasi hisoblanuvchi dollarning emissiya miqdorini boshqa mamlakatlar bila olmasligi kabi havotirli holatlar – dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga xavf solishi mumkinligi, haqli ravishda e‘tirozlarga sabab bo‘lmoqda [3]. Bundan tashqari, oxirgi siyosiy voqealarga ko‘ra jahon moliyaviy tizimlari geosiyosiy raqobatda qurol sifatida tobora ko‘proq foydalanilayotganligi mamlakatlarni xavotirga solmoqda va bu holat, jahon institutlarining zamonaviy tahdidlarga javob bera olishi uchun islohotlar o‘tkazilishini talab qiladi [4].

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, go‘yoki hozirgi dunyo AQSH dollari moliyaviy piramidasi ta‘sirida yashamoqda va umuman, ayrim mamlakat(lar)ning milliy valyutasidan EAV sifatida dunyo miqyosida keng foydalanilishi – yuqoridagi tahdid va e‘tirozlar sababli tobora o‘zini oqlamaydigan tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ya‘ni, dunyo iqtisodiyoti qandaydir yangicha, oshkora va mustaqil yagona valyuta tizimiga o‘tishga zarurat sezmoqda. Shu ma‘noda, ***biror bir mamlakat(lar)ning moliya – iqtisod va pul muomalasi tizimiga bog‘liq bo‘lmagan yangicha valyuta ayirboshlash tizimi*** yaratilishi maqsadga muvofiq.

***Izoh:*** *Aslida, ushbu muammolarning hal etilishi iqtisod olimlarining oldiga qo‘yilgan global masala bo‘lishi lozim!*

**ADABIYOTLAR SHARHI.** Ayrim olimlar yagona dunyo valyutasini – hukumat valyutasi miqyosida talqin qilib, uning afzalliklarini ko‘rsatib o‘tgan bo‘lsa-da, uni yaratib bo‘lmaydi, degan fikrga kelishgan. Jumladan, Улибина Л.К. (профессор кафедры финансов КубГАУ Россия) alohida mamlakatlarning mavjudligi va hozircha bitta umumiy dunyo hukumatining mavjud emasligi sababli, dunyoning yagona valyutasini yaratib bo‘lmaydi deb xulosa qilgan [5] (<https://cyberleninka.ru/article/n/plyusy-i-minusy-sozdaniya-edinoy-mirovoy-valyuty>).

Ammo, talqin qilinayotgan ushbu maqolada mutlaqo yangi funksiyalar bilan ishlaydigan moliya institutlari tashkil qilinishi orqali dunyoning yagona valyutasini yaratish mumkinligi g‘oyasi – qisqacha konsepsiya ko‘rinishida ifodalab beriladi.

**MUHOKAMA.** Yangi funksiyalar bilan faoliyat yuritadigan **Markaz** shaklidagi xalqaro moliya instituti yordamida **“Yagona raqamli valyuta”** (YARV) konsepsiyasini ishga tushirish orqali yuqoridagi muammolar hal etilishi mumkin. Konsepsiya quyidagi 3 ta moliya institutlarining internet tarmog‘idagi integratsiyasi orqali ishga tushiriladi.

- 1) Markaz (yangidan tashkil etiladi).
- 2) Markazga a‘zo mamlakatlarning Markaziy Banki.
- 3) Markaz a‘zo mamlakatlarning Valyuta birjasi.

**Izoh:** maqolada halqaro tranzaksiyalar, mamlakatlarning Markaziy Banki tizimi ichida va naqd ko‘rinishdagi YARVning muomalasi xususiga to‘xtalinmaydi, sababi bunday operatsiyalar hozirda paydo bo‘layotgan ayrim mamlakatlarning markazlashgan boshqaruvga asoslangan **milliy raqamli valyuta konsepsiyasi** ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin;

**Birinchiidan,** Halqaro Reglament ishlab chiqilib, unga ko‘ra YARV emissiyasini amalga oshiruvchi **Markaz** tashkil qilinadi. Markazning faoliyati Markazga a‘zo mamlakatlarning vakillaridan iborat Kengash (keyinchalik, Kengash deyiladi) tomonidan boshqariladi va uning funksiyasiga Markazga a‘zo mamlakatlar bo‘yicha quyidagi ishlarni bajarish kiradi:

- 1) Mamlakat Valyuta birjasidagi har kungi YARV kursini nazorat qilish asosida uni Markazda qayd etib borish;
- 2) Milliy valyutalarni YARVga ayirboshlash (YARV emissiyasi);
- 3) Mamlakatning zahirasidagi YARVni uning milliy valyutasiga ayirboshlash (ya'ni, emissiyaga teskari operatsiyani bajarish);
- 4) Milliy valyutalarni YARVga ayirboshlash tizimiga limit tarzida cheklov o'rnatish.

Bunday funksiyalarni belgilanishiga sabab, Markazga a'zo mamlakatlarning milliy valyutalari to'g'ridan – to'g'ri Markazdan emissiya qilinadigan YARVga ayirboshlanishidir (keyinchalik, YARV tizimi deyiladi). Endi ushbu funksiyalarning mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

**Mamlakat Valyuta birjasidagi har kungi YARV kursini nazorat qilish asosida uni Markazda qayd etib borish** (*Markazning 1- chi funksiyasi*).

Markaz ushbu funksiyani bajarish maqsadida, mamlakatlar Valyuta birjasiga internet tarmog'i orqali doimiy onlayn bog'lanadi va milliy valyutalarni YARVga nisbatan har kungi ayirboshlash kursini o'zida qayd etib boradi;

Bunday ish yuritish tartibi, Markaz va unga a'zo mamlakatlar o'rtasida imzolanadigan xalqaro kelishuv shartnomasiga asosan belgilanadi va unga ko'ra Markazga a'zo mamlakatlarning **Markaziy Banki (MB) va Valyuta birjasi (VB)** – YARV tizimi bo'yicha mamlakat nomidan ish yurituvchi Vakolatli tashkilot sifatida belgilanadi.

YARV tizimiga qanday mamlakatlar kiritiladi?

Xalqaro kelishuv shartnomasiga ko'ra o'zining Valyuta birjasi (VB) da milliy valyutani YARVga nisbatan ayirboshlash kursini belgilashga davlat ma'muriy aralashuvimiz, faqatgina, valyutaga bo'lgan bozor talab va taklifi asosida erkin kurs rejimini ta'minlash majburiyatini olgan mamlakatni YARV tizimiga kiritilishi belgilanadi (bu - talabgor mamlakat sifatida belgilanadi).

Milliy valyutalarni to'g'ridan – to'g'ri YARVga ayirboshlash kursi qanday aniqlanadi?

Ma'lumki, an'anaviy iqtisodiyot sharoitida dunyo mamlakatlari ikki xil ko'rinishdagi valyuta kurslaridan foydalanadilar:

- 1) Qayd etilgan valyuta kursi;
- 2) Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi (erkin kurs).

Yuqorida bayon qilinganidek, YARV tizimi uchun aynan 2-chi turdagi kurs sharoiti talab qilinadi. Bu esa barcha mamlakatlar bir vaqtda YARV tizimiga o'ta olmasligini ko'rsatadi. Shu sababdan, YARV tizimiga barcha mamlakatlarning to'liq o'tish jarayoni ham talablar bajarilishiga qarab, **ikki bosqich**da amalga oshiriladi.

**1-bosqich:** Bu bosqichda hozirda eng barqaror va butun dunyoda keng foydalanilayotgan AQSH dollarining valyuta kurslaridan foydalaniladi.

Dastlab, milliy valyutalarni to'g'ridan – to'g'ri YARVga ayirboshlash kurslarini belgilash uchun bazaviy valyuta sifatida – hozirda eng barqaror va butun dunyoda keng foydalanilayotgan AQSH dollarining valyuta kurslaridan foydalaniladi va bunda, **1 AQSH dollari = 1 YARV** tengligi qabul qilinadi.

Bunda, dastlab xalqaro kelishuv shartnomasiga ko'ra talabgor mamlakat o'zining Valyuta birjasida milliy valyutasini AQSH dollariga erkin kurs bo'yicha ayirboshlanishini ta'minlaydi. *Masalan, O'zbekiston pul birligi – so'mning 17.10.2023 yilda mamlakat VBdagi AQSH dollariga nisbatan erkin kursi quyidagicha bo'lishi mumkin: 1 AQSH dollari = 12 010 so'm.*

Markaz orqali valyuta ayirboshlash operatsiyalarini boshlash uchun yuqorida qabul qilingan tenglikka asosanib, VBda AQSH dollarining o'rniga YARV yozuvi ko'rsatiladi. Ya'ni, mana shu joyda AQSH dollaridan voz kechilib, uning o'rniga YARVni joriy qilish boshlanadi!

Jarayonni boshlash uchun Markaz mamlakatning Valyuta birjasiga internet tarmog'i orqali onlayn integratsiya qilinadi (bu - YARV emissiyasi va harakati sxemasida "0" bilan belgilangan). Oshkoralik uchun texnik vositalar yordamida bir vaqtning o'zida Markazning elektron oynasida ham har kungi ushbu kurslarning namoyon bo'lishi ta'minlanadi va uning ko'rinishini quyidagi namunaviy 1- jadvalda ko'ramiz:

(1- jadval)

**Milliy valyutalarga nisbatan YARV kursi\***

Sana: 17.10.2023.

Mamlakat nomi	Valyuta birligi	1 YARV kursi	Milliy valyutani YARVga ayirboshlash kursi*	YARVni milliy valyutaga ayirboshlash kursi*
O'zbekiston	So'm	12 010 so'm	12 020 so'm	12 000 so'm
Rossiya	Rubl	100 rubl		
..... boshqa mamlakatlar	.....	.....	.....	.....

\*Jadval moduli muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**Izoh:** Milliy valyutani YARVga ayirboshlash kursi\* va YARVni milliy valyutaga ayirboshlash kursi\*ning mohiyati maqolaning III. **jarayon kamchiliklarini bartaraf etish sarlavhasi, 1-chi kichik bandida** (pastda 12-14-chi betlar) bayon qilingan. 1 YARV kursi\* esa mamlakatning tashqi savdo operatsiyalarida qo'llaniladi. Umumiy jarayon YARV emissiyasi va harakati sxemasida "0" bilan belgilangan.

Bu bosqichda katta iqtisod mamlakatlarining YARV tizimiga o'tishi kutiladi va bu YARVning jahonda amal qilishini tezlashtiradi.

**2- bosqich:** Bu bosqichda YARV kursidan foydalaniladi.


Yuqorida aytilgandek, tabiiy sabablarga ko'ra barcha mamlakatlarning YARV tizimiga kiritilishi qandaydir uzoqroq vaqtda amalga oshadi. Tabiiyki 1- chi bosqichda Markazdan YARV emissiyasini amalga oshirish boshlangandan so'ng dunyo mamlakatlarida YARV tranzaksiyalari hajmi osha boshlaydi. Natijada, tranzaksiyalarda an'anaviy EAVlar o'rnini YARV egallay boshlaydi. Shu sababli, barcha dunyo mamlakatlari VBda YARV kurslari paydo bo'ladi. Shu sababli, 2-chi bosqichda Markaz tomonidan YARV tizimiga kirishga talabgor mamlakatlarning VBdagi erkin YARV kursi hisobga olina boshlaydi.

**Izoh:** YARV joriy qilinishi ortidan, ma'lum qisqa muddatda YARVning AQSH dollariga nisbatan kursi o'zgarib boshlaydi. Aniqrog'i, AQSH dollari YARVga nisbatan tezda qadrsizlana boshlaydi. Bunga sabab, dunyo mamlakatlari zahirasidagi dollar qiymatliklari bumerang tarzda o'z vataniga (AQShga) qayta boshlaydi. Bu esa AQSH iqtisodiyotida quyidagi salbiy oqibatlarni namoyon qiladi: davlat qarz majburiyatlari bajarilishini tezlashtiradi – bu, o'z navbatida, mamlakat moliya-iqtisod tizimida katta qiyinchiliklarni paydo qiladi, mamlakatda dollar qiymatliklar massasi oshadi, inflyatsiya tezlashadi. Shuningdek, YARV –*inflyatsiyadan xoli*, dollar – *inflyatsiyaga moyil* valyuta bo'lganligi sababli, YARV kursi osha boshlaydi.

Milliy valyutalarni to'g'ridan – to'g'ri YARVga ayirboshlash va YARV muomalasi (konsepsiya moduli) qanday amalga oshadi?

Har bir mamlakat Vbdagi YARV kursiga ko'ra Markaz Raqamli hamyonlar orqali milliy valyutalarni to'g'ridan – to'g'ri YARVga ayirboshlaydi. Tizim - blokcheyn texnologiyasi va markazlashgan boshqaruvga asoslanadi. Tizimning faoliyati quyidagi sxemada ko'rsatiladi:

**YARV emissiyasi va muomalasi sxemasi\***



\*Sxema moduli muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**Sxemaning umumiy mohiyati quyidagilardan iborat:**

- Markaz emissiya va asosiy infratuzilmani boshqaradi;
- Markaz barcha foydalanuvchi MBlar uchun Raqamli hamyonlarni yaratadi va yuritadi (har bir milliy valyuta uchun alohida Raqamli hamyon yaratiladi);
- Markaz reyestrni nazorat qiladi.

**I. Amalga oshirish sxemasi:**

**YARVni milliy valyutalarga ayirboshlash kursini aniqlash** (0 - operatsiya) - bu, *Markazning 1- chi funksiyasi* bilan bog'liq:

Markaz va unga a'zo mamlakatlarning Valyuta birjasi onlayn internet tarmog'i orqali integratsiya qilinadi. Uning mohiyati maqolaning Milliy valyutalarni to'g'ridan – to'g'ri YARVga ayirboshlash kursi qanday aniqlanadi? deb nomlangan (yuqorida) bandida bayon qilingan.

**YARV Emissiyasi** (1 va 2- chi operatsiyalar) - bu, *Markazning 2- chi funksiyasi* bilan bog'liq:

Markazga a'zo mamlakat MB *Raqamli hamyon* orqali ma'lum miqdordagi YARVni Markazdan sotib oladi. Buning uchun:

- ✓ MB milliy valyutada o'zining *Raqamli hamyonini* to'ldiradi va uni Markazning *Raqamli hamyoniga* o'tkazadi;
- ✓ Markaz esa a'zo mamlakat Vbdagi kurs bo'yicha milliy valyutani YARVga almashtirib, MBning *YARV Raqamli hamyoniga* o'tkazadi.

Bu jarayon chakana kriptovalyutalar tizimidagi savdo amaliyotiga o'xshashligi bilan izohlanadi. Ammo, chakana kriptovalyutalar tizimidan farqli o'laroq YARVning birja savdosi platformasi bo'lmaydi, chunki, mohiyatlar farq qiladi.

Emissiya jarayonida Markaz YARVni chiqaradi va MB hamyonlarini taqsimlash va boshqarishda asosiy rol o'ynaydi.

**YARV Emissiyasiga teskari operatsiya** (3 va 4 - chi operatsiyalar) - bu, *Markazning 3- chi funksiyasi* bilan bog'liq:

Ko'p miqdorda eksport operatsiyalarini bajarayotgan mamlakatda tabiiyki ortiqcha YARVlar zahirasi paydo bo'ladi va uni milliy valyutaga ayirboshlashga ehtiyoj seziladi. Shu paytda yuqoridagi 1 va 2- chi operatsiyalarga teskari operatsiya bajariladi (3 va 4- chi operatsiyalar). Buning uchun:

- ✓ MB *Raqamli hamyon* orqali YARVni Markazning *Raqamli hamyoniga* o'tkazadi;
- ✓ Markaz esa a'zo mamlakatning VBdagi kurs bo'yicha YARVni milliy valyutaga almashtirib, MBning milliy valyuta *Raqamli hamyoniga* ko'chirib beradi.

## II. Jarayonning kamchiliklari:

Yuqorida keltirilgan milliy valyutalarni to'g'ridan – to'g'ri YARVga ayirboshlash (1 va 2- chi, 3 va 4- chi operatsiyalar) jarayoni to'g'ri bajarilsada, MBlar jarayondan ko'proq yutish maqsadida quyidagi nopok harakatlarni amalga oshirishi tabiiy:

1) Milliy valyutani to'g'ridan – to'g'ri YARVga ayirboshlash jarayonidan ko'proq yutish maqsadida, davlat o'zining Valyuta birjasidagi erkin valyuta kursiga sun'iy ta'sir qilishga (kursni pasaytirish yoki oshirishga) harakat qiladi.

2) MB lar sun'iy naqdsiz milliy valyutalar massasini yaratish orqali davlatning yoki ayrim kompaniyalar va shaxslarning nopok manfaatli maqsadlarini amalga oshirishi mumkin.

Shu sababdan, tizimdagi bunday kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilishi lozim.

## III. Jarayon kamchiliklarini bartaraf etish:

Tizimda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni (yuqoridagi bandda keltirilgan) bartaraf etish maqsadida alohida Tartib ishlab chiqiladi va unda quyidagi choralar belgilanadi:

1) Shuni qayd etish kerakki, butun YARV tizimi Markazga a'zo mamlakatlarning Valyuta birjasidagi erkin kurs rejimiga asoslanadi, uni buzishga qaratilgan harakat esa – tizimga katta miqdorda zarar yetkazishga olib kelishi mumkin! Shu sababli, erkin kurs rejimi buzilishini bartaraf etishga qaratilgan quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Jumladan;

Valyuta birjasidagi erkin valyuta kursiga davlatning sun'iy ta'sir etish (kursni pasaytirish yoki oshirishga) mexanizmlarini bartaraf etish maqsadida, ayirboshlashni amalga oshirish paytida (kunida) - undan **bir oy** oldingi muddatda milliy valyutaga nisbatan YARV kurslarining o'zgarishi hisobga olinadi.

*Masalan*, O'zbekiston MB (pul birligi - so'm) tomonidan ayirboshlash operatsiyasi 2023-yilning 17-oktabr kunida amalga oshiriladigan bo'lsa, undan bir oy oldingi muddatda milliy valyutaga nisbatan YARV kurslarining taxminiy o'zgarishi quyidagicha bo'lishi mumkin (2-jadval).

2-jadval

### Milliy valyutalarga nisbatan YARV kursi (o'tgan 1 oydagi)\*

Ko'rsatkichlar	VBdagi bir oylik (30 kun) YARV kursi					
	Oy sanasi	17.0	18.0	Bos	16.1	17.1
	9.23y	9.23y	hqa kunlar....	0.23y	0.23y	
YARV kursi (so'mda)	12 000	12 020	.....	12 015	12 010	

\*Jadval moduli muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bundan kelib chiqib, Markaz tomonidan ayirboshlash uchun quyidagi kurslar qabul qilinadi:

a) **Milliy valyutani YARVga ayirboshlash, ya'ni YARV emissiyasi uchun** (1 va 2- chi operatsiyalar): ayirboshlash kunida – Valyuta birjasida milliy valyutaga nisbatan YARVning faqatgina oshgan kursi bo'yicha amalga oshiriladi. Demak, 17.10.2023-yilda Markaz O'zbekiston MBning milliy valyutasini 12 020 so'm kurs bo'yicha YARVga ayirboshlaydi;

b) **YARVni milliy valyutaga ayirboshlash uchun** (3 va 4- chi operatsiyalar): ayirboshlash kunida – Valyuta birjasida milliy valyutaga nisbatan YARVning faqatgina pasaygan kursi bo'yicha amalga oshiriladi. Demak, 17.10.2023-yilda Markaz O'zbekiston MBning YARV zahirasi milliy valyutaga 12 000 so'm kurs bo'yicha ayirboshlaydi.

Garchand bunday tartibning o'rnatilishi bozor mexanizmiga to'liq mos bo'lmasa-da, yuqoridagi nopok holatlarni bartaraf etish chorasi hisoblanadi. Bunday hisoblashni inson omilisiz Markazdagi kompyuter dasturi avtomat tarzda bajaradi va uni ayirboshlash uchun qabul qiladi (bu YARV emissiyasi va harakati sxemasida "0" bilan belgilangan va *Markazning 1-chi funksiyasi* bilan bog'liq).

Erkin valyuta kursiga davlatning sun'iy ta'sir etish mexanizmlarini bartaraf etishga qaratilgan yuqoridagi tadbirlar - hozircha bizga no'malum sabablarga ko'ra yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli, aytilgan Tartibga ko'ra - Valyuta birjasida erkin kurs rejimiga sun'iy ta'sir etishga harakat qilgan yoki uni buzgan mamlakatning valyuta ayirboshlash tizimiga nisbatan juda qattiq choralarni qo'llash ham belgilanadi. Jumladan:

- ✓ moliyaviy jarimalar qo'llash (zarar miqdoriga qarab);
- ✓ ma'muriy va jinoiy jazo;
- ✓ YARV tizimidan ma'lum muddatga o'zish (*masalan*, 10 yilgacha) va YARV tizimiga talabgor mamlakat sifatidagi statusni ma'lum muddatga bekor qilish (*masalan*, 20 yilgacha).

Tartib – xalqaro kelishuv shartnomasida alohida ilova bilan tasdiqlanadi. Amaliy jihatdan qaralganda, bunday Tartibni ishlab chiqish va uni qo'llash katta qiyinchiliklar bilan bog'liq emas.

Moliyaviy jarimaning mohiyati – tan olingan xalqaro sud qaroriga asosan, Tartibni buzgan mamlakat MBdan ma'lum miqdordagi YARVni majburiy tartibda Markazga undirish hisoblanadi.

Moliyaviy jarimalarni undirish maqolaning keyingi bandlarida keltirilgandek, *Raqamli hamyonlar* orqali amalga oshiriladi.

Tartib bajarilishini nazorat qilish masalasi Markazni boshqaruvchi Kengash to'g'risidagi alohida Nizomga ko'ra, Kengashning vakolati doirasida amalga oshiriladi (bu harakatlar *Markazning 1- chi funksiyasi* doirasida amalga oshiriladi).

2) MB larning sun'iy naqdsiz milliy valyutalar massasini yaratishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, milliy valyutani to'g'ridan – to'g'ri YARVga ayirboshlash tizimiga limit tarzida cheklov o'rnatiladi. Limitning miqdori - Kengash qarori bilan belgilanadi (bu, *Markazning 4-chi funksiyasi* bilan bog'liq). Limit miqdorini belgilashga asos sifatida - tan olingan xalqaro tashkilot (*masalan*, Jahon banki) tomonidan e'lon qilinadigan dunyo mamlakatlarining har yilgi yillik yalpi ichki mahsulot (YAIM) ko'rsatkichi olinadi. Limit miqdori albatta, jahon savdo-iqtisodiy munosabatlarini ta'minlash ehtiyoji uchun YARVning yetarli miqdorida bo'lishi shart. Masalan, hozirgi kundagi erkin almashtiriladigan valyutalar zahirasi miqdori jahon YAIMga nisbatan taxminiy 20 foizni ( $YAIM * 20\%$ ) tashkil etishi mumkin. YARVning muomalaga chiqariladigan (emissiya) limit miqdorini belgilash uchun ham aynan, mana shunday ko'rsatkich asos bo'ladi.

Limit miqdori - Markazga a'zo barcha mamlakatlar uchun bir xil miqdorda va majburiy hisoblanadi. Albatta, ehtiyojning o'zgaruvchanligiga qarab, limit miqdori ham Kengash tomonidan o'zgartirib turiladi. Jumladan, limit miqdori avvalgiga nisbatan kamaytirilganda - Markazga a'zo mamlakatlar MBLari tegishli miqdordagi YARVni **majburiy** tartibda Markazga sotishlari shart. Aksincha holatda esa **ixtiyoriy** hisoblanadi.

Bu tizimni – huddi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini tartibga solish maqsadida, Markaziy Banklar tomonidan qo'llaniladigan pul mablag'larini majburiy zahiralash siyosatiga o'xshatish mumkin.

#### **YARVning asosiy mohiyati:**

Yuqorida aytilgandek, Markaz o'zining funksiyasiga ko'ra milliy valyutalarni YARVga ayirboshlash va unga teskari operatsiyani (YARVni milliy valyutaga ayirboshlash) bajaradi, xolos! Shu sababli, ma'lum miqdordagi YARV zahirasiga ega bo'lgan har qanday mamlakat aslida, YARV kursiga mos ravishda – o'zining milliy valyutasi miqdoriga ega hisoblanadi yoki yanada ochiqroq aytilganda, mamlakat Valyuta birjasidagi kursga ko'ra Markaz orqali valyutalarning o'rin almashish kombinatsiyasi bajariladi, xolos.

Jarayon operatsiyalarini ta'minlash (sxemaning 1 va 2- chi hamda 3 va 4- chi operatsiyalari) maqsadida, Markazda YARV va milliy valyutalarning quyidagicha rezervi yaratiladi. Jumladan:

- **YARVning rezervi** - yuqorida bayon qilinganidek, jahon YAIMga nisbatan taxminiy 20 foiz ( $YAIM * 20\%$ ) miqdorida **sun'iy yaratiladi**. Bundan tashqari, yuqorida bayon qilingan - erkin kurs rejimini buzgan mamlakatning Markaziy bankidan moliyaviy jarimalar tarzida Markazga undirilgan YARV miqdorlari natijasida, Markazda **tabiiy** YARV resurslari paydo bo'ladi;

- **milliy valyutalarning rezervi** – u Markazda milliy valyutani YARVga ayirboshlash natijasida **tabiiy** paydo bo'ladi, agarda uning miqdori yetishmaganda (asosan, ko'p miqdorda eksport operatsiyalarini bajarayotgan mamlakat ehtiyoji uchun), qo'shimcha **sun'iy** milliy valyutalar rezervi yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, bunday valyuta ayirboshlash operatsiyalaridan Markaz hech qanday foyda yoki zarar ko'rmaydi! Markazda mujassamlashgan YARV va milliy valyutalarning rezervi hech qanday qimmatbaho aktivlar bilan ta'minlanmaydi, ya'ni undan faqatgina operatsiyalar uzluksizligini ta'minlash maqsadida foydalaniladi.

**Izoh:** *ma'lumki, aslida milliy valyutalar o'z mamlakatida har xil ko'rinishdagi qimmatbaho aktivlar bilan ta'minlangan bo'ladi, YARV esa hech qanday qimmatbaho aktivlar bilan ta'minlanmaydi, u shunchaki milliy valyutalarni prototipi hisoblanadi.*

Bundan anglash mumkinki, bir payt kelib qandaydir kutilmagan sabab bilan YARV tizimi qulagan taqdirda ham (*masalan, internet aloqasi yo'qolishi*) hech bir mamlakat moliyaviy zarar ko'rmaydi, bu esa uning ishonchliligini ta'minlaydi.

Shuni qayd etish kerakki, YARV - an'anaviy valyutalar bajaradigan funksiyalarni bajaradi, jumladan; tranzaksiyalar, kreditlash, qarz maburiyati va boshqalar.

*YARV tizimiga kirmaydigan mamlakatlar qanday qilib YARV tizimiga qo'shiladi?*

Markaz bilan majburiyatlar yuzasidan xalqaro kelishuv shartnomasini imzolamagan mamlakatlar milliy valyutalarni to'g'ridan - to'g'ri YARVga ayirboshlash tizimiga kiritilmasa-da, ular MB Raqamli hamyonlari orqali YARV muomalasida ishtirok etadi (bu YARV emissiyasi va harakati sxemasida ko'rsatilgan). Ular YARVning milliy valyutaga nisbatan ayirboshlash kurslarini

belgilashda hozirda amalda bo'lgan uslublardan foydalanadilar. Shu sababli, ular YARV muomalasidan hosil bo'lgan qoldiqlarni faqatgina boshqa mamlakatlarga yoki ma'lum bir subyektlarga foyda olish va boshqa maqsadlar uchun yo'naltirishlari mumkin bo'ladi. Ammo, talqin qilinayotgan YARV tizimidagi qulayliklar (jumladan, cheklangan miqdordagi milliy valyutalarni to'g'ridan- to'g'ri YARVga ayirboshlanishi) ushbu mamlakatlarni ham tezroq ushbu tizimga kirishga undaydi.

*Hozirda amaldagi EAVlar taqdiri nima bo'ladi?*

Amaldagi EAVlar ma'lum bir mamlakat(lar)ning milliy valyutasi hisoblanadi. Shu sababli, YARV tizimiga o'tish jarayonida ushbu EAVlar zahirasi ega bo'lgan mamlakat uni o'z mamlakatiga qaytaradi. O'z navbatida, EAVlarni qabul qilib olgan mamlakat, uning ekvivalenti miqdorida YARV bilan qaytarish majburiyatini olishi mumkin.

*Hozirdagidek, ayrim mamlakatlar o'z milliy valyutalaridan o'zaro hisob kitoblar uchun foydalanishi mumkinmi?*

An'anaviy iqtisodiyotga ko'ra, mamlakatlar kelishuv asosida o'z milliy valyutalaridan o'zaro hisob-kitoblar uchun foydalanadilar. Bu holat, talqin qilinayotgan YARV tizimiga ta'sir qilmaydi.

**YARVni amalga oshirish bosqichlari quyidagi umumiy sxemaga asoslanadi:**

1. **Konsepsiya va tadqiqot:** risklarni tahlil qilish va konsepsiyani e'lon qilish.
2. **Sinov:** cheklangan miqdordagi ishtirokchilar bilan prototiplash va tajriba loyihalarini amalga oshirish.
3. **Qonunchilik bazasi:** raqamli valyutani qonuniylashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni qabul qilish.
4. **Pilot ishga tushirish:** cheklangan miqdordagi test operatsiyalarini amalga oshirish.
5. **Masshtablash:** foydalanishni bosqichma-bosqich kengaytirish.

**Texnologik yondashuvlar:**

- **Markazlashtirilgan tizim:** jahon miqyosida - Markaz tomonidan va mamlakat miqyosida - Markaziy bank tomonidan to'liq nazorat qilinishi.
- **Blokcheyn:** shaffoflik, taqsimlangan reyestr va o'zaro ishonch.

**XULOSA.** YARV emissiyasi va muomalasi sxemasida ko'rsatilgan, Markazdagi ayirboshlash operatsiyalarini – kompyuter dasturlari (inson omilisiz) *blokcheyn* texnologiyasi asosida *Raqamli hamyonlar* orqali bajaradi va bu uning ishonchliligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, xalqaro to'lovlar va Markaziy Banklar tizimi ichidagi tranzaksiyalar ham *Raqamli hamyonlar* orqali bajariladi.

Talqin qilinayotgan YARV tizimining amal qilishi – amaldagi valyuta ayirboshlash tizimi (ya'ni, ayrim mamlakatlar milliy valyutasining xalqaro to'lovlar uchun EAV bo'lishi va faqatgina eksport orqali EAV tushumiga ega bo'lishi mumkinligi) erasini yakunlaydi. Natijada, quyidagi yutuqlarga erishiladi:

1) Ma'lum bir mamlakat(lar)ning moliya – iqtisod tizimi va milliy valyuta siyosatiga bog'liq bo'lmagan, shuningdek, xalqaro maydonda ham butunlay mustaqil “YARV” amalda bo'lishi ta'minlanadi;

2) Boshqariladigan YARV - xususiy kriptovalyutalardagi kabi bir qancha xususiyatlarga ega, jumladan: inflyatsiyadan ozod, tashqi to'lov tizimlariga qaram emaslik, tranzaksiyalarni tezda va xarajatsiz amalga oshirish, *blokcheyn*ga asoslangan ishonchlilik, shaffoflik, o'zaro ishonch va boshqalar;

3) YARVning muomalada bo'lishi – dunyo bo'yicha moliyaviy inqirozni keltirib chiqarmaydi ya'ni, ayrim mamlakatda yuzaga kelgan moliyaviy inqiroz boshqa mamlakatlarga tarqalmaydi;

4) Markazga a'zo har bir mamlakatning Valyuta birjasidagi erkin kursga asoslanib milliy valyutalarni YARVga ekvivalent ayirboshlash tizimi –mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda valyuta kursi bilan bog'liq kelishmovchiliklarni keltirib chiqarmaydi;

5) Va nihoyat, YARV tizimining amal qilishi – rivojlanmagan va rivojlanayotgan mamlakatlarda YARV tanqisligini bartaraf etishga yordam beradi, natijada, valyuta kurslarida ham keskin tebranishlar pasayadi hamda mamlakatlarga erkin iqtisodiyot yuritish uchun keng yo'l ochib beradi.

Ko'rinib turibdiki, bu qulayliklar mamlakatlar o'rtasidagi savdo –iqtisodiy munosabatlarni juda yuqori ko'rinishda rivojlanishiga olib keladi.

YARVning yaratilishi bilan bog'liq ushbu yangi g'oya (konsepsiya) – erkin almashtiriladigan valyuta ayirboshlash tizimining isloh qilinishida o'z hissasini qo'shishiga umid bog'lab, uni dunyo iqtisodchilariga munozara uchun bildirmoqchiman.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. В чем была причина финансового кризиса 2008 года и может ли он повториться. Артур Сафин (Россия), (2024-yil 10-aprel). <https://journal.sovcombank.ru/umnii-potrebitel/v-chem-bila-prichina-finansovogo-krizisa-2008-goda-i-mozhet-li-on-povtoritsya>

2. Байден: возможный дефолт в США поставит под угрозу статус доллара как мировой валюты. (2021-yil 4-oktabr). <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/12574967>

3. Резонансный выпад Путина по поводу доллара: по-прежнему продолжают (Haber7, Турция). (Turkiyaning Haber7 jurnalida 2021-yil 29-iyulda chop etilgan). <https://inosmi.ru/20210729/250209746.html>

4. Рамафоса: Глобал молиявий тизимлардан геосиёсат қуроли сифатида фойдаланилмоқда (2023 yil 23 avgust): <https://qalampir.uz/n/88793>

5. Плюсы и минусы создания единой мировой валюты (Улыбина Л.К. Россия). <https://cyberleninka.ru/article/n/plyusy-i-minusy-sozdaniya-edinoy-mirovoy-valyuty>

6. Доллар превратится в макулатуру — Катасонов предрёк гибель валюты. Валентин Катасонов (Россия), (2021 yil 8 sentabr) <https://deita.ru/article/502072>

## “SOFT SKILLS” KO’NIKMALARINING ZAMONAVIY TA’LIMDAGI AHAMIYATI VA UNI TALABALARDA SHAKLLANTIRISH YO’LLARI

*Y.Xaitova*

*Turon universiteti dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida “soft skills” — ya’ni yumshoq ko’nikmalarning ahamiyati, ularning turlari va talabalarda bu ko’nikmalarni shakllantirish yo’llari tahlil qilingan. Maqolada global mehnat bozori va XXI asr ta’lim standartlarining o’zgarishi natijasida yumshoq ko’nikmalarga bo’lgan talab ortib borayotgani asoslab beriladi. O’zbekiston oliy ta’lim muassasalaridagi mavjud holat, xorijiy tajriba va zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, interaktiv metodlar, amaliy mashg’ulotlar, loyiha asosida o’qitish va raqamli texnologiyalar orqali soft skills’ni rivojlantirish usullari taklif etiladi. Xulosa qismida esa, milliy ta’lim tizimiga ushbu ko’nikmalarni tizimli integratsiya qilish zarurligi asoslab beriladi.

**Kalit so’zlar:** Soft skills, yumshoq ko’nikmalar, zamonaviy ta’lim, talabalar, kommunikativlik, jamoaviy ish, muammo hal qilish, interaktiv metodlar, o’quv dasturlari, raqamli ta’lim.

**Annotation.** This article analyzes the importance of soft skills in modern education, their types, and the effective ways to develop them among university students. The growing demand for these skills due to changes in the global labor market and 21st-century educational standards is substantiated. The paper discusses the current situation in higher education institutions of Uzbekistan, as well as international experience and modern pedagogical approaches. Moreover, interactive methods, experiential learning, project-based education, and digital technologies are presented as effective tools for developing soft skills. The conclusion emphasizes the necessity of systematically integrating soft skills into national education standards and curricula.

**Keywords:** Soft skills, modern education, students, communication, teamwork, problem solving, interactive methods, curriculum design, digital learning, employability.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim va ko’nikmalarni yetkazish, balki shaxsning ijtimoiy, madaniy va emotsional jihatdan ham rivojlanishini taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, “soft skills” — ya’ni yumshoq ko’nikmalar — zamonaviy ta’limning ajralmas elementi sifatida e’tirof etilmoqda. Bu ko’nikmalar muloqot qilish, jamoaviy ishlash, muammolarni hal qilish, vaqtni boshqarish, hissiyotlarni idora qilish, moslashuvchanlik va rahbarlik kabi jihatlarni qamrab oladi.

XXI asrda global mehnat bozorining ehtiyojlari o’zgargan. Endi ish beruvchilar texnik ko’nikmalar bilan bir qatorda, xodimlarning ijtimoiy-emotsional malakalariga ham katta e’tibor qaratmoqda [13]. Bu esa ta’lim muassasalarining oldiga yangi vazifalarni qo’ymoqda — ya’ni talabalarni faqat kasbiy bilim bilan emas, balki hayotiy ko’nikmalar bilan ham qurollantirish zarurati yuzaga chiqmoqda [2].

Yumshoq ko’nikmalar inson shaxsiyati va ijtimoiy o’zaro aloqalarning poydevorini tashkil etadi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, aynan soft skillsga ega bo’lgan shaxslar ish joylarida ham, akademik muhitda ham muvaffaqiyatga erishish ehtimoli yuqoriroq bo’ladi [3]. Boshqacha qilib aytganda, texnik bilimlar (hard skills) nima qilishni o’rgatsa, soft skills qanday qilishni o’rgatadi.

O’zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo’ljallangan ta’lim strategiyasida ham inson kapitalini rivojlantirish, shaxsga yo’naltirilgan ta’limni jadallashtirish, kreativ va tanqidiy

fikrlashni shakllantirish masalalari alohida qayd etilgan. Bu esa soft skills'ni shakllantirishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantiradi.

Bugungi kunda dunyo universitetlari o'quv dasturlariga yumshoq ko'nikmalarni kiritishni jadal ravishda yo'lga qo'ymoqda. Misol uchun, AQSH, Kanada va Yevropa universitetlarida "professional development" kurslari, kommunikativ kompetensiya, liderlik va jamoa bilan ishlashga oid fanlar alohida yo'nalishda ishlab chiqilgan [8]. O'zbekistonda esa bu yo'nalish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlanmoqda. Lekin ko'plab ta'lim muassasalarida soft skillsni tizimli shakllantirishga doir metodik yondashuvlar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Shu sababli, ushbu maqolada yumshoq ko'nikmalarining zamonaviy ta'limdagi o'rni, ularning turlari va ahamiyati, shuningdek, talabalarda bu ko'nikmalarni shakllantirishning samarali usullari tahlil etiladi. Asosiy e'tibor O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida soft skillsga oid yondashuvlar va ularni takomillashtirish yo'llariga qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. So'nggi yillarda ta'lim jarayonida faqatgina nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmalarining, xususan, 'soft skills' deb ataluvchi yumshoq ko'nikmalarining ham dolzarbligi ortib bormoqda. Bu ko'nikmalar zamonaviy jamiyat va mehnat bozori talablariga javob beruvchi shaxslarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. UNESCO tomonidan e'tirof etilganidek, XXI asrda muvaffaqiyatli shaxs bo'lish uchun shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish – asosiy ustuvorliklardan biridir [18].

"Soft skills" tushunchasi dastlab mehnat bozorida ishchilarning texnik bilimlariga qo'shimcha tarzda baholangan ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar majmuasini anglatgan. Bugungi kunda bu ko'nikmalar keng ma'noda – muloqot, muammo hal qilish, vaqtni boshqarish, jamoada ishlash, moslashuvchanlik, liderlik kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi [13]. Zamon talabiga ko'ra, ushbu ko'nikmalar nafaqat ish beruvchilar, balki ta'lim muassasalari uchun ham dolzarb masalaga aylangan.

Schulz o'z tadqiqotida yumshoq ko'nikmalarni "shaxslararo muloqotdagi samaradorlik va professional kontekstda ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlar majmuasi" deb ta'riflaydi [15]. Shuningdek, NACE (National Association of Colleges and Employers) tomonidan olib borilgan so'rovnomalarda eng ko'p talab etiladigan ko'nikmalar ro'yxatida har yili soft skills vakillari yuqori o'rinda qayd etiladi [10].

Ta'limda bu ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogika yondashuvlariga asoslanadi. Freire tomonidan ilgari surilgan dialogik ta'lim nazariyasiga ko'ra, talaba faqat bilim oluvchi emas, balki ijtimoiy faoliyatda ishtirok etuvchi va fikr bildirish huquqiga ega bo'lgan subyektdir. Bunday yondashuv yumshoq ko'nikmalar, ayniqsa, tanqidiy fikrlash va kommunikatsion layoqatlarni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi [6].

Dewey tomonidan ilgari surilgan tajriba asosidagi ta'lim yondashuvi ham soft skills rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Unga ko'ra, o'quvchilar real hayotdagi vaziyatlar asosida bilim olsalar, bu ularning muammoli holatlarga nisbatan ongli va moslashuvchan yondashuvini shakllantiradi [4]. Zamonaviy o'quv dasturlarida aynan shu model asosida soft skills komponentlarini amaliy mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, loyiha asosidagi ta'lim orqali integratsiyalash tendensiyasi mavjud [9].

Boshqa tomondan, yumshoq ko'nikmalarni o'rgatish bo'yicha olib borilgan xalqaro tajribalarga nazar soladigan bo'lsak, Germaniya va Finlandiya kabi mamlakatlarda bu ko'nikmalar umumiy o'quv rejalari va milliy ta'lim siyosatiga integratsiyalashgan bo'lib, har bir fan doirasida

ijtimoiy-psixologik faoliyatlar uchun joy ajratilgan [11]. Bunday tizim o'quvchilarni kelajakdagi kasb faoliyatiga kompleks tayyorlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soft skills nafaqat kasbiy tayyorgarlikda, balki shaxs sifatida rivojlanishning muhim komponentidir. Ularni ta'limda shakllantirish esa zamonaviy pedagogik yondashuvlar, real tajriba asosidagi o'qitish, hamda xalqaro tajribalarni tahlil qilish orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun esa ilmiy yondashuv, tizimli metodika va psixopedagogik asoslar muhim ahamiyatga ega.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Zamonaviy ta'limda "soft skills" ko'nikmalari, ayniqsa, raqamli va global bozorlar talablariga mos ravishda, talabalarning ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi. Agar ilgari akademik bilimlar yetakchi o'rinda bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda samarali muloqot, moslashuvchanlik, jamoada ishlash qobiliyati kabi yumshoq ko'nikmalar ish beruvchilar tomonidan muhim deb baholanmoqda. LinkedIn 2020 hisobotida aytilishicha, ish beruvchilar eng ko'p talab qiladigan yumshoq ko'nikmalar qatorida muammoni hal qilish, muloqot, yetakchilik va vaqtni boshqarish ko'nikmalarini qayd etgan [17].

Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, oliy ta'lim muassasalarida bu ko'nikmalarni shakllantirishda integratsion yondashuv, ya'ni o'quv dasturlariga "soft skills" elementlarini kiritish orqali ta'lim mazmunini boyitish, muhim hisoblanadi. OECD hisobotida aytilishicha, talabalarda metakognitiv, ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish raqobatbardosh va innovatsion jamiyat barpo etishda asosiy omil sanaladi [11].

Bundan tashqari, metodik jihatdan olib qaralganda, soft skills'ni shakllantirish uchun faol o'qitish texnologiyalari – muammo asosida o'qitish (problem-based learning), loyihaviy faoliyat, rolli o'yinlar, debatlar, tahliliy yozuvlar, portfoliolar va amaliy mashg'ulotlar samarali ekani aniqlangan [16]. Ular nafaqat mavzuni chuqurroq o'zlashtirish, balki shaxsiy o'sish, ijtimoiy adaptatsiya va hayotga tayyorlik darajasini oshiradi.

Shuningdek, talabalar bilan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, ularning 68 foizi soft skills'ni o'zida rivojlantirishni istashini bildirgan va aynan o'qituvchilar tomonidan taqdim etilgan muloqotga asoslangan vazifalarni eng foydali deb baholagan (Brown, 2021). Bu esa shuni ko'rsatadiki, talabalarning o'zlari ham bu ko'nikmalarni egallashga yuqori ehtiyoj sezmoqda.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, soft skills talabalarda samarali kasbiy va shaxsiy o'sishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar majmuasidir. Shunday ekan, bu ko'nikmalarni sistematik shaklda shakllantirish ta'lim siyosati, metodik yondashuv va o'qituvchilarning zamonaviy kompetensiyalariga bog'liqdir (Andrews and Higson, 2008).

Zamonaviy oliy ta'limda "soft skills"ni rivojlantirish jarayonida universitet va institutlarning aniq strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarda muomala, jamoaviy ish, tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni shakllantirish o'quv dasturlariga integratsiyalash orqali samaradorlikni oshirgan [5]. Xususan, Finlandiya, Gollandiya va Germaniyada soft skills dars jarayonlariga bevosita qo'shilib, amaliy mashg'ulotlarda faoliyat ko'rsatgan talabalar ishga joylashish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan.

Zamonaviy raqamli muhitda esa "soft skills" ko'nikmalari masofaviy ta'lim, onlayn loyihalar va virtual guruhlarda aloqani samarali olib borish uchun nihoyatda muhimdir. Bu borada Zoom, Microsoft Teams, Google Meet kabi platformalarda talabalar o'zaro muloqot qilish, fikr bildirish, liderlik va jamoa ichidagi nizolarni boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega

bo'lmoqda [7]. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi yillarda bu ko'nikmalar talabalar uchun nafaqat o'quv jarayonida, balki mehnat bozorida ham muhim afzallikni ta'minlagan.

Talabalar orasida olib borilgan so'rovnomalar esa shuni ko'rsatadiki, o'zaro ishonchga asoslangan muhit, mustaqil fikrlash imkoniyati va interaktiv metodlarning qo'llanilishi soft skills rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyoda taniqli ta'lim ekspertlaridan biri bo'lgan Andreas Schleicher fikricha, zamonaviy ta'lim tizimi o'quv dasturlarini faqat bilim bilan emas, balki kompetensiya bilan boyitishga intilishi zarur: "Soft skills are no longer optional; they are foundational" [14].

Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, "soft skills" talabalarda faqat o'quv jarayonida emas, balki ularning umumiy hayot sifati, ijtimoiy moslashuvchanligi va ish bozoridagi raqobatbardoshligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli, O'zbekistonda ushbu ko'nikmalarni tizimli tarzda rivojlantirish, ularni milliy ta'lim standartlariga kiritish va o'quv dasturlarini moslashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

**XULOSA.** Zamonaviy ta'lim muhitida 'soft skills' ko'nikmalari, ya'ni kommunikativlik, jamoaviy ishlash, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, vaqtni boshqarish kabi ko'nikmalar, an'anaviy bilim va malakalarga qo'shimcha tarzda, talabalar raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, global mehnat bozori va ta'lim standartlaridagi o'zgarishlar natijasida 'soft skills'ga bo'lgan talab muttasil ortmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida ham bu ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish borasida muhim ishlar qilinmoqda, biroq ular tizimli va metodik jihatdan kuchaytirilishi lozim. Jumladan, o'quv jarayoniga faol o'yinli metodlar, loyiha asosida o'qitish, interaktiv mashg'ulotlar, bahs-munozaralar, muammoli vaziyatlar tahliliga asoslangan topshiriqlar kiritilishi talabalarda 'soft skills' ko'nikmalarini faol tarzda shakllantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar – sun'iy intellekt, onlayn ta'lim platformalari va virtual simulyatsiyalar orqali ham bu ko'nikmalarni individual tarzda rivojlantirish imkoniyati mavjud. Mualliflar tomonidan keltirilgan ilmiy manbalar asosida ta'kidlanishicha, talabalarda 'soft skills'ni rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini, balki shaxsiy o'sish va jamiyatda faol ishtirok etishini ta'minlaydi [13].

Shu munosabat bilan, oliy ta'lim tizimida 'soft skills'ni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va uni milliy ta'lim standartlariga integratsiya qilish zarur. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat mehnat bozorining ehtiyojlarini qondiradi, balki raqobatbardosh, ijtimoiy faol va madaniy jihatdan yetuk avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andrews, Jane, and Helen Higson. "Graduate Employability, 'Soft Skills' versus 'Hard' Business Knowledge: A European Study." *Higher Education in Europe* 33, no. 4 (2008): 411–422.
2. Brown, Melissa. "University Students' Perception of Soft Skills in Academic Success." *International Journal of Educational Research* 105 (2021): 101710.
3. Crosbie, Roy. "Learning the Soft Skills of Leadership." *Industrial and Commercial Training* 37, no. 1 (2005): 45–51.
4. Dewey, John. *Experience and Education*. New York: Macmillan, 1938.

5. European Commission. 2018. *Key Competences for Lifelong Learning*. Brussels: Publications Office of the European Union.
  6. Freire, Paulo. *Pedagogy of the Oppressed*. New York: Continuum, 1970.
  7. Gilley, Jerry W., et al. 2020. "Soft Skills and Their Role in Employability." *Journal of Education and Work*, 33(2): 176–189.
  8. Jackson, Denise. "An International Profile of Industry-Relevant Competencies and Skill Gaps in Modern Graduates." *International Journal of Management Education* 8, no. 3 (2010): 29–58.
  9. Kolb, David A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. New Jersey: Prentice Hall, 1984.
  10. NACE. "Job Outlook 2020: Attributes Employers Want to See on New College Graduates' Resumes." National Association of Colleges and Employers, 2020.
  11. OECD. *The Future of Education and Skills: Education 2030*. OECD Publishing, 2018.
  12. Prince, Michael. "Does Active Learning Work? A Review of the Research." *Journal of Engineering Education* 93, no. 3 (2004): 223–231.
  13. Robles, Marcel M. "Executive Perceptions of the Top 10 Soft Skills Needed in Today's Workplace." *Business Communication Quarterly* 75, no. 4 (2012): 453–465.
  14. Schleicher, Andreas. 2019. *The Future of Education and Skills: OECD Education 2030 Framework*. Paris: OECD Publishing.
  15. Schulz, Bernd. "The Importance of Soft Skills: Education beyond Academic Knowledge." *NAWA Journal of Language and Communication* 2, no. 1 (2008): 146–154.
  16. Trilling, Bernie, and Charles Fadel. *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. Jossey-Bass, 2009.
  17. "The Most In-Demand Soft Skills." *LinkedIn Talent Blog*. 2020. <https://business.linkedin.com/talent-solutions/blog>
- UNESCO. *Rethinking Education: Towards a Global Common Good?* Paris: UNESCO Publishing, 2015.

## TALABALARNI GIPERMATNLI AXBOROT BILAN ISHLASH KO'NIKMLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

**Qodirov Mirjalol Tolmasovich**

*Turon universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Hozirgi raqamli davrda gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalari talabalar uchun muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada gipermatn tushunchasi, uning asosiy xususiyatlari va ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Gipermatnli muhit talabalar uchun interfaol o'rganish imkoniyatlarini kengaytirib, mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash va axborotni samarali tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maqolada gipermatnli axborot bilan ishlash jarayonlari, ya'ni matnlararo bog'lanishlarni tahlil qilish, axborot oqimini boshqarish, gipermatnli tizimlardan foydalangan holda bilimlarni chuqurlashtirish kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, talabalarning gipermatn bilan ishlash malakasini oshirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlar, jumladan, raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish, interfaol darslar tashkil etish, loyihaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash usullari tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** Gipermatn, gipermatnli axborot, raqamli ta'lim, gipermatn texnologiyalari, axborot bilan ishlash, talabalarning axborot ko'nikmalari, interfaol o'qitish, tanqidiy fikrlash, mustaqil o'rganish, raqamli kompetensiya, ta'lim innovatsiyalari, bilimlarni boshqarish, ta'lim platformalari, axborot tahlili.

**Annotation.** In today's digital era, the ability to work with hypertextual information is one of the essential competencies for students. This article analyzes the concept of hypertext, its key characteristics, and its role in the educational process. The hypertext environment expands students' opportunities for interactive learning, fostering independent research, critical thinking, and effective information analysis skills. The article examines the processes of working with hypertextual information, including analyzing intertextual links, managing information flow, and deepening knowledge through hypertext systems. Additionally, modern pedagogical approaches and innovative methods for enhancing students' skills in working with hypertext are discussed. These include the use of digital learning platforms, the organization of interactive lessons, and the implementation of project-based learning technologies. The main objective of this article is to highlight effective methods aimed at developing students' skills in analyzing, filtering, and applying hypertextual information in practice. The research findings contribute to increasing the efficiency of using hypertext technologies in the educational process.

**Keywords:** Hypertext, hypertextual information, digital education, hypertext technologies, information processing, students' information skills, interactive learning, critical thinking, independent learning, digital competence, educational innovations, knowledge management, educational platforms, information analysis.

**KIRISH.** Bugungi kunda axborot texnologiyalari va raqamli platformalarning tez sur'atlarda rivojlanishi, ta'lim sohasida fundamental o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborotning o'sishi va global tarmoqlarga ulanib borish, ta'lim tizimlarida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, gipermatnli axborot bilan ishlash talabalar uchun eng muhim raqamli ko'nikmalardan biriga aylandi. Gipermatnli axborotning asosiy xususiyati shundaki, u matnlar va boshqa axborot resurslarini o'zaro bog'lash orqali foydalanuvchiga tez va samarali axborot olish

imkoniyatini taqdim etadi. Bu texnologiya o'quvchilarga o'rganish jarayonini interfaol tarzda tashkil etish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va axborotni samarali tahlil qilishni o'rgatadi.

Gipermatnli tizimlar matnlarni o'zaro bog'lashni va ularga kengroq ma'nolar qo'shishni ta'minlaydi. Masalan, veb-saytlar, elektron kitoblar, interfaol darsliklar va raqamli kutubxonalar – bularning barchasi gipermatn texnologiyalaridan foydalangan holda axborotlarni tartibga soladi. Talabalar uchun bu tizimlar axborotni faqat qabul qilib qolish emas, balki uni tahlil qilish, izlash va qo'llash imkoniyatlarini beradi. Shunday qilib, gipermatnli axborot bilan ishlash, talabalar uchun nafaqat bilim olishning yangi usullarini ochib beradi, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, axborot manbalarini saralash kabi ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Ammo gipermatnli axborot bilan ishlashning o'ziga xos qiyinchiliklari ham mavjud. Talabalar matnlar orasidagi bog'lanishlarni tushunishda, ma'lumotlarni saralashda, ma'lum bir kontentni ajratishda va uni amaliyotda qo'llashda ba'zan qiynalishadi. Ularning aksariyati axborotni to'g'ri izlash va tanlashda, kerakli ma'lumotni samarali tarzda o'zlashtirishda muammolarga duch keladi. Bu esa ta'lim jarayonida gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

Gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali talabalar nafaqat o'z o'qishlarini samarali tashkil etish imkoniga ega bo'ladi, balki o'qituvchilar bilan hamkorlikda axborotni yanada chuqurroq o'rganishga, turli fikrlarni taqqoslash va mukammallashtirishga, yangi bilimlarni yaratishga harakat qiladilar. Shuningdek, interfaol darslar va raqamli platformalar orqali o'rganish jarayonini interaktiv shaklda olib borish, talabalar uchun axborotni o'zlashtirishni yanada samarali qilish imkonini beradi.

Ushbu maqolada gipermatnli axborot bilan ishlashning nazariy jihatlari, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va talabalarning gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, gipermatnli tizimlar orqali axborotni samarali boshqarish, o'rganish va amaliyotda qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar keltiriladi. Maqsadimiz – talabalarning gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan samarali metodlarni taklif qilish va ta'lim jarayonida gipermatn texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish samaradorligini oshirishdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, talabalar uchun nafaqat ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, balki ularning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu jarayonni yanada chuqurroq o'rganish uchun adabiyotlarni tahlil qilish muhimdir, chunki gipermatnli axborot bilan ishlashning samarali usullari va metodikalarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirishga imkon beradi. Quyida gipermatnli axborot bilan ishlash bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlil qilinadi.

Bir nechta tadqiqotlar gipermatnli axborotning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ta'kidlashga qaratilgan. *Landow (1992)* gipermatnli ta'limda axborotni o'zaro bog'lash va o'rganish jarayonini interfaol shaklda tashkil etishga imkon beradigan kuchli vosita sifatida ko'rsatgan. Bu tadqiqotlar gipermatnli axborotning ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar yaratishga imkoniyat berishini ko'rsatadi.

Gipermatnli axborot ta'limda talabalarga mustaqil izlanish, tahlil qilish va o'z bilimlarini kengaytirish imkoniyatlarini beradi. *Bates (2005)* ta'lim jarayonida gipermatnning asosiy foydasini "o'qish va o'rganishni jonlantiruvchi, interfaol tizim" sifatida ta'riflagan. Bu gipermatnli

texnologiyalarning ta'limda mustaqil o'rganish jarayonini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Bir qator ilmiy ishlarda gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga doir metodikalar ishlab chiqilgan. *Shirley (2006)* gipermatnli tizimlarda talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'kidlaydi. U gipermatnli o'rganish jarayonida talabalar o'rtasida munozara va tahlil qilishni rag'batlantiruvchi metodikani qo'llashni tavsiya qiladi. Bu usul talabalarni axborotni sinchiklab o'rganishga, uning ishonchligini tahlil qilishga va kerakli ma'lumotni tanlab olishga o'rgatadi.

*Jonassen (2000)* gipermatnli tizimlarni o'rganishda ko'p bosqichli va o'rganishning interfaol usullarini qo'llashni ma'qullaydi. U gipermatnli faqat o'qish vositasi sifatida emas, balki o'quvchilarga axborotni samarali boshqarish va tahlil qilishda yordam beradigan vosita sifatida ham ko'radi. Shuningdek, gipermatnli tizimlarni ta'limda qo'llashning yana bir jihati bu talabalarning kreativlik va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan bog'liq.

Hozirgi kunda gipermatnli axborot va raqamli ta'lim texnologiyalarini birlashtirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. *Puentedura (2006)* gipermatnli tizimlarni raqamli ta'lim platformalariga integratsiya qilishning muhimligini ta'kidlaydi. U gipermatnli raqamli ta'limda axborotning tezkor tarqalishi va foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratishda samarali vosita sifatida ko'rsatadi. Bu gipermatnli axborotning ta'limda o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratishdagi rolini yoritadi.

Shuningdek, *Selwyn (2007)* gipermatnli axborotning ta'limdagi innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashishini o'rganadi va raqamli ta'lim texnologiyalarining talabalarning o'rganish jarayoniga ta'sirini tahlil qiladi. U gipermatnli axborot tizimlarining ta'lim jarayonida samarali ishlatilishi talabalarning o'z bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam berishini ko'rsatadi.

Gipermatnli axborot bilan ishlashni samarali tashkil etish uchun bir qator metodik tavsiyalar mavjud. *Anderson (2008)* gipermatn tizimlaridan foydalanish jarayonida talabalarga izlanish va axborotning haqiqiylikini tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalarni o'rgatishni tavsiya qiladi. Bu ko'nikmalar talabalarni nafaqat ma'lumotga kirishda, balki uni tanqidiy tarzda tahlil qilishda ham o'qitadi.

*Roblyer (2010)* gipermatnli tizimlar orqali talabalar bilan interfaol darslar o'tkazishning ahamiyatini ta'kidlaydi. U gipermatnli interfaol darslarda qo'llash, talabalar o'rtasida muhokama va fikr almashish orqali bilimlarni yanada chuqurlashtirishga yordam beradi, deb hisoblaydi.

Gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, gipermatnli tizimlar ta'limda talabalarga nafaqat axborotni o'rganish va tahlil qilish, balki uni yaratish va amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini beradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodikalar gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni samarali tarzda tashkil etishga yordam beradi. Shu bilan birga, gipermatnli tizimlar ta'lim jarayonida axborotning tezkor tarqalishini ta'minlab, o'quvchilar uchun yanada boy imkoniyatlar yaratadi.

Gipermatn (inglizcha *hypertext*) – bu matnlar va boshqa axborot resurslari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar orqali axborotning tuzilishini o'zgartirishga asoslangan tizimdir. Gipermatnli axborot muhitida matnlar o'rtasidagi aloqalar, havolalar (linklar) yordamida o'rnatiladi, bu esa foydalanuvchiga biron-bir ma'lumotni topish uchun boshqa turli manbalarga tezda kirishni ta'minlaydi. Gipermatn texnologiyasining mohiyati shundan iboratki, unda har bir matn bo'lagi

(yoki element) boshqa bir matn bo'lagi yoki axborot resursiga bog'lanishi mumkin, bu esa foydalanuvchiga oson va tezkor axborot olish imkoniyatini beradi.

Gipermatn tizimi, matnlararo bog'lanishlar va havolalar orqali foydalanuvchilarga kerakli ma'lumotni izlash va o'rganishda katta erkinlik beradi. Masalan, internetda ko'pchilik veb-saytlar va elektron resurslar gipermatnli struktura asosida ishlaydi. Foydalanuvchi biror bir maqola yoki matnga kirganda, u boshqa resurslarga havola qilish orqali o'ziga kerakli ma'lumotni tezda topishi mumkin. Shunday qilib, gipermatn axborot oqimini osonlashtiradi va an'anaviy matnlardan farqli o'laroq, foydalanuvchiga ko'proq imkoniyatlar yaratadi.

Gipermatnning axborotga kirishni osonlashtirishdagi roli:

1. Tezkor kirish: Gipermatnli tizim yordamida foydalanuvchi biror mavzu bo'yicha ma'lumot qidirganida, havolalar orqali boshqa maqolalarga yoki resurslarga osonlik bilan o'tishi mumkin. Bu esa axborotni izlashni va unga kirishni ancha tezlashtiradi.

2. Axborotlararo bog'lanish: Gipermatn matnlarni o'zaro bog'lash imkonini beradi, bu esa axborotni turli kontekstlarda tushunishga yordam beradi. Foydalanuvchilar turli manbalarni o'zaro bog'lab, kerakli ma'lumotni to'plashlari mumkin.

3. Interfaollik: Gipermatn axborotni interfaol tarzda taqdim etadi. Bu foydalanuvchilarga faqatgina ma'lumotni o'qish emas, balki uni tahlil qilish, turli resurslarni birlashtirish va yangi bilimlar yaratish imkonini beradi.

4. Qisqa vaqt ichida ma'lumot olish: Gipermatnli tizimlar foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni tez va samarali topish imkoniyatini beradi. Matnlararo bog'lanishlar orqali, bir nechta bosqichda axborotga oson kirish imkoniyati yaratiladi.

5. Multimediya imkoniyatlari: Gipermatn faqat matndan iborat bo'lmay, boshqa turdagi resurslarni – video, tasvir, audio va boshqa interfaol elementlarni ham o'z ichiga oladi. Bu esa axborotlarni yanada boyitadi va o'quv jarayonini samarali qiladi.

Gipermatnning ta'lim jarayonidagi ahamiyati ham shundaki, u o'quvchilarga o'z-o'zini o'rganish va mustaqil izlanish imkoniyatlarini yaratadi. Talabalar bir matnni o'qib, kerakli ma'lumotni izlash uchun boshqa resurslarga havola qilishi mumkin, bu esa bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, gipermatnli texnologiyalar ta'limda axborotga kirishni sezilarli darajada osonlashtiradi va ta'lim jarayonini interfaol va samarali qiladi.

Talabalarning gipermatn bilan ishlash ko'nikmalari

Gipermatnli axborot bilan samarali ishlash bugungi raqamli ta'lim muhitida talabalar uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmalar majmuasini shakllantirishni talab etadi. Bunday axborot turlarida nafaqat o'qish, balki turli bog'lanmalar, havolalar, multimediyaviy resurslar orqali ma'lumotlarni izlab topish, tahlil qilish va ularni kontekstda tushunish muhim ahamiyatga ega. Quyida gipermatn bilan ishlashda zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar yoritib beriladi:

1. Tezkor navigatsiya qilish ko'nikmasi.

- Talabalar gipermatnli muhitda sahifalar, bo'limlar va havolalar o'rtasida tezda harakatlana olishlari kerak.

- Tezkor navigatsiya ularning vaqtini tejaydi va o'rganish samaradorligini oshiradi.

- Bu ko'nikma gipermatnning strukturasini tushunish, menyular va interfeys elementlaridan to'g'ri foydalanish orqali rivojlanadi.

2. Kontekstni tushunish va mantiqiy bog'liqlikni aniqlash

- Gipermatn elementlari o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi mumkin. Talaba havolalardan foydalanganda kontekstni tushunib, asosiy mazmunni yo'qotmasligi lozim.

- Matnlararo aloqalarni anglash, asosiy va yordamchi axborotni farqlash bu boradagi muhim qobiliyatdir.

### 3. Ma'lumotlararo bog'lanishlarni samarali ishlatish

- Talabalar gipermatnli tizimda berilgan havolalar, bog'lanmalar va izohlar orqali mavzu doirasida chuqurroq ma'lumotlarni izlab topa olishlari lozim.

- Bu ko'nikma bilimlarni chuqurlashtirish, fanlararo aloqalarni aniqlash va tanqidiy o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi.

### 4. Tanqidiy fikrlash va axborot filtrlash

- Gipermatn ko'p manbaalilikni ta'minlaydi. Talaba axborotning ishonchliligini baholay olishi, noto'g'ri yoki ishonchsiz manbalarni ajrata olishi kerak.

- Tanqidiy fikrlash ularni kontekstda o'ylashga, baholashga va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi.

### 5. Maqsadga yo'naltirilgan o'qish strategiyalaridan foydalanish

- Gipermatn bilan ishlaganda talaba maqsadga muvofiq tarzda harakat qilishi kerak. Masalan, faqat kerakli bo'limlarni o'qish, muhim havolalarni tanlash va ularni o'z bilimlari bilan integratsiya qilish.

- Bu esa selektiv o'qish, skanerlash va fokuslangan izlanish kabi o'qish strategiyalariga asoslanadi.

### 6. Axborot manbalarini boshqarish va tizimlashtirish.

- Gipermatn orqali olingan axborotni tartibga solish, saqlash va keyinchalik undan foydalanish ko'nikmasi ham zarur.

- Masalan, havolalarni saqlash, izohlar qo'shish, hujjatlarni kataloglashtirish va qayta ishlash imkoniyatlaridan foydalanish.

### 7. Texnologik savodxonlik va raqamli kompetensiyalar.

- Gipermatnli resurslar ko'pincha veb-platfomalarda joylashgan bo'ladi. Ulardan foydalanish uchun talabalar texnologiyalardan xabardor bo'lishlari, brauzerlar, ta'lim platfomalari, axborot tizimlari bilan ishlay olishlari kerak.

**XULOSA.** Raqamli axborot muhitida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalari talabalar uchun muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Gipermatnli resurslar o'quvchilarga interfaol o'rganish, mustaqil izlanish olib borish, tanqidiy fikrlash va bilimlarni tahlil qilish imkonini yaratadi. Talabalar gipermatnli axborotni o'zlashtirish orqali tezkor navigatsiya qilish, kontekstni tushunish, matnlararo bog'lanishlarni samarali ishlatish, axborotni saralash va boshqarish, turli manbalarni tahlil qilish kabi zarur ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Gipermatnli texnologiyalarning ta'limga integratsiyalashuvi o'qituvchilar oldiga yangicha metodik yondashuvlar va innovatsion vositalardan foydalanish vazifasini qo'yadi. Bu esa ta'limning sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy axborot muhitida mustaqil ishlashga o'rgatish va ularning raqamli savodxonligini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois, gipermatnli axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish – bugungi ta'lim strategiyasining ajralmas qismi bo'lib, u talabalarni zamonaviy bilimlar makonida erkin harakatlana oladigan, axborotni anglaydigan va undan foydalana oladigan raqamli shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Нельсон Т. HYPERTEXT AND HYPERMEDIA: The Future of Literature and Learning // ACM SIGGRAPH Computer Graphics. – 1987.
2. Landow G. P. Hypertext 3.0: Critical Theory and New Media in an Era of Globalization. – Johns Hopkins University Press, 2006.
3. Shneiderman B. Designing the User Interface: Strategies for Effective Human-Computer Interaction. – Pearson, 2016.
4. Миллер Г. Когнитивные аспекты гипертекста и гипермедиа. – Москва: Мир, 2002.
5. Murodov Sh. Raqamli ta'lim muhitida gipermatnli texnologiyalarning ahamiyati // O'zbekistonda axborot texnologiyalari. – 2021. №3. – B. 45-52.
6. M.Qodirov. The main aspects of hypertext technology as a conceptual model of information structuring – 2023-yil 19-dekabr
7. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – 2020-yil 23-sentabr.
8. Veb-resurslar:
9. UNESCO Digital Learning Resources <https://www.unesco.org>  
Hypertext and Education: A Review <https://www.education.com>

## O'QUVCHILARDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

**Ruziyeva Gulnoza**

Turon universiteti magistri

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy ta'limda o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning dolzarbligi hamda bu jarayonda innovatsion pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish masalasi tahlil etilgan. Muallif tomonidan fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda "STEAM", "projekt asosida o'qitish", "gamifikatsiya", "metakognitiv strategiyalar", "Case-study" kabi texnologiyalar roli ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Dewey, Piaget, Vygotskiy, Marzano kabi pedagoglarning nazariyalari asosida fikrlashni faollashtirishga doir yondashuvlar ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot sifatli va miqdoriy metodlar asosida olib borilib, innovatsion yondashuvlarning o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishdagi amaliy samaradorligi yoritilgan. Maqola xulosalarida innovatsion yondashuvlar nafaqat bilim o'zlashtirishga, balki o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirishda ham muhim vosita ekani ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** fikrlash qobiliyati, innovatsion texnologiyalar, muammoli ta'lim, metakognitsiya, tanqidiy fikrlash, reflektiv yondashuv, o'quvchi markazli ta'lim, STEAM, pedagogik strategiyalar.

**Annotatsiya:** This article explores the importance of developing students' thinking abilities in modern education and the effective use of innovative pedagogical approaches in this process. The author examines the role of technologies such as STEAM, project-based learning, gamification, metacognitive strategies, and case studies in fostering thinking skills. Theoretical foundations from scholars such as Dewey, Piaget, Vygotsky, and Marzano are analyzed to understand cognitive development. The study employs both qualitative and quantitative methods to evaluate the practical impact of these innovative approaches on learners' cognitive engagement. The findings emphasize that innovation in education is not merely a method but a philosophy that guides students toward independent and creative thinking beyond knowledge acquisition.

**Keywords:** thinking skills, innovative technologies, problem-based learning, metacognition, critical thinking, reflective approach, student-centered learning, STEAM, pedagogical strategies.

**KIRISH.** Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. XXI asrda inson kapitali eng muhim resurs sifatida e'tirof etilayotgan bir paytda, o'quvchilarda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning jamiyatda faol ishtirok etishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, innovatsion pedagogik yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishning kuchli vositasi sifatida e'tirof etilmoqda [8].

Bugungi globalashtirilgan va tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan dunyoda an'anaviy ta'lim metodlari o'zining samaradorligini yo'qota boshlagan. O'qituvchi markazli yondashuvlar o'rniga o'quvchi markazli, interaktiv va innovatsion metodlar asosida tashkil etilayotgan ta'lim tizimi fikrlashni rag'batlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, muammoga yechim topish kabi ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi [2].

Fikrlash qobiliyatining rivoji o'quvchi shaxsining intellektual, ijtimoiy va axloqiy kamolotida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining asosiy vazifasi — o'quvchilarda bu ko'nikmalarni uyg'otish, ularni real hayotiy vaziyatlarga yo'naltirishdir. Buning uchun esa innovatsion texnologiyalar, xususan, muammoli ta'lim, aks ettiruvchi tafakkur metodlari, "Case-study", "Mind map", "Debat" kabi texnologiyalardan unumli foydalanish talab etiladi [9].

Ushbu maqolada o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning o'rni va samaradorligini tadqiq qilish, mavjud ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish, amaliy misollar orqali ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlarini ko'rsatish maqsad qilinadi. Tadqiqot doirasida quyidagi savollarga javob topishga harakat qilinadi:

1. Fikrlash qobiliyati nima va uni qanday rivojlantirish mumkin?
2. Qaysi innovatsion texnologiyalar fikrlash qobiliyatiga ta'sir qiladi?
3. Ta'lim jarayonida ushbu texnologiyalarni qo'llashda qanday metodologik yondashuvlar qo'llaniladi?
4. Mazkur yondashuvlarning amaliy natijalari qanday?

Shu asosda maqolaning ilmiy yangiligi o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning integrativ tahlilini berishda, ularning samaradorlik darajasini aniqlash va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqishda ko'rinadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish pedagogik faoliyatning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. A. S. Obraztsov fikricha, o'quv jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammo yechish qobiliyatini shakllantirishda didaktik texnologiyalar muhim ahamiyatga ega bo'ladi [15]. Bugungi kunda global ta'lim muhitida "innovatsion yondashuv" tushunchasi pedagogik texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qiladi [20].

Ta'lim sohasidagi innovatsion yondashuvlar — bu an'anaviy metodlardan farqli tarzda, o'quvchining shaxsiy faoliyatini, qiziqishini, intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi metodlar majmuasidir [22]. Bu yondashuvlar orqali bilim olish jarayoni faollashtiriladi, o'quvchi "bilim ob'ekti" dan "bilim sub'ekti" ga aylanadi [1]. Masalan, Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga tayaniladigan metodlar zamonaviy ta'lim texnologiyalarining nazariy asosini tashkil etadi [23].

Innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari D. Jon Dewey, J. Piaget, L. Vygotskiy va M. Montessori kabi pedagoglarning g'oyalariga tayanadi [4]. Deweyning "tajribaga asoslangan ta'lim" konsepsiyasi, ayniqsa, zamonaviy ta'limda fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [17]. Shuningdek, Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari haqidagi nazariyasi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini yoshga qarab to'g'ri baholash va rivojlantirish imkonini beradi [11].

O'zbekiston ta'lim tizimida ham innovatsion yondashuvlar bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Xususan, Ta'limni Rivojlantirish Milliy Tadqiqot Instituti tomonidan amalga oshirilayotgan loyiha doirasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida metodik qo'llanmalar tayyorlanmoqda [21]. Shu bilan birga, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirishlar bilan o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish vazifasi belgilangani muhim o'zgarish sifatida baholanmoqda [14].

Pedagogik amaliyotda sinfda fikrlashni faollashtiruvchi usullar — "fikr xaritasi", "kognitiv murakkablik", "muammo asosida o'qitish", "metakognitiv strategiyalar" orqali amalga oshiriladi

[13]. Bu usullar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini mantiqan asoslash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'ladilar [6].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion metodlar o'quvchilarning faolligi, bilimni anglab olish darajasi va o'zlashtirish samaradorligini oshiradi [10]. Xususan, G. Anderson va L. Krathwohl tomonidan taklif etilgan bilim sohalarini taksonomiyasi asosida tuzilgan darslar o'quvchilarda yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi [1].

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari ichida "STEAM", "flipped classroom", "project-based learning" kabi metodlar aynan o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "STEAM" yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) o'quvchilarni kompleks fikrlashga, muammoni ko'p burchakli tahlil qilishga o'rgatadi [24].

Shuningdek, metakognitiv strategiyalar, ya'ni o'z fikrlash jarayonini kuzatish, rejalashtirish, tahlil qilish va baholashga qaratilgan yondashuvlar o'quvchilarda o'z-o'zini anglash va fikrlashda izchillikni ta'minlaydi [19]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu strategiyalarni muntazam qo'llovchi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi sezilarli ravishda yuqorilaydi [7].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar muhim metodologik asos va amaliy vosita sifatida shakllanganini ko'rsatmoqda. Ushbu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash — o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuvlar asosida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanida doimiy o'zgaruvchan va takomillashuvchi yo'nalish hisoblanadi. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda bu masalaga oid turli yondashuvlar, didaktik konsepsiyalar va texnologik strategiyalar keng yoritilgan. Xususan, fikrlashni faollashtirishda metakognitiv yondashuvlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, kollaborativ va reflektiv usullar asosiy metodologik yo'nalishlar sifatida ilgari surilmoqda.

Xalqaro miqyosda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar ko'proq tanqidiy fikrlash, kreativ tafakkur va metakognitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan. Paul va Elder o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni o'stirish uchun maxsus metodologiyalar taklif etadi va uni intellektual fazilatlar, me'zonlar va vositalar orqali shakllantirishni tavsiya etadi [16]. Shuningdek, Marzano fikrlash darajalarini o'lchash va rivojlantirishda taxlil qilish, sintez qilish va baholash bosqichlarini ajratgan holda, pedagogik strategiyalarni ishlab chiqqan [12].

O'quvchilarda yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatini shakllantirishda "Blum taksonomiyasi" keng qo'llaniladi. Anderson va Krathwohl tomonidan yangilangan bu modelda bilim darajasi o'zlashtirish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlariga ajratiladi va har bir bosqich uchun maxsus dars dizayni ishlab chiqiladi [1].

Ta'limda muammoli yondashuvni tadqiq qilgan Jon Deweyning fikricha, fikrlash – bu muammoni hal qilishga yo'naltirilgan reflektiv jarayon bo'lib, u o'quvchining shaxsiy tajribasi asosida shakllanadi [5]. Shuningdek, Vygotskiyning sotsiokultural yondashuvi fikrlashni ijtimoiy muloqot asosida shakllanadigan hodisa deb baholaydi. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi fikrlash qobiliyatining o'quvchining o'rganish kontekstiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi [23].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar keng ilmiy-amaliy asosga ega. Endi bu

texnologiyalarni mahalliy ta'lim muhitiga moslashtirish va amalda sinovdan o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Ushbu tadqiqotda o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishning samaradorligini baholash maqsadida kombinatsiyalashgan metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tahlillar birgalikda ishlatildi. Bunday yondashuv o'rgatlayotgan pedagogik texnologiyalarning o'quvchilarda qanday kognitiv o'zgarishlar keltirib chiqarayotganini chuqur tushunishga imkon beradi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Ta'limda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilar tafakkurini kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, masofaviy ta'lim platformalari va simulyatsion dasturlar orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq o'rganishga va xulosa chiqarishga o'rganadilar. Raqamli ta'lim muhiti o'quvchilarni faqat bilimni o'zlashtirish emas, balki uni mustaqil tahlil qilish, qo'llash va baholash jarayonlariga faol jalb etadi.

Innovatsion texnologiyalar, xususan, "gamifikatsiya" elementlari (o'yinlashtirish), o'quvchilarni rag'batlantirish va darsga jalb qilishda o'z samarasini bermoqda. Dars jarayoniga bahsli vaziyatlar, rolli o'yinlar, muammo yechishga qaratilgan topshiriqlarni kiritish orqali o'quvchilar mustaqil va tanqidiy fikrlashga yo'naltiriladi.

Yana bir samarali yondashuv bu – metakognitiv strategiyalarni joriy etishdir. O'quvchilar o'z fikrlash jarayonini kuzatish, baholash va uni boshqarish orqali o'zlashtirishni kuchaytiradilar. Flavellning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, metakognitiv yondashuvlar o'quvchilarda yuqori darajadagi fikrlashni shakllantiradi va ularni o'z bilimlarining faol nazoratchisiga aylantiradi [7].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar faqatgina metod emas, balki ta'limning falsafasi sifatida shakllanmoqda. Bu esa o'quvchilarning bilimga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, ularni passiv iste'molchilar emas, balki faol ishtirokchilar darajasiga olib chiqadi.

O'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muammoli ta'lim va situatsion yondashuvlar orqali ular oldiga noaniq, ko'p yechimga ega vazifalar qo'yiladi. Bu ularni mustaqil qaror qabul qilish, muqobil fikrlarni tahlil qilishga undaydi [9].

Shu bilan birga, ta'limda reflektiv yondashuvlar — ya'ni o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi va tahlil qilishini qo'llab-quvvatlovchi faoliyat turlari ham muhim. Masalan, kundalik yozish, individual portfolio yuritish, o'z fikrini yozma tarzda bayon qilish kabilar o'quvchilarning metakognitiv tafakkurini rivojlantiradi.

O'quvchilarning fikrlash jarayoniga ta'sir etuvchi yana bir omil – ularning shaxsiy tajribasi, ilgari o'zlashtirgan bilimlari va ijtimoiy kontekstdir. Bu jihatlar "konstruksionizm" nazariyasi asosida yoritiladi. Piaget va Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalarga ko'ra, bilim sub'ektiv tarzda shakllanadi va faol muloqot hamda tajriba asosida rivojlanadi [23].

**XULOSA.** Bugungi zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda chuqur fikrlash, tahliliy yondashuv, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biridir. Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan innovatsion yondashuvlar – jumladan, raqamli texnologiyalar, ijodiy fikrlash usullari, loyihaviy ta'lim, STEAM metodikasi – o'quvchilarning tafakkur faoliyatini rivojlantirishda sezilarli samara berayotgani ta'kidlandi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, innovatsion yondashuvlar an'anaviy ta'lim metodlaridan farqli o'laroq, o'quvchilarning bilimga nisbatan faol munosabatini kuchaytiradi, ularni faqat bilim oluvchilar emas, balki uni yaratish va qo'llay olish sub'ektlariga aylantiradi [12]. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan interaktiv mashg'ulotlar, vizual fikrlash xaritalari

va muammoli vaziyatlar asosidagi topshiriqlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning reflektiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi [3].

Shuningdek, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchining metodik tayyorgarligi, o'quv materialini kontekstual tahlil asosida ishlab chiqishi, hamda ijtimoiy-emotsional muhitni hisobga olishi ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi [18]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion yondashuvlar samaradorligini oshirish uchun ular tizimli tarzda, metodik kompetensiyalarga tayangan holda, o'quvchilarning yosh, psixologik va ijtimoiy xususiyatlariga mos ravishda joriy qilinishi zarur.

Yakuniy xulosaga ko'ra, ta'limda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish o'quvchilarda nafaqat fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, balki ularning shaxsiy o'sishini, ijtimoiy mas'uliyatini va kelajak kasb tanlovini ongli ravishda amalga oshirishiga ham xizmat qiladi. Ushbu jarayonda o'qituvchilarning metodik yondashuvi, tizimlilik va pedagogik refleksiya markaziy rol o'ynaydi. Shu boisdan, kelajakda ushbu yo'nalishdagi izlanishlar chuqurlashtirilishi, turli yosh guruhlariga mos innovatsion strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson, L. W., and Krathwohl, D. R. *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing*. New York: Longman, 2001.
2. Bransford, John D., Ann L. Brown, and Rodney R. Cocking. *How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School*. Washington, DC: National Academy Press, 2000.
3. Costa, Arthur L., and Bena Kallick. *Habits of Mind Across the Curriculum: Practical and Creative Strategies for Teachers*. Alexandria, VA: ASCD, 2009.
4. Dewey, John. *Experience and Education*. New York: Macmillan, 1938.
5. Dewey, John. *How We Think*. Boston: D.C. Heath, 1933.
6. Fisher, R. *Teaching Thinking*. London: Continuum, 2005.
7. Flavell, J. H. "Metacognition and Cognitive Monitoring." *American Psychologist*, vol. 34, no. 10, 1979.
8. Fullan, Michael. *The New Meaning of Educational Change*. New York: Teachers College Press, 2013.
9. Jonassen, David H. *Computers as Mindtools for Schools: Engaging Critical Thinking*. 2nd ed. Upper Saddle River, NJ: Merrill Prentice Hall, 2000.
10. Kim, H. "Project-Based Learning and Student Engagement." *Educational Technology International*, 2021.
11. Krashen, S. D. *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Oxford: Pergamon, 1982.
12. Marzano, Robert J. *The New Art and Science of Teaching: More Than Fifty New Instructional Strategies for Academic Success*. Bloomington, IN: Solution Tree Press, 2017.
13. Novak, J. D., and Gowin, D. B. *Learning How to Learn*. Cambridge: Cambridge University Press, 1984.
14. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, 2022.
15. Obraztsov, A. S. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari*. Moskva: Pedagogika, 2020.
16. Paul, Richard, and Linda Elder. *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life*. 2nd ed. Upper Saddle River, NJ: Pearson/Prentice Hall, 2006.
17. Piaget, Jean. *The Psychology of Intelligence*. London: Routledge, 2000.
18. Robinson, Ken. *Out of Our Minds: Learning to Be Creative*. Oxford: Capstone, 2011.

19. Schraw, G., and Dennison, R. S. "Metacognitive Awareness Inventory" *Contemporary Educational Psychology*, 1994.
20. Smith, J. "Innovative Pedagogy for Critical Thinking." *Journal of Educational Research*, vol. 54, no. 3, 2021, pp. 211–223.
21. Ta'limni rivojlantirish Milliy tadqiqot instituti. "Innovatsion darslar metodikasi", 2023.
22. Tanaka, R. "Student-Centered Learning: A Paradigm Shift." *Asia-Pacific Journal of Education*, 2022.
23. Vygotsky, L. S. *Mind in Society*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.  
Vygotsky, Lev S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Edited by Michael Cole et al. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

**ZAMONAVIY JAMIYATDA STRESS: SABABLARI, TURLARI VA SAMARALI YECHIMLAR****Jumayeva Gulnoza Tursunpo'latovna***Turon universiteti**Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada stress tushunchasi, uning sabablari, turlari va inson hayotiga ta'siri tahlil qilinadi. Stressning ijobiy (eustress) va salbiy (distress) shakllari misollar asosida tushuntiriladi. Tadqiqot davomida stressning kelib chiqish omillari shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy va ekologik jihatlardan tahlil qilinib, ularni kamaytirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Stressni yengishda psixoterapiya, jismoniy faollik, vaqtni boshqarish va musbat fikrlashning ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** stress, distress, eustress, stress omillari, stressni boshqarish, psixologik barqarorlik, ruhiy salomatlik, jismoniy faollik.

**Annotation.** This article analyzes the concept of stress, its causes, types, and impact on human life. Positive (eustress) and negative (distress) forms of stress are explained with examples. During the study, the factors causing stress are analyzed from personal, social, financial, and environmental perspectives, and ways to reduce them are shown. The importance of psychotherapy, physical activity, time management, and positive thinking in overcoming stress is highlighted.

**Keywords:** stress, distress, eustress, stress factors, stress management, psychological stability, mental health, physical activity.

**KIRISH.** Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yashar ekanmiz, kundalik stress va zo'riqish bizning doimiy muammomizga aylanib ulgurdi. Bu mavzu yuzasidan fikr-mulohaza qilar ekanmiz, stress o'zi nima? Uning kelib chiqish sabablari qanday va bunga yechim topa olamizmi? degan savollar o'ylantiradi bizni. "Stress" tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Quyida "stress" tushunchasiga soha vakillari tomonidan berilgan ta'riflarni tahlil qilamiz:

Stress – bu insonning turli xil tashqi yoki ichki omillar ta'sirida paydo bo'ladigan ruhiy va jismoniy reaksiyalarning yig'indisi. U muammolarga yoki tahdidga javob sifatida yuzaga keladi. Stress odamning sog'lig'i, ruhiy holati va faoliyatiga ta'sir qiluvchi kuchli psixologik reaksiya hisoblanadi [1].

Stress – bu inson organizmining haddan tashqari zo'riqish, salbiy hissiyotlar yoki hatto oddiy zerikishga nisbatan ko'rsatadigan javob reaksiyasidir. Stress paytida organizm adrenalin gormonini ishlab chiqarib, yechim izlashga undaydi. Ma'lum darajadagi stress har bir inson uchun foydalidir, chunki u fikrlash jarayonini faollashtirib, muammolarni hal qilishga yordam beradi. Biroq stressning ortiqcha bo'lishi tanani zaiflashtirib, kuchsizlantiradi hamda masalalarni samarali hal qilish qobiliyatini pasaytirishi mumkin [2].

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Mavzu bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ular stressning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni, shuningdek, samarali profilaktika usullarini aniqlashga qaratilgan. Insonning stressga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan nuqtai nazarlar G.Sele, U.Makdaugoll, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning Stress oid nazariyalarida o'z tasdig'ini topgan.

Stress – bu insonning muayyan vaziyatga bo‘lgan munosabatini belgilovchi psixologik javob bo‘lib, u jismoniy omillardan ko‘ra ko‘proq shaxs va tashqi muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir jarayoniga bog‘liqdir. Maxsus ruhiy holat sifatida stress his-tuyg‘ular paydo bo‘lishi va ularning namoyon bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, faqatgina emotsional reaksiyalar bilan chegaralanmaydi. U, shuningdek, insonning motivatsion, kognitiv, irodaviy va xarakter jihatlarida o‘z aksini topadi. “Stress” atamasi turli ilmiy sohalarda keng qo‘llanib, uning sabablari, rivojlanish jarayoni, ifodalanish shakllari va oqibatlari turlicha izohlanadi. Ingliz tilidagi *stress* (“bosim”, “kuchlanish”, “tanglik”) so‘zidan kelib chiqqan ushbu tushuncha dastlab jismoniy obyektlarga nisbatan qo‘llanilib, tashqi kuch ta‘sirida yuzaga keladigan vaqtinchalik yoki doimiy o‘zgarishlarni anglatgan. Bugungi kunda stress inson psixikasining mushkul, og‘ir yoki murakkab sharoitlarda kuchlanish holatini bildiradi [3].

**TADVIQOT METODOLOGIYASI.** Yuqorida “stress” aslida nima ekanligi haqida turli fikrlar berib o‘tildi, ularga asoslanib stress turlari haqidagi ilmiy qarashlarni ko‘rib chiqamiz. Ular asosan 3 turga bo‘linadi va quyidagilar:

**Eustress (foydali stress):** Bu turdagi stress insonni harakatga keltiradi, motivatsiyani oshiradi va muammolarni hal qilishga undaydi. Stress, odatda, ijobiy tajribalar bilan bog‘liq bo‘lib, insonning rivojlanishiga xizmat qiladi. Stress, masalan, yangi ishga kirish, yangi maqsadlarga erishish kabi holatlarda kuzatiladi.

**Misol:** Nodir ismli talaba universitetga kirish imtihoniga tayyorgarlik ko‘rayotgan edi. U o‘z oldiga maqsad qo‘yib, yaxshi natijaga erishish uchun har kuni belgilangan reja asosida o‘qidi. Imtihon oldidan u biroz hayajonlandi, ammo bu stress uni yanada harakat qilishga undadi va natijada u imtihonni muvaffaqiyatli topshirdi.

**Izoh:** Nodirning stressi ijobiy edi (eustress), chunki u uni yanada mehnat qilishga va o‘z maqsadiga erishishga yordam berdi.

**Distress (salbiy stress):** Uzoq muddatli yoki haddan tashqari kuchli stress bo‘lib, inson salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, charchoq, tushkunlik va boshqa salbiy holatlarga olib kelishi mumkin. Bu turdagi stress, odatda, noxush va zararli ta‘sir ko‘rsatadi, chunki odamni ortiqcha tashvish va xavotirlar bilan bog‘laydi. Salbiy stress insonning psixologik holatiga va jismoniy salomatligiga zarar yetkazishi mumkin.

**Misol:** Guliza ish joyida katta bosim ostida ishlardi. U har kuni kechgacha ishlashga majbur bo‘lib, dam olish vaqti yetarlicha emas edi. U charchoq, bosh og‘rig‘i va diqqatni jamlay olmaslik kabi belgilarni sezishni boshladi. Bir kuni u asabiylashib, hamkasblari bilan janjallashib qoldi.

**Izoh:** Gulizaning stressi ortiqcha bo‘lib, uning salomatligiga va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bu distress holatining aniq misolidir.

**O‘tkir stress:** Qisqa muddatli stress bo‘lib, kutilmagan yoki favqulodda vaziyatlarga javoban yuzaga keladi. Bu turdagi stressda organizm tezda javob beradi va odatda tezda tiklanadi. Bu stress uzoq davom etmasligi sababli, odatda, jismoniy va ruhiy holatga zarar keltirmaydi.

**Misol:** Jasur yo‘lni kesib o‘tayotganda kutilmaganda mashina juda tez kelayotganini payqadi. U beixtiyor yon tomonga sakrab, o‘zini saqlab qoldi. Yuragi tez ura boshladi, nafas olishi tezlashdi, lekin bir necha daqiqadan so‘ng u o‘zini yana yaxshi his qildi.

**Izoh:** Bu holatda Jasurning stressi qisqa muddatli edi va organizm tabiiy ravishda xavfga javob berdi. O‘tkir stress insonni favqulodda vaziyatlarda himoya qiladi.

**Surunkali yoki xronik stress:** Uzoq muddat davom etadigan stress bo‘lib, insonning kundalik hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu turdagi stress sog‘liq muammolariga, jumladan,

yurak kasalliklari, gipertenziya va immunitet tizimining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Bu stress ko'pincha hayotdagi qiyinchiliklar, uzoq davom etgan psixologik va jismoniy zo'riqishlar bilan bog'liq bo'ladi va shaxsning sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Misol: Malika bolaligidan og'ir oilaviy sharoitda yashagan. Otasi oilaviy zo'ravonlik qilgan va onasi bilan tez-tez janjallashgan. Bu holat yillar davomida davom etgani sababli, Malikada doimiy qo'rquv va xavotir hissi paydo bo'lgan. Ulg'ayganida ham u o'zini ishonchsiz his qilgan, depressiya va stress belgilari bilan kurashardi.

Izoh: Malikaning stressi uzoq yillar davom etganligi sababli surunkali stress hisoblanadi. Bu turdagi stress insonning hayot sifatini pasaytiradi va ruhiy hamda jismoniy kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin [4].

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA.** Stress turli ichki va tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladi. Uning sabablarini quyidagi asosiy toifalarga ajratish mumkin:

1. Shaxsiy omillar:

Tashvish va qo'rquv: kelajakka bo'lgan noaniqlik, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik stressni keltirib chiqarishi mumkin.

Perfeksionizm: o'z oldiga juda yuqori talablarni qo'yish va har doim mukammal natijalarga intilish insonni haddan tashqari charchatishi va stressga olib kelishi mumkin.

Haddan tashqari mas'uliyat: ish yoki o'qishdagi ortiqcha yuklama, oilaviy majburiyatlarning og'irligi doimiy ruhiy bosimni keltirib chiqaradi.

O'zini ifoda etish muammolari: o'z fikrini erkin bildira olmaslik, boshqalarning fikridan haddan tashqari xavotir olish ham stressga sabab bo'ladi [5].

2. Ijtimoiy va oilaviy omillar:

Oilaviy muammolar: ajralish, janjallar, bolalar tarbiyasidagi qiyinchiliklar, moliyaviy qiyinchiliklar stressga sabab bo'lishi mumkin.

Ish joyidagi bosim: rahbar yoki hamkasblar bilan kelishmovchilik, ish yuklamasining ortishi, ishdan bo'shatilish qo'rquvi stressni kuchaytiradi.

Ijtimoiy bosim: jamiyat tomonidan qo'yilgan standartlarga javob bera olmaslik, atrofdagilarning kutgan natijalarini bajara olmaslik stressni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy izolyatsiya: yolg'izlik, ijtimoiy hayotning yetishmovchiligi yoki do'stlar bilan munosabatlardagi muammolar ruhiy bosimni oshirishi mumkin.

3. Moliyaviy muammolar:

Daromadning yetishmovchiligi: kreditlar, qarzar va oylik maoshning ehtiyojlarni qoplay olmasligi doimiy stress holatini keltirib chiqaradi.

Ishsizlik: ish joyini yo'qotish yoki barqaror daromad manbaining yo'qligi insonni tushkunlik va xavotirga tushishiga sabab bo'ladi.

Moliyaviy rejalashtirishdagi qiyinchiliklar: yomon pul boshqaruvi, kutilmagan xarajatlar yoki iqtisodiy inqiroz ham stressni oshirishi mumkin [6].

4. Tibbiy va jismoniy omillar:

Surunkali kasalliklar: diabet, yurak kasalliklari, migren kabi kasalliklar bilan yashash doimiy stress holatini keltirib chiqaradi.

Uyqusizlik va jismoniy charchoq: yetarli uyqu olmaslik va jismoniy charchoq asab tizimiga ta'sir qilib, stressni kuchaytiradi.

Noto'g'ri ovqatlanish: vitamin yetishmovchiligi, noto'g'ri ovqatlanish ham organizmning stressga chidamliligini pasaytiradi.

Giyohvand moddalar va alkogol: narkotiklar yoki spirtli ichimliklarga qaramlik insonning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi [7].

#### 5. Atrof-muhit omillari:

Tabiiy ofatlar: zilzila, suv toshqini, pandemiya kabi favqulodda vaziyatlar odamning stress darajasini oshiradi.

Iqlim sharoiti: haddan tashqari issiq yoki sovuq havo insonning kayfiyatiga va psixologik holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Transport va tirbandliklar: har kuni tirbandliklarda vaqt yo'qotish, jamoat transportidagi noqulayliklar ham kundalik stress manbai bo'lishi mumkin [8].

Stressga bardoshlilikning asosiy usullari.

Fizikaviy faoliyat - stressni yengishda jismoniy mashqlar katta rol o'ynaydi. Jismoniy faollik, masalan, yengil yugurish, velosipedda sayr qilish stressni kamaytirishga yordam beradi. Bular organizmda stressni kamaytiradigan endorfinlarni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

Tana va ruhni bo'shashtirish - meditatsiya, yoga va nafas olish mashqlari stressni kamaytirish uchun juda samarali bo'lib, ular ruhiy va jismoniy holatni barqarorlashtirishga yordam beradi. Ular odamning tana va ongini bo'shashtirib, salbiy ta'sirlardan xalos bo'lishga imkon beradi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash - o'z muammolaringizni boshqalar bilan baham ko'rish va ular bilan o'zaro muloqot qilish stressni kamaytirish uchun foydalidir. Ijtimoiy jihatdan faol bo'lish, do'stlar bilan uchrashish yoki oila bilan vaqt o'tkazish ruhiy salomatlikni yaxshilaydi.

Ruhiy tiklanish va dam olish - stressni bartaraf etish uchun muntazam ravishda dam olish muhimdir. Har kuni kamida 7-8 soat uyqu olish, uzoq vaqt davomida ishlashdan to'xtash, va shaxsiy vaqtni o'ziga bag'ishlash stressni kamaytirishga yordam beradi [9].

Vaqtni samarali boshqarish - stressning sababi ko'pincha vaqtni to'g'ri boshqarilmasligi yoki ko'plab vazifalar orasida o'zgarishlarning tezligi bo'lishi mumkin. Vaqtni samarali rejalashtirish, muhim ishlarni avval ko'rib chiqish, vaqti-vaqti bilan tanaffuslar olish va multitaskingdan qochish stressni kamaytiradi.

Stressni kamaytirishga yo'naltirilgan psixoterapiya - kognitiv-behavioral terapiya (CBT) kabi psixoterapiya turlari stressni boshqarishda foydalidir. CBT stressni keltirib chiqaruvchi fikrlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish usullarini o'rgatadi.

Musbat fikrlash - musbat fikrlash va ijobiy qarashlarni o'rganish stressni kamaytirishga yordam beradi. Kichik muvaffaqiyatlarni e'tirof etish va yaxshiliklarni ko'rish, salbiy fikrlarni yengishga yordam beradi.

Xobbi va qiziqishlar - stressni kamaytirish uchun yangi xobbi yoki qiziqishlarga vaqt ajratish muhimdir. Bu faoliyatlar stressni engillashtiradi va o'zini yaxshi his qilishni ta'minlaydi.

Oziqlanish va suyuqlik iste'moli - to'g'ri ovqatlanish va suv ichish, organizmning energiya va salomatlikni yaxshilashiga yordam beradi. Stressni kamaytirish uchun balansli oziqlanish va yetarlicha suyuqlik iste'moli muhimdir.

Tabiat bilan vaqt o'tkazish - tabiatda yurish yoki tabiat bilan muloqot qilish, stressni kamaytirishga yordam beradigan samimiy va tinchlantiruvchi tajriba bo'lishi mumkin. Tabiatning yengil va sokin muhiti insonni stressdan chiqarib, ruhiy salomatlikni tiklashga yordam beradi [10].

Yuqoridagi usullar stressni yengishda samarali bo'lib, individual ehtiyojlarga qarab moslashtirilishi mumkin.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, stress zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylangan murakkab psixologik holat bo'lib, insonning turmush sifati va salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi va inson hayotining turli jabhalarida namoyon bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, stressning ijobiy va salbiy turlari mavjud bo'lib, ular insonning ruhiy va jismoniy salomatligiga turlicha ta'sir qiladi. Stressni kamaytirish va undan samarali himoyalani uchun jismoniy faollik, ruhiy bo'shashish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, vaqtni samarali boshqarish kabi usullar qo'llanilishi kerak. Shu bilan birga, psixoterapiya va sog'lom turmush tarzi stressni oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'aniyev S. Stress: Sabablari, alomatlari va oldini olish usullari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2023. – 200 b.
  2. Nurilloxon. Stress – alomatlari, turlari, sabablari, davolash va oldini olish. – Tibbiyot Info, 2020. – <https://tibbiyot24.uz/stress/>
  3. Olimova F. Stressli vaziyatlardan qutilishning ijtimoiy psixologik determinantlari. – Samarqand: Interscience, 2023. – 45 b.
  4. Qosimova N. D. Stress va stressga chidamli xatti-harakatlar psixologiyasi. – Toshkent: Oriens, 2023. – 65 b.
  5. Xudoyberdiyev R. Stress: og'ir sharoitlarda psixikaning zo'riqishi. – Samarqand: SamDU Yangiliklari, 2024. – 35 b.
  6. Sultonova L., Raximberdiyev B. *Stressni kelib chiqish sabablari va zamonaviy psixologik yechimlari.* – Toshkent: In-Academy, 2024. – 180 b.
  7. MedAll.uz. *Stress nima? va uning turlari.* – Toshkent: MedAll nashriyoti, 2022. – 140 b.
  8. Jamgurova Sh. D. *Stressning kelib chiqishi va psixologik yechimlari.* – Samarqand: Tadqiqotlar, 2024. – 175 b.
  9. Shoimova M. S. *O'smirlarda stressni kamaytirishning samarali usullari.* – Namangan: Pedagog, 2023. – 200 b.
- JSST (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti). (2020). "*Stressni boshqarish usullari.*" – [www.who.int](http://www.who.int).

## TURON ATAMASI HAMDA TURONCHILIK TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY TALQINI

**Rajabov Qahramon Kenjayevich**

*tarix fanlari doktori, professor,*

*O'zbekiston FA Tarix instituti bosh ilmiy hodimi*

**Annotatsiya.** Maqolada Turon atamasi hamda turonchilik tushunchasi bilan birgalikda Turkiston va turk atamalari, turkchilik va islomchilik g'oyalari tahlil qilinadi. U arxiv hujjatlari, boshqa manbalar hamda tarixiy adabiyotlar tahlili asosida zamonaviy O'zbekiston fanida yangicha nazariy qarashlarni ilgari surganligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Turk, Turon, turonchilik, Turkiston, turkchilik, islomchilik, jadidchilik, muxtoriyatchilik, istiqlochilik, milliy g'oyalar, bolshevizm, sovet rejimi, mustaqillik.

**Kirish.** Turon – keng ma'noda tur(k)lar yashagan ota yurt, tarixiy makon. Turon – tor ma'noda Turkiston mintaqasining qadimgi davr va o'rta asrlardagi umumiy nomi. Turon – Osiyo qit'asining eng katta pasttekisligi joylashgan jug'rofiy hudud. Tur(f)on – Sharqiy Turkistondagi Uyg'ur muxtor viloyati (Xitoy)ga qarashli qadimiy shahar. Turon atamasi hamda turonchilik nazariyasi turkiy xalqlar o'rtasida XIX asrning 70-yillaridan boshlab o'ziga xos ta'limot sifatida shakllandi va XX asrning boshlarida musulmon olamida yetakchi mavqeini egalladi. Biroq, hozirgi davrgacha Turon atamasi bilan bog'liq masalalar to'liq holda yoritilmagan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** TURKCHILIK<sup>7</sup>va TURONCHILIK<sup>8</sup> nazariyalarining yaxlit ta'limot bo'lib shakllanishida Ziyos Posho (Abdulhamid Ziyobek; 1825 –

<sup>7</sup>**TURKCHILIK** - мураккаб ривожланиш йўлини босиб ўтган назария. Унинг сарчашмалари Буюк Хунн давлати ва Турк (Кўктурк) хоқонлиги даври (милоддан аввалги 1-минг йиллик – милодий VIII аср)га бориб теқалади. У дастлаб **туркпарастлик, туркизм, туркийлик** ғоялари сифатида Усмонли турк султонлигида XVIII – XIX асрларда вужудга келган эди. Туркчиликнинг илк назариётчилари танзимат даврида Аҳмад Вофиқ Пошо ва Сулаймон Пошо ҳисобланади. Туркчилик назарияси асосида бутун туркий халқларни бирлаштириш ғояси ётади. Бироқ Европадаги баъзи мамлакатлар, айниқса Англия ва Россия империяларида туркий халқларнинг бу таълимоти сохталаштирилиб, у **пантуркизм (улуғ туркчилик)** сифатида тарғиб ва ташвиқ қилина бошланди. Хусусан, Россияда большевиклар (коммунистлар) хоқимияг тепасига зўравонлик йўли билан келгач, совет режими ва коммунистик мафкура туркчиликка қарши тиш-тирноғи билан курашди.

<sup>8</sup>**TURONCHILIK** – бутун туркий халқларни ҳудудий, иқтисодий, ҳарбий, сиёсии ва мафкуравий жиҳатдан Турон номи остида бирлаштирувчи назария. Турончилик ва туркчилик назариялари яхлит ва эгизак, бир-бирини тўлдирувчи муштарак тушунча ҳисобланади. Фақат турончилик мафкураси туркчиликка нисбатан анча илгари пайдо бўлган. Турон мафкураси туркий халқларнинг энг қадимги ғоявий назарияси бўлиб, у аждодларимизнинг дастлабки ёзма ёдгорлиги – зардуштийлик динининг муқаддас китоби; тарихий, фалсафий ва адабий обида; эзгу фикр, эзгу сўз ва эзгу амални улуғлаган «Авесто» китобида ўзининг илк талқинини топган эди. Бу ҳақда қаранг: Авесто. Яшт китоби. М.Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.128.

Турон мафкураси узоқ ўтмишда фақат фикрдаги ғоя эмас, балки моддий кучга асосланган таълимотта ҳам айланган. Милоддан аввалги 210 йилда хуннлар хоқони Матэ (у Ўғузхон номи билан машхур) Хунн (Кун) номи остида барча турк қабилаларини бирлаштирган вақтда Турон мафкураси бир ҳақиқат даражасида ойдинлашган эди.

1881), Mirza Fatali Oxundov (1812 – 1878), Ismoilbek Gasprinskiy (1851 – 1914), Ziyo Ko'kalp (1876 – 1924), Mahmudxo'ja Behbudiy (1875 – 1919), Abdurauf Fitrat (1886 – 1938) singari Sharq allomalari muhim rol o'ynadi. Shuningdek, turkchilik va turonchilik g'oyalarini Mehmed Emin Yurdaqul (1869 – 1944), Muhammad Iqbol (1873 – 1938), Cho'lpon (1897 – 1938), Hamza (1889 – 1929), Mag'jon Jumaboy (1893 – 1937), Sadridin Ayniy (1878 – 1954) kabi shoirlar o'z she'rlarida yorqin ehtiros bilan kuylashdi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Turkchilik va turonchilik bir-biri bilan chambarchas bog'liq yaxlit ta'limot hisoblanadi [1]. Biroq ular o'rtasida nozik farq ham bor. Turkchilik va turonchilik

---

Турончилик мафкурасида туркий халқларни адабиёт ва тилда, умуман, маданият соҳасида бир-бирига яқинлаштириш орқали сиёсий жиҳатдан яхлит ва ягона давлатга бирлаштириш ғояси ётади. Буюк давлат арбоби Амир Темур (1336 – 1405) ўзини Турон хукмдори ҳисоблаб, бежиз таъкидламаган эди: “Биз ким – мулки Турон, амири Туркистонмиз. Биз ким – миллатларнинг энг қадими ва энг улуғи Туркнинг бош бўғинимиз”. Бу ҳақда қаранг: Амир Темур васияти. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б.3.

Турончилик мафкурасини янги тарихий вазиятда ривожлантиришда Зиё Кўкалп муҳим ҳисса қўшди.

Коммунистик ғоя тарафдорлари турончилик назариясини худди туркчилик назарияси сингари сохталаштириб, уни **пантуронизм (улуғ турончилик)** сифатида талқин қилишди. Уларнинг фикрича, бу назария турк, мўғул, тунгус, фин-угор, мжор (венгр) қавмларининг иттифоқидан иборат эмиш. Аслини олганда туркчилик ва турончилик назарияларини дастлаб пантуркизм ва пантуронизм қабилдида 1868 – 1874 йилларда венгриялик шарқшунос ва жосус Арминий Вамбери (1832 – 1913) илгари сурган эди.

Турончилик назарияси XX аср 20-30-йилларида – мустабид совет режими энг кучайган даврда ҳам кун тартибидан олиб ташланмади. Хорижда Аҳмад Заки Валидий, Усмон Хўжа ва Мустафо Чўқай, мамлакат ичкарасида Файзулла Хўжаев ва Турор Рискулов бу назариянинг энг фаол тарғиботчилари эди.

Бироқ Валидийнинг турончилик, туркчилик, исломчилик назариялари ҳақида “Бугунги турк эли (Туркистон) ва яқин тарихи” (Истанбул, 1981) китобида келтирилган айрим фикрларига қўшила олмаслигимизни айтиб ўтишга бурчлимиз.

o'rtasidagi bu nozik farqni tushunish uchun eng avvalo TURK<sup>9</sup> va TURON<sup>10</sup>, shuningdek **TURKISTON**<sup>11</sup> atamaları qanday ma'no anglatishi va bu so'zlarning o'zaro ta'sir doirasini aniqlab olish zarur.

<sup>9</sup>**TURK** – Ер сайёрасининг икки қитъасида азалдан яшовчи, европоид ва монголоид ирқларига мансуб, ислом ва бошқа динларга эътиқод қилувчи туркий халқларни умумлаштирувчи этник тушунча. Туркий халқларнинг илк аждодлари 4000 – 5000 йил муқаддам элат сифатида дастлаб Турон (ҳозирги Олтой ўлкаси ва Мўғулистон билан Ўзбекистон Республикаси оралиғи)да вужудга келган. “Турк” атамаси (кучли, бақувват) илк марта ёзма манбаларда айнан шу шаклда тилга олинган.

XXI аср бошларига келганда жаҳон сиёсий харитасида Ўзбекистон, Туркия, Қозоғистон, Қирғизистон, Туркменистон, Озарбойжон, Қибрис Турк Республикаси (Шимолий Кипр) каби 7 та мустақил туркий давлатлар, Қорақалпоғистон (Ўзбекистон), Бошқирдистон, Татаристон, Тува, Чувашистон, Ёқутистон-Саха, Қабарда-Болқория, Хакасия, Қорачой-Черкас, Олтой (Россия Федерацияси), Қрим (Украина), Нахичеван-Тоғли Қорабоғ (Озарбойжон), Шарқий Туркистон – Уйғур вилояти (Хитой таркибида) каби республикалар мавжуд эди. Шунингдек, Тожикистон, Россия Федерацияси (Доғистон, Ингушия, Чеченистон, Қалмоқ, Шимолий Осетия – Алания, Адигей республикалари), Грузия (Абхазия республикаси), Молдавия (Гагауз), Афғонистон, Мўғулистон, Македония, Босния ва Герцеговина, Эрон, Ироқ каби давлатларда туркий халқлар азалдан яшаб аҳолининг кўпчилиги қисмини ташкил қилади. Мазкур 20 та туркий давлатлар ва республикаларда, шу билан бирга юқорида номлари кўрсатилган 10 та давлатда аҳоли асосан қуйидаги 39 туркий тилда гаплашади: алабуғай татарлари (нўғай), астрахан нўғайи-карағашлари, болқон турки, барабин татарлари, бошқирд, божнурди, гагауз, долган, ёкут, караим, нўғай, озарбойжон, олтой, салар, сариғ-югур, сонкор-турк, татар, тува, туфалар, турк (усмонли турк), туркман, уйғур, урум, фуёй қирғизи, хакас, халаж, хуросон-турк, чуваш, чулим-турк, шур, юрта татарлари (астрахан нўғайи), ўзбек, қозоқ, қорақалпоқ, қорачой-болқар, қирғиз, қримтатар, қримчак, кўмик. Туркий тиллар ҳақида батафсил қаранг: Языки мира. Т.2. Тюркские языки. – Бишкек, «Қырғизстан», 1997. – С.544.

Ўзбек тилида сўзлашувчи халқ – **ўзбеклар** (сўзнинг этимологияси: **ўғуз, уз, ўзбек, ўзи бек**) аҳоли миқдори жиҳатидан туркий халқлар ўртасида усмонли турклардан кейин иккинчи ўринда туради. Бугунги кунда туркий тилларда тахминан 300 млн. киши сўзлашади.

<sup>10</sup>**TURON**– туркий халқлар яшайдиган улкан худудни англатувчи тарихий атама, ижтимоий-сиёсий ва маданий тушунча. Турон атамаси бундан 4000 – 5000 йил олдин дастлаб **тур(к)лар** яшовчи юрт – **Тур** ёхуд **Туркистон** шаклида қўлланила бошлаган. У жуғрофий жиҳатдан Тинч океанидан Ўрта ер денгизигача, Шимолий Муз океанидан Тибет ва Ҳимолай тоғларигача, Анатолиядан Шимолий Ҳиндистонгача бўлган улкан худудни ўз ичига олади. Турон бутун туркий халқларнинг мозийда бўлган ва истиқболда бўлиши назарда тутилган ягона буюк юртдир. Турон атамаси кейинчалик Туркистон тушунчаси билан алмашган ёхуд улар биргаликда қўлланилади.

Ўзбекистон Республикаси Туроннинг айнан марказий қисми – қоқ юрагида жойлашгандир.

<sup>11</sup>**TURKISTON**– асосан ўзбек, қозоқ, қирғиз, туркман, қорақалпоқ, уйғур каби туркий халқлар ва тожик халқи азалдан яшаб келган юртнинг тарихий номи. Илк ёзма ёдгорликларда Туркистон атамаси дастлаб **Турон** шаклида ёзилган. Қадимий туркий битикларда у **Турк будун (Турк эли)** шаклида қўлланилган.

Туркистон сиёсий можаролар натижасида асрлар давомида яхлит макон доирасидан чиқиб, қуйидаги жуғрофий қисмларга бўлинган: **Марказий Туркистон** (Ўзбекистон, Қорақалпоғистон, Жанубий Қозоғистон, Туркменистон, Қирғизистон, Тожикистон), **Шарқий Туркистон** (Хитойнинг Синьцзян – Уйғур мухтор вилояти, ички Мўғулистон), **Жанубий Туркистон** (Шимолий Афғонистон, Тоғли Бадахшон, Шимолий Ҳиндистон), **Ғарбий Туркистон** (Шимолий Эрон – тарихий Хуросон), **Шимолий Туркистон** (Шимолий Қозоғистон, Татаристон, Бошқирдистон, Урал атрофлари ва Олтой).

**Turk** – keng ma’noda Yer yuzidagi barcha turkiy xalqlarning umumiy ajdodi bo’lgan qavmning nomi. Turk(iy) – o’zbek xalqining o’rta asrlardagi tarixiy etnik nomi. Turk – tor ma’noda bugungi kunda Turkiya Respublikasida yashovchi asosiy millatning nomi. Shuningdek, o’zbek xalqi etnik tarkibiga kirgan 92 urug’ning biri turk deb ataladi.

**Turkiston** – keng ma’noda turkiy xalqlar yashagan ulkan mintaqa. Turkiston – tor ma’noda hozirgi O’rta Osiyo va Qozog’iston respublikalari hududida vujudga kelgan davlatlarni umumlashtiruvchi nom, tarixiy atama. Turkiston – Janubiy Qozog’istondagi asosan o’zbeklar yashaydigan qadimiy shahar hamda Turkiston viloyatining ma’muriy markazi. Turkiston – O’zbekiston va Tojikiston Respublikalari hududidagi tog’ tizmasining nomi, Hisor – Oloy tog’ sistemasiga kiradi. Turkiston – Buxoro vohasining Qizilqum bilan tutash qismining ilk va so’nggi o’rta asrlardagi jug’rofiy nomi.

**ISLOMCHILIK**<sup>12</sup> ta’limoti esa XIX asrning so’nggi choragida shakllangan edi. Bu nazariya vujudga kelishini odatda afg’on ma’rifatparvari, diniy va siyosiy arbob Jamoliddin Afg’oniy(1839 – 1897) nomi bilan bog’lanadi. Haqiqatan ham shayx Jamoliddin Afg’oniy 1870 yildan boshlab islom dinini isloh qilish va musulmon olamini islom bayrog’i ostida birlashishga qilgan da’vatlari bilan nafaqat o’z yurtida, balki butun musulmon dunyosida tanilgan edi. Lekin Abu Nasr Kursaviy(1776 – 1812), Shahobiddin Marjoniy(1818 – 1889) kabi yirik ulamolar va ma’rifatparvar Ahmad Donish(1827 – 1897) Buxoroda islom dinini isloh qilish to’g’risida XIX asrning birinchi yarmidayoq muayyan dastur tuzishgan [2]. Biroq ularning bunday islohotchilik faoliyati Buxorodagi shariat peshvolarining jiddiy qarshiligiga uchradi, hatto Kursaviy bir oz muddat zindonda ham o’tirdi. Islomchilik nazariyasining keyingi rivojlanishida Ikrom domla (1847 – 1925), shuningdek, jadid taraqqiyparvarlari I.Gasprinskiy, Fitrat, Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878 – 1931) kabi siymolarning ham muayyan darajada xizmatlari borligini ta’kidlab o’tish joiz.

Turkchilik asosida o’zak masala bo’lib turkiy dunyo birligi g’oyalari yotadi. Turkchilik va turonchilik aslida turkiy xalqlarni yuksaltirish va rivojlantirish haqidagi ta’limot hisoblanadi. XIX asr oxirlaridan boshlab Turkistonda ham bu ta’limotlar o’ziga qulay zamin topib, asta-sekin tarqala boshlagan edi. **JADIDCHILIK**<sup>13</sup> harakati[3] esa aynan ushbu ta’limotlar[4] bag’rida yetildi

**ЎЗБЕКИСТОН** – Туркистоннинг ўзаги. Машхур ёзувчи Чингиз Айтматовнинг ибораси билан айтганда, бугунги Ўзбекистон Республикаси ўз стратегик ўрни, иқтисодий ва маданий салоҳияти, иқтидори жихатидан Туркистоннинг ворисидир. Туркистон атамаси тор маънода Марказий Туркистонга нисбатан ҳам ишлатилади. Мазкур тадқиқотда Марказий Туркистон атамаси асосан **Туркистонминтақаси** ёхуд **Туркистон** шаклида қўлланилади.

<sup>12</sup>**ИСЛОМЧИЛИК** – туркчилик ва турончилик таълимотлари сингари мураккаб ривожланиш йўлини босиб ўтган назария. Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатлари, Туркистон минтақасида вужудга келган бу таълимот Россия ва Англия давлатлари томонидан сохталаштирилиб, **панисломизм (улуғ исломчилик)** тарзида талқин қилинди. Хусусан, совет Россияси давлати маъмурлари ва большевикларнинг фикрича, бу назария бутун ислом халқларини ягона давлат – халифалик тузиш учун курашга даъват қилар эмиш. Ҳолбуки, у пайтда халифаликнинг ўзи мавжуд бўлиб, Усмонли турк султонлари айна пайтда бутун мусулмонларнинг халифаси ҳам ҳисобланар эди.

Россия коммунистларининг етакчилари В.И.Ленин ва И.В.Сталин ўз нутқларида туркчилик ва исломчилик ғояларига қарши большевикларни барча воситалар билан кураш олиб боришга доимий равишда чақириб туришди.

<sup>13</sup>**ЖАДИДЧИЛИК** – (арабча «жадид» - янги) – XIX аср охири ва XX аср бошларида Туркистон, Кавказ, Қрим, Татаристон ҳаётида муҳимаҳамият касб этган маърифатпарварлик ва ижтимоий-сиёсий ҳаракат. Жадидчилик ҳаракати дастлаб XIX асрнинг 80-йилларида Қримда **Исмоилбек**

va dunyoga keldi. Xususan, Turkistondan borgan ko'plab ziyolilar va ulamolar Usmonli turk sultonligi, ayrim Yevropa mamlakatlari va Rossiya markazida ta'lim olib qaytganlaridan so'ng, XX asr boshlarida ular Turkiston mintaqasida jadidchilik bilan birgalikda turkchilik, turonchilik, islomchilik g'oyalarini muayyan darajada tarqatuvchisi va tashviqotchisi bo'ldilar.

“Tarjimon” va boshqa jadid gazetalari hamda jurnallarining Turkistonga tarqalishi, M.F.Oxundov va I.Gasprinskiy asarlarining kirib kelishi, Istanbulda bosilgan Fitrat kitoblarining o'z yurtida qo'lma-qo'l bo'lib o'qilishi turkchilik g'oyalarini mintaqa xalqlari dunyoqarashining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilganligini ko'rsatadi.

XX asr boshlarida Turkiston, Tatariston, Boshqirdiston, Ozarboyjondagi turkchilik tarafdorlari Usmonli turk sultonligidagi o'z maslakdoshlari bilan aloqalarini faollashtirdilar. Xususan, *Yosh turklar*<sup>14</sup> inqilobi, Eron va Rossiyada yuz bergan voqealar Turkistonda ham katta

**Гаспринский** раҳбарлигида вужудга келди. Туркистонда бу ҳаракатнинг асосчиси **Маҳмудхўжа Бехбудий** ҳисобланади. Жади́дчилик ҳаракати намояндалари кўпинча ўзларини **тараққийпарварлар** дейишган. Кейинчалик эса улар **жадидлар** деб аталди. Жади́дчилик ҳаракатидан 1910 йили Бухорода **Ёшбухороликлар**, 1914 йили Хивада **Ёш хиваликлар** партиялари шаклланди.

Жади́дчилик моҳият эътибори билан энг аввало сиёсий ҳаракат эди. Унинг туғилиш, кучайиш ва мағлубиятга учраш давлари бўлиб, уларни шартли равишда 4 bosqichga бўлиш мумкин. Туркистон, Бухоро ва Хива ҳудудида бу bosqichlar 1895 – 1905; 1906 – 1916; 1917 – 1920; 1921 – 1929 йилларни ўз ичига олади.

Жади́дчилик ҳаракати намояндалари Туркистондаги миллий давлатлар: Туркистон Мухторияти, Бухоро Халқ Совет Республикаси, Хоразм Халқ Совет Республикаси ташкил топишида муҳим роль ўйнашди. Шунингдек, жадидлар истиклолчилик ҳаракатининг ғоявий мафкурачилари бўлиб тарих сахнасига чиқишди.

Жади́дчилик ҳаракати ва унинг моҳияти тўғрисида батафсил қаранг:

<sup>14</sup>**Ёш турклар** – XIX аср охири ва XX аср бошларида Усмонли турк султонлигидаги инқилобий ҳаракатнинг қатнашчилари, “Иттиҳод ва Тараққий” сиёсий ташкилоти (1889 йил Истанбулда тузилган) аъзолари. Уларнинг асосий мақсади Султон Абдулҳамид II (1842 – 1918)нинг ҳокимиятини конституцион тузум билан алмаштириш, Туркияда ажнабийлар ҳукмронлигига қарши кураш ва демократик жамият қуриш бўлган. Зиё Кўкалп Ёш туркларнинг асосий мафкурачиси эди.

1908 йил июлда Македонияда бошланган Ёш турклар кўзғолони тезда бутун мамлакатда ғалаба билан яқунланди. Ўша йили “Иттиҳод ва Тараққий” сиёсий ташкилоти партиёга айлантирилди. Инқилобий кучларга қарши ҳаракатлари учун 1909 йил 27 апрелда Абдулҳамид II тахтдан туширилиб, қамоққа олинди. Муҳаммад V Рашид султон ва халифа деб эълон қилинди. Ҳокимиятда асосий ўринни Ёш туркларнинг йўлбошчилари Талъат Пошо (1874 – 1921), Анвар Пошо (1881-1922), Жамол Пошо (1872 – 1922) ўйнай бошлади. Италия – Туркия уруши (1911 – 1912)да Туркия енгилгач, муҳолифатдаги “Ҳуррият ва иътилоф” жамияти 1912 йилда ҳокимиятни эгаллади. Лекин 1916 йил январда бўлган ҳарбий тўнтариш натижасида Туркияда яна Ёш турклар ҳокимияти тўлиқ ўрнатилди. Талъат Пошо, Анвар Пошо, Жамол Пошодан иборат учлик (триумфират) ҳокимиятни бошқара бошлади. Улар туркчилик ва исломчилик сиёсатини изчил давом эттириб, ташқи фаолиятда Германияга яқинлашдилар. Туркия Биринчи жаҳон урушида енгилгач, Ёш турклар ҳукумати истеъфога чиқди ва 1918 йил ноябрда катта учлик мамлакатни тарк этди. Ёш туркларнинг фаолияти Туркияда тақиқланди.

1918 йил ноябрда Антанта давлатлари ва Греция кўшинлари Туркияга бостириб кирди. Англия ва Грецияга қарши Туркия озодлик урушини олиб борди. 1920 йил 28 январда Туркия мустақиллиги эълон қилинди.

1922 йили “Иттиҳод ва Тараққий” партиёси Туркияда қайта тикланди, аммо у мамлакат ҳаётида катта роль ўйнай олмади. Буюк Миллат Мажлиси (1920 йил 23 апрелда тузилган) Туркияда

aks-sado berdi va mintaqadagi siyosiy vaziyatga muayyan darajada o'z ta'sirini ko'rsatdi. Rossiya imperiyasidagi turkchilik namoyandalari o'z faoliyatlarida turkiy xalqlarni mustaqillik uchun olib borayotgan umumiy kurashda ularni birlashtirish g'oyasini targ'ib qildilar. Rossiya musulmonlarining bu harakati saflarida Turkiston taraqqiyparvarlari ham ko'pchilikni tashkil qildilar. Islom dini va jamiyatni isloh qilish, uni yangilash, zamon talablari bilan o'zaro bog'liq holda, boshqa sivilizatsiyalarning eng ilg'or ilmiy, texnikaviy va madaniy yutuqlaridan foydalanish, jamiyatni taraqqiyot, fan, ta'lim sohasida rivojlantirish g'oyalari jamoatchilik ongida tobora kuchayib bordi.

Turkchilik va islomchilik ta'limotlari nafaqat Turkiya yoxud boshqa Sharq mamlakatlarida, balki Turkistonning o'zida ham o'zgarishda va muayyan darajada mahalliy sharoitga moslashishda davom etdi. Fitrat, Behbudiy va boshqa taraqqiyparvarlar turkchilik g'oyasini turkiy xalqlarning o'zaro mustahkam siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari asos qilib olingan bir qancha mustaqil milliy davlatlarni vujudga keltirish yo'lidagi umidlarini ro'yobga chiqaradigan kuch deb hisobladilar.

Bu o'rinda islomchilik ta'limotining Turkistonda, umuman, musulmon Rossiyasida tutgan o'rni to'g'risida ham gapirmasdan o'tib bo'lmaydi.

Jamoliddin Afg'oniy va uning shogirdlari 1888 yilda Rossiyada bo'lib, Rossiya musulmonlari bilan uchrashgan chog'ida islom dinini isloh qilish va yangilash bilan bir qatorda musulmonlarning fan va texnika yutuqlarini egallash vazifasini qo'ydi. Ularning fikricha, bu holat Yevropa madaniyati unsurlarini Sharq muhitiga yuzaki joriy etishni anglatmay, balki Sharqning g'oyat boy ma'naviy madaniyati va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ularni bir-biriga uyg'unlashtirish va shu tariqa unda o'z milliy uyg'onishi uchun shart-sharoitlarni yaratish muhim edi[5].

Jamoliddin Afg'oniy Misrda shayx Muhammad Abdu (1849 – 1905), Rossiyada Rizouddin ibn Faxruddin (1859 – 1936), Turkiyada shoir Mehmed Emin Yurdaqul (1869-1944) kabi zabardast zotlarni tarbiyalab yetishtirgan buyuk islom mujtahidi edi. U Iskandariyada Yosh misrliklar jamiyatini ham tuzdi (1879).

Jamoliddin Afg'oniy arab, fors va fransuz tillarida islom tarixi va shariat bo'yicha ko'plab asarlar yozdi. Uning eng asosiy asarlari quyidagilar edi: "Materialistlarni inkor qilish", "Renanga al-Afg'oniyning javobi", "O'qitish va ta'limning foydasi haqida", "Ekzegetni ekzegezi" [6].

Musulmonlarni umumiy dushman – mustamlakachilikka qarshi kurashda birlik va birdamlikka da'vat etgan qarashlarning ijobiy tomonini ta'kidlash bilan bir qatorda u butun musulmon xalqlari o'rtasidagi milliy o'ziga xoslik, urf-odat va an'analarni inkor qilganligini ham hisobga olish lozim. Hatto turkchilik tarafdorlarining ko'pchiligi bu qarashlarga oshkora qarshi

---

султонлик бекор қилинганлиги ҳақида 1922 иил 1 ноябрда қонун қабул қилди. *Туркия Жумҳурияси* 1923 йил 29 октябрда ташкил топди ва *Мустафо Камол Отатурк* (1881-1938) биринчи президент этиб сайланди. 1924 йил 3 мартда халифалик ҳам тугатилди.

1926 йили Отатуркка қарши суиқасд қилганликда ноҳақ айбланиб, "Иттиҳод ва Тараққий" партиясининг фаолияти Туркияда бутунлай таъқиқланди.

Туркистондан таълим олиш учун Туркияга борган талабалар ўртасида иттиҳодчиларнинг ғоялари кенг тарқалган эди. Улар юртларига қайтгач, бу ғояларни тарқатувчилари бўлишди. Ёш туркларнинг кўплаб арбоблари, жумладан, Жамол Пошо ва Анвар Пошо кейинчалик Туркистонга келишди. Хусусан, Анвар Пошо Туркистондаги сиёсий жараёнларнинг марказида туриб, унда фаол қатнашди.

chiqmasalar-da, aslida uni jiddiy ravishda quvvatlamadilar. Shu jihatdan olganda Turkistonda har ikki ta'limot yonma-yon mavjud bo'lsa ham turkchilikning ta'siri ancha kuchli edi.

Turkistonning o'zida turkchilik va islomchilik qarashlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'zdan kechirishga urinib ko'radigan bo'lsak, ular o'rtasidagi chegara nihoyatda noaniq ekanini ta'kidlab o'tish lozim. Bu hol, birinchidan, mintaqaning o'ziga xos xususiyati bilan (bu yerda turkiy xalqlar bilan bir qatorda tojik xalqi ham yashardi), ikkinchidan esa, Turkiston jamiyatida milliy o'z-o'zini anglashning o'sish jarayoni, yangi, burjua munosabatlarining vujudga kelishi jarayoni endigina boshlanganligi bilan izohlanadi[7].

Turkchilik g'oyalari, avvalo Turkiston taraqqiyparvarlari, ulamolarning bir qismi, milliy burjuaziya namoyandalari va hunarmandlar o'rtasida ancha ommalashgan bo'lsa, islomga oid qarashlar esa ayrim ulamolar, shahar aholisi o'rta tabaqalarining muayyan qismi va dehqonlar o'rtasida tarqalgan edi.

Alalxusus, "Turkchilik hech bir vaqt klerikalizm bilan, teokratiya bilan, istibdod bilan yaqinlashib, birlashib keta olmaydi. Turkchilik modernistik bir jarayondir va faqat zamonaviy ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlar va mafkuralar bilan qo'shib keta oladi.. Turkklar hurriyat va mustaqillikni sevganlaridan ishtirokiyunchi (kommunist) bo'lmaslar. Biroq tenglikni sevganlari tufayli xudbin (egoist) kishi ham bo'lib qolmaslar" [8].

Turkchilik ta'limotini nazariy jihatdan ishlab chiqish va uni amaliy rivojlantirishda Ziyo Ko'kalp (Go'kalp) va Fitrat katta xizmat qilishdi.

Ko'kalp turkchilik – turkiy dunyo birligi g'oyalarining nazariyotchisi, yirik faylasuf va sotsiolog olim hisoblanib, u Turkiya Respublikasida milliy mafkura va sotsiologiya faniga asos soldi.

Ziyo Ko'kalpda 15 yoshidan boshlab Ahmad Vofiq Poshoning "Lahjai Usmoniy" va Sulaymon Poshoning "Tarixi olam" va boshqa kitoblari ta'siri ostida turkchilik mayllari uyg'ondi. U o'zining turkchilik mafkurasini haqidagi qarashlari mujassamlangan dastlabki asari "Turon" manzumasini yozib, 1908 yilda «Yosh qalamlar» majallasi (jurnali)da nashr ettirdi. "Turon" manzumasida turkchilik mafkurasining ilk uchqunlari mavjud bo'lib, muallif bu qarashlarini o'zi aytganidek, 17-18 yil davomida miyasida obdon pishitib yurgan edi[9].

Ko'kalpning "Eng qadimgi turk davlatlari" (Istanbul, 1918), "Tarix ilmimi yoki san'atmi?" (1922), "Tarixda usullar" (1922), "Turk madaniyati tarixi" (1925) kabi asarlari mashhur. Birok, turkchilik g'oyalari o'zining mukammal bayonini topgan asosiy asari – "Turkchilik asoslari" faqat o'limidan keyin bosildi (1925). Keyinchalik uning Turkiyada 9 jildlik kulliyoti chop qilingan (1952 – 1982).

"Turkchilik asoslari"da turkiy xalqlar, shuningdek, Turkiyaning demokratiya va milliy mustaqillik, taraqqiyot yo'liga o'tishining tarixiy, siyosiy tafsilotlari, nazariy muammolari, tajribasi va eng muhimi turkiy sivilizatsiyaning kelgusi taraqqiyot yo'llari bayon etilgan. Ko'kalpning yozishicha, "Turon butun turklarning moziyda ham va balki istiqbolda ham bir sha'niyati bo'lgan buyuk Vatanidir"[10]. Bir so'z bilan aytganda, turkchilik – turkiy millatlarni yuksaltirish deganidir.

Ziyo Ko'kalpning g'oyalari XX asrda nafaqat Turkiya, balki butun turkiy dunyoga o'zining samarali ta'sirini ko'rsatdi. Shuning uchun kommunizm mafkurachilari uning g'oyalarini panturkizm va panturonizm da ayblashdi<sup>15</sup>.

<sup>15</sup>Фақат Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгач, Зиё Кўкалпнинг "Туркчилик асослари" ва бошқа айрим асарлари ўзбек тилида нашр қилинди.

I.Gasprinskiy “Rusiya musulmonligi” (Simferopol, 1881), “Ovrupe madaniyatiga bir nazar muvozi” (Istanbul, 1885), “Rus va Sharq ahdlashuvi” (Bog’chasaroy, 1896) singari kitoblarida musulmonlarni ilm-fanni egallashga, texnikaning ilg’or yutuqlaridan foydalanishga da’vat etdi[11].

U Yevropa bosqinchilarining hujumiga qarshi islom birligi – islomchilikni o’rtaga tashladi. I.Gasprinskiy yozgan ilk turkiy roman – “Dor ul-rohat musulmonlari” (1887) ilmiy-fantastik asari Fitrat tomonidan o’zbek tiliga tarjima qilinib, 1915 yil Petrogradda nashr qilindi. Romanning bosh qahramoni Toshkentlik ziyoli yigit – Abbosxon hisoblanadi. Bu asar o’sha paytda Turkistonda keng tarqalgan.

Jadid adabiyotitürkchilik va islomchilik g’oyalarini targ’ib qilishda muhim o’rin tutadi. Turkistonda bu adabiyotning ilk namunalari Fitrat va Behbudiy yaratdi.

Fitratning “Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg’an munozarasi” (qisqacha “Munozara”) asari 1909 yilda yozilib, Istanbulda 1911 yili nashr qilindi. Asar o’zbek va rus tillarida Toshkentda ham chop qilindi (1911 – 1912). Jadid adabiyotining Turkistondagi dastlabki yorqin namunasi sanalgan va dramatik publitsistikaga moyil “Munozara” [12] asari zamonning zayli bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pog’onasida turib qolgan din va dunyo, jamiyat va ma’rifat haqida ikki xil dunyoqarashga ega bo’lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan edi. Fitrat o’z kitobida xurofot va bid’atni qoralaydi, unga chinakam e’tiqodni qarshi qo’yadi. Ayniyning yozishicha, “Munozara” davr taraqqiyotiga g’oyat kuchli va samarali ta’sir ko’rsatdi[13]. Asarda aks etgan ma’rifatparvarlik, türkchilik, jadidchilik, islomchilik va islohotchilik g’oyalari butun sovet rejimi davrida jadid adabiyoti, xususan, Fitrat ijodini qoralash uchun asos bo’lib xizmat qildi.

Fitrat vatanparvarlik va islomchilik g’oyalarini mushtarak holatda o’z asariga shunday singdirib yubordiki, u kitobxonni aslo befarq qoldirmaydi. Uning quyidagi so’zlari ma’lum ma’noda bugun ham o’ta dolzarb bo’lib jaranglaydi:

“Islom bizning dinimizdir, islom bizning sharafimiz, islom bizning saodatimizdir. Islom bizning sarafrozligimiz boisi, islom osoyishtalig’imiz sababchisidir. Islomni bizga Payg’ambarimiz omonat topshirganlar. Buxoro bizning muqaddas vatanimizdir, Buxoro bizning mehribon onamizdir, Buxoro bizning nash’unamo joyimizdir, Buxoro bizning sajdagohimizdir, Buxoro bizning aziz ma’shuqimizdir, Buxoro bizning jonimiz-la barobar mahbubimizdir, Buxoro bizdandir, biz Buxorodan. Bas, buqadar g’aflat vatanballik, bexabarlik va johillikda o’tirganimiz. Bu dinimizning nobud bo’lishini, bu muqaddas vatanimizning poymol etilishini kamoli sharafsizlik bilan qabul qilganimizni na shariat, na urf-odat qabul qilmaydi. Balki olam oqillari, jahon jamiyat bandlari bizni la’nat qilib, insoniyat yo’lidan chetda hisoblamoqdalar” [14].

Fitratning 1911 yili Istanbulda nashr qilingan yana bir asari – “Sayha” (“Na’ra”) to’plamiga kirgan vatanparvarlik ruhidagi she’rlarida, taniqli davlat arbobi Fayzulla Xo’jayevning iborasi bilan aytganda, “Buxoro mustaqilligi g’oyasi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalab berilgan edi” . To’plamga kirgan she’rlar Rossiya imperiyasi ma’murlari va Buxoro amiri ta’qiqlab qo’ygani qaramay, Turkistondan tashqari Qrim va Qozon turklari, Turkiya, Eron, Germaniya kabi mamlakatlarda keng tarqaldi.

Fitratning 1912 yili Istanbulda nashr qilingan “Hind sayyohi bayonoti” (“Bayonoti sayyohi hindi”) nasriy qissasida Buxoro amirligi hududidagi butun iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotning ko’plab muammolari tilga olinadi. Unda mavjud tuzum qattiq tanqid qilinib, barcha kamchiliklar ayovsiz ochib tashlanadi. Bu muammolarni vujudga keltirgan ijtimoiy illatlarni tahlil etish

barobarida ushbu kamchilik va illatlardan xalos bo'lish yo'llari ham ko'rsatiladi. Bu asar ham tez orada rus tilida Samarqandda bosildi[15].

Fitratning 1914 yili yozilgan "Najot yo'li" ("Rahbari najot") [16] asarida ham ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan bir qatorda islomchilik va turkchilik g'oyalari o'q ildiz bo'lib yotadi. Fitrat millatni qoloqlik girdobidan qutqarmoqchi bo'lib, zamonasi uchun asosiy e'tiqod hisoblangan islom diniga murojaat qiladi. U Qur'oni karimni musulmonlarning rahbar va rahnamosi – Najot dasturi (yo'li) deb tushunadi. Bu muqaddas kitob va islom dini g'oyalari atrofida millatni jipslashishga da'vat etadi. "Najot yo'li" asarida Fitratning falsafiy va axloqiy qarashlari ham o'zining yorqin ifodasini topgan. Fitrat 1915 yil nashr qilingan "Muxtasar islom tarixi"[17] asarida ham islom g'oyalarini talqiniga alohida urg'u beradi.

Fitratning keyinchalik yozgan o'zining boshqa asarlarida turkchilik mafkurasining tashviqotiga asosiy o'rin ajratgan<sup>16</sup>.

Bir tomondan, jadid adabiyotining gurkirab rivojlanishi, ikkinchi tomondan, turkchilik va islomchilik g'oyalarining keng tarqalishi Turkistonda jamoatchilik fikrining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Turkiston o'lkasi xalqlari Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi ommaviy kurashga ko'tarilishlari arafasida xuddi shunday bir g'oyaga muhtoj edilar. Buxoro amirligi va Xiva xonligida vaziyat esa ancha murakkab bo'lib, u eng avvalo milliy mustaqillikka to'la erishish bilan birgalikda o'rta asrlarga xos istibdod tuzumini Yevropa davlatlariga mos konstitutsion monarxiya (keyinchalik demokratik respublika) bilan almashtirishni ko'zda tutardi.

Bu davrda turkchilik mafkurasini rivojlantirishda publitsistikaning xizmati katta bo'ldi. "Hurriyat", "Najot", "Kengash", "Turon", "Ulug' Turkiston" gazetalarida e'lon qilingan Behbudiy, Fitrat, Munavvar Qori, Validiy, Hamza, Cho'lpon va boshqalarning maqolalarida Turkistonni yaxlit va mustaqil davlat bo'lishi, unga muxtoriyat maqomi berilishi g'oyasi ilgari surildi. Turkiston Muxtoriyati hukumati (1917 yil 26 noyabr – 1918 yil 22 fevral) e'lon qilingach, Fitrat, Cho'lpon, Hamza uni alqab, o'tli satrlar bitishdi.

Fitrat va Cho'lponning 1917 yil va undan keyingi dastlabki davrda yaratgan asarlarida turkchilik g'oyalari o'q ildiz bo'lib yotadi. Fitrat "Yurt qayg'usi", "Temur sag'anasi", "O'g'uzxon" asarlarida Turonning shukuhini qayta tiklash uchun Amir Temur va O'g'uzxonga murojaat qilsa, "Sharq" dostoni va "Mirrix yulduziga", "Shoir", "Behbudiyning sag'anasin izladim", "Mening kecham" she'rlarida Turkistonni bosqinchilardan ozod qilib, mustaqil davlat tuzish g'oyasini ilgari surdi. "Sharq siyosati" (1919) kitobi va "Yig'la, islom" (1919) publitsistik maqolalarida esa Sharq xalqlarini mustamlakachilarga qarshi kurashga da'vat qildi.

Turkistonning buyuk erksevar shoiri Cho'lpon o'z ustozlari an'alarini nazm va nasrda davom ettirib, o'zbek she'riyatini yuqori pog'onaga ko'tardi. Cho'lponning "Go'zal Turkiston", "Go'zal Farg'ona", "Yorug' yulduzga", "Xalq", "Buzilgan o'lkaga", "Baljuvon", "Binafsha", "Ko'ngil", "Kishan" kabi she'rlarida Turkiston mustaqilligi g'oyasi ilgari suriladi, yurtimizga bostirib kirgan qizil armiyaning qabih ishlari fosh qilinadi, sovet rejimiga qarshi kurashayotgan istiqlochlarning jo'mard qiyofalari gavdalanadi. Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga" (1921) she'ri bolshevizmga

<sup>16</sup>Turkistonda sovet rejimi qaror topgandan keyingi davrda Fitrat ijodiy faolligini ta'hlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning asarlarida turkchilik g'oyalari bilan bir qatorda chig'atoychilik va uzbek millatparvarligi (Fitrat uzbek millatchisi deb e'zadi) kайфияtlari kuchli bo'lgan. Fitratning "Chig'atoy gu'runi" (1918 – 1920) tashkilotidagi faolligida bu hol ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Bu hujusda Fitratning 1929 yilda sovet tanqidchisi J.Bojbulatovga e'zgan "E'pishmag'an g'ajaklar" nomli ochiq xati ham guvohlik beradi.

qo'yilgan adabiy aybnoma bo'lib jarangladi. O'zbek she'riyati tarixida mazmun mohiyati, maslak murosasizligi jihatidan uning "Baljuvon" (1922) marsiyasiga o'xshash yoki yaqin keladigan ikkinchi bir she'r yozilmagandir. Atigi 26 misrali bir she'r bag'riga yashiringan qayg'uli tarixiy ma'no, ochiq faryod va tolesizlik alamini o'nlab dostonlar tarkibiga ham singdirib bo'lmaydi. Bu she'r "Anvar Poshoning jasur siymosini gavdalanitiruvchi so'zdan yaralgan she'riy bir haykal" (Ibrohim Haqqul)[18] bo'lib qoldi. Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga", "Baljuvon" va boshqa she'rlari istiqloolchilar o'rtasida juda mashhur bo'lib ketgan. XX asr o'zbek adabiyotining Fitrat va Cho'lpondek ikki yirik namoyandasi ijodida barq urib ochilgan turkiy xalqlarni birlashtirish – turkchilik va turonchilik g'oyalari oradan ko'p o'tmay bolsheviklar va kommunistik mafkura maddohlari tomonidan millatchilik ko'rinishi sifatida nohaq qoralandi. Holbuki, ular o'z millatlarining taraqqiyoti uchun sovet rejimi va kommunistik mafkuraga qarshi qo'lda qalam bilan kurashgan edilar.

Qardosh qozoq xalqining shoiri Mag'jon Jumaboy (1893-1938) ham "Turkiston" va boshqa she'rlarida Fitrat va Cho'lponga ergashib, turkchilik va turonchilik g'oyalarini ulkan ehtiros bilan tarannum qildi.

Turk dunyosining buyuk shoirlaridan biri Mehmed Emin Yurdaqul o'zining dastlabki she'rlaridayoq turkchilik g'oyalarini o'tli satrlarda kuyladi. "Men bir turkman, dinim, irqim ulug'dir. Ko'ksim elu yurt ishqiga to'qlig'dir" bayti bilan boshlanuvchi "Jangga ketarkan" (1897) she'ri Vatanga muhabbat g'oyasi bilan sug'orilgan. Xususan, uning "Ey, turk, uyg'on" (1923) manzumasi nafaqat Usmonli turk saltanatida, balki Turkistonda ham mashhur bo'lgan. Bu manzumani Usmonli turk armiyasining Bosh qo'mondoni va harbiy vazir Anvar Posho avvaliga 15000, keyin 10000 nusxada bostirib, butun askarlariga tarqattirgan. Bu manzuma satrlari yuz minglab turklarni vatan va millat uchun yashash va kurash yo'liga olib chiqdi<sup>17</sup>.

Yurdaqulning 1917 yilda yozilgan "Chorga" va "Kulsin endi" she'rlarida Turkiston va Kavkazdagi turkiy xalqlar chor Rossiyasi (Rossiya imperiyasi) istibdodidan qutulishiga ishonch bildiriladi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Mehmed Emin Yurdaqulning bu manzumasi va yana boshqa ko'plab she'rlari Turkistondagi istiqloolchilar o'rtasida ham mashhur bo'lgan<sup>18</sup>.

Hindistonning buyuk shoiri Muhammad Iqbol she'rlari ham bu paytda Turkistonda mashhur bo'lgan. Iqbol butun islom olamini yaxlit tasavvur qiladi va asarlarida uning har bir go'shasini to'lib-toshib kuylaydi. Iqbol Buxoro va Samarqand shaharlariga juda samimiy munosabatda bo'lgan "Garchi hind farzandi bo'lsam-da, ko'z nurim Buxoro, Kobul va Tabrizning pok tuprog'idan unib chiqqan", - deb yozadi she'rlaridan birida u. Iqbol she'rlari orasida

<sup>17</sup>Қаранг: *Мехмед Эмин Юрдақул. Эй, турк, уйғон.* – Тошкент: "Ёзувчи", 1997. – Б. 26-39.

<sup>18</sup> "Эй, турк, уйғон" манзумаси куйидаги сатрлар билан тугайди. Бу сатрларда Турон – Туркистоннинг хур ва масъуд бўлиши башорат қилинади ҳамда унинг порлоқ истикболига ишонч билдиради:

Балки, сенинг мавқеингни оширган  
У турк даҳонг янги дунё куражак;  
Бу ерда Турон қалқиб туражак -  
Фақат шудир кутилган иш ёшлардан.

Тур, олға бос! Маданият, шараф, шон  
Ёш-қариси миллий руҳли элники!  
Эски, янги, хур ва масъуд Туркистон,  
Бу Осиё, бу истикбол сеники!

Turkistonga bag'ishlangan, insonni to'liqlantiruvchi va hayajonga soluvchi asarlari ham mavjud bo'lgan.

Ahmad Zaki Validiy keyinchalik o'zining "Xotiralar" asarida guvohlik berishicha, u Buxoroda bo'lgan vaqtida (1920 – 1921) Buxoro Respublikasi rahbarlaridan biri Abdulqodir Muxitdinov (1892 – 1934)dan Iqbolning ko'plab she'rlarini qo'lyozma holatida olib, tanishib chiqqan. Bu she'lar yosh Buxoro hukumati a'zolari, shuningdek, istiqloqlar o'rtasida ancha keng tarqalgan. Iqbol hali XX asr boshlarida yozgan ushbu she'rlarida Turkistonda yana bir bo'ron ko'tarilishini, turkistonliklar Rossiya zulmiga qarshi kurashga qo'zg'olishlarini bashorat qilgan edi. Bu asarlarda Turkistonning mustaqilligi va yorqin kelajagiga quyidagicha komil ishonch bildiriladi: "Timurning sozi buzildi, lekin ohangi yashamoqda. Bu ohang Samarqandning boshqa bir sozi-la yana sahnaga chiqajak... Samarqand zaminida yana bir Chingiz bo'roni, suv toshqinlari ko'tarilajak..." [19].

Afsuski, Iqbol asarlarining asl nusxasidagi to'la matni ixtiyorimizda mavjud bo'lmaganligi sababli uning keyingi ijodi haqida mulohaza yurita olmaymiz. Ehtimol, Turkistondagi sovet rejimiga qarshi kurashgan istiqloqlar timsoli Sharqning bu buyuk shoiri she'rlarida o'z aksini topgan bo'lsa ne ajab!..

Biroq turkchilik va turonchilik g'oyalari mustabid sovet rejimi hukmronligi davrida ham o'lmadi, balki u yashashda davom etdi<sup>19</sup>.

Xulosa qilib aytganda, aynan turkchilik nazariyasi o'nlab yillar mobaynida Rossiya imperiyasi va sovet Rossiyasi hamda ularning vorisi hisoblangan SSSRning imperiyacha muddaolariga qarama-qarshi turishning hal qiluvchi omili, Turkiston mintaqasi miqyosida shiddat bilan ko'tarilgan jadidchilik, muxtoriyatchilik va istiqloqlar harakatlarining yagona birlashtiruvchi kuchi bo'lib maydonga chiqqan edi. Aynan turkchilik va islomchilik g'oyalari bilan tarbiyalangan turkistonlik taraqqiyparvarlar 1917 – 1935 yillarda **MUXTORIYATCHILIK** va **ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI**ning faol ishtirokchilari bo'lishdi. Biroq Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan jadidlar va istiqloqlar, milliy rahbar xodimlar bolsheviklar va kommunistlar tomonidan panturkist (ulug' turkchi) va «boshmachilik» sifatida qatag'on qilindi.

Faqat SSSR imperiyasi parchalangach, XX asr 90-yillari o'rtalarida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikalari prezidentlari "Turkiston – umumiy uyimiz" shiorini bir muddat o'rtaga tashlashdi. Davlatlarimiz rahbarlarining bu chaqirig'i yangicha tarixiy vaziyatda – jahon hamjamiyati davlatlari o'zaro yaqinlashayotgan, iqtisodiy integratsiya va globallashtirish jarayoni kuchaygan bir paytda turkchilik g'oyalarining o'ziga xos ravishda rivojlantirish bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida XXI asr 20-yillaridan boshlab Turon va Turkiston atamalarini qo'llash hamda ilmiy iste'molga kiritish jarayoni to'siqsiz olib borilmoqda. Mamlakatimizdagi bugungi ochiqlik va oshkoralik siyosatida Turon atamasi yangi mazmun va mohiyat kasb etib kelmoqda.

2022 yil 12 dekabrda Qarshi shahrida nodavlat oliy ta'lim muassasi bo'lgan Turon universiteti tashkil etildi. Universitetning ayni paytda 4 ta o'quv binosi va bitta talabalar turar joyi mavjud. Unda 4 ta fakultet va 6 ta kafedra mavjud. Turon universitetida 15 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha jami 2814 nafar talaba ta'lim olmoqda. Ilm dargohida 180 nafar, shundan asosiy shtatda 141 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritmoqda. Turon universiteti Yangi O'zbekistonda zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yangi o'zbeklarni tayyorlash ishiga jiddiy kirishgan hamda

<sup>19</sup> XX asr davomida horijda Ahmad Zaki Validiy, Usmon X'uja, Mustafafo Ch'ukay, Vali Qajomxon, Boymirza Xayit singari turkistonlik muhojirlar turkchilik nazariyasining faol tarqibotchilari bulishgan.

bu sohada muayyan natijalarga erishmoqda. Ayni paytda Turon universitetining “Turon sciences” ilmiy jurnali chop etilmoqda.

**XULOSA.** Ushbu maqolada “Turon” atamasi va uning asosida shakllangan “turonchilik” mafkurasi tarixiy, siyosiy hamda madaniy kontekstda tizimli tarzda tahlil etiladi. “Turk”, “Turkiston”, “turkchilik”, “islomchilik” kabi unga yaqin konseptlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganilib, ularning shakllanish jarayoni, mazmuniy evolyutsiyasi tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, ilmiy adabiyotlar va zamonaviy tarixshunoslik yondashuvlari asosida chuqur tahlil qilinadi. Turonchilik — nafaqat etnik-madaniy mushtaraklik g‘oyasiga asoslangan mafkuraviy oqim, balki XIX asr oxiri va XX asr boshlarida turk dunyosi uyg‘onish harakatlarida, xususan, jadidchilik, islomchilik va milliy o‘zlikni anglash jarayonlarida muhim tarixiy rol o‘ynagan. Ziyo Pasha, Gaspirali, Fitrat, Behbudiy va Munavvar Qori kabi ziyolilarning faoliyati bu g‘oyalarning shakllanishida, ularni Turkiston ijtimoiy-siyosiy muhitiga singdirishda asosiy omillardan biri bo‘lgan. Ushbu mafkuralarning shakllanishi, tarqalish bosqichlari va hozirgi davrdagi tarixiy-nazariy talqinlari chuqur tahlil qilinib, zamonaviy O‘zbekiston tarixshunosligida bu g‘oyalarni ilmiy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish zarurati asoslab beriladi. Turonchilik g‘oyasining bugungi talqini uni faqat romantik yoki nostalgik qarashlar doirasidagina emas, balki madaniy identitet, milliy ong va geosiyosiy tafakkur bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Қ.Ражабов. Туркистон минтақасида совет режимига қарши истиқлолчилик ҳаракати ва моҳияти (1918-1935). – Тошкент: Фан, 2022. 11-23-бетлар.
2. Емельянова Г. К вопросу о национальной самоидентификации волжских татар в конце XIX – начале XX веков: татаризм, тюркизм и исломизм // «Мир ислама» (Казань), 1989, №1-2. – С.109-122; Кемпер М. Между Бухарой и Средней Волгой: столкновение Абд ан-Насра ал-Курсави с улемами традиционалистами //«Мир ислама», 1999, №1-2. – С. 159-170; Ислам в татарском мире: история и современность. – Казань, 1997. – С.379.
3. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чизгилар). Даврий тўплам №1. – Тошкент: «Университет», 1999. – Б. 219; Алимова Д.А. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. – Тошкент: Узбекистан, 2000. – С. 24;
4. Ахмедов С., Ражабов Қ. Жадидчилик // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.3. – Тошкент: ЎЗМЭ нашриёти, 2002. – Б.519-523.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.15.
6. Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991. – С. 26.
7. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Б.16.
8. Зиё Гўкалп. Туркчилик асослари. Абдуқодир Зоҳидий таржимаси. – Тошкент, 1994. – Б. 118, 120.
9. Зиё Гўкалп. Туркчилик асослари. – Б.12-13.
10. Зиё Гўкалп. Туркчилик асослари. – Б.22.
11. Исмоил бей Гаспринский. Россия и Восток. – Казань, 1993. – С.132.

12. *Фитрат*. Ҳиндистонда бир фаранги ила бухороли мударриснинг жадид мактаблари хусусинда қилғон мунозараси. // Танланган асарлар. 1-жилд. Нашрга тайёрловчи Ҳ. Болтабоев. – Тошкент: “Маънавият”, 2000. – Б. 46-98.
13. Бир-бирига таққослаш учун қаранг: *Садриддин Айни*. Таърихи инқилоби Бухоро. – Душанбе: “Адиб”, 1987. – Б. 101-103; *Айний С.* Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. // Асарлар. Т.1. – Тошкент: Ўздавадабийнашр, 1963. – Б.181-349.
14. *Фитрат*. Танланган асарлар. 1-жилд. – Б.96-97.
15. *Абд-ар-Рауф*. Рассказы индийского путешественника. Бухара как она есть. Перевод с персидского А.Н.Кондратева. – Самарканд, изд. Махмуд-ходжи Бекбуди, 1913; Яна қаранг: *Фитрат*. Ҳинд сайёҳи баёноти. // Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2000. 1-жилд. – Б.98-168.
16. *Фитрат*.Нажот йўли (Раҳбари нажот) / Таржима ва изоҳлар муаллифлари: Ш. Воҳидов, Г. Музаффарзода. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.176.
17. *Фитрат*. Мухтасар ислом тарихи. – Тошкент: Нур, 1992. – Б.32.
18. *Иброҳим Ҳаққул*. “Қутулиш юлдузи” йўқликка кирмас... // “Бухоро ҳақиқати”, 1995 йил 27 декабрь.
19. Бу ҳақда қаранг ва таққосланг: *Zeki Velidi Togan*. Hatiralar. Turkistan ve Diger Musliman Dogu Turklerini Milli Verlik ve Kultur mucadeleleleri. – Istanbul, 1969. – S. 524-526; 2-Baski. – Ankara, 1999. – S.448-450; *Аҳмад Закий Валидий Тўғон*. Бўлинганни бўри ер. Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан хотиралар. Бошқирд тилидан Ш.Турдиев таржимаси. – Тошкент: Адолат, 1997. – Б.235-237.

## BUXORODA GIDLIK VA TURIZM: SHAHARNING TARIXIY MEROSIGA NAZAR (SOMONIYLAR MAQBARASI MISOLIDA)

*Durdona Jamolova*

*Buxoro davlat universiteti magistri*

**Annotatsiya.** mazkur maqolada Buxorodagi gidlik va turizm sohasida muhim o'rin tutgan, ko'plab sayyohlarni o'zining noyob xususiyatlari bilan jalb etib kelayotgan Somoniylar maqbarasining tarixiy va turistik ahamiyati bayon qilinadi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi yillarida (1920-1924 yillar) matbuot jonkuyarlaridan biri bo'lgan, "birinchi muharrir" nomi bilan tarixga muhrlangan Mahmud Said Ahroriyning "Ismoil Somoniyning sag'anasi (X asr yodgorligi)" nomli salmoqli maqolasining amaliyotchi gidlar uchun manbaviy roli xususida mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** betakror me'moriy obida, gidlik xizmati, amaliyotchi gidlar, birinchi muharrir, soyali chiziqlar, inqilob davri.

**Annotation.** This article discusses the historical and touristic significance of the Samanid Mausoleum, which plays an important role in Bukhara's guiding and tourism sector and attracts numerous tourists with its unique features. Considerations are given to the article "Ismail Samani's Tomb (a 10th-century Monument)" by Mahmud Said Ahroriy, one of the press enthusiasts during the years of the Bukhara People's Soviet Republic (1920–1924) and known in history as the "first editor," regarding its role as a source for practical guides.

**Keywords:** unique architectural monument, guiding service, practical guides, first editor, shadow lines, revolutionary era.

**KIRISH.** Buxoroning moddiy va ma'naviy boy madaniyati barcha davrlarda hammani o'ziga maftun qilib kelgan. Chunki Buxoro "Turkiston mintaqasining beshigi" deb tanilib, 2500 yillik tarixiy shaharlardan biri sifatida ko'p asrlar davomida sivilizatsiya markazi vositasini bajargan. Ayniqsa, o'rta asrlarda Buxoro shahri va ular atrofida bunyod etilgan tarixiy, betakror obidalar ularning musulmon dunyosidagi o'rni va roli beqiyos bo'lganligini anglatadi.

IX-XII asrlarda Buxoro nafaqat Sharqda, qolaversa, butun dunyoda ilm va madaniyatning ulug' bir maskaniga aylangan. Ayni ushbu asrlarda iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik somoniylar va qoraxoniylar davri hukmdorlarining olimlar va me'morlarga homiylik qilishi ular tomonidan yaratilgan ilmiy kashfiyotlarga, har bir qurilgan betakror me'moriy obidalarga ijobiy munosabat sifatida hukmdorlar ularning bunyodkorlariga hadya va sovg'alar ulashganlar. Buning natijasi esa shundayki, bugungi kunda Buxoro o'zining me'morchilik san'ati va betakror jamoli bilan minglab sayyohlarni jalb qilmoqda. Ko'hna shaharning ko'p asrlik tarixiy me'moriy yodgorliklari turizm rivojiga ham katta rol o'ynamoqda. Turistik faoliyatning ajralmas bo'lagi hisoblangan Gidlik xizmati esa sayyohlarga shaharning tarixiy va madaniy merosini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Mazkur maqolada Buxorodagi gidlik va turizm sohasida muhim o'rin tutgan, ko'plab sayyohlarni o'zining noyob xususiyatlari bilan jalb etib kelayotgan Somoniylar maqbarasining ahamiyatli jihatlari tahlil qilinadi.

**ASOSIY QISM.** Buxoro har yili minglab mahalliy va xorijiy sayyohlarni o'zining noyob me'moriy yodgorliklari, tarixiy majmualari va qadimiy bozorlari bilan lol qoldirmoqda. Shaharning bir necha me'moriy yodgorliklari Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan, madaniyat, ta'lim sohasiga ixtisoslashgan YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, bu uning

butun dunyoda turistik ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, xorijiy sayyohlarning tashrifida mamlakatimizdagi tinch va barqaror taraqqiyot ham muhim omil hisoblanadi.

Turistlar Buxoroga kelganda tarixiy majmualarni va yodgorliklarni chuqurroq tanishlari va yanada ko'proq taassurotga ega bo'lishlari uchun gidlik xizmatlaridan foydalanadilar. Hozirda Buxoro shahrida faoliyat ko'rsatayotgan gidlik xizmati professional va amaliyotchi gidlarga bo'linadi. Professional gidlar tomonidan sayyohlarga shahar haqida qiziqarli va aniq ma'lumotlar yetarli hisoblanadi. Amaliyotchi gidlar esa tajriba o'rganish bilan bir qatorda tarixiy yodgorliklarni, masalan, Somoniylar maqbarasi haqida qo'shimcha manbalar asosida tayyorgarlik ko'rish bosqichini amalga oshirishlari kerak. Bu o'rinda Buxoro me'moriy yodgorliklarining gultojilaridan biri hisoblangan Somoniylar maqbarasi haqida qo'shimcha tarixiy bir hujjat asosida amaliyotchi gidlar uchun quyida muhim materiallar tavsiya beriladi.

Bugungi kunda o'zining qurilish san'ati va betakror jamoli bilan ming-minglab sayyohlarni o'ziga jalb qilayotgan Buxoro hukmdorlari qarorgohi Ark, Somoniylar maqbarasi, Minorayi Kalon kabilar yuqorida qayd qilingan asrlarning me'moriy gultojilaridir. Shuning uchun moddiy va ma'naviy tariximiz haqida yurtdoshlarimizdan qaysi biri biror-bir kalom aytishga jazm qilar ekan, o'z ona yurti tarixiy osori-atiqalari haqidagi fikrlarni marjon shodalaridek oq qog'ozga tushirar ekan, mo'jizakor obidalar qurilish san'ati, tarixi, musulmon va Sharq me'morchiligidagi mavqeyi haqida faxr va ehtiros bilan yozadi [1].

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi yillarida (1920-1924 yillar) matbuot jonkuyarlaridan biri bo'lgan, "birinchi muharrir" nomi bilan tarixga muhrlangan Said Ahroriyning[2] "Ismoil Somoniyning sag'anasi (X asr yodgorligi)" nomli salmoqli maqolasi tahlili haqidadir. Avvalo, maqolani chop etilishi bilan bog'liq masalaga bir qadar aniqlik kiritsak.

Said Ahroriyning nomi zikr qilingan maqolasi "Ozod Buxoro" gazetasining "Tarix va osori-atika" rukni ostida chop etilgan bo'lib, u gazetaning 1924-yil 27- sentyabrdagi 146-sonidan o'rin olgan [3]. Ushbu maqolani yozishga muallifni aynan BXSР yillarida Buxoro tarixiy obidalarini o'rganish, asrab-avaylash va ularni kelajak avlodga yetkazish, bu borada ta'mirlash ishlarini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilganligi undagan. "Buxoro inqilobi" davrida shahar ichidagi tarixiy obidalarining anchasi shikast ko'rgan. Og'ir iqtisodiy ahvol va siyosiy vaziyatga qaramay, BXSР Nozirlar Kengashi Buxoroni ko'rki bo'lgan obidalarini ta'mirlash va yangidan tiklash uchun ma'lum miqdorda mablag' ajratgan. BXSР Maorif xalq nozirliги huzurida tashkil qilingan tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish uchun maxsus shu'ba bu davrda katta ishlarni amalga oshirgan. Ushbu sho'ba ishida, ayniqsa, Abdurahim Yusufzoda faollik ko'rsatgan. Uning tashabbusi bilan 1924 yil 1 avgustda Moskvada Buxorodagi mavjud tarix va madaniy obidalarini ta'mirlash bo'yicha shartnoma tuzilgan [4].

Aftidan, qalamkashlik tajribasiga ega bo'lgan, o'tmishni chuqur bilgan shaxslardan biri Said Ahroriy hukumatni va jamoatchilikni e'tiborini shu imkoniyatdan foydalanib, Ismoil Somoniy maqbarasiga qaratgan. Maqolada: "Ismoilning (hukmronlik yillari: 874-907) buyrug'i bilan juda yaxshi ziynatlangan muhtasham, shohona bino soling'ondur, tarixning guvohligiga ko'ra, bu joy chiroyli bog'lar, ko'rkam hovuzlar, gulzor va fontanlar hamda doimo oqib turg'on ariqlar bilan qurshalg'on bo'lib, juda jozibali koshona bo'lg'ondur" [3],- deb yozadi muallif.

Said Ahroriy Ismoil Somoniyning xo'jalik va obodonchilik sohasidagi xayrli ishlarini birma-bir sanab chiqadi. Sun'iy sug'orish sohasiga alohida e'tibor qaratilganligi, shahar obodonchiligi yo'lida bog'u-rog'lar barpo etilganligi, madrasalar, masjid va xonaqolar qurilganligi haqida g'urur bilan yozadi. "Biroq, - deydi muallif, - ularning ko'pchiliklari zamonlar o'tishi bilan tarix qa'rig'a

ketdi. Birdan-bir o'sha davr yodgorligi Somoniy sag'anasi hozirg'acha yo'qolmag'an bir atiqadur. U qimmatini nazar diqqatlarni jalb etg'on, arab va fors me'morchilig'ining qo'shilishidan paydo bo'lg'on bir usul kabi ko'rinsa-da, butunlay boshqacha bir ko'rinish arz etadur". Bu obida haqida yozar ekan, Said Ahroriy bunday me'morchilik san'ati usuli betakror ekanligi, o'ziga xosligi, bino oddiy bo'lib ko'rinsa-da, g'ishtlari juda san'atkorona, to'g'ri, tekis va zalvorli terilganligi bilan ajralib turishiga e'tiborni qaratadi. O'rta asrlarda pishiq g'ishtdan binolar barpo etish an'anasi shakllanganligi, g'ishtlarning devordan bir qadar chiqib turishi, bu esa soyali chiziqlar hosil qilishi barobarida tamoman o'zgacha latif bir shakl berishini sinchkovlik bilan ilg'ay olgan.

Maqola matni bilan tanishar ekanmiz, S.Ahroriy Somoniy maqbarasining qurilish usulini undan ikki asr keyin qurilgan Minorayi Kalon shakli bilan chog'ishtiradi. "Ismoilning sag'anasig'a qarag'anda minorning g'ishtlari devoridan tashqarig'a juda oz chiqqondur. Ismoilning sag'anasida esa bu g'ishtlar juda ko'p ilgari chiqib, bundan hosil bo'lg'on soyali chiziqlar binog'a tamoman boshqacha bir shakl beradur", - deb yozadi muallif. Bu o'rinda ta'kidlash joizki, minora "inqilob davri"da ko'p shikast ko'rgan. Shuning uchun Said Ahroriy Somoniylar maqbarasi Minorayi Kalonga nisbatan yaxshiroq saqlanganligiga alohida urg'u beradi.

Somoniylar maqbarasi tarixning nodir me'moriy obidasi ekan, uning ko'rinishini saqlash, ko'zga yaqqol tashlanib turishiga erishish uchun obidaning latofatini yanada jozibali qilib ko'rsatishga xizmat qiladigan tavsiyalarni ham maqola matnidan o'rin olganligi uning ilmiy qimmatini oshirgan. S.Ahroriy shaxsiy tavsiyalariga ko'ra, keyingi asrlarda maqbara oldida bunyod etilgan uy (bino)lardan biri tarixiy obidaning to'laligicha ko'zga tashlanishiga to'siq bo'lib qolganligi, o'sha imoratni ehtiyotkorlik bilan olish kerakligi qayd etiladi. "Shunda, - deb yozadi Said Ahroriy, - Ismoil sag'anasining ko'rar ko'zdan yashiring'on tarafi ochilib, butun nafosatini arz eta oladur". Ikkinchidan, asrlar davomida sag'ana qanchalik mustahkam qurilmagan bo'lmasin, uning shikasta bo'lgan, sal nuragan joylarini ta'mir etish zarur deb hisoblanadi.

"Yana bir vazifa - binoni ozoda tutib qubbasining ustidagi laylak uyasi tezdan ko'tarilgan taqdirda osori-atiqamizga hurmat etilg'on bo'lur edi", - degan fikrlar bilan maqolaga so'nggi nuqta qo'yiladi.

Bundan bir asr muqaddam yozilgan S.Ahroriyning maqolasi Somoniylar maqbarasining o'sha davrdagi holati va ko'rinishi haqida ma'lumot berishi bilan qimmatli manbadir. Maqola matnining chuqur tahlili shuni ko'rsatadiki, u 3 qismdan iborat.

Maqolaning birinchi qismida muallif I.Somoniy yashagan tarixiy davr, hukmdorning moddiy va ma'naviy madaniyat rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi, bunyodkorlik faoliyati haqida fikr bildiradi.

Ikkinchi qismida esa maqbaraning Buxoro tarixiy obidalari orasidagi beqiyos o'rni, qurilish uslubi va san'ati, bundan yuz yillar oldingi ahvoli haqida fikr va mushohada yuritiladi.

Nihoyat, maqola so'nggi qismida Somoniylar maqbarasini asrab-avaylash, butunligi va jozibadorligini saqlash haqida aniq tavsiyalar beriladi.

BXSR yillarida Buxorodagi Somoniylar maqbarasi singari tarixiy obidalarining ta'mirlashdek qutlug' ishlar to'laligicha bajarilmadi. Istiqloq tufayli moddiy va ma'naviy boyliklarimiz xalqimizga qaytarildi. Tarixiy obidalarga, qadriyatlarimizning muhim bir bo'g'ini sifatida qaralib, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi va Minorayi Kalon Butunjahon nodir obidalari ro'yxatiga kiritilganligi S.Ahroriy singari ajdodlarimizning orzu-umidlari amaliyot ko'zini ochganligi bilan bir asrlik tarixiy dovon orqali bizni bog'lab turibdi [5].

**XULOSA.** Yuqoridagi tarixiy matnlar amaliyotchi gidlar uchun Somoniylar maqbarasi tanishtirilayotganda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur me'moriy yodgorlik sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan joylardan biri bo'lib, doimiy takrorlanuvchi har xil hikoya va rivoyatlardan ko'ra manbaviy materiallarning berilishi turistlar oldida uning jozibadorligini oshiradi. Chunki sayyohlarga ilmiylik, xolislik, tarixiylik asosida to'g'ri va qiziqarli tarzda yodgorliklarning tanishtirilishi gidlik xizmati samaradorligini yanada oshiradi. Buxoro shahrida turizm va gidlik sohasini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy daromad keltiradi, balki milliy merosimizning dunyo miqyosida tanilishiga ham asos bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hayitov va b. Buxoro va buxoriylarning jahoniy shuhrati. Monografiya. –Toshkent: Navro'z" nashriyoti, 2020.–B.86.
2. Mahmud Said Ahroriy 1895-yilda Arabistonda tug'ilgan. 1920-yilning kuzida Buxoroga keladi va Yosh buxoroliklar partiyasiga a'zo bo'lib kiradi. Shu vaqtdan boshlab, BXSРning yagona matbuot organi "Buxoro axbori" gazetasida muharrir vazifasida xizmat qiladi. 1921-yil iyundan BXSРning Ozarbayjondagi konsuli bo'lib ishladi. Buxoroga qaytgach, 1923-1924-yillar davomida "Ozod Buxoro" gazetasida muharrir o'rinbosari va davlat nashriyoti rahbari lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1925- yildan Said Ahroriy Samarqandda moliya-iqtisod texnikumida o'qituvchilik qilgan. 1930-yil 12-noyabrda aynan shu yerda hibsga olingan. 1931-yil 23-mayda Moskva shahrida RSFSR jinoyat majmuasining 58-moddasi 4-bandi bilan otuvga hukm etilgan. O'limidan so'ng oqlangan.
3. Said Ahroriy. Ismoil Somoniyning sag'anasi (X asr yodgorligi) // "Ozod Buxoro". 146-son. 1924-yil 27-sentyabr.
4. O'zbekiston tarixi (1917 – 1991). Ikkita kitob. Birinchi kitob. 1917 – 1939 yillar. Mas'ul muharrir: Q.K. Rajabov. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B.163-164.
5. Hayitov Sh.A., Badriddinov S., Raxmonov K.J. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi: iqtisodiyoti, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2005. – B.83.

## O'zbekistonning transport koridorlarini rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlari, Markaziy Osiyoda transport koridorlarini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar

**Azimov Hazratqul Muzaffarovich**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** So'nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar O'zbekistonning tranzit salohiyatini sezilarli darajada oshirdi va mamlakatni xalqaro transport koridorlarining muhim bo'g'iniga aylantirdi. Temir yo'l tarmog'ining kengayishi nafaqat tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, balki ichki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan mamlakat sifatida G'arb-Sharq va Shimol-Janub yo'nalishlarida tranzit aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Saryog'och chegara punkti, Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'nalishi va Shimoliy Trans-Osiyo yo'lagi mamlakatning global logistika tizimidagi strategik o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, TKXTY yo'nalishining qisqa muddatda yetkazib berish imkoniyati, Shimoliy Trans-Osiyo yo'lagining qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, kimyo va metall eksportidagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Kelgusida temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, chegara tartib-taomillarini soddalashtirish, raqamlashtirish va quruq portlar bilan integratsiyalashish O'zbekistonning mintaqaviy va xalqaro transport tizimidagi yetakchi o'rnini yanada kuchaytirishi kutilmoqda.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, temir yo'l tarmog'i, tranzit salohiyati, xalqaro transport koridorlari, G'arb-Sharq yo'nalishi, Shimol-Janub yo'nalishi, Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'nalishi (TKXTY), Shimoliy Trans-Osiyo yo'lagi, logistika, tranzit transport, Saryog'och chegara punkti, eksport-import, quruq portlar, infratuzilma modernizatsiyasi, raqamlashtirish.

**Annotation.** Large-scale measures implemented in recent years have significantly increased the transit potential of Uzbekistan and turned the country into an important link in international transport corridors. The expansion of the railway network serves not only as a factor in the development of foreign economic relations, but also as an important factor in ensuring the socio-economic development of internal regions. As a landlocked country, Uzbekistan pays special attention to the development of transit relations in the West-East and North-South directions. The Saryogoch border crossing, the Trans-Caspian international transport route and the Northern Trans-Asian corridor serve to strengthen the country's strategic position in the global logistics system. In particular, the short-term delivery capabilities of the TKXTY route and the importance of the Northern Trans-Asian corridor in agricultural, textile, chemical and metal exports are emphasized. In the future, modernization of railway infrastructure, simplification of border procedures, digitalization and integration with dry ports are expected to further strengthen Uzbekistan's leading position in the regional and international transport system.

**Keywords.** Uzbekistan, railway network, transit potential, international transport corridors, West-East direction, North-South direction, Trans-Caspian international transport route (TCTR), Northern Trans-Asian corridor, logistics, transit transport, Saryogoch border crossing, export-import, dry ports, infrastructure modernization, digitalization.

**KIRISH.** So'nggi yillarda amalga oshirilgan yalpi chora-tadbirlar O'zbekistonning tranzit salohiyatini sezilarli darajada oshirishga, mamlakatni xalqaro transport koridorlarining muhim

bo'g'iniga aylantirishga imkon yaratmoqda. Temir yo'l tarmog'ining kengayishi mamlakat uchun nafaqat tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida, balki ichki hududlarni rivojlantirishda ham yangi istiqbollarni ochmoqda. Temir yo'l aloqasining rivojlanishi tabiiy zahiralarni rivojlantirish jarayonini tezlashtirishga, mineral xom ashyoni samarali tashishni ta'minlashga imkon yaratadi, shuningdek hududlarning muvozanatli rivojlanishiga yordamlashadi. Milliy temir yo'l tarmog'iga yangi yo'nalishlarning kiritilishi chekka hududlardagi sanoat markazlari, savdo bozorlari va xalqaro transport bo'g'inlariga kirishni yaxshilaydi, bu esa mamlakatning iqtisodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**NATIJAR VA MUHOKAMA.** O'zbekiston dengizga chiqish imkoni bo'lmagan mamlakat sifatida o'zini asosiy savdo sheriklari bilan bog'laydigan xalqaro temir yo'l koridorlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. So'nggi yillarda ikkita strategik tranzit yo'nalishi – G'arbiy–Sharqiy (Xitoyning Yevropa bilan aloqasi) va Shimoliy–Janubiy (Eron, Hind okeani va Janubiy Osiyo tomon yo'nalishlar) ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi. G'arb - Sharq koridori doirasida O'zbekiston Xitoy, Qozog'iston, Turkmaniston va Kavkaz mamlakatlari o'rtasida yuk tashishda muhim rol o'ynaydi. Jumladan, Qozog'iston orqali temir yo'l yo'nalishi (Do'stlik – Olmaota – Toshkent) Yevropaga yetkaziladigan Xitoy tovarlari uchun asosiy yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston temir yo'l tarmog'i tarkibida xalqaro qatnovning yuqori ulushi (qariyb 50%) hisobga olinsa, mamlakat global logistika tashabbuslari orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan muhim tranzit salohiyatiga egadir.

O'zbekistonda transchegaraviy temir yo'l transportining asosiy yo'nalishi Toshkent yaqinida joylashgan Sariog'och chegara punkti orqali Qozog'iston temir yo'l tarmog'iga ulanishdir. Ushbu tarmoq Markaziy Osiyo, Rossiya, Xitoy va Yevropa o'rtasida tovarlar harakatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki u orqali eksport-import va tranzit oqimlarining katta qismi o'tadi. Ushbu yo'nalishning ahamiyati nafaqat uning geografik joylashuvi, balki infratuzilmaning rivojlanish darajasi bilan ham belgilanadi, bu esa konteyner va vagonlarni tashishni yuqori tezlik hamda minimal xarajatlar bilan amalga oshirishga imkon beradi.

Rossiya orqali o'tadigan an'anaviy Shimoliy koridorga muqobil bo'lgan Trans-Kaspiy xalqaro Transport yo'nalishi (TKXTY -TMTM) O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi temir yo'l aloqasini ta'minlash uchun faol qo'llanilmoqda. (TKXTY -TMTM) ning asosiy afzalligi - yetkazib berish muddati qisqaroqligida bo'lib: agar Xitoy va Yevropa o'rtasida an'anaviy dengiz transporti harakati 40-45 kun davom etsa, Trans-Kaspiy yo'nalishida bu muddat 15-20 kungacha qisqaradi.

Shu bilan birga, O'zbekistondan yuk oqimining katta qismi Rossiya va Shimoliy Yevropaga Shimoliy Trans-Osiyo koridori orqali boradi, bu o'zbek tovarlarini Yevroosiyo iqtisodiy Ittifoqi (YEOII) mamlakatlariga, undan keyin esa Yevropa Ittifoqiga tashishning eng an'anaviy yo'lidir. Ushbu yo'nalish ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik, kimyo va metallarni eksport qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa O'zbekistonning iqtisodiy aloqalari uchun o'ta muhimdir. Biroq, so'nggi yillarda Rossiyaga qarshi sanksiyalar cheklovlari va logistika silsilalaridagi o'zgarishlar tufayli ba'zi kompaniyalar Kaspiy dengizi va Turkiya orqali muqobil koridorlardan foydalangan holda o'z yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishni afzal ko'rishmoqda. Shunga qaramay, O'zbekistonning Yevropaga eksportining qariyb 60 foizi Shimoliy Trans-Osiyo yo'lagi orqali o'tishda davom etmoqda, bu uning mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati uchun muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston temir yo'l tarmog'i G'arb-Sharq va Shimol-Janub yo'nalishlar bo'ylab strategik transport aloqalarini ta'minlagan holda Markaziy Osiyo, Xitoy, Rossiya va Yevropa o'rtasidagi tranzit tashishda Markaziy rol o'ynaydi. Sariogoch o'tish joyidan foydalanish, Trans-Kaspiy yo'nalishi va Shimoliy Trans-Osiyo yo'lagiga qo'shilish mamlakatga xalqaro logistika tizimida o'zining barqaror mavqeini saqlab qolish imkonini beradi. Kelgusida temir yo'l infratuzilmasini yanada modernizatsiya qilish, chegara tartibini takomillashtirish va logistikani raqamlashtirishga investitsiyalarni jalb qilish O'zbekistonga tranzit imkoniyatlarini sezilarli darajada mustahkamlash va Yevroosiyo asosiy temir yo'l xablaridan biriga aylanish imkonini beradi.

Xalqaro temir yo'l uzellarini kengaytirish va mintaqadagi eng yirik quruq portlar bilan integratsiyalashish O'zbekiston temir yo'l tarmog'ini kelajakda rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Yana bir istiqbolli yo'nalish-Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'l koridorini rivojlantirish bo'lib, u Xitoy tovarlarini Markaziy Osiyoga, undan keyin esa Turkiya va Yevropaga yetkazib berishning muqobil yo'nalishiga aylanishi lozim.

Tranzit salohiyatining o'sishi bir necha asosiy omillarga bog'liqdir. Birinchidan, O'zbekistonning davlat siyosati temir yo'llar, avtomobil yo'llari va logistika terminallarini rekonstruksiya qilishni o'z ichiga olgan transport koridorlari infratuzilmasini kengaytirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan. So'nggi yillarda qo'shni davlatlar va xalqaro xabar bilan samarali aloqani ta'minlaydigan yangi temir yo'l liniyalarini qurish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar boshlandi. Bunday loyihalarni amalga oshirish yuk tashish vaqti va xarajatlarini sezilarli darajada qisqartiradi, bu esa O'zbekiston hududidan o'tuvchi transport yo'nalishlarining raqobatbardoshligini oshiradi. Ikkinchidan, transport sohasiga investitsiyalar logistika jarayonlarini raqamlashtirishga qaratilgan bo'lib, bu "aqli" logistika rivojlanishining global tendensiyalariga hamda transportni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishga mos keladi.

O'zbekiston Yevroosiyo mintaqasidagi asosiy transport arteriyalaridan biri bo'lgan Shimol-Janub xalqaro koridorning rivojlanishini, birinchi navbatda, milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyati tufayli qo'llab-quvvatlaydi. Globallashuv va transport oqimlari uchun raqobatning kuchayishi sharoitida mamlakatlar logistika yo'nalishlarini optimallashtirishga intilmoqda, bu esa tranzit yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishni va yanada samarali infratuzilmani yaratishni talab qiladi.

Birinchiidan, ushbu koridorning rivojlanishi O'zbekistonning iqtisodiy manfaatlariga mos keladi, chunki u tovarlarni eksport va import qilishning muqobil yo'nalishlarini taqdim etadi. Ikkinchiidan, ushbu transport koridori O'zbekistonning tranzit salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va bu mamlakatning Markaziy Osiyoda muhim logistika xabiga aylanishiga yordam beradi. Uchinchiidan, Shimol-Janub yo'lakni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston manfaatlariga mos keladi, chunki bu ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va mintaqaviy va mintaqalararo aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, "Shimol-Janub" loyahasini amalga oshirish investitsiya faolligini rag'batlantiradi, chunki yangi transport yo'nalishlarini yaratish logistika markazlarini modernizatsiya qilishni, temir yo'l va avtomobil infratuzilmasini rivojlantirishni, yuk tashish sohasida raqamli yechimlarni joriy etishni talab qiladi. Shu munosabat bilan O'zbekistonning ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlashi mintaqada barqaror iqtisodiy o'sish hamda transportdan foydalanish imkoniyatini oshirishning uzoq muddatli maqsadlariga mos keladi.

Ushbu yo'nalishda O'zbekiston Eron bilan hamkorlikni faol rivojlantirmoqda, temir yo'l aloqalarini modernizatsiya qilish va kengaytirish loyihalarida ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi xalqaro transport koridorlaridagi mavqeini mustahkamlash mamlakatning jahon savdo tarmoqlariga iqtisodiy, geosiyosiy va logistik integratsiyasiga qaratilgan qator strategik vazifalarni hal etish uchun fundamental asos yaratadi. O'zbekiston qulay geografik joylashuvga ega bo'lgan mintaqadagi eng yirik davlatlardan biri sifatida transport aloqasini o'zining uzoq muddatli milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarishning asosiy omili sifatida ko'rmoqda.

Xalqaro transport koridorlarida ishtirok etish orqali O'zbekistonning strategik manfaatlarini ilgari surish bir qancha muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, bu tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va savdo yo'llarini diversifikatsiya qilish bo'lib, bu cheklangan miqdordagi sheriklarga qaramlikni kamaytiradi va milliy mahsulotlarni eksport qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ikkinchidan, bu temir yo'llar, avtomobil yo'llari, logistika markazlari va multimodal markazlarni modernizatsiya qilishga hissa qo'shadigan transport infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilishni o'z ichiga oladi.

Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish doirasida tranzit salohiyatini mustahkamlash, tashqi savdo operatsiyalarini soddalashtirish va tranzit yuk tashish hajmini oshirish uchun "yashil koridorlar" yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Kaspiy bo'yi davlatlarining Aktau hamda Turkmanboshi kabi portlaridan tovarlarni eksport va import qilish uchun faol foydalanishni rejalashtirmoqda. Qozog'iston va Turkmaniston bilan birgalikda logistika markazlarini yaratish hamda port infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa tovarlarni yetkazib berish vaqti va narxini kamaytirishga yordam beradi. 2024-yil noyabr oyida O'zbekiston delegatsiyasi Aktau tijorat dengiz porti Milliy kompaniyasi bilan Kaspiy dengizi bo'ylab eksportni tashkil etish bo'yicha muzokaralar o'tkazdi. Uchrashuv yakunlariga ko'ra konteyner tashish va tovar tranzitini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik hamda qo'shma loyihalarni amalga oshirish to'g'risida bitim imzolandi<sup>20</sup>.

Ushbu bitim O'zbekiston uchun o'zining geografik joylashuvi va turli transport koridorlari, shu jumladan Kaspiy dengizi orqali eksport salohiyatini rivojlantirish muhimligini hisobga olgan holda strategik ahamiyatga egadir.

Birinchidan, bu hamkorlik O'zbekistonning tashqi savdo yo'llarini diversifikatsiyalashga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, Kaspiy dengizi orqali konteyner tashishning rivojlanishi O'zbekistonning xalqaro bozorlarga eksportining o'sishini rag'batlantiradi.

Uchinchidan, ushbu loyiha O'zbekistonning tranzit salohiyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, Qozog'iston bilan hamkorlik O'zbekistonga Kaspiy dengizi sohilida joylashgan Eron, Ozarbayjon va Turkiya kabi yirik xalqaro portlar hamda bozorlarga chiqish imkonini beradi. Bu iqtisodiy integratsiya, tashqi savdoni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Shu bilan birga, ushbu bitimning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu mintaqqa mamlakatlari o'rtasida barqaror va o'zaro manfaatli mintaqaviy integratsiyani

<sup>20</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2025/08/22/kaspiy/>

shakllantirishda O'zbekistonning strategik manfaatlariga javob beradigan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

O'zbekiston mintaqa transport-logistika tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan Turkmanboshi xalqaro dengiz portidan ham faol foydalanmoqda. Turkmanboshi porti bilan faol hamkorlik mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Birinchidan, Turkmanboshi porti O'zbekistonning eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishning strategik bo'g'iniga aylanishi mumkin.

Ikkinchidan, Turkmanboshi porti o'zbek tovarlarining transport samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Uchinchidan, Turkmanboshi porti O'zbekistonga "Shimol – Janub" va "Sharq - G'arb" kabi transmintaqaviy koridorlarni yaratish tashabbuslarida faol ishtirok etish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston ushbu yo'nalishni xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishning muhim yo'nalishi sifatida ko'rmoqda.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O'zbekiston transport integratsiyasi masalalarini muhokama qilishda ishtirok etmoqda. Xususan, tariflarni uyg'unlashtirish, tartibotlarni standartlashtirish hamda yuk tashish uchun "yashil koridorlar" ni yaratishga urg'u berilmoqda. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida transport sohasida tuzilgan eng muhim kelishuvlardan biri "TTDga a'zo mamlakatlar o'rtasida xalqaro kombinatsiyalangan yuk tashish to'g'risidagi bitim" va "Transportga o'zaro bog'liqlik dasturi" bo'ldi. Ikkala hujjat ham 2022-yil 11-noyabrda Tashkilotning 9-sammiti davomida imzolangan edi.

"Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" temir yo'l koridorining amalga oshirilishi transport infratuzilmasini rivojlantirish, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va mintaqaviy hamda xalqaro savdo yo'llariga integratsiyalashuv uchun keng istiqbollarni ochib beradi. Xitoy, Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasida 2022-yil sentabr oyida imzolangan hamkorlik shartnomasi<sup>21</sup> natijasi bo'lgan ushbu loyiha ishtirokchi davlatlarning tranzit salohiyatini mustahkamlaydigan strategik muhim tashabbusdir. Temir yo'l Janubiy-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq, Turkiya va Yevropa Ittifoqi bozorlariga kirishni ta'minlaydigan Yevroosiyo kontinental ko'prigi Janubiy filialining bir qismiga aylanadi. "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" loyihasi nafaqat Xitoydan Markaziy Osiyoga samarali yuk yetkazib berish yo'lini yaratadi, balki G'arbiy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalari bilan savdoni kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochadi. Temir yo'lning ishga tushirilishi bilan savdoni oshirish, transport xarajatlarini kamaytirish va logistikani optimallashtirish mumkin bo'ladi, bu globallashtirish va jahon savdosining o'sishi sharoitida ishtirokchi mamlakatlar uchun ayniqsa muhimdir.

O'zbekiston Ozarbayjonning Zangezur yo'lagi loyihasini amalga oshirish tashabbusini qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Zangezur koridori Yevroosiyo mintaqasida yangi transport va logistika arxitekturasini shakllantirishda strategik rol o'ynaydigan muhim infratuzilma loyihasidir. Uni amalga oshirish Markaziy Osiyo, Kavkaz va Yevropada transport tizimlari integratsiyasining asosiy bo'g'ini bo'lib, tovarlarning yanada samarali va tez harakatlanishini ta'minlaydi.

Eron va O'zbekiston mintaqadagi eng yirik ikki davlat bo'lib, ular oldida mintaqaviy tinchlik va barqarorlikni o'rnatishdek muhim vazifa turibdi.

---

<sup>21</sup> "Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezident Qarori, PQ-247-son, 08.07.2024.

O'zbekiston Eron bilan qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikni yanada izchil va samarali kengaytirishdan manfaatdor ekanligini ifodalamoqda. Hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari qatoriga siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalar kiradi, ularning har biri ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashda strategik ahamiyatga egadir.

2022-yilda O'zbekiston mamlakatga Eron Janubiy-Sharqidagi Chabahor portiga kirish huquqini beruvchi bitimni imzoladi<sup>22</sup>. Bitimdan maqsad - Afg'oniston, Hindiston va Eron o'rtasida Eronning Chabahor porti orqali yuk tashish uchun yangi transport koridorini yaratishdir. Chabahor tranzit yo'lini Kavkaz va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan bog'lab, Eron Suvaysh kanali orqali dengiz yo'liga muqobillik taklif qiladi. Bu, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqa olmaydigan O'zbekiston uchun o'ta zarurdir. Chabahor ushbu mamlakatlarga port infratuzilmasidan tovarlarni eksport va import qilish uchun foydalanishga imkon beradi hamda shu bilan transport xarajatlarini kamaytiradi va yetkazib berish muddatini qisqartiradi. Bundan tashqari, Port Afg'oniston, Hindiston va boshqa Janubiy Osiyo mamlakatlariga kirishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, bu esa uni Eronning geosiyosiy strategiyasining muhim unsuriga aylantiradi. Bu port, shuningdek, Eronni Rossiya, Hindiston va Yevropa bilan bog'laydigan "Shimol-Janub" xalqaro transport yo'lagiga birlashtirilgan. Ushbu koridor savdo yo'llarini diversifikatsiya qilish va Rossiya va Xitoy orqali o'tadigan an'anaviy yo'nalishlarga qaramlikni imkon qadar kamaytirishga intilayotgan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun strategik koridor hisoblanadi.

Eronda, ayniqsa Chabahor va Bandar Abbas portlarida logistika markazining tashkil etilishi O'zbekistonga dengiz yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatini beradi<sup>23</sup>. Bu O'zbekiston tovarlarini Janubiy Osiyo, yaqin Sharq va boshqa mintaqalar, jumladan, Yevropa bozorlariga yetkazib berish vaqti va narxini sezilarli darajada qisqartirishga imkon yaratadi. Bizning fikrimizcha, ushbu markaz transport operatsiyalarini, shu jumladan saqlash, qayta taqsimlash va yuklarni qayta ishlashni optimallashtirishi mumkin. Bu O'zbekiston eksportchilari va importchilarining xarajatlarini kamaytiradi, bu esa o'z navbatida O'zbekiston mahsulotlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonning Kaspiy mintaqasi davlatlari bilan transport-tranzit sohasidagi hamkorligi mamlakat tashqi siyosiy faoliyatining strategik muhim yo'nalishi hisoblanadi. "Shimol-Janub", YEKOTK (TRASEKA) va O'rta koridor kabi xalqaro transport koridorlarining rivojlanishi O'zbekistonning Yevropa, yaqin Sharq va Janubiy Osiyo bilan iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashga imkon yaratmoqda. Kaspiy dengizi portlaridan, shu jumladan Aktau, Turkmanboshi va Bokudan foydalanish eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish, logistika xarajatlarini kamaytirish hamda tranzit yuk tashishni ko'paytirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Hamkorlikni muvofiqlashtirishning asosiy mexanizmlaridan biri mintaqaviy va xalqaro maydonlarda maslahat uchrashuvlari bo'lib, unda istiqbolli infratuzilma loyihalari, moliyalashtirish mexanizmlari hamda bojxona tartib-qoidalarini birlashtirish muhokama qilinadi. Markaziy Osiyo xalqaro moliya institutlari va global iqtisodiy sheriklar, jumladan Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Turkiya, yaqin Sharq mamlakatlari va YEKOTK (TRACECA), YEOII, SHHT va IHT kabi xalqaro

<sup>22</sup> <https://gov.uz/oz/news/view/59242>

<sup>23</sup> <https://mintrans.uz/uz/news/eron-bilan-transport-sohasida-hamkorlikni-rivozhlantirish-bojicha-kelishuvlarga-erishildi>

tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari o'rtasida doimiy muloqotni shakllantirish, transportni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini muvofiqlashtirish va xalqaro infratuzilma tashabbuslarini muvofiqlashtirishni o'z ichiga olgan Markaziy Osiyoda Transport kommunikatsiyalari bo'yicha Mintaqaviy kengash tuzish taklifi ayniqsa muhim qadam bo'ldi. Ushbu mexanizm tranzit siyosatining shaffofligini oshiradi, yuk tashishdagi to'siqlarni imkon qadar kamaytiradi hamda qo'shimcha investitsiyalarni jalb qiladi.

Ushbu ijobiy qadamlarga qaramay, mintaqada transport koridorlarini samarali rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan bir qator tizimli muammolar mavjud.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyati yo'qligi sababli katta logistika xarajatlariga duch kelmoqdalar, bu ularning xalqaro bozorda raqobatdosh ustunliklarini sezilarli darajada cheklab qo'ymoqda. Transportning yuqori narxi va tranzit protseduralarining murakkabligi eksport mahsulotlarining narx shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ularning xorijiy sheriklar uchun jozibadorligini pasaytiradi. Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni faol rivojlantirayotgan O'zbekiston uchun ayniqsa muhim bo'lgan bojxona tartibotlarining samarasizligi transport vaqtini va narxini oshiruvchi qo'shimcha omil hisoblanadi.

Transport vaqtlarini taqqoslash Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalar o'rtasidagi sezilarli farqlarni ham ko'rsatadi. Muammo mintaqadagi mamlakatlarning tarif siyosatidagi nomutanosiblik bilan yanada murakkablashadi. Tranzit tovarlarga soliq solish, bojxona to'lovlari va temir yo'l tariflaridagi farqlar tashish narxining sezilarli o'zgarishiga olib keladi.

Mumkin bo'lgan yechimlardan biri - bu transport jarayonlarini keng miqyosda raqamlashtirish, shu jumladan bojxonada "yagona darcha" tizimini, yuk oqimini avtomatlashtirilgan boshqarish va tranzit tashish uchun elektron ruxsatnomalar joriy etishdir.

O'zbekistonni qisman chetlab o'tgan asosiy transport koridorlari tahlili shuni ko'rsatadiki, agar mamlakat muqobil yo'nalishlarga qo'shilish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rmasa, tranzit oqimlarining kamayishi xatariga duch kelishi mumkin. Mamlakatni chetlab o'tadigan yangi transport koridorlarini rivojlantirish nafaqat geosiyosiy omillar, balki texnologik va infratuzilma muammolari bilan ham bog'liq ekanligini ta'kidlash joiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030-yil yanvar oyida "O'zbekiston Respublikasi transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori bilan tasdiqlangan<sup>24</sup>. 2025-yilgacha O'zbekiston Respublikasi transport-logistika tizimini rivojlantirish konsepsiyasi mamlakatning yaqin o'n yillikdagi transport siyosatining asosiy ustuvorliklari va yo'nalishlarini belgilaydigan asosiy strategik hujjatdir.

**XULOSA.** Markaziy Osiyo strategik muhim geografik joylashuvga ega bo'lib, Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyo o'rtasidagi asosiy aloqalarni ta'minlaydi. Biroq, bugungi kunda mintaqadagi transport infratuzilmasi va logistika jarayonlari uzoq-yuluqligicha qolmoqda, bu esa yuklarni yetkazib berishda sezilarli kechikishlarga, transport xarajatlari yuqori bo'lishiga va mintaqaviy iqtisodiyotning jahon bozorida cheklangan raqobatbardoshligiga olib keladi. Markaziy Osiyo davlatlarining sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishning yagona mexanizmini yaratish nafaqat tarif siyosati, bojxona ma'muriyati va tartibga solish sohasidagi mavjud kelishmovchiliklarni bartaraf etibgina qolmasdan, balki mintaqaning tranzit salohiyatidan yanada samarali foydalanishga qaratilgan integratsiya jarayonlarini kuchaytiradi.

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.01.2025 yildagi PQ-28-son

Markaziy Osiyo transport va logistika tizimini birgalikda rivojlantirish to'g'risidagi mintaqaviy Bitim davlatlar o'rtasidagi ushbu sohadagi har tomonlama hamkorlikning huquqiy asosiga aylanishi lozim. Uning qabul qilinishi yuk tashishni tartibga solishning asosiy tamoyillarini birlashtirishga, logistika raqamlashtirishning umumiy standartlarini ishlab chiqishga va bojxona hamda transport nazoratini o'zaro tan olish mexanizmini joriy etishga, O'zbekistonning geosiyosiy ta'sirini kuchaytirishga imkon beradi. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi mamlakatning Markaziy Osiyodagi asosiy tranzit xabi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi va uning xalqaro savdodagi mavqeini oshiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на онлайн-саммите «Голос глобального Юга». 12.01.2023. <https://president.uz/ru/lists/view/5815>.
2. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии «Узбекистан – 2030» от 11.09.2023 г. № УП-158.
3. Узбекистан начнет экспорт через порты Каспийского моря. 11 ноября 2024. <https://anhor.uz/news/uzbekistan-148/>.
4. Международные транспортные связи в рамках ОТГ развиваются ускоренными темпами. <https://uzembassy.org.tr/news/6190>
5. И.Алиев: железная дорога Китай - Киргизия - Узбекистан позволит увеличить товарооборот. <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/16022859>
6. Узбекистан поддерживает инициативы Азербайджана по развитию транспортных связей. 19.05.2023. <https://aktualno.uz/ru/a/9270-uzbekistan-podderzivaet-iniciativy-azerbaidzana-po-razvitiyu-transportnyx-svyazei>.
7. Iran Uzbekistan emphasize on improving ties between people through parliaments. 2024/02/01. <https://en.mfa.ir/portal/newsview/739206>

